

# MA'MURIY HUQUQ VA PROTSESS

DARSLIK



«YURIDIK ADABIYOTLAR PUBLISH»

*и 88*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

MURATAYEV SERIKBEK ALPAMISOVICH  
MUSAYEV BEKZOD TURSUNBOYEVICH  
ARTIKOV DILMUROD RAXMATILLAYEVICH

# MA'MURIY HUQUQ VA PROTSESS

DARSLIK

*Ikkinchı nashr*

5240120 – Yurisprudensiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar  
uchun darslik sifatida taviysi etilgan

Toshkent  
«Yuridik adabiyotlar publish»  
2022

UO'K: 342.9(07)  
KBK: 67.401ya7  
M 53

## MA'MURIY HUQUQ VA PROTSESS.

Darslik. S.A. Muratayev,  
B.T. Musayev, D.R. Artikov //  
– Toshkent: Yuridik adabiyotlar  
Publish, 2022-y. – 392 bet.

### Mualliflar:

**S.A. Muratayev,**  
y.f.n. – I–VI boblar;


**B.T. Musayev,**  
DSc, dotsent – VII-IX boblar;

**D.R. Artikov,**  
PhD – X–XI boblar.

### Taqrizchilar:

**S.M. Selimanova** –  
O'zbekiston Respublikasi  
Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi  
«Ma'muriy huquq» kafedrasi  
boshlig'i, yuridik fanlar doktori,  
professor

**J.N. Ne'matov** –  
Toshkent davlat yuridik  
universiteti dotsenti,  
yuridik fanlar doktori.



TOSHKENT  
DAVLAT YURIDIK  
UNIVERSITETI

O'zbekiston Respublikasi Oliy  
va o'rta maxsus ta'lim vazirligining  
2019-yil 27-dekabrdagi  
1186-sonli buyrug'iiga asosan  
nashrga tavsiya etilgan.

Mazkur darslik oliy yuridik o'quv yurtlarining 5240120 – Yurisprudensiya bakhavr ta'lim yo'nalishi ta'lim standartlari asosida yaratilgan.

Darslikda Ma'muriy huquq va protsess fani predmeti doirasiga kiruvchi mavzular yoritilgan. Unda O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlariiga 2022-yil 1-yavargacha kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar e'tiborga olingan.

Darslikda ma'muriy huquq tarmog'i va davlat boshqaruvi organlari faoliyatini izohlash masalasiga doktrinal qaralib, ularga ommaviy va xususiy huquq subyektlari sifatida ko'rish nuqtayi nazaridan yondashilgan. Shu tarqa davlat organlarining xalq manfaatlariga xizmat qilish prinsipini ifodalashga urinildi.

O'quvchi ushbu darslik orqali O'zbekistonidagi mavjud davlat boshqaruvi organlari tizimini, ularning asosiy funksiya va vazifalarini, jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatadigan asosiy davlat xizmatlari turlari hamda ularning mohiyatini tizimli ravishda va oson tushunib olishi mumkin.

ISBN 978-9943-8010-0-4



9 789943 801004

© S. A. Muratayev  
B.T. Musayev,  
D.R. Artikov, 2022-y.

© Yuridik adabiyotlar publish, 2022-y.

## MUNDARIJA

<b>SO'ZBOSHI .....</b>	<b>7</b>
<b>I bob.</b>	
<b>MA'MURIY HUQUQQA KIRISH .....</b>	<b>11</b>
1.1. Ma'muriy huquq tushunchasi, mohiyati va huquqiy fanlar tizimida tutgan o'rni.....	11
1.2. Ma'muriy huquq predmeti, sub'ekti va manbalari .....	17
1.3. Ma'muriy huquq uslubi, tizimi va prinsiplari .....	27
1.4. Ma'muriy-huquq normalari, ularning turlari va funksiyalari.....	39
1.5. Ma'muriy-huquqiy munosabatlar va ularning turlari.....	52
1.6. Ma'muriy huquqda yuridik faktlar .....	57
<b>II bob.</b>	
<b>DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARI</b>	
<b>FAOLIYATIDA BOSHQARUV</b>	
<b>SHAKLLARI VA USLUBLARI .....</b>	<b>63</b>
2.1. Davlat boshqarushi organlarida boshqaruv shakllari tushunchasi va ahamiyati.....	63
2.2. Davlat boshqarushi organlar faoliyatida boshqaruvning huquqiy va tashkiliy shakllari .....	68
2.3. Davlat boshqarushi organlar faoliyatida boshqaruvning maxsus shakllari.....	74
2.4. Davlat boshqarushi organlar faoliyatida boshqaruvning ma'muriy-huquqiy shartnoma shakllari.....	80
2.5. Davlat boshqarushi organlar faoliyatida boshqaruv uslublari tushunchasi va ahamiyati .....	85
2.6. Davlat boshqarushi organlar faoliyatida boshqaruv uslublari .....	87
<b>III bob.</b>	
<b>DAVLAT BOSHQARUVIDA</b>	
<b>DAVLAT XIZMATI .....</b>	<b>96</b>
3.1. Davlat xizmati tushunchasi va mohiyati .....	96
3.2. Davlat xizmati prinsiplari va ularning mohiyati .....	100

3.3.	Davlat xizmatining huquqiy asoslari .....	105
3.4.	Davlat xizmatiga kirish, o'tash va tugatish.....	109
<b>IV bob.</b>	<b>IQTISODIY SOHANI MA'MURIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH .....</b>	<b>122</b>
4.1.	Ma'muriy huquqda iqtisodiy soha tushunchasi va uni ma'muriy-huquqiy tartibga solish mohiyati .....	122
4.2.	Davlat iqtisodiy faoliyatini ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi boshqaruv organlari.....	127
4.3.	Davlat moliyaviy faoliyatini ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi boshqaruv organlari.....	134
4.4.	Davlat investitsiyaviy faoliyatini ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi boshqaruv organlari.....	143
<b>V bob.</b>	<b>IJTIMOIY SOHANI MA'MURIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH .....</b>	<b>152</b>
5.1.	Ma'muriy huquqda ijtimoiy soha tushunchasi va uni ma'muriy-huquqiy tartibga solish mohiyati .....	152
5.2.	Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport sohasini ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi boshqaruv organlari.....	156
5.3.	Ilm-fan va ta'lim sohasini ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi boshqaruv organlari.....	166
5.4.	Atrof-muhitni muhofaza qilish va madaniyat sohasini ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi boshqaruv organlari.....	178
<b>VI bob.</b>	<b>MA'MURIY-SIYOSIY SOHANI MA'MURIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH .....</b>	<b>194</b>
6.1.	Ma'muriy huquqda ma'muriy-siyosiy soha tushunchasi va uni ma'muriy-huquqiy tartibga solish mohiyati .....	194
6.2.	Adliya va tashqi siyosiy faoliyat sohasini ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi boshqaruv organlari.....	200

6.3.	Huquqni muhofaza qilish sohasini ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi boshqaruv organlari.....	211
6.4.	Mudofaa va xavfsizlik sohasini ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi boshqaruv organlari.....	217
<b>VII bob.</b>	<b>MA'MURIY PROTSESS .....</b>	226
7.1.	Ma'muriy protsess tushunchasi, mohiyati va turlari.....	226
7.2.	Iqtisodiy sohani ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi boshqaruv organlari faoliyatida ma'muriy protsess.....	241
7.3.	Ijtimoiy sohani ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi boshqaruv organlari faoliyatida ma'muriy protsess.....	263
7.4.	Ma'muriy-siyosiy sohani ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi boshqaruv organlari faoliyatida ma'muriy protsess.....	278
<b>VIII bob.</b>	<b>MA'MURIY TARTIB-TAOMILLAR .....</b>	298
8.1.	Ma'muriy tartib-taomillar tushunchasi va uning ahamiyati.....	298
8.2.	O'zbekiston Respublikasining «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonunining ahamiyati va uning qo'llanish sohasi .....	301
8.3.	Ma'muriy tartib-taomillarning asosiy prinsiplari .....	306
<b>IX bob.</b>	<b>MA'MURIY ISH YURITISH .....</b>	320
9.1.	Ma'muriy ish yuritishning umumiy tavsifi .....	320
9.2.	Ma'muriy ish yuritish ishtirokchiları .....	324
9.3.	Ma'muriy ish yuritishda dalillar .....	330
9.4.	Ma'muriy ish yuritish muddatlari .....	331
9.5.	Ma'muriy ish yuritishni to'xtatib turish, tiklash va tugatish asoslari .....	334
9.6.	Ma'muriy ishni ma'muriy organ majlisida ko'rib chiqish .....	336

<b>X bob.</b>	<b>MA'MURIY HUJJAT</b>	342
10.1.	Ma'muriy hujjat tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari.....	342
10.2.	Ma'muriy hujjatning shakli va mazmuni.....	347
10.3.	Ma'muriy hujjatning asosliligi .....	353
10.4.	Ma'muriy hujjatning kuchga kirishi .....	354
10.5.	Ma'muriy hujjatning amal qilishini tugatish, uni bekor qilish, o'zgartirish yoki haqiqiy emas deb topish.....	360
<b>XI bob.</b>	<b>MA'MURIY YUSTITSIYA</b>	369
11.1.	Ma'muriy yustitsiya tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari.....	369
11.2.	Ma'muriy-huquqiy nizolarni hal etishning ma'muriy tartiboti .....	371
11.3.	Ma'muriy-huquqiy nizolarni hal etishning sud tartibi.....	374
11.4.	Xorijiy mamlakatlarda ma'muriy yustitsiya..... Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	381 386

## SO'ZBOSHI

Huquqshunoslik ilmining ma'muriy huquq tarmog'i o'z tabiatiga ko'ra davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tizimi qonuniyatlarini o'rganishga, ayniqsa, ijro hokimiyati boshqaruv organlarining tuzilishi, funksiyalari, vazifa va vakolatlarini, ularning fuqarolar va yuridik shaxslar bilan bo'ladigan munosabatlarini o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, ushbu jarayonni kuzatish, tahlil qilish va zamon talablari asosida mazkur tizimning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishda katta ahamiyatga ega huquq tarmog'i hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi va O'zbekiston xalqining bevosita qo'llab-quvvatlashi natijasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni asosida qabul qilingan «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi Harakatlar strategiyasi»da belgilangan ustuvor vazifalarning biri davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish hamda iqtisodiyotni tartibga solishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini isloh qilish, mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda o'zaro manfaatli hamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish; «elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatilishining samarasi, sifatini yuksaltirish va bu xizmatdan aholi hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan foydalanish imkoniyatini oshirish<sup>1</sup> kabi strategik vazifalar belgilandi. Mazkur hujjat orqali ushbu vazifalarning kun tartibiga qo'yilishi ma'muriy

<sup>1</sup> 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldaggi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF–4947-sonli Farmoni).

huquq tarmog'ini o'rghanishga va shu tariqa mazkur yo'nalishdagi islohotlarning huquqiy jihatlari va ilmiy asoslanganligini anglash zaruratini yuzaga keltiradi. Zero, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish bir zumlik yoki bir necha yillik ish emas. Ushbu jarayon davomiylikni, uzviyilikni va chuqur yuridik, siyosiy, iqtisodiy, menejment va mantiq sohasidagi bilim va ilmni talab qiladi. Shunday ekan, bugungi kunda yuridik sohada tahsil olayotgan talabalarning ma'muriy huquq tarmog'i borasidagi tushunchalari, bilim va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

Ta'kidlash o'rinlikki, har qanday jamiyatda uning turli sohalari shakllanishi va rivojlanishi uchun zarur huquqiy, siyosiy, tashkiliy va iqtisodiy shart-sharoitlarini yaratishda davlat degan murakkab tizim, yana ham aniqrog'i, mazkur murakkab tizimning ijro hokimiyyati organlari yoki davlat boshqaruvi organlari deb ataluvchi elementi eng murakkab amaliy ishlarni bajaradi. Sog'liqni saqlash, iqtisodiyotni yuksaltirish, huquqiy tartibotni ta'minlash, soliq tushumi va ta'limgi boshqarish kabi eng murakkab hududlardagi jarayonlarda mazkur element vakillarining o'rni salmoqli. Boshqacha qilib aytganda, qabul qilingan qonunlar-u farmonlar, dasturlar-u qarorlarning bevosita jamiyatdagi ijrosini ta'minlashda, ularning mohiyatini fuqarolar va yuridik shaxslarga tushuntirishda va shu tariqa jamiyat a'zolarining fikr va mulohazalarini, munosabatlarini birinchilardan bo'lib qabul qilishda davlat boshqaruvi organlari va mansabdar shaxslarning hissasi katta.

Shunday ekan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ko'rsatilgan qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari ichida aksariyat qonun loyihalari aynan ijro hokimiyyati organlaridan kelib tushishi bejiz emas. Bu obyektiv holat va bunday vaziyat dunyoning ko'plab davlatlarida uchraydi.

Shu bilan birga, qabul qilingan qonunlaru farmonlar, dasturlaru qarorlarning mazkur hujjatlar g'oyalari dagidek ijro etilishi, ushbu jarayonda qonuniylik prinsipi ta'minlanishida davlat boshqaruvi organlari va mansabdar shaxslarning huquqiy jihatdan tajribasi, o'z faoliyatida inson huquq va manfaatlarini ustun qo'ya olish fazilatlariga egaligi dolzarb masala. Buyuk nemis davlat boshqaruvchisi Otto fon Bismarkning ta'biri bilan aytganda: yomon qonunlar va yaxshi

amaldorlar bilan davlatni boshqarsa bo‘ladi. Ammo amaldorlar yomon bo‘lsa, eng yaxshi qonunlar ham yordam bermaydi<sup>1</sup>.

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasining birinchi yo‘nalishida belgilangan: Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini «fuqaroga xizmat qilishga yo‘naltirish» tamoyili asosida transformatsiya qilish hamda ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish maqsadlariga erishishda, mamlakatning ijroiya hokimiyyati organlarini huquq nuqtayi nazaridan o‘rganishda ma‘muriy huquq tarmog‘ining o‘rni salmoqli. Binobarin, yuridik fanning ushbu tarmog‘i talabaga, va umuman, har qanday o‘quvchiga ma‘muriy huquq sohasining asosiy subyekti bo‘lgan davlat boshqaruvi organlari faoliyat yuritadigan «doira»ni o‘rgatadi. Ma‘muriy organlar bilan xususiy shaxslar o‘rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlар tabiatи va mohiyatini tushuntiradi, qolaversa, ushbu ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etuvchi subyektlarning huquqiy maqomi va o‘ziga xosliklarini anglash uchun yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadi. Har qanday ma‘muriy organning qabul qilgan qarorlari va mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari qonun normalari bilan adolatli tartibga solingan, ijtimoiy adolat prinsiplariga tayangan va inson huquqi hamda qonuniy manfaatlarining himoya qilinishi ustuvorligi ta’minlangan bo‘lishi kerak. Boshqacha qilib ta’kidlaganda, davlat organlari o‘z xatti-harakatlari orqali tizimlashgan va rasmiy tarzda jamiyat manfaatlarini ifodalashi zarur. Zero, adolatli fuqarolik jamiyatining asosiy shartlaridan biri ham shunda, ya’ni davlat organlari jamiyat, fuqarolar oldida mas’ulligini ijtimoiy-huquqiy va siyosiy darajada ta’minalash.

Zamon tez shiddat bilan rivojlanar ekan, har qanday sohadagi kadrlar bilim va malakasi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib qolaveradi. Globallashuv jarayonlarining chuqurlashishi davlat boshqaruvi tizimida ham yangicha yondashuvni, fikrlashni, jamiyat rivojini ta’minalashning yangi-yangi innovatsion uslublarini talab qiladi. Ushbu «poyga»da quyi o‘rinlarda qolib ketmaslik uchun bugungi yuridik kadrlarning ommaviy huquq sohasidagi fundamental bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, talabalarda sohada mavjud bo‘lgan muammolarga ilmiy yechim topishga bo‘lgan

<sup>1</sup> <https://civil.uz/otti-fon-bismark-hikmatlari>.

qiziqishlarini orttirgan holda ularni ilm-fan sohasiga jalg qilish Ma'muriy huquq sohasining ahamiyati va muhimligi ifodasidir.

Mazkur darslik biror bir masalada «evrika» yaratishga qaratilmagan bo'lib, balki O'zbekiston Respublikasida har sohada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarga huquq nuqtayi nazaridan razm solib, unda ma'muriy organlarning jamiyat rivoji yo'lidagi «generatori» vazifasini amalga oshirishdagi ishtirokini o'quvchilarga sodda va ravon tilda yetkazib berishga qaratilgan.

***Mualliflar jamoasi***

## I bob. MA'MURIY HUQUQQA KIRISH

### 1.1. Ma'muriy huquq tushunchasi, mohiyati va huquqiy fanlar tizimida tutgan o'rni

**Ma'muriy huquq** – davlatning ijro hokimiysi organlari tuzilmasi va faoliyat doirasini bilishga, ularning xususiy shaxslar bilan bo'ladigan ijtimoiy munosabatlari ko'lamini o'rganadigan huquq fanining alohida mustaqil tarmog'idi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, sobiq Ittifoq davrida shakllangan va rivojlangan ma'muriy huquq nazariyasida Ma'muriy huquq faniga deliktlar<sup>1</sup>, ya'ni huquqbazarlik bilan bog'liq bo'lgan fan tarmog'i sifatida qarash ustun edi. Vaholanki, ma'muriy huquq bu pozitiv fan tarmog'idi, uni faqatgina huquqbazarliklar bilan bog'liq bo'lgan fan tarmog'i sifatida qarash noto'g'ri, har holda bugungi kundagi ilmiy yondashuv chuqur insonparvarlik nuqtayi nazaridan kelib chiqib, Ma'muriy huquqni ijro hokimiysi organlari bilan xususiy shaxslar o'rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni o'rganishga qaratilgan fan tarmog'i sifatida qarash doktrinasi shakllanib ulgurdi.

«U bizlarning oramizda, u ko'pqirrali va u hech qachon uyquga ketmaydi»<sup>2</sup> deb ijro hokimiysi organlariga baho bergen edi 1966-yil nemis huquqshunosi Erix Kaufman. Darhaqiqat, ma'muriy huquq aynan ma'muriy organlar, ya'ni ijro hokimiysi organlari faoliyatini huquqiy tomondan o'rganadigan siyosiy fanlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan o'ta muhim huquq tarmog'i.

Ma'muriy huquq o'z tabiatiga ko'ra ommaviy-huquqiy<sup>3</sup> fanlar turkumiga taalluqli bo'lib, o'zining boshlanish nuqtasini Konstitutsiyaviy huquqdan o'zlashtiradi. Boshqacha qilib ta'kidlaganda,

<sup>1</sup> **Delikt** (lot. «delictum» – buzilish, ayb) – aynan ayb (fuqarolik, ma'muriy, intizomiy huquqbazarlik). O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi / Nashr uchun mas'ul R.A. Muhiddinov. – T.: Adolat, 2010. – B. 130.

<sup>2</sup> Л. Брокер. Инквизиционный принцип в административном праве (административная процедура и административный процесс) // Ежегодник публичного права – 2018: Принципы административных процедур и административного судопроизводства. – М.: Инфотропик Медиа, 2018. – С. 12.

<sup>3</sup> **Ommaviy huquq** – umum (jamoat) manfaatini ta'minlovchi munosabatlarni tartibga soladigan huquq tarmoqlari majmuyi. Qarang. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi / Nashr uchun mas'ul R.A. Muhiddinov. – T.: Adolat, 2010. – B. 350.

ma'muriy huquq – bu detallashtirilgan Konstitutsiyaviy huquqdir. Zero, davlat boshqaruvining oliv yuridik asoslari Konstitutsiyada o'z ifodasini topadi. Va bunday yondashuv aksariyat xorijiy mamlakatlar huquqi va amaliyotiga mos, ya'ni Asosiy qonunda e'tirof etilgan ustuvor prinsiplar va qoidalarni amaliyotda, ularning ijro hokimiyati organlari tomonidan joylardagi amalga oshirilishini ta'minlashda boshqaruv organlari oliv qonun va uning asosida qabul qilingan qonunlarga mos ravishda faoliyat yuritadi, davlat siyosatini ta'minlaydi. Ijro hokimiyati organlarini, ularning xususiy shaxslar bilan bo'ladigan munosabatlarini o'rganish turli fanlar nuqtayi nazaridan amalga oshirilishi mumkin. Misol uchun, siyosatshunoslik fani ham ushbu masalani o'zining o'rghanish predmeti sifatida olishi mumkin. Sotsiologiya fani ham ushbu tizimni tadqiq qilishi, uning o'zgarish tendensiyalariga baho berishi mumkin. Ammo faqatgina huquqshunoslik ilmi va uning muhim tarmog'i bo'lgan ma'muriy huquq sohasi davlat boshqaruvi organlari va ularning fuqarolar hamda yuridik shaxslar bilan bo'ladigan munosabatlarini huquq nuqtayi nazaridan tadqiq qilib, uning amaldagi qonunchilikka joriy etilishi bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqadi. Shu tariqa huquqshunoslik ilmining ma'muriy huquq tarmog'i o'z mohiyatiga ko'ra mavjud normativ-huquqiy hujjalarning yanada takomillashishida o'zining amaliy o'rniga ega. Davlat boshqaruvi organlarini va, umuman, davlat organlari voqeligini faqatgina siyosatshunoslik yoki Sotsiologiya fanlari nuqtayi nazaridan o'rghanish bilan cheklanish ushbu institutning (davlat boshqaruvi organlarining) istiqbolda samarali faoliyat yuritishga yetarli bo'lgan xulosalarini bermasligi mumkin. Chunki ushbu institutning samarali ishlashi masalalarini huquqiy fanlarga tadqiq qila olishi mumkin.

### **Yodda tuting!**

**Ma'muriy huquq** – davlatning ijro hokimiyati organlari tuzilmasi va faoliyati doirasini o'rghanishga, ularning xususiy shaxslar bilan bo'ladigan ijtimoiy munosabatlari ko'lagini huquqiy tadqiq qilishga qaratilgan huquq fanining alohida mustaqil tarmog'idir.

Yuqorida Ma'muriy huquqning o'z negizini, **Konstitutsiyaviy huquqdan** o'zlashtirishi to'g'risida ta'kidlagan edik. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi bugungi kunda ma'muriy huquq tarmog'ining ham tizim tashkil etuvchi fan tarmog'iga aylanib ulgurdi. Xususan, ma'muriy huquq negizida paydo bo'lib, bugungi kunda mustaqil fan tarmog'i sifatida o'rganilayotgan bir qator ma'muriy huquqning sohalari mavjud. Jumladan, moliya huquqi, davlat xizmati, ma'muriy protsess va boshqalar. Ushbu yo'nalishlarning asosi, boshlanish manbai ma'muriy huquqdir. U esa o'z boshlanish manbayini Konstitutsiyaviy huquqdan oladi.

**Ma'muriy huquqning asoslarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining quyidagi normalarida kuzatishimiz mumkin:**

### **2-modda**

Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi.

Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar.

### **3-modda**

O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiysi va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatni amalga oshiradi.

O'zbekiston davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasdir.

### **11-modda**

O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish prinsipiiga asoslanadi.

### **XX bob. Vazirlar Mahkamasi**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'tinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi.

## **XXI bob. Mahalliy davlat hokimiyati asosları**

Vakillik va ijroiya hokimiyatini tegishliliga qarab viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi.

Tuman va shaharlarning hokimlari viloyat, Toshkent shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi<sup>1</sup>.

1

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalaridan ushbu fan tarmog'ining asosini tashkil etuvchi yana ko'plab normalarni ko'rsatish mumkin.

Ma'muriy huquq huquqiy fanlarning aksariyati bilan o'zaro uzviy bog'liqlikka ega. Yuqorida jadvalda uning Konstitutsiyaviy huquqqa bog'liqligini, mamlakatning Asosiy qonuni normalari asosida shakllanishi va rivojlanishining guvohi bo'lgan bo'lsak, quyida ushbu fanning **fuqarolik huquqi** bilan ham uzviy aloqaga ega ekanligini kuzatishimiz mumkin. Zero, ma'muriy-huquqiy munosabatlarning asosiy ishtirokchilaridan biri bo'lgan ma'muriy organlar (vazirliklar, davlat qo'mitalari, agentliklar, inspeksiyalar, hokimiyatlar va h.k.)ning xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan (xususiy tusdagi yuridik va jismoniy shaxslar bilan) turli xil shartnomaviy-huquqiy munosabatlarga (xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan) kirishadi. Ma'muriy organlar ham yuridik shaxs sifatida o'z mulki, davlat gerbi tushirilgan muhri, javobgarligi bilan sudda da'vogar va javobgar sifatida ishtirok etib o'z huquq va manfaatlarini himoya qila olish maqomiga ega. Ushbu holatlar Ma'muriy huquqning Fuqarolik huquqi bilan o'xshash va aloqador jihatlari mavjudligidan dalolat beradi. Ma'muriy va fuqarolik huquqi sohalarining tutashgan joylarida ushbu ijtimoiy munosabatlar qoida tariqasida, inson huquq va qonuniy manfaatlari ustunligi prinsipi nuqtayi nazaridan Fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlar doirasiga taalluqlidir. Ammo bu ijtimoiy munosabatlarning muhimlilik darajasiga ham bog'liq. Misol uchun, muddatli harbiy xizmatni yakunlab, Harbiy qism bilan 5 yillik shartnoma tuzib, yollanib harbiy xizmatga kiruvchi fuqarolar bilan tuziladigan shartnomaning maqomi ma'muriy-

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 102-modda // «Xalq so'zi» gazetasi, 1992-yil 15-dekabr, 243 (494)-son.

huquqiy shartnomalar sirasiga taalluqlidir. Zero, bunda tegishli mudofaa ishlari boshqarmasi ma'muriy organ bo'lib, shartnoma shartlari uning absolyut ustunligi asosida tuziladi.

Ma'muriy huquq o'z tabiatiga ko'ra **Jinoyat huquqi** bilan ham uzviy bog'liqlikka ega. Bunga sabab har ikkala huquq sohalari ham ommaviy huquqning<sup>1</sup> mustaqil tarmoqlari ekanlidigidir. Jumladan, har ikkala huquq tarmog'i ham ommaviy manfaatlarni, ya'ni jamiyatning aksariyat ko'pchiligi rasmiy tan olgan va belgilangan tartibda o'rnatilgan qoidalarga muvofiqlikni ta'minlash maqsadini ko'zlaydi. Xususan, biror bir faoliyat uchun litsenziya olish majburiyligi belgilangan bo'lsa, ushbu huquq tarmoqlari subyektlari (odatda ular davlat organlarining mansabdar shaxslari) o'sha umum belgilangan majburiyatni amalga oshirish doirasida faoliyat yuritadi. Boshqacha ta'kidlaganda, mansabdar shaxs majburiyat bajarilishini ta'minlaydi, tartib-qoida buzilgan holatda esa tegishli ta'sir chorasi ko'radi (intizomiy yoki ma'muriy javobgarlikka tortish orqali). Jinoyat huquqi esa barchamizga ma'lum bo'lganidek, yana o'sha umum belgilangan qoidalari asosida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan tegishli ta'sir choralarini ko'radi. Qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan dastlabki ehtiyyot choralarini ko'rish, sudgacha bo'lgan jarayonlarni davlat boshqaruvining tegishli organlari tomonidan tashkillashtirish kabi ishlarning amalga oshirilishi, ayniqsa, ma'muriy nazoratni amalga oshirish masalalari shular jumlasidandir. Ushbu fan tarmoqlarining tutashmasi ham Jinoyat huquqi predmetiga taalluqli masala ekanligini ta'kidlash joiz.

Ma'muriy huquqning boshqa huquq tarmoqlari bilan o'zaro bog'liqligini yoritishda **xalqaro ommaviy huquqning** alohida o'ringa ega ekanligiga urg'u berish kerak. Xalqaro ommaviy huquqning farqi va o'xshashliklari shundan iboratki, bunda har ikkala taraflar ham ommaviy hokimiyat va boshqaruv organlaridir. Farqi shundaki, ular boshqa-boshqa davlatlarning davlat hokimiysi va boshqaruvi organlaridir. Shunday ekan,

<sup>1</sup> **Ommaviy huquq** – tegishli munosabatlarni imperativ (qat'iy belgilangan) normalar yordamida tartibga soladi. Bunday huquq tarmoqlariga xalqaro ommaviy huquq, Konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, moliya huquqi, jinoyat huquqi, jinoyat-protsessual huquqi va boshqalar taalluqli. Qarang. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi / Nashr uchun mas'ul R.A. Muhiddinov. – T.: Adolat, 2010. – B. 350.

ushbu munosabatlarda, odatda, tomonlarning kelishuviga ko'ra teng huquqiy maqomlarga ega bo'lish odat tusiga kirgan. Shuning uchun ham ushbu o'ziga xoslikni hisobga olgan holda mazkur fan tarmog'idagi munosabatlar ham Ma'muriy huquq nuqtayi nazaridan emas, balki xalqaro ommaviy huquq nuqtayi nazaridan o'rganilishi o'rinli. Zero, ma'muriy huquq jihatidan yuzaga keladigan aksariyat munosabatlarda ma'muriy organ, avval ta'kidlaganimizdek, umum belgilangan va rasmiy ravishda tan olingan normalar asosida tartib va qoidalarni ikkinchi tarafga «tan oldirish» prinsipi asosida faoliyat yuritadi, ya'ni ustun vaziyatda bo'ladi. Bu huquq tarmoqlarining navbatdagi farqi shundaki, ular turli xil manbalar asosida o'z munosabatlarini tartibga soladi. Xalqaro ommaviy huquqning manbalari – xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan prinsiplar va normalar bo'lsa, ma'muriy huquqda bu, odatda, milliy qonunchilik normalaridir.

Ma'muriy huquq huquqiy fanlar tarmoqlari ichida turli xil huquq tarmoqlari bilan aloqadorlikka ega bo'lgan sohalardan biridir. Buning tasdig'i sifatida yuqoridagi huquq tarmoqlari bilan bog'liqligi bo'lsa, keyingi o'rinda bu uning **mehnat huquqi** bilan bo'lgan bog'liqligi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, Ma'muriy huquqning mehnat huquqidan farqini ajrata bilih birmuncha nazariy qiyinchiliklarga ega. Ammo shunga qaramasdan, ular o'rtasida salmoqli farq mavjud. Eng avvalo, mehnat huquqi o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi natijasida Fuqarolik huquqidan alohida ajralib chiqqan va alohida o'rganiladigan huquq sohasidir. Ya'ni, uning o'zagi fuqarolik huquqi. O'xshashligi shundan iboratki, Ma'muriy organlardagi aksariyat xodimlar fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida ishga qabul qilinadi. Aksariyat xodimlar belgilangan vaqt va sharoitlarda o'z mehnat faoliyatlarini olib boradi va bu ish beruvchi va xodim munosabatlari sifatida baholanib, mehnat qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Aksariyat deyishimizga sabab, xodimlarning shunday toifasi borki, ularning maqomi oddiy xodimlarga nisbatan birmuncha yuqori va mas'uliyati alohida, ya'ni ma'muriy-huquqiy normalar bilan tartibga solinadi. Bunday xodimlarni «davlat xizmatchilari» deb nomlash ma'muriy huquq sohasidagilar uchun ma'lum.

Shunday qilib, ma'muriy huquq sohasi boshqa huquq sohalari bilan uzviy bog'liqlikka ega va, o'z ornida, o'ziga xos xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Ma'muriy huquq sohasining mohiyati shundaki, u Konstitutsiyada e'tirof etilgan umumqabul qilingan qadriyatlarning, mustahkamlangan tartib-qoidalarning real hayotdagi amaliy ifodasini ta'minlash maqsadida faoliyat yuritadigan davlat boshqaruvi organlari, ularning funksiya va vakolatlari, mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari hamda xususiy shaxslar bilan munosabatlari qonuniyatlarini o'rgatadigan huquq tarmog'idir.

**Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol:**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, barcha vazirliklar va boshqa ijro hokimiyati idoralari fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushayotgan murojaatlar tahlili shuni ko'rsatdiki, aksariyat murojaatlar mazmuni sog'liqni saqlash va ichki ishlar organlari tizimi bilan bog'liq. Aniqlanishicha, joylardagi sog'liqni saqlash muassasalarining aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifati yetarli darajada emasligi, noto'g'ri tashxis bilan bog'liq muammolar natijasida aholi sog'lig'iga zarar keltirilayotganligi hamda ayrim ichki ishlar xodimlarining o'z vakolatlaridan chetga chiqish hollari uchrayotganligi joylarda noqulayliklarni keltirib chiqarayotgani ma'lum bo'lgan.

Vaziyatni o'rganish va bu kabi kamchiliklarning oldini olish uchun hukumat tomonidan ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqish maqsadida soha olimlari va mutaxassislar ishtirokida seminar, davra suhbatlari o'tkazildi. Natijada xorijiy tajriba, mahalliy sharoit hamda xalqaro normalar e'tiborga olingan holda yangi tartib joriy qiluvchi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliyatga joriy qilindi.

*Mavzuga taalluqli joylarni mustaqil ravishda aniqlashga va ularni baholashga harakat qiling.*

*Ushbu kazusli vaziyatda ma'muriy huquqning ornini belgilang.*

## **1.2. Ma'muriy huquq predmeti, subyekti va manbalari**

Avvalgi paragrafda ta'kidlanganidek, ma'muriy huquq – davlat boshqaruvi organlarining tuzilmasi, funksiya va vakolatlarini hamda ularning xususiy shaxslar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarni o'rganadigan fan tarmog'i.

Ammo bu ta'rif ma'muriy huquq tarmog'i tushunchasini, mohiyatini ochishga xizmat qilishi mumkin, xolos. Mazkur fan tarmog'ining boshqa huquqiy fanlardan farqi va o'ziga xosligini ta'riflash uchun uning predmet doirasini aniqlashtirishimiz zarur. Shu tariqa u yoki bu fan predmetini oydinlashtirish natijasida uning turdosh fanlardan, boshqa sohalardan farqi bo'yicha xulosa qilish mumkin. Bu esa mazkur voqelikni, boshqacha qilib izohlaydigan bo'lsak, o'rganilayotgan fan tabiatini, uning o'zgarish imkoniyatlarini, xususiyatlarini anglab yetish imkonini beradi.

Shunday qilib, **ma'muriy huquqning predmetini** davlat boshqaruvi organlari faoliyatida boshqaruv bilan bog'liq bo'lgan hamda ularning jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo'lgan munosabatlari natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

Yuqorida keltirilgan ta'rifni yanada batafsil va tushunarli tarzda bayon qiladigan bo'lsak, ma'muriy huquq predmeti doirasiga kiruvchi ijtimoiy munosabatlarni quyidagi shartli guruhlarga bo'lish mumkin.

1) davlat boshqaruvi organlarining boshqaruv bilan bog'liq bo'lgan munosabatlari. Ushbu munosabatlar ham, o'z navbatida, 3 xil ko'rinishga ega.

a) davlat boshqaruvi (yoki «Ma'muriy organ») organining internal, ya'ni ichki ish yuritushi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlari. Misol uchun:

#### **Ma'muriy organning internal, ya'ni ichki ish yuritushi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlari**

Hokim topshirig'iga ko'ra hokimiyatning Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'limi o'zining choraklik va yillik tadbirlari rejasini tayyorlashi

Tashqi ishlar vazirligi MDH davlatlari bilan ishslash boshqarmasining TIV kollegiyasi yoki vazirga yillik hisobotini taqdim qilishi

Tuman soliq inspeksiyasi rahbari tomonidan tuman hududidagi ma'lum bir mahallaga (fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi hududi) uchastka soliq inspektorining tayinlanishi

b) davlat boshqaruvi organining vertikal, ya'ni yuqori va quyi turuvchi davlat boshqaruvi organlari bilan bog'liq bo'lgan munosabatlari. Misol uchun:

**Ma'muriy organning vertikal, ya'ni yuqori va quyi turuvchi davlat boshqaruvi organlari bilan bog'liq bo'lgan munosabatlari**

Qoida tariqasida viloyat hokimiyatlariga Moliya vazirligidan har yilning 15-apreldidan kechikmasdan<sup>1</sup> kelib tushadigan budjet so'rovi va u bo'yicha viloyat hokimiyatining tegishli choralarни ko'rishi va, o'z navbatida, mazkur viloyat hududidagi tuman va shahar hokimiyatlariga budjet so'rovini yuborishi.

Davlat dasturi asosida «Profilaktika inspektorlariga ko'maklashuvchi professional faoliyatni takomillashtirish»<sup>2</sup> yuzasidan Vazirlar Mahkamasidan IIVga qaror loyihasini tayyorlash va taqdim etish bo'yicha vazifa qo'yilishi, o'z navbatida, IIV mazkur masala yuzasidan vaziyatni o'rganish va taklif-mulohazalar olish uchun o'z tizimining quyi bo'g'linlariga topshiriqlar berishi.

Vazirlar Mahkamasidan «O'zarxiv» agentligiga «Arxiv ishi to'g'risida»gi Qonunning 6-moddasi talablari asosida bepul va pullik xizmatlar ko'rsatilishini yo'lga qo'yish<sup>3</sup> bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish topshirig'in berishi, agentlik esa shu asosda respublika arxivlarida qonunga ko'ra mazkur xizmatni tashkiliy-huquqiy yo'lga qo'yish choralarini amalga oshirishi.

d) davlat boshqaruvi organining gorizontal, ya'ni bir-birining bo'ysunuvida bo'lman davlat boshqaruvi organlari bilan bo'lgan munosabatlari.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi, 90-modda // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-yil, 52-I-son.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi PF-5635-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.01.2019-y., 06/19/5635/2502-ton.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 15-iyundagi «Arxiv ishi to'g'risida»gi O'RQ-252-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-yil, 24–25-son, 192-modda.

Misol uchun:

**Ma'muriy organning gorizontal, ya'ni bir-birining bo'y sunuvida bo'lgan davlat boshqaruvi organlari bilan bo'lgan munosabatlari**

Sog'liqni saqlash vazirligining «Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari tomonidan tashxis qo'yish va davolash sifati standartlariga rivoj qilgan holda aholiga pullik asosda yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish» qoidalari<sup>1</sup> yuzasidan Moliya vazirligi bilan pulli tibbiy xizmatlar tarif koeffitsientlarini kelishib olishi.

2) davlat boshqaruvi organlarining xususiy shaxslar bilan bog'liq bo'lgan munosabatlari. Ushbu munosabatlar ham, o'z navbatida, 3 shaklga ega.

a) davlat boshqaruvi organi va xususiy shaxslar o'rtaсидаги tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan munosabatlari.

Misol uchun:

**Ma'muriy organ va xususiy shaxslar o'rtaсидаги tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan munosabatlari**

Jismoniy va yuridik shaxslarning vakolatli organga aholiga avtotransport xizmatlarini ko'rsatish huquqini beruvchi litsenziyani olish uchun murojaat qilishi.

Yuridik shaxslarning tashkil etilayotgan nodavlat notijorat tashkilotini ro'yxatga olishni so'rab adliya organlariga qilgan murojaati.

Jismoniy shaxsning Davlat xizmatlari agentligi bo'limlariga o'z nomida uy-joy yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotnomani olish uchun qilgan murojaatlari.

b) davlat boshqaruvi organi va xususiy shaxslar o'rtaсидаги yustitsion munosabatlari.

<sup>1</sup> Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari tomonidan tashxis qo'yish va davolash sifati standartlariga rivoj qilgan holda aholiga pullik asosda yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish qoidalari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlari Mahkamasining 2004-yil 8-iyundagi «Sog'liqni saqlash tizimida eksperimentni tugallash va islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 264-sonli qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004-yil, 22-23-son, 265-modda.

Misol uchun:

### **Ma'muriy organ va xususiy shaxslar o'rtasidagi yustitsion munosabatlari**

Hokim xususiy shaxsning qonuniy egaligidagi yerini qonunga xilof yoki bahsli tarzda olib qo'yishi va ushbu holat yuzasidan shaxsning yuqori turuvchi organga shikoyat qilishi.

Soliq inspeksiyasining noqonuniy yoki bahsli tarzda o'tkazilgan tekshiruvlari ustidan shaxsning yuqori turuvchi soliq organiga shikoyat qilishi.

«O'zstandart» agentligining sertifikat berishni asossiz ravishda rad etishi ustidan xususiy shaxsning yuqori turuvchi organga shikoyat qilishi.

d) davlat boshqaruvi organi va xususiy shaxslar o'rtasidagi yurisdiksion munosabatlari.

Misol uchun:

### **Ma'muriy organ va xususiy shaxslar o'rtasidagi yurisdiksion munosabatlari**

Fuqaroning jamiyatda o'rnatilgan o'zini tutish qoidalarini mensimasligi natijasida mayda bezorilik huquqbazarligini sodir qilishi. Shu sababli unga nisbatan ichki ishlar organlari xodimlarining ta'sir chorasini qo'llashi va shu bilan bog'liq bo'lган ish yurituv munosabatlarining yuzaga kelishi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning soliq to'lovini o'z vaqtida amalga oshirmaganligi tufayli uning bank hisob raqamiga inkassa cheklovining qo'yilishi.

Yuridik shaxsning o'z balansidagi binolarda yong'in xavfsizligini ta'minlashning zarur choralarini ko'rmaganligi uchun unga nisbatan ta'sir chorasining ko'rlishi.

Guvohi bo'lganimizdek, ma'muriy huquq doirasiga kiruvchi ijtimoiy munosabatlarga har kim har kuni to'qnash kelishi mumkin. Ushbu munosabatlarning aksariyati pozitiv tabiatga ega bo'lgan ijtimoiy munosabatlardir. Shuning uchun ma'muriy huquq predmetiga baho berishda unga delikt nuqtayi nazaridan qarash noto'g'ri.

U yoki bu ijtimoiy munosabatlarni biror bir fan tarmog‘i predmetiga taalluqlilik masalasini tahlil qilishda uning ishtirokchilarini, ya’ni subyektlarini aniqlashtirish muhim. **Ma’muriy huquq subyektlariga** quyidagilar taalluqlidir:

- 1) O’zbekiston Respublikasining davlat boshqaruvi organlari va ularning mansabdar shaxslari;
- 2) O’zbekiston Respublikasining fuqarolari;
- 3) O’zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;
- 4) fuqaroligi bo‘limgan shaxslar;
- 5) belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o’tgan xorijiy mamlakatlarning yuridik va jismoniy shaxslari.

Ta’kidlash joizki, ushbu subyektlar ichida davlat boshqaruvi organlari va ularning mansabdar shaxslari alohida «maqom»ga ega. Chunki yuqoridaq ko’rsatilgan subyektlar o’rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni «ma’muriy-huquqiy munosabatlar» deb ta’riflash uchun uning bir tomonida shartli ravishda davlat boshqaruvi organlari va ularning mansabdar shaxslari ishtirok etishi lozim.

### **Yodda tuting!**

Ikki yoki undan ortiq ishtirokchilarning ijtimoiy munosabatga kirishishi natijasida yuzaga kelgan munosabatni ma’muriy huquq tomonidan o’rganiladigan munosabatlar sirasiga kiritishimiz uchun bir tomonida davlat boshqaruvi organi va uning mansabdar shaxslari ishtirok etishi lozim, shuningdek, boshqa subyektlar ayni ma’muriy organ bilan ijtimoiy munosabatga kirishishi kerak.

Fuqarolar, xususiy yuridik shaxslar o’rtasidagi yoki xorijiy davlat fuqarosi bilan O’zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari o’rtasidagi ijtimoiy munosabatlar tegishlichcha fuqarolik, korporativ yoki Konstitutsiyaviy huquq sohalari o’rganadigan ijtimoiy munosabatlarning subyektlaridir. Hattoki, davlat hokimiyati organi bilan fuqaro o’rtasidagi munosabatlarda ham uning ishtirokchilari Konstitutsiyaviy huquq tarmog‘ining subyektlariga aylanishadi. Chunki davlat hokimiyati organlari (Oliy Majlis palatalari, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Oliy sud va hokazo) faoliyati va ularning xususiy

shaxslar bilan bo‘ladigan munosabatlari Konstitutsiyaviy maqomga ega.

Ma’muriy huquq doirasi ishtirokchilari esa davlatning boshqaruvi organlari (vazirliliklar, davlat qo‘mitalari, agentliklar, qo‘mitalar, inspeksiyalar, markazlar, komissiyalar, hokimiyatlar va boshqalar) va ularning mansabdor shaxslari bilan chambarchas bog‘liq.

Ma’muriy huquq subyektlari ichida davlat boshqaruvi organlari va ular mansabdor shaxslarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ushbu munosabatlarda «shartlarni» ommaviy boshqaruvi organlari<sup>1</sup> belgilaydi. Ularning bunday maqomda bo‘lishi avval ta’kidlaganimizdek, umum davlat miqyosida davlat hokimiyati organlari tomonidan belgilangan normalar asosida harakat qilish sharti bilan izohlanadi.

Boshqacha qilib ta’kidlaganda, ular xalqning, jamiyatning umumiyy manfaatlaridan kelib chiqib, qonun normalari asosida harakat qilishini bildiradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’biri bilan ta’kidlaganda, «Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak»<sup>2</sup>.

Davlat boshqaruvi organlarining Davlat hokimiyati organlari bilan bo‘ladigan munosabatlarda, garchi bir tomonda ijro hokimiyati organlari ishtirok etishiga qaramasdan, ularni Konstitutsiyaviy huquq subyektlari, yuzaga kelgan ijtimoiy munosabatlarni esa Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar qatoriga kiritish o‘rinli. Zero, yuqorida ta’kidlaganimizdek, ma’muriy huquqning o‘zi Konstitutsiyaviy huquq zamirida paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Shu sababli ham ijtimoiy munosabatlar «kesishmasi»da ustunlikning Konstitutsiyaviy huquqqa berilishi maqsadga muvofiq.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, davlat boshqaruvi organidan litsenziya, ruxsatnomalar olish orqali rasmiy ravishda faoliyat yuritib, fuqarolar va yuridik shaxslar bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishadigan xususiy yuridik shaxslar (auditorlik firmalari, baholash

<sup>1</sup> И.А. Хамедов, Л.Б. Хван, И.М. Цай. Административное право (Общая часть) 2012 г. – Т.: Изд-во «KONSAUDITINFORM-NASHR» – С. 78.

<sup>2</sup> Sh.M. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va ololyanob xalqimiz bilan birga quramiz // Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. 14.12.2016-y. <https://president.uz/uz/lists/view/111>.

tashkilotlari, xususiy bandlik agentliklari va hokazo) o'zlarining qonuniy xizmatlarini ko'rsatishi davomida ma'muriy huquqning subyektlari maqomiga ega bo'lmaydi. Bunday vaziyatlarda ular fuqarolik, mehnat yoki tijorat huquqi kabi huquq tarmoqlarining subyektlariga aylanadi. Ushbu misolni aksiyadorlik jamiyatlari misolida ham ta'kidlash mumkin. Agar davlatning u yoki bu aksiyadorlik jamiyatidagi ulushi 30 foizdan ortadigan bo'lsa, unda ushbu jamiyatni Ma'muriy huquqning subyekti sifatida baholash mumkin.

Umuman, har qanday huquq tarmog'i singari ma'muriy huquqning asosiy subyekti bo'lgan davlat boshqaruvi organlari va ular mansabдор shaxslarining qaror va xatti-harakatlari qonun normalariga tayanishi kerak. Ya'ni qonuniylik prinsipi ushbu sohaga ham birdek taalluqlidir. Shunday ekan, ushbu fan tarmog'ining manbalarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. **Ma'muriy huquq manbalariga** quyidagilar taalluqli:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- 2) O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va Kodekslari;
- 3) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari;
- 4) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hujjatlari;
- 5) davlat boshqaruvi organlarining rasmiy hujjatlari;
- 6) mahalliy hokimlarning rasmiy hujjatlari.

Avval ta'kidlaganimizdek, ma'muriy huquq o'zining boshlanish asosini Konstitutsiyaviy huquqdan boshlar ekan, tabiiy ravishda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi uning eng asosiy va birinchi manbayi bo'ladi.

Keyingi pog'onada eng muhim va ma'muriy huquqda ko'p ishlatiladigan manbalardan bu – qonunlar va kodekslardir. Ayrim adabiyotlarda u yoki bu qonunni, kodeksni alohida ko'rsatib, ayni shu qonun yoki kodeks «ma'muriy huquqning manbayi» degan fikrlarni uchratish mumkin. Ta'kidlash kerakki, ushbu yondashuv uncha to'g'ri emas va har qanday qonun yoki kodeks – bu ma'muriy huquqning bevosita manbayi bo'la oladi.

Misol uchun:

### **O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi**

Ushbu kodeksning asosiy ijrochilaridan biri, tabiiyki, bu viloyat, tuman va shahar hokimiyatlari, Qurilish vazirligi, yer resurslari va davlat kadastr qo'mitasi organlari va boshqalar. Mazkur organlar davlat boshqaruvi organlari bo'lib, ular ma'muriy huquqning subyektlaridir. Ular faoliyatida ijroni ta'minlaydigan mazkur kodeks esa ma'muriy huquqning manbayidir.

### **O'zbekiston Respublikasining «Tezkor qidiruv faoliyat to'g'risida»gi Qonuni**

Mazkur qonun normalariga ko'ra, davlat boshqaruvi organlarining biri bo'lgan – Ichki ishlar vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi tezkor qidiruv faoliyat bilan shug'ullanuvchi organlar sifatida mustahkamlangan. Shu sababli ular mazkur qonunning ijrochilari hisoblanib, bir vaqtning o'zida ushbu qonun Ma'muriy huquqning ham manbayı ekanligini tasdiqlaydi.

### **O'zbekiston Respublikasining «Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to'g'risida»gi Qonuni**

Mazkur qonun ijrochilaridan biri sifatida mahalliy hokimliklar ko'rsatilgan bo'lib, ular ham, o'z navbatida, ijro hokimiyati organlaridir. Shunday ekan, mazkur qonun ham haqli ravishda ma'muriy huquqning manbalaridan biridir.

Shunday qilib, ma'muriy huquqning eng asosiy va eng ko'p ishlataladigan manbalaridan biri bu – Qonun va Kodeks shaklidagi normativ-huquqiy hujjatlardir. Davlat boshqaruvi organlari (ma'muriy organlar)ning Qonun va Kodeks shaklidagi normativ-huquqiy hujjatlarga asosan o'z faoliyatini olib borilishini ta'minlanish jamiyatda qonuniylik prinsipining mustahkam o'rnatilishiga zamin yaratadi. Bu esa, pirovardida, amaliyotda inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarining so'zsiz ta'minlanishiga asos bo'ladi.

Ma'muriy huquq manbalarining keyingi shaklini qonunosti hujjatlari tashkil etadi. Bularga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, davlat boshqaruvi organlarining rasmiy hujjatlari hamda mahalliy hokimlarning qarorlaridir. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarning

barchasini nazariy jihatdan baholaydigan bo'lsak, qonunlar va kodekslarda mustahkamlangan normalarni ijro qilishga qaratilgan bo'lib, o'z mazmuniga ko'ra mazkur qonunlar va kodekslar «tabiatiga», maqsad va vazifalariga mos bo'lishi kerak. Shuning uchun ham mazkur qonunosti hujjatlarining kirish qismida ularning u yoki bu qonun va kodeksning tegishli moddalariga asosan qabul qilinayotganligi to'g'risidagi normalarning kiritilishi muhim ahamiyatga ega.

### **Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol:**

Tasavvur qiling, Siz O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yurituvchi, katta moliyaviy salohiyatga ega bo'lgan xorijiy investitsiya asosida tashkil etilgan kompaniyada o'z mehnat faoliyatizingizni yuritasiz. Navbatdagi mehnat oyi yakunlandi va Siz mazkur kompaniya buxgalteriyasidan o'zingizga tegishli bo'lgan pulni belgilangan tartibda olmoqdasiz. Ya'ni kassaga borib o'zingiz qonuniy ishlab topgan mablag'ni sanab, buxgalteriya hujjatiga qo'l qo'yib oldingiz. Ish vaqtin yakunlangach, ko'pchilik insonlar kabi Siz ham ro'zg'or uchun zarur bo'lgan narsalarni xarid qilish uchun katta Supermarketga kirdingiz va o'zingiz xarid qilishni rejalashtirgan barcha narsalarni oldingiz. So'ngra kassa oldiga keldingiz, naqd yoki bank plastik kartochkasi orqali to'lovni amalga oshirdingiz, do'kon xodimi Sizga chek taqdim qildi, Siz uni oldingiz va yo'lingizda davom etdingiz.

Yo'l-yo'lakay o'z uyingiz uchun mulk solig'ini to'lashingiz kerakligi yodingizga tushdi va Siz ishxonangiz ro'parasida joylashgan tuman soliq inspeksiyasiga borib to'lovni amalga oshirdingiz. Sizga soliqning to'langanligi to'g'risidagi kvitansiya taqdim etildi.

So'ngra Siz o'zingiz yashaydigan ko'p qavatlari uyingizning xonalari oralig'i tuzilishida o'zgartirish qilayotgan edingiz va tuman kadastr bo'limiga shu masala yuzasidan ruxsat olish uchun ariza bergenligingiz yodingizga tushdi. Kadastr bo'limi Sizning arizangiz ko'rib chiqilayotganligini va yaqin 3-4 kunda rasmiy javob olishingizni aytdi.

Nihoyat, Siz uyingizga kiraverishingizda oldingizdan Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati xodimi chiqdi va o'tgan chorakda Sizning xonadoningizga ko'rsatilgan xizmat uchun badal pulini to'lashingiz kerakligini ta'kidladi. Siz tartib va qonunlarni hurmat qiladigan inson sifatida mazkur to'lovni ham amalga oshirdingiz. Sizga to'langanligi to'g'risida hujjat taqdim qilindi. So'ngra Siz o'z uyingizga ketdingiz.

*Ushbu kazusli misolda ma'muriy huquqning predmeti, subyekti bormi? Agar bor bo'lsa izohlang.*

*Ushbu kazusli vaziyatda ma'muriy huquq manbalarini uchratish mumkinmi?*

*Ma'muriy huquq tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarni izohlashga va ularning o'ziga xosligini anglashga harakat qiling. Boshqa huquq tarmoqlarini ham tushunishga urining.*

### **1.3. Ma'muriy huquq uslubi, tizimi va prinsiplari**


Avvalgi paragrafda ta'kidlaganimizdek, ma'muriy huquq normalari imperativ xarakterga ega bo'lib, ular u yoki bu ijtimoiy munosabatlarning mazkur normalarda qat'iy belgilangan tartibda (tanlash imkonisiz) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan belgilangan shartlarda bajarilishi lozimligini anglatib, ular o'z tuzilishiga ko'ra 3 qismga bo'linishini keltirgan edik. Bular gipoteza, dispozitsiya va sanksiya.

O'z navbatida, dispozitsiya ham uch qismdan iborat bo'lib, bular tartibga solish, ruxsat berish va taqiqlash qismlaridir. Ushbu tushunchalar Ma'muriy huquq sohasi uslublari deb yuritiladi.

**Ma'muriy huquq uslublari** bu ma'muriy-huquqiy ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etishga qaratilgan huquqiy vositalar yig'indisi hisoblanadi. Huquqiy vositalarga yuqorida ta'kidlaganimizdek, «majburiyat yuklovchi», «ruxsat berish» va «taqiqlash» kabi vositalar kiradi. Bular ma'muriy huquq manbalarida o'z aksini topadi. Ushbu uchala qism yoki huquqiy vositalar yig'indisi huquq normasining dispozitsiyasini tashkil etadi. (*I-chizmaga qarang*)

#### **Yodda tuting!**

Ma'muriy huquq uslublari – bu ma'muriy-huquqiy ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etishga qaratilgan huquqiy vositalar yig'indisi hisoblanadi. Huquqiy vositalarga yoki uslublarga majburiyat yuklovchi, ruxsat berish va taqiqlash kabilar taalluqli.



**Majburiyat yuklovchi** – huquq normasi subyektlariga dispozitsiyasida mustahkamlangan harakatlarni amalga oshirish majburiyatining belgilanganligini, aynan huquq normasida ko'rsatilganidek harakat qilish lozimligini anglatadi.

**Ruxsat berish** subyektlarga huquq normasi dispozitsiyasida mustahkamlangan harakatlardan birini qo'llash, amalga oshirish uchun tanlash imkoniyatining berilishini anglatadi.

**Taqiqlash** – subyektlarga huquq normasi dispozitsiyasida u yoki bu harakatni amalga oshirishni taqiqlab qo'yilgan majburiyatni anglatadi.

Ushbu nazariy tushunchalarni amaliy misollarda, ma'lum bir huquq normasi asosida tushuntirishga harakat qilamiz.

Misol uchun:

<b>Ma'muriy huquq uslublarining nomlanishi</b>	<b>O'zbekiston Respublikasining «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonuni</b>
<b>Majburiyat yuklash</b>	<p><b>3-modda.</b> Ushbu qonunning qo'llanilish sohasi</p> <p>Ushbu qonun ma'muriy organlarning manfaatdor shaxslarga nisbatan ma'muriy-huquqiy faoliyatiga, shu jumladan, litsenziya, ruxsat berish, ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillariga, davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq boshqa tartib-taomillarga, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa ma'muriy-huquqiy faoliyatga nisbatan tatbiq etiladi.</p> <p><b>10-modda.</b> <b>Ma'muriy tartib-taomillarning ochiqligi, shaffofligi va tushunarligi prinsipi</b></p> <p>Ma'muriy tartib-taomillar ochiq, shaffof va manfaatdor shaxslar uchun tushunarli bo'lishi lozim.</p> <p><b>20-modda.</b> <b>Ma'muriy ishlarning taalluqliligi</b></p> <p>Ma'muriy organlar ma'muriy ish yuritishni qonun hujjatlarida o'z vakolatiga kiritilgan masalalar yuzasidan amalga oshiradi.</p> <p>Ma'muriy ishlarning taalluqliligi to'g'risidagi nizolar ma'muriy organlar uchun yuqori turuvchi hisoblangan organ yoki maxsus vakolatli organ tomonidan hal etiladi.</p>
<b>Ruxsat berish</b>	<p><b>22-modda.</b> <b>Ma'muriy ish yuritish ishtirokchilarini</b></p> <p>Ma'muriy organ uchinchi shaxslarni ma'muriy ish yuritishda ishtirok etishga o'z tashabbusiga yoki manfaatdor shaxsning iltimosnomasiga ko'ra jalg qilishi mumkin.</p>

	<p><b>33-modda. Tegishli tarzda xabardor qilish</b></p> <p>Xabarnomani manfaatdor shaxsga tilxat olib shaxsan topshirishning imkoni bo'lмаган тақдирда, xabarnoma u bilan birga yashaydigan voyaga yetgan oila a'zolaridan biriga yoki bunday shaxslar bo'lmasa, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga yoki manfaatdor shaxsning ish beruvchisiga (ta'lim muassasasi ma'muriyatiga) tilxat olib topshirilishi mumkin.</p>
<b>Ruxsat berish</b>	<p><b>52-modda. Ma'muriy hujjatning shakli</b></p> <p>Ma'muriy hujjat yozma shaklda qabul qilinadi. Qonun hujjatlarida ma'muriy hujjat boshqa shaklda, shu jumladan, boshqa tegishli hujjatni berish yoki muayyan harakatlarni amalga oshirish yo'li bilan qabul qilinishi mumkinligi hollari nazarda tutiladi.</p> <p>Yozma ma'muriy hujjat ma'muriy organning vakolatli mansabdor shaxsi yoki kollegial organ a'zolari tomonidan imzolanadi va ma'muriy organning muhri bilan tasdiqlanadi.</p>
	<p><b>3-modda. Ushbu qonunning qo'llanilish sohasi</b></p> <p>Ushbu qonun normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish, davlat xizmatini o'tash, referendumlar, saylovlar o'tkazish, mudofaa, jamoat xavfsizligi va huquq-tartibot sohasida, shuningdek, tezkor-qidiruv faoliyati, surishtiruv, dastlabki tergov, jinoiy majburlov choralarini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan boshqa faoliyat, sud ishini yuritish, ma'muriy huquqburzaliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish sohasida yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.</p>
<b>Taqiqlash</b>	<p><b>7-modda. Mutanosiblik prinsipi</b></p> <p>Ma'muriy ish yuritish jarayonida jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatiladigan ta'sir choralarini ma'muriy organ tomonidan ko'zlangan qonuniy maqsadga erishish uchun mos va yetarli bo'lishi hamda manfaatdor shaxslarga imkon qadar qiyinchilik tug'dirmasligi kerak.</p>

## **42-modda. Arizaning mazmuni va unga qo'yiladigan talablar**

Ma'muriy organ arizachidan qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan axborotni yoki hujjatlarni taqdim etishni talab qilishga, shuningdek, arizaga va unga ilova qilingan hujjatlarga nisbatan talablar qo'yishga haqli emas.

Ushbu uslublarni farqlash orqali ma'lum bir huquq normasini tahlil qilish, uning mazmuniga baho berish, qaysi uslubning ko'p uchrashini aniqlash orqali huquq normasining (qonunning, kodeksning) maqsad-muddaosini tushunishimiz mumkin. Tushunish orqali uning istiqboliga baho berishimiz mumkin. Ushbu jihatdan ham ma'muriy huquq sohasining nazariy jihatlari o'z ahamiyatiga ega.

Ma'muriy huquq sohasi boshqa aksariyat huquq sohalari kabi o'z tizimiga ega. **Ma'muriy huquq tizimi** ikki qismdan iborat. Bular umumiy va maxsus qism.

Har qanday huquq sohasida bo'lgani kabi ma'muriy huquqning umumiy qismi nazariy masalalarni o'z ichiga olgan bo'lib, unda **quyidagilar ko'rib chiqiladi:**

- ma'muriy huquq tushunchasi, mohiyati va huquqiy fanlar tizimida tutgan o'rni;
- ma'muriy huquqning predmeti, subyektlari va manbalari;
- ma'muriy huquqning normalari, ularning turlari, funksiyalar;
- ma'muriy-huquqiy munosabatlar va ularning yuzaga kelish shart-sharoitlari, prinsiplari;
- ma'muriy huquqda davlat boshqaruvi organlarining boshqaruv shakllari va uslublari kabi nazariy masalalar tahlil qilinadi.

Mazkur huquq sohasining maxsus qismi, ko'proq amaliy masalalarga to'xtalib, unga yuqoridaq ta'kidlangan nazariy masalalarning amaliy ifodalari holati borasida fikr yuritiladi. Xususan,

- davlat xizmati tushunchasi, huquqiy asoslari, unga kirish, o'tash va tugatilish asoslari;
- iqtisodiy, ijtimoiy va ma'muriy-siyosiy sohalarni ma'muriy-huquqiy tartibga solish asoslari;
- ma'muriy organlarda ma'muriy protsess masalalari uning huquqiy asoslari;

- ma'muriy organlarda ma'muriy tartib-taomillarning huquqiy asoslari;
- ma'muriy organlarda ma'muriy ish yuritish tartibi;
- ma'muriy organ tomonidan chiqariladigan ma'muriy akt tushunchasi va mazmuni;
- ma'muriy organning yoki uning mansabdor shaxslarining noqonuniy xatti-harakatlari va harakatsizligi ustidan shikoyat qilish tartibi kabi masalalar o'z ifodasini topadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ma'muriy huquq tizimini o'rghanish orqali mazkur huquq sohasiga umumiylaho berishimiz, e'tibordan chetda qolayotgan masalalarni ilg'ay olishimiz va unga o'rghanish imkoniyati, huquq tizimida eng muhim va ikkilamchi masalalarni ajrata olishimiz, bir so'z bilan ta'kidlaganda, huquq sohasini bir butun, bir-biriga bog'liq bo'lgan vogelik sifatida ko'rishimiz uchun muhimdir.

**Ma'muriy huquq prinsiplari** bir qator umumiylagi o'ziga xos bo'lgan (maxsus) prinsiplarga ega. Uning umumiyligi, ya'ni huquq fanining boshqa tarmoqlariga ham xos bo'lgan prinsiplariga qonuniylik, inson va fuqarolar huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarining ustunligi, gumanizm kabi prinsiplar taalluqli. Shu joyda qonuniylik prinsipiga taalluqli bo'lgan qisqa ma'lumot. Bugungi kunda g'arb mamlakatlari huquqiy doktrinasida ko'pincha «huquq ustunligi prinsipi» e'tirof etiladi. G'arb olimlari «huquq ustunligi prinsipi» kengroq va ijtimoiy adolat prinsiplarini o'z ichiga qamragan, degan nazariyaga tayanadi.

### **Ma'muriy huquqning maxsus prinsiplariga quyidagilar taalluqli:**

- umumiylagi manfaatning ustunligi prinsipi<sup>1</sup>;
- mutanosiblik prinsipi;
- tenglik prinsipi;
- davlat boshqaruvinining shaffofligi prinsipi;
- ma'muriy diskretsianining maqsadga muvofiq cheklanishi prinsipi;
- davlat boshqaruvinining samaradorligi prinsipi;
- manfaatdor shaxs fikrlarini inobatga olish prinsipi;

---

<sup>1</sup> И.А. Хамедов, Л.Б. Хван, И.М. Цай. Административное право (Общая часть) 2012 г. – Т.: Изд-во «KONSAUDITINFORM-NASHR». С. 90.

– davlat boshqaruvining javobgarligi prinsipi.

Huquqdagi, aniqrog'i normativ-huquqiy hujjatlardagi prinsiplar bu qonunning mohiyatini, uning tabiatini va ruhiyatini anglatuvchi chuqur nazariy g'oyalarga asoslangan vogelikdir. Prinsiplar qonun subyektlariga u yoki bu normani amalga oshirishda tayanishi, e'tiborga olishi zarur bo'lgan va ichki siyosiy-huquqiy bilim va ta'jribadan foydalanishni taqozo etuvchi omillar yig'indisidir. Germaniyaning Berlin shahri Ma'muriy sudi sudyasi Y. Pudelkaning ta'riflashicha, «Mazkur prinsiplar maxsus huquq normalarini sharhlashda katta ahamiyatga ega bo'lib, ular ma'muriy tartib-taomillarni amalga oshirish jarayonida mansabdar shaxslarning xatti-harakatlari doirasini belgilaydi»<sup>1</sup>.

Shunday qilib, davlat boshqaruvi organlari va ularning mansabdar shaxslari o'z faoliyatini amalga oshirishi davomida tegishli qonunlarga tayanib, **umumi manfaatning ustunligi prinsipidan** kelib chiqib qaror qabul qilishi zarurligini anglatadi. Misol uchun, davlat xizmatchisi keng ommaga ta'sir etishi mumkin bo'lgan qaror qabul qilishda o'z tashkiloti yoki o'zidan yuqori turuvchi rahbarining idoraviy yoki shaxsiy manfaatlariga javob beruvchi qarorni emas, balki omma, ya'ni jamiyatning aksariyat qismi manfaatlariga javob beruvchi ijtimoiy adolatli bo'lgan qarorni qabul qilishi kerak.

Misol uchun, davlat boshqaruvi organiga biror bir xo'jalik yurituvchi subyekt yoki xorijiy investor ma'lum bir tarixiy obidalar, noyob flora va faunaga ega bo'lgan, shuningdek, mahalliy aholining tarixiy, ma'nnaviy xotiralari bilan bog'liq hududni tijorat maqsadlarida ajratib berishni so'rab murojaat qilsa, mansabdar shaxs yuqorida qayd etilgan omillarni, albatta, e'tiborga olishi va joiz bo'lsa, umumi manfaatlarning ustunligi prinsipiiga tayangan holda bunday tijorat loyihasidan voz kecha olishi kerak. Anglab yetganingizdek, prinsip masalasi nafaqat huquqiy, balki chuqur siyosiy, tarixiy, ma'nnaviy, falsafiy va mantiqiy bilim hamda ilmni talab qiluvchi omildir.

**Ma'muriy huquqda mutanosiblik prinsipi** alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu ham, eng avvalo, inson va fuqarolar

<sup>1</sup> Пуделька Общие принципы административного производства // Ежегодник публичного права 2018: Принципы административных процедур и административного судопроизводства. – М.: Инфотропик Медиа, 2018. – С. 2.

huquq hamda qonuniy manfaatlari ustunligi asosida shakllangan prinsipdir. Bunda davlat boshqaruvi organi va uning mansabdon shaxslari tomonidan qaror qabul qilinishida jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatiladigan ta'sir choralarini ma'muriy organ tomonidan ko'zlangan qonuniy maqsadga erishish uchun mos va yetarli bo'lishi hamda manfaatdon shaxslarga imkon qadar qiyinchilik tug'dirmasligi kerak<sup>1</sup>. Misol uchun, tegishli ruxsatnomalarsiz faoliyat yuritayotgan «tadbirkorlik subyekti» aniqlangan taqdirda, mas'ul davlat boshqaruvi organlari o'z funksiyalari va qonuniy vazifa va vakolatlaridan kelib chiqib, eng avvalo, uni qonuniy faoliyat yuritish yo'nalishiga o'tkazish choralarini ko'rishi lozim. Boshqacha qilib ta'kidlaganda, uni «soyadagi iqtisodiyotdan» qonuniy yo'lga boshlash yo'llarini qidirishi kerak. Chunki, mazkur faoliyat bilan norasmiy shug'ullanayotgan tadbirkor ham kamida bir necha oilaning bandligini ta'minlayotganligini e'tiborga olishi kerak. Aholi bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinalarini yaratish esa ommaviy boshqaruv organlarining ham bosh vazifalaridan hisoblanadi. Agar norasmiy tadbirkor ogohlantirishlardan so'ng ham norasmiy faoliyatni davom ettirsa, so'ngra unga nisbatan qonun doirasida keltirgan zarari miqdorida tegishli huquqiy ta'sir chorasini ko'rish lozim.

**Tenglik prinsipi** o'z nomi va mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, davlat boshqaruvini amalga oshirishda va davlat xizmatchilarining xususiy (jismoniy va yuridik) shaxslar bilan yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarda tenglikni ta'minlashi lozimligi tushuniladi. Ta'kidlash kerakki, aslida ushbu prinsip ham umum huquqiy prinsipler qatoriga taalluqli. Ammo uning ahamiyatini e'tiborga olib, shuningdek, xususiy shaxslarning o'z qonuniy manfaatlarini ro'yogha chiqarishini so'rab davlat boshqaruvi organlariga qiladigan murojaatlari odatiy va kundalik holat ekanligini anglagan holda, ushbu munosabatlarda davlat boshqaruvi organlari tomonidan fuqarolarning tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, millati, jinsi va faoliyat turidan, shuningdek, yuridik shaxslar mulkiy shaklidan qat'iy nazar, ularga bir xil munosabat ko'rsatib, davlat xizmatlarini

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi O'RQ-457-sonli Qonuni, 7-modda // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.01.2018-y., 03/18/457/0525-son.

teng munosabatlarda amalga oshirishni anglatadi. Misol uchun, Davlat xizmatlari agentligining joylardagi bo‘limlariga biror bir ruxsat berish ko‘rinishidagi hujjatni olish uchun ikki xil mulk shaklidagi yoki yillik tovar aylanmasiga (biri 200 million, ikkinchisi 2 milliard) turli xil bo‘lgan yuridik shaxslar murojaat qilsa, ko‘p soliq to‘laydigan yuridik shaxsning manfaatlarini ustun qo‘yib qonunda maxsus belgilanmagan ustunliklar va imtiyozlarni berish yoki uning ishini birinchi ko‘rib chiqib hal qilish ko‘rinishidagi munosabatlar amalga oshirilmasligi lozimligini anglatadi.

**Davlat boshqaruvining shaffofligi prinsipi** o‘zining mazmun-mohiyatiga ko‘ra katta ahamiyatga ega prinsiplardan biridir. Jumladan, bugungi kundagi davlat boshqaruvi organlarining shaffofligi masalasi inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarining ideal darajada ta‘minlanishi, korrupsiya va shunga o‘xhash salbiy, ichki xavfsizlikka tahdid soluvchi illatlarni bartaraf qilishga qaratilgan, huquq kategoriyasi bilan bir qatorga siyosiy kategoriya bilan ham baholanadigan prinsiplardan biridir. O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi organlarining shaffofligi va ochiqligini ta‘minlash uchun bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2014-yil 5-may sanasida O‘zbekiston Respublikasining «Davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlarining ochiqligi to‘g‘risida»<sup>1</sup>gi 369-sonli Qonuni qabul qilingan. Ta’kidlash kerakki, «shaffoflik» va «ochiqlik» tushunchalari o‘rtasida sezilarli darajada farqlar mavjud bo‘lib, shaffoflikni ta‘minlash masalasi, avvalo, ochiqliknii, ya’ni davlat boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risidagi axborotlarning, ularning tarkibiy va hududiy bo‘linmalarining huquqiy maqomini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlarning, boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, normativ hamda boshqa hujjatlar, shuningdek, ularning ijro etilishining borishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning, boshqaruvi organlari tomonidan o’tkaziladigan ommaviy tadbirlar (majlislar, kengashlar, uchrashuvlar, matbuot konferensiyalari, brifinglar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqalar) to‘g‘risidagi ma’lumotlar<sup>1</sup>ning va boshqa shu kabi ma’lumotlarning joylashtirilishi tushunilsa, shaffoflikda murojaat qilgan shaxsga uning

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 5-maydag‘i «Davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida»<sup>1</sup>gi O‘RQ-369-sonli Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-yil, 19-son, 209-modda.

ishtirokida unga doir komissiya tarkibidagi ishlarni ko'rib chiqish, uning fikr va mulohazalarini eshitish, davlat boshqaruvi organlarining lokal (ichki) tartib qoidalar bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarning keng omma e'tiboriga doimiy tarzda havola etilishi, davlat boshqaruvi organi faoliyati samaradorligiga oid bo'lgan statistik ma'lumotlarning murojaatlarsiz ham tizimli tarzda e'lon qilib turilishi, turli darajadagi mansabdar shaxslarning ish haqi va soliq deklaratasiyalariga oid ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyatining yaratilganligi kabi masalalar shaffoflik prinsipining ifodasıdir.

**Ma'muriy diskretsianing maqsadga muvofiқ cheklanishi prinsipi** bu qaror qabul qiluvchi mansabdar shaxs uchun ma'lum darajadagi «erkinlik, tanlash imkoniyatining mavjudligi»ni zarus darajada qonunan cheklab qo'yishidir. Ma'lumki, mansabdar shaxsda diskretsiyaviy vakolatning ko'payib ketishi qonuniylik prinsipining buzilishiga va inson huquq va manfaatlarining poymol bo'lishiga olib kelishi mumkin. Ammo diskretsianing ham ma'lum ma'noda mavjud bo'lmasligi qonunlarning amaliyotda uchrashi mumkin bo'lgan turli xil vaziyatlarni hal qilib bera olmasligi mumkinligini ko'rsatishi va natijada yana qonuniylik prinsipining buzilishiga va inson huquq va manfaatlarining poymol bo'lishiga olib kelishi mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasining «Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida»gi Qonuni 13-moddasi to'rtinchchi qismi talablariga ko'ra: «Amalga oshirilishi uchun litsenziya berilgan faoliyat, agar litsenziya talablari va shartlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining butun hududida amalga oshirilishi mumkin<sup>1</sup>» deb belgilangan. Bu yerda oxirgi «mumkin» degan so'zning mavjudligi diskretsiyani, ya'ni mansabdar shaxsning o'zi qaror qabul qiladigan vaziyatni yuzaga keltirmoqda. Endi tasavvur qiling, agar qonunda «mumkin» so'zining o'rniغا «shart», «lozim» yoki «kerak» so'zları ishlataliganida, unda litsenziya litsenziyalanayotgan faoliyat turining O'zbekiston Respublikasining butun hududida amalga oshirilishi aniq belgilangan bo'lar edi. Bunday holatning ijobiyligi va salbiy tomonlari mavjud. Agar birinchisi

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyuldagи «Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida»gi 701-sonli Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2021-y., 03/21/701/0674-son.

nisbatan tushunarli bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchisi, ya’ni salbiysi shunda ko‘rinishi mumkinki, litsenziyaga talabgor shaxs, tadbirkor o‘z moliyaviy imkoniyatidan kelib chiqib litsenziya shartining faqat bir qismini bajarishni va shu qismi uchungina so‘ngra soliq to‘lay olishi mumkinligini bildiradigan bo‘lsa, qonun bunday holatni taqiqlab qo‘ygan bo‘lar edi. Natijada yana inson huquq va manfaatlarining, tadbirkorlik erkinligi kafolatlarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Ammo shunga qaramasdan, ma’muriy huquq nazariyasi diskretsianing maqsadga muvofiq cheklanishi prinsipi mavjudligini va bunday holat qonunlarimizda imkon qadar kam uchrashi lozimligi tarafdiridir.

**Davlat boshqaruvining samaradorligi prinsipi** nisbatan yangi prinsiplardan bo‘lib, ushbu prinsipning bugungi kunda huquqiy asoslarini shakllantirish ishlari endi boshlanmoqda. Ma’lumki, har bir davlat boshqaruvi organi ma’lum muddat oralig‘ida o‘z faoliyatini baholashi, amalga oshirilgan ishlari natijasida o‘z funksiyalarini qanchalik darajada samarali olib borganligini, yo‘l qo‘ylgan xato va kamchiliklarni aniqlashi va bartaraf etish choralarini ko‘rishi lozim. Buning uchun uning minimal darajada erishishi kerak bo‘lgan «marralari» belgilanishi kerak. Va, e’tiborlisi, ushbu marralar omma manfaatlariga, boshqacha aytganda, jamiyat va har bir shaxs manfaatlariga javob berishi, ularning huquq va qonuniy manfaatlariga, umum e’tirof etilgan xalqaro-huquqiy normalarga mos bo‘lishi kerak. Zero, ushbu samaradorlikni aniqlashtiruvchi «marralarni» kuzatib turgan jamiyatning har bir a’zosi uni nazorat qila olishi va o‘z munosabatini bildira olishi lozim. Ushbu prinsipning mohiyati shundan iborat.

**Manfaatdor shaxs fikrlarini inobatga olish prinsipi** ma’muriy ish yuritish davomida yuzaga keladigan, qonun hujjatlaring bartaraf etib bo‘lmaydigan barcha qarama-qarshiliklari va noaniqliklari manfaatdor shaxslar o‘rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo‘limgan taqdirda, ushbu manfaatdor shaxslar foydasiga talqin qilinishini<sup>1</sup> anglatadi. Ta’kidlash kerakki, shunday prinsip O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida ham ko‘rsatilgan

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi «Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida»gi O‘RQ-457-sonli Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.01.2018-y., 03/18/457/0525-son.

bo‘lib, unga ko‘ra soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo‘lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to‘lovchining foydasiga talqin qilinadi<sup>1</sup>. Ta‘kidlash joizki, ushbu prinsipning nazariy nomlanishi bilan biz keltirgan qonunlardagi misollar orasida kichik lug‘aviy farqlar mavjud. Ammo uning tub mohiyati va mazmuni birdir. Ya’ni davlat boshqaruvi organlari tomonidan ishlar olib borilishida ular murojaat qilgan tomonning o‘zidan uning fikrlarini eshitishi va inobatga olish yo‘llarini qidirishi, boshqacha aytganda imkon qadar uning tarafini olish choralarini ko‘rishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, mazkur qonunlardan keltirilgan amaliy misollar ushbu prinsip mazmunini ochib berishga xizmat qiladi.

**Davlat boshqaruvingin javobgarligi prinsipi** barcha oldingi prinsiplar bilan chambarchas bog‘liqlikka ega ekanligini ta‘kidlash joiz. Chunki qonuniylikni, davlat boshqaruvingin shaffofigini, mansaatdor shaxs fikrlarini inobatga olinmagan va mutanosiblikni ta‘minlanmasdan va shu tariqa inson va fuqarolar huquq hamda qonuniy manfaatlarini buzilishiga yo‘l qo‘ygan mansabdar shaxsga nisbatan tegishli javobgarlik bor ekanligini har qanday qonun ta‘minlashi kerak. Busiz hech bir prinsip va hech qanday qoida kutilgan samarani bermasligi mumkin. Yuqoridagi prinsiplarga asoslangan qonun normalari mansabdar shaxs tomonidan e’tiborga olinmasligining oldini oluvchi norma mavjud bo‘limas ekan unda bunday qonun kutilgan natijani bermaydi. Har bir qonunning, normaning oldingi paragraflarda ta‘kidlaganimizdek, sanksiya qismi bo‘lishi kerak, va bunday sanksiya qismi mazkur ijtimoiy munosabatlarning har ikkala tomoniga tegishli bo‘lmog‘i zarur. Zero, qonun normasini, inson huquq va qonuniy manfaatlarini buzgan mansabdar shaxs tegishli va mutanosib tarzda javobgarlikka tortilishi kerak.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 11-modda // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son.

## **Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol:**

A. ismli fuqaro o'z turmush o'rtog'i bilan birga aholi gavjum joylashgan shahar mavzeleridan birida mazkur hududda yashovchilarga qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish bilan shug'ullanish uchun kichik savdo shoxobchasini ochdi va o'z faoliyatini boshlab yubordi. Oradan biroz vaqt o'tib, ushbu yangi «ochilgan» savdo shoxobchasidan uchastka soliq inspektori xabar topdi va ulardan o'z faoliyatini qonuniy olib borishi lozimligini va buning uchun Davlat xizmatlari markazidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tish lozimligini tushuntirdi. Aks holda ularning harakatlari ma'muriy huquqbuzarlik sifatida baholanishini tushuntirdi va ularga o'z faoliyatini qonuniylashtirish uchun 30 kalendar kuni vaqt berdi.

Mazkur vaqt davomida fuqaro A. o'z nomiga oilaviy tadbirkorlik subyektini rasmiylashtirdi. Belgilagan tartibda qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan savdo qilish huquqini beruvchi ruxsatnomani oldi, bankdan hisob raqamini ochdi, respublika inkassatsiya xizmati bilan uch tomonlama shartnoma tuzdi va davlat foydasiga belgilangan soliqni to'laydigan bo'ldi. Natijada uning faoliyati nafaqat o'ziga, balki soliq to'lash orqali jamiyatga, hujjatlarga ega bo'lish orqali sifatli mahsulotlar bilan savdo qilishini isbotlab mahalliy aholiga, o'zini va oila a'zolarining ish bilan ta'minlanganligini e'tiborga olgan holda yangi ish o'rinalarini yaratish masalasida davlatga foyda keltiradigan bo'ldi.

*Mazkur misolda imperativ huquq normalarining belgilarini angalingizmi? Ular nimalarda o'z ifodasini topgan, izohlang?*

*Mazkur vaziyatni huquqiy tartibga soladigan normativ-huquqiy hujjatni aniqlang va uning tuzilishiga baho bering.*

*Mazkur vaziyatda nazariy tomonidan Ma'muriy huquqning qaysi prinsiplari e'tiborga olinganligini tushuntiring.*

*Faoliyatni tegishli ruxsatnomalarsiz amalga oshirganlik uchun qonunlarda belgilangan javobgarlikni baholang.*

## **1.4. Ma'muriy huquq normalari, ularning turlari va funksiyalari**

Umumiylar huquq nazariyasidan ma'lumki, huquq normalari tabiiy va pozitiv huquq shakllariga ajratiladi. Dastlabki shakl bo'yicha inson va fuqarolarga tabiat tomonidan in'om etilgan va hech bir qonun yoki hujjat bilan tartibga solinmaydigan, har kim tug'ilishi bilan ma'lum huquq va erkinliklarga ega bo'lishi nazarda tutiladi. Bunday kategoriyadagi huquqlarni, asosan, erkinliklar deb yuritish

o'rinnlidir. Chunki, odatda, huquq o'rnataladi, erkinlik esa tabiiy ravishda har bir insonda mavjuddir. Erkinliklar jumlasiga yashash, e'tiqod qilish, harakatlanish, erkin kasb turini tanlash, fikr bildirish va boshqalar taalluqli.

Pozitiv huquq shakli esa jamiyatda yuzaga kelayotgan turli xil ijtimoiy munosabatlarni qonunlar va kodekslar orqali tartibga solish «yo'li» bo'lib, unga ko'ra umumiylenglikni ta'minlash va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib, umumiylartartib qoidalarni rasmiyl ravishda, ya'ni davlat hokimiyati organlari tomonidan mustahkamlab qo'yish tushuniladi. Shuni ta'kidlash kerakki, pozitiv huquq tabiiy huquq shakli e'tirof etadigan asosiy erkinliklar doirasini inkor etmaydi, balki uni ma'lum ma'noda tizimlashtirishga harakat qiladi.

Odatda, pozitiv huquq, nazariy jihatdan katta ikki guruhgajratiladi. Bular – dispozitiv<sup>1</sup> normalar va imperativ<sup>2</sup> normalar.

Dispozitiv normalarga qoida tariqasida, xalqaro-huquqiy normalar, davlatlarning Konstitutsiyalari yoki Konsepsiya va strategiya kabi umumiyl reja ko'rinishidagi hujjatlar taalluqli. Chunki bunday hujjatlarning aksariyat normalari tavsiyaviy xarakterga ega bo'lishi bilan izohlanadi hamda uning normalari o'zgartirilib amalga oshirilishi uchun yuridik javobgarlikni keltirib chiqarmaydi.

Misol uchun:

<b>Xalqaro-huquqiy normalar</b>
BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi
BMTning Fuqarolar ijtimoiy-iqtisodiy huquqlariga oid xalqaro pakt
Turli xil Konvensiyalar
<b>O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi</b>
O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Muqaddima qismi normalari

<sup>1</sup> **Dispozitiv** – huquqda tanlash imkonining mavjudligi. Юридический словарь / Под ред. А.Н. Азрилияна. – М.: Институт новой экономики, 2007, – С. 135.

<sup>2</sup> **Imperativ** – buug'iq beruvchi, yuridik amaliyotda tanlash imkonining mavjud emasligi. Юридический словарь / Под ред. А.Н. Азрилияна. – М.: Институт новой экономики, 2007, – С. 245.

1-modda. O'zbekiston – suveren demokratik respublika. Davlatning «O'zbekiston Respublikasi» va «O'zbekiston» degan nomlari bir ma'noni anglatadi.

7-modda. Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayidir.

### **Konsepsiya va strategiyalar**

2012-yil 12-noyabrda e'lon qilingan Mamlakatni modernizatsiya qilish va rivojlantirish hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirish Konsepsiysi

2017-yil 7-fevralda qabul qilingan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi

Yuqorida ta'kidlangan xalqaro-huquqiy normalarning dispozitivligi shundaki, mazkur hujjatlarning matnida ularning dunyo davlatlari uchun tavsiya, o'ziga xos etalon vazifasini o'tashi belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining va, umuman, har qanday davlat Bosh qonunining, yuqorida ta'kidlangandek, umumiy e'tirof etish xarakteriga ega bo'lgan normalari mavjud bo'ladi, shuning uchun ham, bunday normalarni haqli ravishda dispozitiv normalar qatoriga kiritish o'rinnlidir.

Konsepsiya va strategiyalarga to'xtaladigan bo'lsak, ular uzoq muddatlarga mo'ljallangan reja, loyiha ekanligini anglash qiyin emas.

Ya'ni u vaqt o'tishi bilan reja va loyihada ko'zlanganidan boshqa ko'rinishda yuzaga kelishi mumkin.

Imperativ normalarga davlatlarning qonunlari va kodekslari hamda turli xil qonunosti hujjatlari taalluqlidir.

Ma'muriy huquq tarmog'i ham huquq fanining bir qismi bo'lib, o'z o'rganish predmeti doirasi davlat boshqaruvi organlari bilan bevosita bog'liq bo'lganligi sababli uning normalari imperativ, ya'ni bajarilishi majburiy va aniq xarakterga ega. Ammo bunday fikr ushbu majburiy normalarning aslo umumiy adolat va tenglik prinsiplarini inkor etishini anglatmaydi.

Shunday qilib, **ma'muriy huquq manbalari imperativ uslubga ega** ekanligini xulosa qilish mumkin.

Ma'muriy huquq normalari o'z mazmuniga ko'ra moddiy va protsessual normalarga bo'linadi.

Moddiy normalar ma'muriy huquq subyektlarining huquq va majburiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan huquq normalarini

anglatsa, protsessual huquq normalari mazkur moddiy normalarni amalga oshirish tartib-taomillarini o'zida aks ettiradi.

Misol uchun:

### **Moddiy normalar**

#### **O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat to'g'risida»**

##### **3-modda. Ma'muriy nazorat to'g'risidagi qonun hujjatlari**

Ma'muriy nazorat to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu qonun va boshqa qonun hujjatlardan iborat.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining ma'muriy nazorat to'g'risidagi qonun hujjatlarda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

##### **16-modda. Ma'muriy nazoratni amalga oshirishda ichki ishlar organlarining huquqlari**

Ma'muriy nazoratni amalga oshirishda ichki ishlar organlari quyidagi huquqlarga ega:

Nazorat ostidagi shaxsning xulq-atvori to'g'risida ish, o'qish yoki xizmat joyi ma'muriyatidan, jamoat birlashmasidan, yashash joyidagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organidan, shuningdek, fuqarolardan ma'lumotlarni so'rash va olish;

Nazorat ostidagi shaxsga uy-joy berish va uni ishga joylashtirish to'g'risida tegishli davlat organlariga, boshqa korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga iltimosnomalar yuborish;

Profilaktik suhbat o'tkazish uchun nazorat ostidagi shaxsni uning yashash joyidagi ichki ishlar organlariga chaqirish, nazorat ostidagi shaxsning talabi bilan bunday suhbatlarni advokat, jamoatchilik, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi vakillari yoki yaqin qarindoshlari ishtirokida o'tkazish;

Nazorat ostidagi shaxsdan o'ziga nisbatan belgilangan ma'muriy cheklov larga rioya etish hamda zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq masalalar yuzasidan og'zaki va yozma tushuntirishlar talab qilish.

Ichki ishlar organlari ma'muriy nazoratni amalga oshirish bo'yicha alohida tadbirlarni o'tkazishda davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, boshqa tashkilotlar va fuqarolar bilan hamkorlik qilishi mumkin.

## **O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida»gi Qonuni**

### **7-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkama-sining fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi davlat dasturlarining ishlab chiqilishini, tasdiqlanishini va amalga oshirilishini ta'minlaydi;

davlat organlarining va boshqa tashkilotlarning fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi faoliyatini muvofiq lashtiradi;

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash bo'yicha davlat tomonidan kafolatlangan xizmatlarning hajmini belgilaydi.

### **8-modda. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi:

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtiroy etadi;

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash bo'yicha davlat tomonidan kafolatlangan xizmatlarning hajmini belgilash yuzasidan takliflar ishlab chiqadi va kiritadi;

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasida kadrlarni tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni ta'minlaydi;

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash va himoya qilish tizimini rivojlantirishga hamda reproduktiv salomatlikni saqlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatishga doir chora-tadbirlarni belgilaydi;

reproduktiv salomatlikni saqlash sohasida fuqarolarning tibbiy bilimlarini va tibbiy madaniyatini yuksaltirish yuzasidan tushuntirish ishlarini olib boradi;

yordamchi reproduktiv texnologiyalardan foydalanish tartibini, kafolatlangan xizmatlar, ularni qo'llashga doir ko'rsatmalar, moneliklar va cheklovlarining ro'yxatini tasdiqlaydi;

yordamchi reproduktiv texnologiyalar usullarini qo'llochchi tibbiyot tashkilotlarining faoliyatini tartibga soladi va nazorat qiladi;

homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatishni amalga oshirish tartibi va shartlarini, homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatish uchun tibbiy ko'rsatmalar ro'yxatini belgilaydi;

jarrohlik kontratsepsiyasini amalga oshirish tartibi va shartlarini belgilaydi.

Shunday qilib, ma'muriy huquqdagi moddiy normalar davlat boshqaruvi organlarining huquq va majburiyatlarini, ularning vakolat doiralarini o'zida aks ettirgan bo'ladi. Protsessual normalar esa yuqorida ta'kidlanganidek, moddiy normalarda o'z aksini topgan qoidalarni amalga oshirish tartiblarini, ketma-ketligini aks ettiruvchi normalardir. Ularga quyidagilar taalluqli:

#### **Protsessual normalar**

#### **O'zbekiston Respublikasining Bojaxona kodeksi**

#### **16-modda. Tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojaxona chegarasi orqali olib o'tish shartlari**

Tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bevosita bojaxona chegarasi orqali olib o'tishga qaratilgan harakatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

bojaxona chegarasini kesib o'tayotgan jismoniy shaxsning bojaxona nazorati zonasiga kirishi;

transport vositasining bojaxona chegarasini kesib o'tish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasidan o'tkazish punktiga kirishi;

bojaxona hududiga yo'llash yoki ushbu hududdan tashqariga jo'natish uchun tovarlarni transport tashkilotlariga yoxud xalqaro pochta va kurerlik jo'natmalarini pochtä aloqasi operatorlari va provayderlariiga topshirish;

jismoniy shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq belgilanmagan joylardan tovarlar va (yoki) transport vositalari bilan bojaxona chegarasini amalda kesib o'tishga qaratilgan harakatlari...

## **20-modda. Tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tish joyi hamda vaqtি**

Tovarlar va (yoki) transport vositalari bojxona hududiga olib kirilayotganda hamda ushbu hududdan olib chiqilayotganda ularni bojxona chegarasi orqali olib o'tishga bojxona chegarasi orqali o'tkazish punktlarida yo'l qo'yiladi va transport vositalarini maxsus belgilangan joylarda to'xtatgan holda, bojxona organlarining ish vaqtida amalga oshiriladi. Mazkur talabga rioya etilmagan taqdirda bojxona organlari ushbu transport vositalarini majburiy to'xtatib qo'yadilar.

Tovarlar olib kiriladigan yoki olib chiqiladigan quyidagi maxsus jihozlangan joylar bojxona chegarasi orqali o'tkazish punktlari hisoblanadi:

havo transporti orqali olib o'tishda – bojxona hududidagi yetib kelinadigan (jo'natiladigan) aeroport yoki tovarlarni tashiyotgan havo kemasi qo'nadigan (parvoz qiladigan) va tovarlarni tushiradigan (yuklaydigan) birinchi (oxirgi) aeroport;

daryo transporti orqali olib o'tishda – bojxona hududidagi tovarlar tushiriladigan (ortiladigan) birinchi (oxirgi) daryo porti yoki qayta yuklanadigan daryo porti.

## **O'zbekiston Respublikasining «Urug'chilik to'g'risida»gi Qonuni**

### **18-modda. Urug'liklarning genetik (nav) sifatini aniqlash**

Urug'liklarning genetik (nav) sifati urug'lik yetishtirish uchun foydalaniладиган urug'lik ekinzorlarining aprobatsiyasi, tuprog'ini baholash, urug'liklarning laboratoriyyada o'tkaziladigan nav sinovlari natijalari bo'yicha aniqlanadi.

### **19-modda. Urug'lik yetishtirish uchun foydalaniладиган urug'lik ekinzorlarining aprobatsiyasi**

Urug'lik yetishtirish uchun foydalaniладиган urug'lik ekinzorlarining aprobatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzuridagi Agrosanoat majmuyi va oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanishi ustidan nazorat qilish inspeksiyasi, O'zbekiston fermor, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi hududiy organlarining, shuningdek tegishli tayyorlov hamda ta'minot tashkilotlarining, ilmiy muassasalarining qo'shma qarori bilan tuziladigan tuman aprobatsiya komissiyalari tomonidan o'tkaziladi.

Urug'lik yetishtirish uchun foydalaniladigan urug'lik ekinzorlarining aprobatsiyasi o'simliklar genetik (nav) jihatdan sofligi, zararkunandalar bilan zararlangan-zararlanmaganligining, kasalliklarga chalingan-chalinmaganligi va urug'liklar umumiy holati dalada o'tkaziladigan tekshiruvi orqali amalga oshiriladi.

Urug'li yetishtirish uchun foydalaniladigan urug'lik ekinzorlarining aprobatsiyasini o'tkazish natijalariga ko'ra tuman aprobatsiya komissiyalari tomonidan manfaatdor tashkilotlar va jismoniy shaxslarga aprobatsiya dalolatnomasi beriladi.

Urug'lik yetishtiruvchilar shaxsiy foydalanishdagi urug'lik ekinzorlarining aprobatsiyasini aprobatsiya dalolatnomasi rasmiylash-tirilgan holda o'tkazishga haqli.

Guvohi bo'lganiningizdek, yuqoridagi misollarda davlat boshqaruvi organlarining mazkur qonunlardagi vakolatlarini amalga oshirish bo'yicha u yoki bu tadbirlarni amalga oshirish tartiblari, qoidalari mustahkamlangan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, qonunlar yoki kodekslar mutlaq biror bir normani o'zida mujassamlashtirmay, balki ma'lum moddalari (yoki normalari) moddiy qoidalarni, boshqalari protsessual normalarni ham aks ettirishi mumkin. Biz har bir qonun yoki kodeksni uning moddiy va protsessual normalari nisbati qancha ekanligini tahlil qilish orqali unga baho berishimiz mumkin.

Nazariy tomonidan faraz qiladigan bo'lsak, barcha moddiy normalar qonun va kodekslarda o'zining to'la aksini topmog'i lozim, protsessual normalar esa har bir amaliyotdagি vaziyatning o'ziga xosligini hisobga olgan holda ayrim hollarda qonun osti hujjatlarida aks ettirilishi mumkin.

Ya'ni ideal qonunchilik moddiy normalarni yaratishni qonun osti hujjatlariga qoldirmasligi kerak.

Ma'muriy huquq normalari har qanday huquq tarmog'i kabi o'z tuzilishiga ega. Ular umumiy huquq nazariyasi asosida gipoteza, dispozitsiya va sanksiya kabi tuzilishiga ega.

Ma'muriy huquq tarmog'inining o'ziga xosligini e'tiborga olib shuni ta'kidlash kerakki, yuqoridagidek to'liq 3 xil tuzilishga ega bo'lgan normalar bo'lavermasligini e'tiborga olish lozim.

Ma'muriy huquq tarmog'i normalarida gipoteza sifatida ma'lum normaning maqsad va vazifalari, prinsiplari va tartibga solish doirasi kabi qoidalari mustahkamlangan qismlar bo'lishi mumkin.

Dispozitsiyada esa ma'muriy organ vakolatlari, ularni amalga oshirish tartibi (avval ta'kidlangan moddiy va protsessual normalar yig'indisi) qismlari o'z aksini topadi.

Ma'muriy huquqiy normalarda har doim ham sanksiya qismi ko'rsatilmasligi mumkin.

Odatda ular alohida qonunlar va kodekslarda o'z aksini topgan bo'ladi.

Endi ma'muriy huquq normalari tuzilishiga aniq bir qonun misolida namuna keltirishga harakat qilamiz:

<b>Huquq normasi tuzilishi</b>	<b>Mazmuni</b>
<b>O'zbekiston Respublikasining «Xalqaro shartnomalar to'g'risida»gi Qonuni</b>	
	<p><b>1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi</b>  Ushbu Qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzish, bajarish, ularning amal qilishini to'xtatib turish va ularni tugatish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.</p>
<b>Gipoteza</b>	<p><b>3-modda. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimida</b>  O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari va normalari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir.</p>
<b>Dispozitsiya</b>	<p><b>5-modda. O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasining tili</b>  O'zbekiston Respublikasining davlat tili va boshqa ahslashuvchi tomonning tili O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasining tilidir.</p>

	<p>Boshqa ahslashuvchi tomon bilan kelishuvga ko'ra o'zga til O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasining tili deb tanlanishi mumkin. Xalqaro shartnomaning matni qaysi tilda tuzilgan bo'lsa, o'sha til mazkur shartnomaning matnida ko'rsatilib, matnda uning autentikligi va rasmiyligi belgilanadi.</p>
	<p><b>6-modda. Chet davlatlar, xalqaro tashkilotlar va xalqaro shartnomalar tuzish huquqiga ega bo'lgan boshqa subyektlar bilan o'zaro munosabatlar</b></p> <p>Chet davlatlar, xalqaro tashkilotlar va xalqaro shartnomalar tuzish huquqiga ega bo'lgan boshqa subyektlar bilan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzish, ularning amal qilishini to'xtatib turish va ularni tugatish masalalari bo'yicha o'zaro munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali amalga oshiriladi.</p>
	<p><b>18-modda. Ratifikatsiya qilinadigan xalqaro shartnomalar</b></p> <p>Davlatning xorijdan mablag' jalb qilishi to'g'risidagi xalqaro shartnomalar, shuningdek, xalqaro kafolat shartnomalari Ratifikatsiya qilinmaydi va O'zbekiston Respublikasi uchun ahslashuvchi tomonlar belgilaydigan tartibda kuchga kiradi.</p>
<b>Sanksiya</b>	<p><b>52-modda. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik</b></p> <p>O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.</p>

Ta'kidlash kerakki, har qanday normaning dispozitsiya qismi o'z navbatida uch turga bo'linadi. Bular majburiyat yuklovchi, ruxsat berish va taqilash qismlaridir. Ilmiy tilda ushbu tushunchalar

huquq normasining uslublari (metodlari) deb yuritiladi. Ma'muriy huquq sohasining ushbu uslublari to'g'risida keyingi paragrafimizda alohida to'xtalamiz.

Ma'muriy huquq normalari va umuman **Ma'muriy huquq sohasining o'zi bir qator funksiyalarni amalga oshiradi**. Turli adabiyotlarda olimlar Ma'muriy huquq amalga oshiradigan funksiyalarning har xil turlarini ilgari suradi. Nazarimizda, mazkur fikrlarning, yondashuvlarning barchasi «yashashga», mavjud bo'lishga haqli. Shu bilan birga, o'quvchiga tushunarli va aniq shaklda yetkazish maqsadida ma'muriy huquq, eng avvalo, quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi degan fikrdamiz.

1. Regulyativ funksiya.
2. Himoyalovchi funksiya.
3. Muhofazalovchi funksiya.

Ma'muriy huquqning eng asosiy vazifasi turli xil ommaviy munosabatlarning jamiyat manfaatlariga mos ravishda amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratuvchi qoidalarni belgilashdir<sup>1</sup>, deb ta'kidlaydi milliy olimlardan I.M. Tsay. Darhaqiqat, ushbu masalani regulyativ, ya'ni tartibga soluvchi funksiya deb ta'riflashimiz o'rinli. Zero, jamiyatdagi deyarli barcha sohalar davlat tomonidan tartibga solib turilishga, yo'naltirilib turishga tabiiy ravishda ehtiyoj sezadi. Jumladan, sog'liqni saqlash tizimini misol sifatida keltiradigan bo'lsak, jamiyatda barcha ma'muriy-hududiy birliklarda, sog'liqni saqlash muassasalari mavjud bo'lishi, undan barcha darajadagi qatlamlar vakillari bahramand bo'la olishi, ularni zarur tibbiyot anjomlari va dori-darmonlar bilan ta'minlab turishi, tibbiyot sohasi kasb egalarining malakasini oshirish va shu tariqa ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar sifati va xilma-xilligini ko'paytirish kabi masalalarni bir me'yorda ushlab turish aynan tegishli ma'muriy organlarning qonuniy vazifalaridir. Ushbu masalalarning tartibga solinishini ma'muriy huquqning regulyativ funksiyani amalga oshirishiga yaqqol misol bo'la oladi. Shu tariqa jamiyatdagi boshqa sohalar ham tartibga solinadi va bu ilmiy tilda, Ma'muriy huquq nazariyasida regulyativ funksiya deb yuritiladi.

<sup>1</sup> И.А. Хамедов, Л.Б. Хван, И.М. Цай. Административное право (Общая часть). – Т.: Изд-во «KONSAUDITINFORM-NASHR», 2012 г. – С. 22.

Ma'muriy huquqning himoyalovchi funksiyasi bu fuqarolar va yuridik shaxslarni, jamiyatni davlat boshqaruvi organlari va ular mansabdar shaxslarining noqonuniy xatti-harakatlaridan yoki harakatsizligidan himoya qilishga qaratilganligini ham ta'kidlash kerak. Boshqacha qilib aytganda, ma'muriy huquq ijro hokimiyati organlarining funksiya va vakolatlari, mansabdar shaxslari huquq va majburiyatlarining huquqiy tomondan ta'minlanishini hamda oldindan qonuniy asoslarda belgilangan doirada faoliyat yuritishini ta'minlashga qaratilgan. Buni esa himoyalovchi funksiya sifatida ta'riflashimiz mumkin. Ya'ni shu tariqa Ma'muriy huquq ko'p sonli davlat boshqaruvi organlari va keng qamrovli vakolatlarining amalga oshirilishi davomida mansabdar shaxslar tomonidan inson va fuqarolar huquq hamda qonuniy manfaatlari poymol qilinishining oldini olishga qaratilgan funksiyani bajaradi. Ushbu funksiyani yanada kuchaytirishga va takomillashtirishga qaratilgan amaliy misollardan biri 2017-yil 1-iyundan boshlab O'zbekiston Respublikasida ma'muriy ishlar bo'yicha sud ish yurituvi tizimining joriy etilganligidir.

Ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy nizolarni ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari, tumanlararo ma'muriy sudlarining tashkil etilishi<sup>1</sup> himoyalovchi funksiyaning amaliy ifodasidir. Jamiyatda davlat boshqaruvi organlari va mansabdor shaxslari tomonidan xususiy shaxslar qonuniy manfaatlarining buzilishiga olib keluvchi holatlar ortib borishi<sup>2</sup> ma'lum ma'noda, ma'muriy huquq sohasida, xususan davlat boshqaruvi tizimida o'z yechimini kutayotgan masalalar borligidan hamda yuqoridaagi ta'kidlangan himoyalovchi funksiyaning ishdan chiqqanligidan dalolat. Bunday vaziyat ma'muriy huquq sohasidagi

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'grisida» PF-4966-sonli Farmoni // «Xalq so'zi», 2017-yil, 38 (6732)-son.

<sup>2</sup> Незащищённость частной собственности — одна из причин нашей бедности // <https://www.gazeta.uz/ru/2021/12/18/private-property-and-investment>; Abgor manzillar: G'afur G'ulom bog'ining TTZdagi shoxobchasi // <https://kun.uz/news/2021/12/06/abgor-manzillar-gafur-gulom-bogining-ttzdagi-shoxobchasi>; Five officials prosecuted for allowing forced labor in 2021 cotton harvest // <https://kun.uz/en/74263830>.

olimlar va mutaxassislarning ilmiy izlanishlar olib borishi va ururating mavjudligining belgisidir.

Navbatdagi Ma'muriy huquqning muhim funksiyalaridan biri bu muhofazalovchi funksiyadir. Ushbu funksiya o'z mazmuniga ko'ra, himoyalovchi funksiya bilan deyarli bir xil, farqi bu yerda o'rinalar almashilganlidadir. Muhofazalovchi funksiyada, davlat boshqaruvi organlari o'zlariga berilgan qonuniy vakolatlardan foydalanib, fuqarolar va yuridik shaxslarni boshqa bir fuqarolar va yuridik shaxslarning qonunga xilof xatti-harakatlaridan muhofazalashga qaratilgan faoliyati tushuniladi. Oddiy qilib ta'kidlanganda, u yoki bu fuqarolarni sodir etgan ijtimoiy xavfli harakati uchun ma'muriy javobgarlikka tortishi bilan bog'liq bo'lgan jarayon. Ma'lumki, Ichki ishlar organi xodimlari (uchastka noziri, yo'l harakati xavfsizligi xodimlari, yong'in xavfsizligi xodimlari), soliq inspektorlari, sanitar epidemiologik markaz vakillari, davlat mehnat inspeksiysi xodimlari o'z qonuniy vazifalariga ko'ra faoliyati davomida belgilangan yo'nalishlarida huquqiy tartibotni ta'minlashga, fuqarolarda qonunga hurmat ruhini shakllantirishga, huquqbuzarliklarning oldini olish uchun faoliyat yuritadi. Shu tariqa ular umumjamiyat manfaatlarini, fuqarolar sog'lig'i, hayoti, tinchligi va mulkinining himoyalanishiga zamin yaratadi. Ushbu faoliyat nazariy tomondan ma'muriy huquqning muhofazalovchi funksiyasidir.

### **Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol:**

A. ismli fuqaro belgilangan 70 km tezlikda Toshkent-Samarqand trassasida o'z avtomashinasini boshqarib borayotgan edi. Taxminan trassaning 120-kilometrida uni DAN xodimlari to'xtatishdi. Fuqaro A. avtomashinani yo'lning o'ng tomoniga boshqa avtoulovlarning harakatlanishi uchun xalaqt qilmaydigan qismiga olib to'xtatdi.

DAN xodimi fuqaro A.ga hujjatlarni taqdim qilishni va mashinadan tushgan holda avtoulovning yuk tashish qismini ochib ko'rsatishni buyurdi. O'z huquq va majburiyatlarini yaxshi anglagan fuqaro A. DAN xodimidan, avvalo, o'zini tanishtirishni, to'xtatish sababini tushuntirishni so'radi. Ammo DAN xodimi o'z aytganlarini fuqaro A.dan bajarishni, aks holda bu «ichki ishlar organi xodimiga bo'y sunmaslik» sifatida baholanishini ta'kidladi. Shunda haydovchi DAN xodimiga o'z harakatlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qorori bilan tasdiqlangan «Yo'l-patrul xizmati xodimlarining yo'l harakati

qatnashchilari bilan o'zaro munosabatlari hamda maxsus moslamalardan foydalaniши tartibi to'g'risida»gi nizom talablari asosida amalga oshirayotganligini va mazkur qaror ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida ishlab chiqilganligini eslatdi. So'ng A. ismli fuqaro to'xtatilishi sababini yana bir marta so'ragan edi, DAN xodimi unga o'z yo'lida davom etishi mumkinligini aytib oq yo'l tilab qoldi.

*Ushbu misolda ma'muriy huquq predmeti mavjudmi?*

*Ushbu ijtimoiy munosabatni tartibga soluvchi mazkur nizomni tahlil qiling.*

*Mazkur vaziyatda ma'muriy huquqning qanday funksiyasi ishga tushganligining guvohi bo'ldingiz?*

*O'z fikringizni normativ-huquqiy hujatlar bilan asoslashga harakat qiling.*

## **1.5. Ma'muriy-huquqiy munosabatlar va ularning turlari**

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar tushunchasini tushunib yetishingiz uchun oldingi paragraflarimizda keltirilgan barcha misollarni eslashingiz kifoya. Ma'lumki, jamiyatda yuzaga keladigan har qanday munosabat subyektlarining maqomidan kelib chiqib huquq sohasining u yoki bu turi bilan tartibga solinadi. Aytaylik, oilada farzand tarbiyasi bilan shug'ullanish, oila a'zosi topgan daromadida oilaning boshqa a'zolarining ulushi masalalari, ajralish masalasi ko'rilib yig'ilgan mulkning taqdiri kabi masalalar ham oila huquqi bilan tartibga solinsa, jinoyat huquqi tomonidan tartibga solinadigan masalalar qilmishning og'irlik darajasi va uni u yoki bu jinoyat turiga tasniflash, aybni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni aniqlash masalalari taalluqlidir. Shunday ekan, ularga tegishlicha oilaviy-huquqiy munosabatlar, jinoiy-huquqiy munosabatlar degan ta'rifni berish noto'g'ri bo'lmaydi. Demak, davlat boshqaruvi tizimidagi boshqaruv organlarining o'zaro munosabatlari hamda ularning xususiy shaxslar bilan bo'ladigan munosabatlarini ma'muriy huquq tartibga solishini e'tiborga olsak, ushbu munosabatlarni ma'muriy-huquqiy munosabatlar deb ta'riflashimiz o'rnlidir. Boshqacha qilib aytganda, ma'muriy huquq tarmog'ining predmetiga taalluqli bo'lgan barcha munosabatlar ma'muriy-huquqiy munosabatlardir.

Shunday bo'lsa-da, **ma'muriy-huquqiy munosabatlar** tushunchasi ma'muriy huquq predmeti tushunchasidan alohida bo'lgan ta'rifga ega. Jumladan, ma'muriy-huquqiy munosabatlar huquq normasi bilan tartibga solingan va davlat boshqaruvi organi qoida o'rnatuvchi sifatida ishtirok etadigan, tomonlarning ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan harakatlari yoki harakatsizligini ifodalovchi munosabat turiga aytildi. Ushbu keltirilgan ta'rifni qismlarga bo'lgan tarzda tahlil qilishga va uning har bir qismini amaliy misollar bilan tushuntirishga harakat qilamiz. Misol uchun:

<b>Ma'muriy-huquqiy munosabatlar huquq normasi bilan tartibga solingan</b>	Ya'ni oldingi paragrafimizdagi avtomobil haydovchisi va DAN xodimi o'ttasidagi munosabatni tahlil qiladigan bo'lsak, u oldindan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasи qarori bilan tasdiqlangan nizom asosida huquqiy tartibga solingan hisoblanadi va bunda bir tomon DAN xodimi – ma'muriy organ, ikkinchi tomonda fuqaro ishtirok etmoqda.
<b>Davlat boshqaruvi organining qoida o'rnatuvchi sifatida ishtirok etadigan</b>	Yuqoridagi misolda DAN xodimining bevosita o'zi qoidani o'rnatmagan, albatta. Bu yerda IIV, Adliya vazirligi kabi yuqori turuvchi organlari va huquqiy siyosatni amalga oshiruvchi organlar tomonidan qoida o'rnatilanligini ta'riflash mumkin.
<b>Tomonlarning ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan harakatlari yoki harakatsizligini ifodalovchi munosabat</b>	Fuqaro maqsadi ruxsatnomani olish va shu maqsadda hujjatlarni to'plashi, murojaat qilishi, davlat organining maqsadi belgilangan talablarga mosligini tekshirish va so'ngra ruxsat berish uchun harakatni amalga oshirishdir.

Harakatsizlikka misol sifatida fuqaroning mazkur ruxsatnomani olmasligi, aniqrog'i, uni olmasdan o'z faoliyatini davom ettirishi. Bunda u tomonidan ruxsatnomani olishga bo'lgan harakatsizlik ma'muriy-huquqiy munosabatni keltirib chiqaradi.

### **Yodda tuting!**

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar-huquq normasi bilan tartibga solingan va davlat boshqaruvi organi qoida o'rnatuvchi sifatida ishtirok etadigan, tomonlarning ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan harakatlari yoki harakatsizligini ifodalovchi munosabat turi.

Ma'muriy huquq normasi o'z-o'zidan muayyan ma'muriy-huquqiy munosabatni vujudga keltirmaydi. U bunday munosabat vujudga kelishining asosi bo'lib, tegishli sharoitda va tegishli subyektlar mavjud bo'lganida boshqaruvga oid munosabat ma'muriy-huquqiy shakl-shamoyil kasb etadi. Ma'muriy-huquqiy norma taraflar vakolatining hajmini, ularning o'zaro huquq va majburiyatlarini, shuningdek, majburiyatlarini bajarmaganlik yoki huquqlarni buzganlik uchun yuridik javobgarlikni belgilaydi. Ma'muriy-huquqiy norma bir taraf uchun mumkin bo'lgan xulq-atvor turi va me'yorini, boshqa taraf uchun esa joiz xulq-atvor turi va me'yorini belgilaydi<sup>1</sup>, deb tahlil qiladi milliy olimlardan biri O'.X. Muhammedov.

Yuqoridagi ta'riflar va misollardan kelib chiqib, ma'muriy-huquqiy munosabatlarni bir qator turlarga ajratish mumkin. I.M. Tsayning ta'riflashicha ularni subordinatsion, koordinatsion va reordinatsion turlarga ajratish mumkin<sup>2</sup>.

Subordinatsion munosabatlarga yuqori va quyi turuvchi davlat boshqaruvi organlari o'rtasidagi munosabatlar taalluqli bo'lsa, koordinatsion munosabatlarga maqomi bo'yicha biri-biri bilan teng yoki bir-birining bevosita bo'ysunuvida bo'Imagan davlat boshqaruvi

<sup>1</sup> O'.X. Muhammedov, I.A. Xamedov, N.T. Ismailov va boshq. Ma'muriy huquq. Darslik. To'dirilgan, 4-nashr. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. – B. 48.

<sup>2</sup> Административное право Республики Узбекистан. Общая часть. Учебник: – Т.: «KONSAUDITINFORM-NASHR», 2012. – С. 90.

organlari o'rtasidagi munosabatlarni keltirishmiz mumkin. Misol uchun, hokimiyatlar bilan prokuratura organlarining yoki vazirliklar bilan davlat qo'mitalarining munosabatlari yoxud agentliklar bilan turli inspeksiyalarning, yo'inki inspeksiyalar bilan hokimiyatlar o'rtasidagi munosabatlarni keltirish mumkin. Reordinatsion munosabatlarga davlat boshqaruvi organlari (ommaviy boshqaruv organlari) bilan xususiy shaxslar o'rtasidagi munosabatlar taalluqidir. Bunda ommaviy boshqaruv organlari qonunan xususiy shaxslarga ma'lum bir xizmatlarni ko'rsatish vakolatlari bilan ta'minlangan bo'ladi. Misol uchun, davlat xizmatlari markazining mактабгача та'lim yoshidagi bolalarni ro'yxatga olish va navbatga qo'yish vakolati bilan ta'minlanganligi yoki davlat mактабгача та'lim muassasasining o'z tarbiyasidagi bolalarga va shu tariqa fuqarolarga tarbiya va ta'limga oid xizmatlarni ko'rsatishini tushunish mumkin.

Nazarimizda, ma'muriy-huquqiy munosabatlarni subordinatsion, koordinatsion va reordinatsion degan turlarga bo'lish ham to'g'ri, shu bilan birgalikda, ularni vertikal, gorizontal, internal va eksternal degan turlarga bo'lish yanada tushunarli va kengroq ta'rifga ega bo'ladi, degan fikrdamiz. Xusan, vertikal munosabatlarga yuqori va quiyi turuvchi davlat boshqaruvi organlari va gorizontal munosabatlarga bir-biriga bo'ysunmaydigan davlat boshqaruvi organlari orasida munosabatlar tushunilsa, internal munosabatlarga davlat boshqaruvi organining bevosita o'z ichki, aksariyat hollarda vertikal organlarga bevosita bog'liq bo'limgan munosabatlar tushuniladi. Misol uchun, tuman adliya bo'limi rahbarining har dushanba kuni haftalik qilinadigan ishlar rejasini tuzishi va xodimlarga topshirishi; shahar soliq inspeksiyasining bir oylik soliqlarning yig'ilish dinamikasi bo'yicha o'z xodimlari bilan oraliq hisobot majlisini o'tkazishi; tuman hokimining tuman obodonlashtirish bo'limi mudirini tayinlashi va hokazo.

Eksternal ma'muriy-huquqiy munosabatlarga davlat boshqaruvi organining o'z tizimidan tashqari bo'lgan, ya'ni xususiy shaxslar bilan bo'ladigan munosabatlarini kiritish o'rinni.

### **Eksternal ma'muriy-huquqiy munosabatlarga misollar**

Yuridik shaxsnинг xususiy bank ochish uchun Markaziy bankka litsenziya berishini so'rab qiladigan munosabati.

Ishlab chiqarish sohasidagi xo'jalik yurituvchi subyektning Davlat standartlashtirish va sertifikatlash agentligiga o'z mahsulotiga sifat sertifikatini olish uchun qilgan murojaati.

Korxonaning Davlat sanitariya va epidemiologiya markazidan o'z xizmat ko'rsatish binosining sanitar talabalarga javob berishini tasdiqlovchi xulosasini olish uchun qiladigan murojaati.

Fuqaroning pasport olish yoki yangisiga almashtirishni so'rab tegishli organlarga qilgan murojaati tufayli yuzaga keladigan munosabatlar

Guvohi bo'lganiningizdek, ma'muriy-huquqiy munosabatlarni vertikal, gorizontal, internal yoki eksternal kabi nomlar ostida turlarga ajratish faqatgina ularning nomlanishi turli xil bo'lganligi uchun emas, balki mazkur ajratish turi orqali ularning ko'proq qirralarini alohida olib yoritib berish imkoniyatining yuqoriligi bilan ham izohlanadi.

Ammo ular qanday nomlanmasin, masalaning ushbu qismi ikkinchi darajali bo'lib, asosiysi, yuridik sohada tahsil olayotgan talabalar ushbu munosabatlar xususiyatini, boshqa huquq sohasida yuzaga keladigan munosabatlardan farqi va o'xshashliklarini ajrata olishidadir.

#### **Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol**

O'zbekiston Respublikasi «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun ijrochilari bo'lishi mumkin bo'lgan barcha davlat boshqaruvi organlariga uning tegishli moddalari talablari asosida ijrosini ta'minlovchi mexanizmlari ko'rsatilgan reglamentlarni tayyorlash to'g'risida ko'rsatma berdi. Shu sababli o'z faoliyatida litsenziya, ruxsatnomalar berish bilan yoki ro'yxitga olish yoxud davlat xizmatlarining boshqa turlarini ko'rsatish bilan shug'ullanadigan barcha davlat boshqaruvi organlari o'z amaliy tajribalaridan kelib chiqib reglamentlarni tayyorlashdi. So'ngra manfaatdor tashkilotlarga o'rganish va taklif-mulohazalar berish uchun kelishishga tarqatildi. Olingan taklif va mulohazalar umumlashtirildi va Adliya vazirligiga huquqiy ekspertizaga topshirildi.

Ekspertizadan so'ng u Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlandi va amaliyotga joriy qilindi. O'zbekiston Respublikasining «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonuni normalari asosida ishlab chiqilgan reglament tartiblariga ko'ra, xususiy klinika ochish uchun murojaat qilgan manfaatdor shaxs belgilangan tartib-taomillarga ko'ra, arizasini ko'rib chiqish uchun yig'im to'lashi, bir qator hujatlar to'plashi, davlat bojini to'lashi lozim etib belgilandi.

*Mazkur misollarda ma'muriy-huquqiy munosabatlarni ajratib ko'rsating.*

*Har bir ma'muriy-huquqiy munosabatlarni ta'riflashga harakat qiling.*

*Yuqoridagi misol asosida o'zingiz mustaqil ravishda biror bir kazual vaziyatni xayolingizda yaratishga harakat qiling.*

*Ushbu mavzuning oldingi mavzular bilan bog'liqligini topishga urining.*

## 1.6. Ma'muriy huquqda yuridik faktlar

Har qanday ijtimoiy munosabatning yuzaga kelishiga biror bir harakat yoki harakatsizlik yoxud voqeа-hodisalar sabab bo'ladi. Bundan ma'muriy huquq ham, u tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabat ham mustasno emas.

Yuridik fakt bu aniq hayotiy vaziyatlarning yuzaga kelishi bilan huquq normasining vujudga kelishi, o'zgarishi va tugatilishi kuzatiladigan jarayondir<sup>1</sup>.

**Umumiy huquq nazariyasidan ma'lumki, yuridik faktlar bir qator turlarga tasniflanadi. Bular:**

1) harakat yoki harakatsizlik natijasida yuzaga keladigan yuridik faktlar;

2) voqeа hamda hodisalar natijasida yuzaga keladigan yuridik faktlarga bo'linadi.

<sup>1</sup> В.М. Королевского и В.Д. Перевалова. Теория государства и права. Учебник для юридических вузов и факультетов. Под ред. – М.: издательская группа «Норма-ИНФРА-М», 1998. – С. 352.

Qarang. **Yuridik faktlar** – qonunda nazarda tutilgan va muayyan huquqiy munosabatlar yuzaga kelishi (o'zgartirilishi, to'xtatilishi) uchun asos bo'lgan holatlar yoki huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi faktlar (holatlar). O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi / Nashr uchun mas'ul R.A. Muhiddinov. – T.: Adolat, 2010-y. – B. 562.

**Harakat yoki harakatsizlik natijasida yuzaga keladigan yuridik faktlar** inson omiliga bevosita bog'liq bo'lib, ularning o'z qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishi uchun huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish maqsadida qilgan harakatlariga aytilsa, harakatsizligi esa o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmaganligi oqibatida yuzaga keladigan yuridik faktlardir. Ta'kidlash kerakki, harakatlar va harakatsizlik natijasida yuzaga keladigan yuridik faktlar huquqiy va nohuquqiy turlarga ham ajratiladi. Bunda harakat natijasida yuridik fakti yuzaga keltirayotgan shaxsning harakatlari huquqiy, ya'ni jamiyatda belgilangan yurish-turish qoidalariga mos va ijtimoiy foydali harakat bo'lishi mumkin yoki aksincha, uning harakatlari nohuquqiy, aniqrog'i qonunlarga mos bo'limgan harakat bo'lishi ham mumkin. Harakatsizlik natijasida yuzaga keladigan yuridik faktlar aksariyat hollarda nohuquqiy ko'rinishda bo'ladi va bunda odatda biror bir ijtimoiy normaga zarar yetgan, ommaviy yoki xususiy huquq subyektlaridan birining huquqlari poymol etilgan bo'ladi.

<b>Harakat natijasi-da yuzaga kelgan yuridik faktlar</b>	<b>Huquqiy</b>	Ommaviy huquq subyekti ishtirokida	O'zbekiston Respublikasining «Davlat hokimiysi va boshqaruvi organlarining ochiqligi to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan davlat boshqaruvi organlarining o'z rasmiy veb-saytlariga qonuniy funksiyalari va vazifalari to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirishi.
		Xususiy huquq subyekti ishtirokida	Fuqaroning tadbirkorlikning u yoki bu turi bilan shug'ullanish uchun litsenziya olish maqsadida davlat organlariga murojaat qilishi.

	<b>Nohu-quqiy</b>	Ommaviy huquq subyekti ishtirokida	Hokimning aholi yashaydigan hududlardagi turar joylarni buzishga oid protsessual qonun talablariga rioxat etmasdan harakat qilishi.
		Xususiy huquq subyekti ishtirokida	Fuqaroning jamiyatda yurish-turish qoidalarini mensimasdan, jamoat joyida axloqqa xilof so'zlarni ishlatishi, o'zgalarning tinchligi va xotirjamligini buzadigan tarzda harakat qilishi.
<b>Harakatsizlik natijasida yuzaga kelgan yuridik faktlar</b>	<b>Nohu-quqiy</b>	Ommaviy huquq subyekti ishtirokida	Fuqaroning davlat organiga qilgan murojaatiga belgilangan tartibdag'i javobning berilmasligi.
		Xususiy huquq subyekti ishtirokida	Fuqaroning mulk solig'ini o'z vaqtida to'lamasligi.
		Ommaviy huquq subyekti ishtirokida	Davlat organining yuqori tashkilotlardan kelib tushgan rasmiy topshiriq yuzasidan tegishli choratadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirmaganligi.

### **Yodda tuting!**

Harakat yoki harakatsizlik natijasida yuzaga keladigan yuridik faktlar inson omiliga bevosita bog'liq bo'lib, ularning o'z qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishi uchun huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish maqsadida qilgan harakatlariga aytilsa, harakatsizligi esa o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmaganligi oqibatida yuzaga keladigan yuridik faktlardir.

**Voqeа hamda hodisalar natijasida yuzaga keladigan yuridik faktlar deganda** inson omiliga bog'liq bo'limgan yoki bog'liqligi isbotlashni talab qiladigan holatlarga aytildi. Bunda voqeа va hodisa tushunchalari ham bir-biridan farqlarga ega ekanligini ta'kidlash joiz. Shunday qilib, voqeа natijasida yuzaga keladigan yuridik faktlarga – insonning tug'ilishi yoki o'limi yoxud ma'lum yoshga to'lishi nazarda tutilsa, hodisa natijasida yuzaga keladigan yuridik faktlar, asosan, tabiiy ofatlar tufayli yuzaga kelishini e'tirof etish kerak.

Voqeа hamda hodisalar natijasida yuzaga keladigan yuridik faktlarga inson omiliga bog'liq bo'limgan yoki bog'liqligi isbotlashni talab qiladigan holatlar, degan ta'rifni berishni o'rinli deb bildik. Voqeа va hodisalarning sodir bo'lishini istisnosiz ravishda inson omiliga bog'liq emas, deb ta'kidlash noo'rin. Afsuski, ko'plab adabiyotlarda yuridik faktning ushbu turini «inson omiliga bog'liq bo'limgan» degan jumlalar bilan ta'riflashadi. Bunday ta'rifni mukammal deb bo'lmaydi. Zero, insonning o'limi shifokorning yoki biror bir shaxs omili natijasida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin, tabiiy ofat, xususan, suv toshqini, yong'in va hokazolar ham inson omiliga, ya'ni shaxsnинг e'tiborsizligi yoki tegishli mutasaddi tashkilotlarning loqaydligi natijasida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Shu sababli ham yuqoridagi ta'rifga «yoki isbotlashni talab qiladigan» degan jumlalarni qo'shish maqsadga muvofiq.

Quyida yuridik faktlarning ushbu turiga misollar keltiramiz.

<b>Voqeа</b>	<b>Ommaviy huquq subyekti ishtirokida</b>	Boshqa davlat hududidan qochoqlarning qabul qilib olinishi yoki biror bir fuqaroga boshpana berish va ushbu fakt yuzasidan TIV, IIV, FVV, SSV kabi mutasaddi tashkilotlarda ma'lum majburiyatlarni bajarish yuzasidan harakatlarni amalga oshirish zaruratining paydo bo'lishi
	<b>Xususiy huquq subyekti ishtirokida</b>	Fuqaroning 16 yoshga to'lishi va unda belgilangan tartibda pasport olish huquqining yuzaga kelishi

<b>Hodisa</b>	<b>Ommaviy huquq subyekti ishtirokida</b>	2018-yil may va iyun oylarida Surxondaryo viloyati hududida yuzaga kelgan suv toshqini oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan mahalliy aholini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi farmoyishining qabul qilinishi
	<b>Xususiy huquq subyekti ishtirokida</b>	Xo'jalik yurituvchi subyektning ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish binolarida yong'inning yuzaga kelishi yoki biror bir hududda epidemianing tarqalishi yuzasidan ma'muriy-huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishi

### **Yodda tuting!**

Voqeа hamda hodisalar natijasida yuzaga keladigan yuridik faktlar deb inson omiliga bog'liq bo'limgan yoki bog'liqligi isbotlashni talab qiladigan holatlarga aytildi.

### **Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol**

2019-yil Samarqand va Buxoro viloyatlari hududida suv toshqinlarining sodir bo'lishi munosabati bilan tabiiy ofatdan zarar ko'rgan xonadonlarni qo'llab-quvvatlash hamda hudud infrastrukturasini tiklash ishlarini amalga oshirish uchun respublika budgetidan ma'lum miqdordagi subvensiya ajratildi. Bundan tashqari, zarur ko'rgan tuman hokimiyatlariga hamda boshqa mutasaddi tashkilotlarga mahalliy aholidan murojaatlar soni keskin oshdi. Jumladan, aksariyat murojaatlarning mazmuni tabiiy ofat natijasida fuqarolarning yo'qotilgan u yoki bu hujjatlarini qayta tiklab berish, yashash uchun xonadonlar ajratish kabi masalalar tashkil qiladi.

*Ushbu kazusda yuridik faktlarning qanday turlarini aniqladingiz?*

*Ushbu yuridik faktlar yuzasidan tatbiq etiladigan ma'muriy-huquqiy normani, ya'ni qonun yoki kodeks mazmunini ko'rsating.*

*Mustaqil ravishda o'zingiz bilgan va kuzatgan harakat yoki voqeа-hodisalarda ma'muriy-huquqiy munosabatlar masalasini, yuridik faktlarni tahsil qilishga harakat qiling.*


## I bobni o'zlashtirish bo'yicha KROSSVORD

### Bo'yiga:

1. Ma'muriy huquq va unga yaqin bo'lgan boshqa huquq tarmoqlarining umumiy nomlanishi.
2. Ma'muriy huquq manbalaridan biri bo'lgan kodeks.
3. Ma'muriy huquq prinsiplaridan biri.
4. Davlat boshqaruvi organlari tizimining o'zaro munosabatlarini nima bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar deb ataladi?
7. Ma'muriy-huquqiy munosabat turlaridan biri.

### Eniga:

5. Ma'muriy huquq o'z ildizini oladigan huquq tarmog'ining nomi.
6. Ma'muriy-huquqiy norma turlaridan biri.
8. Ma'muriy huquq predmetiga tegishli bo'lgan munosabat turi.
9. Ma'muriy huquq subyektlaridan birining amaliyotdagi nomlanishi.



## **II bob. DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARI FAOLIYATIDA BOSHQARUV SHAKLLARI VA USLUBLARI**

### **2.1. Davlat boshqaruvi organlarida boshqaruv shakllari tushunchasi va ahamiyati**

Ma'muriy huquqning asosiy subyekti bu davlat boshqaruvi organlari ekan, demak, ularning faoliyat doirasi, xususiy shaxslar bilan vujudga keladigan munosabatlari qanday tarzda, qanday asoslarga ko'ra olib boriladi, ushbu munosabatlarning shakli, mazmuni va tuzilishi qanday, degan tabiiy savollarga javob qidirishimiz muhim. Ta'kidlash kerakki, avvalgi paragraflarda biz davlat boshqaruvi organlari qatoriga vazirliklarni, davlat qo'mitalarini, agentliklarni, inspeksiyalar, komissiyalar va markazlar hamda hokimliklar taalluqligini e'tirof etgan edik. Haqiqatan ham shunday, yuqorida sanab o'tilgan organlarning barchasi davlatning ijro hokimiyatida faoliyat yurituvchi boshqaruv organlaridir. Ammo bularning qatoriga haqli ravishda milliy huquq tizimi va mahalliy sharoitlarni e'tiborga olgan holda yana bir boshqaruv organlari qo'shilishi lozimligini ta'kidlamoqchimiz. Bular xo'jalik boshqaruvi organlaridir. Ushbu bobning asosiy masalasi shakllar va uslublarni tahlil qilishni boshlamasdan avval davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tushunchalarini aniq tushunib olishimiz zarur.

Xo'jalik boshqaruvi organlari o'z faoliyatida davlat iqtisodiyotini yuksaltirishga, eksport salohiyatini oshirishga, shuningdek, iqtisodiyotni diversifikasiya qilishni ko'zlagan, davlat mablag'lari asosida va ma'lum bir mulkchilik shakli ko'rinishida tashkil etilgan boshqaruv organlari tushuniladi. Bularga uyushmalar, konsernlar, kompaniyalar, birlashmalar taalluqli.

Demak, davlat boshqaruvi organlari bilan xo'jalik boshqaruvi organlarining farqi va umumiyligini aniqlab olish zarurati yuzaga kelmoqda. Agar xo'jalik boshqaruvi organining o'ziga xosligini yuqoridagi ta'rif bilan izohlashga harakat qilgan bo'lsak, qo'shimcha ravishda shuni ta'kidlash kerakki, bunday organlarda davlat o'z ulushi bilan ishtirok etadi. Demak, bunday ko'rinishdagi boshqaruv organlarida xususiy shaxslarning ham ulushlari bo'lishi aniq. Odatda ular aksiyador sifatida ishtirok etadi, ammo davlatning

aksiyasi qoida tariqasida umumiy aksiyalarning 30 foizidan kam bo'lmaydi. Shu tariqa davlat o'zining iqtisodiyotni boshqarishdagi o'rnini saqlab turadi. Odatda, bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat iqtisodiyotdagi o'z ishtirokini kamaytirib, asosan, tabiiy monopoliya sohasida ishtirok etishi maqsadga muvofiq. Bu davlatning va pirovardida jamiyatning (xalq)ning raqobat natijasida rivojlanish kafolatidir. O'zbekiston Respublikasida ham davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirishga qaratilgan islohotlar olib borilmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlariga ma'muriy ta'sir ko'rsatishni yanada qisqartirish va boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirish<sup>1</sup> ishlari davom etmoqda.

### **Yodda tuting!**

Xo'jalik boshqaruvi organlari o'z faoliyatida davlat iqtisodiyotini yuksaltirishga, eksport salohiyatini oshirishga, shuningdek, iqtisodiyotni diversifikasiya qilishni ko'zlagan, davlat mablag'lari asosida va ma'lum bir mulkchilik shakli ko'rinishida tashkil etilgan boshqaruv organlaridir.

Davlat boshqaruvi organlarining o'ziga xosligi esa, ularning O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar amalda ro'yobga chiqarilishini, ularning ijrosi ustidan ta'sirchan nazorat amalga oshirilishini ta'minlashida;

– tashqi va ichki siyosatni amalga oshirish, davlatning tashqi va ichki xavfsizligini ta'minlashida;

– mamlakatni strategik rivojlantirishning ustuvor yo'naliшlarini belgilash, davlatning maqsadli dasturlarini ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishni tashkil qilish, iqtisodiy islohotlarni ro'yobga chiqarish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishida;

– insonning Konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini, aholining ta'lim, tibbiy xizmat, ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqlarini ta'minlash va himoya qilish, mehnat bozorini tartibga solish, ijtimoiy sohada umum davlat boshqaruv tizimi faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirishida;

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5185-soni Farmoni // «Xalq so'zi», 2017-yil, 180(6874)-son.


– tegishli huquqiy muhitni yaratish, litsenziyalash, sertifikatlashtirish va standartlashtirish orqali xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishida;

– soliqlar, bojxona to‘lovlarini yig‘ish, davlat daromadlarini taqsimlash yo‘li bilan xazinaga oid vazifalarni amalga oshirishida<sup>1</sup> namoyon bo‘ladi.

Qisqa qilib aytganda, davlat boshqaruvi organlari asosan idoraviy faoliyat turi bo‘lib, ularning xodimlaridan, ya’ni davlat xizmatchilaridan asosan yuksak intellektual salohiyatni, oddiy qilib ta’kidlaganda, hujjatlar bilan ishslash ko‘nikmasini talab qiluvchi faoliyat turidir. Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining umumiyligi esa ularning davlat hokimiyati organlari (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi) tomonidan tashkil etilishidir.

Shu joyda yana bir nazariy savol tug‘iladi. «Davlat boshqaruvi organlari» degan ta’rif xo‘jalik boshqaruvi organlarini ham qamrab oladimi? Javob: yo‘q, qamrab ola olmaydi. Yuqorida guvohi bo‘lganimizdek, ularning funksiyalari, yo‘nalishlari har xildir. Agar biz Ma’muriy huquqni faqatgina «davlat boshqaruvi organlari» deb o‘rganadigan bo‘lsak, bu noto‘g‘ri yondashuv bo‘ladi va bu bilan biz, davlatning yana bir boshqaruvi organlari bo‘lgan – xo‘jalik boshqaruvi organlarini e’tibordan chetda qoldirgan bo‘lamiz. Natijada ijro hokimiyatiga to‘g‘ri va xolis baho bera olmaymiz. Ushbu ikkita tushunchani yaxlit ifodalay olish uchun ham Ma’muriy huquq degan fan sohasi mavjud. Ushbu fan sohasining yetuk olimlari tomonidan ishlab chiqilgan va bizga tavsiya qiladigan xulosalaridan foydalanib, davlat boshqaruvi organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlari tushunchalarini umumiy ifodalovchi tushuncha bu Ommaviy boshqaruvi organlari tushunchasidir. Aynan ushbu tushuncha orqali biz ijro hokimiyatining ikkita katta subyektlarini yaxlit ifodalay olgan bo‘lamiz. (2-chizmaga qarang)

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 9-dekabrdagi «Respublika Davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida» PF-3358-soni Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi axborotnomasi, 2003-yil, 11-12-son, 178-modda.



Ommaviy boshqaruvi organlarning boshqaruvi shakllari deb, o'z faoliyatini qonunlarga tayangan, inson va fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlari ta'minlanishini e'tiborga olgan holda olib boruvchi, harakatlari huquqiy tartibga solingan faoliyati tushuniladi.

**Ushbu organlar o'z faoliyatini amalga oshirishi davomida bir qator boshqaruvi shakllaridan foydalanadi. Adabiyotlar boshqaruvi shakllari, eng avvalo, quyidagicha tasniflanadi:**

- ommaviy boshqaruvi organlarning (davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarning) huquqiy boshqaruvi shakllari;

- ommaviy boshqaruvi organlarning (davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarning) nohuquqiy (tashkiliy) boshqaruvi shakllari.

O'z navbatida, **huquqiy boshqaruvi shakllari** ham ikkiga ajratiladi. Bular **huquq normasining o'rnatilishi** va **huquq normasining qo'llanilishi**.

Ommaviy boshqaruv organlarining va ularning mansabdon shaxslarining har bir harakati, qabul qilgan qarori qonunlarga, kodekslarga asoslangan bo'lishi kerak. Bu esa jamiyatda qonuniylik prinsipining ta'minlanishiga zamin yaratadi.

Shu bilan birga, ommaviy boshqaruv organlari jamiyatda uchratishi mumkin bo'lgan har bir vaziyatini qonunlarga mujassamlashtirish o'ta murakkab ish. Biror bir soha bo'yicha qonun qabul qilib, o'sha qonunda amaliyotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha vaziyatlarni belgilab qo'yishning deyarli imkonni yo'q. Shu sababli ham qonunlar va kodekslardagi ayrim masalalarni qo'shimcha ravishda, qonunlar maqsad va prinsiplariga mos ravishda aniqlashtirish, oydinlashtirish zarurati paydo bo'ladi. Ushbu vazifani, odatda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hujjatlari amalga oshiradi. Ya'ni qonunlar va kodekslarning ayrim normalarini detallashtiradi. Shu tariqa ommaviy boshqaruv organlarining u yoki bu vaziyatlarda qanday harakat qilishi lozimligini belgilab beradi. Bu esa ma'muriy huquqda ommaviy boshqaruv organlarining huquqiy shakllari deb nomlanadi.

Ta'kidlash kerakki, ma'muriy boshqaruv sohasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar shunday tendensiyada kechmoqdaki, o'rta muddatli istiqbolda ommaviy boshqaruv organlarining bevosita qonunlar va kodekslarga asoslangan faoliyat yuritishini ta'minlash choralar o'rganilmoxda. Bu ham qonunlarning bevositaliligini ta'minlash va qonuniylik prinsipining jamiyat hayotida amal qilishini yanada mustahkamlash choralaridir.

Ommaviy boshqaruvning huquqiy va nohuquqiy shakllari to'g'risida batafsil keyingi paragrafimizda to'xtalamiz.

#### **Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol:**

Olmaliq tog' kon metallurgiya kombinati rahbariyati o'z xodimlari jamoasini Navro'z bayrami munosabati bilan rag'batlantirish maqsadida rahbar buyrug'i rasmiylashtirildi va har bir xodim eng kam oylik ish haqining yetti baravari miqdoridagi bir martalik pul mukofotlari bilan taqdirlandi.

Vaziyatdan xabar topgan Olmaliq shahar moliya bo'limi OTMKga pul mablag'larini maqsadli sarflash to'g'risida tanbeh mazmunidagi xat yo'llaydi.

*OTMK xatti-harakatlari ma'muriy huquq predmetiga taalluqlimi?  
Paragraf mazmunidan kelib chiqib OTMK maqomiga huquqiy  
baho bering.*

*Olmaliq shahar moliya bo'limining xatti-harakatlari asoslimi?*

## **2.2. Davlat boshqaruvi organlari faoliyatida boshqaruvning huquqiy va tashkiliy shakllari**

Ommaviy boshqaruv organlari faoliyatida boshqaruvning huquqiy va nohuquqiy (tashkiliy) shakllari eng ko'p, har kun ishlataladigan shakl bo'lganligi uchun boshqaruvning ushbu turidan boshlashni joiz deb bildik.

Yuqoridagi qisqa izohdan kelib chiqib, ushbu ikkita tushunchani yaxlit ifodalovchi quyidagicha ta'rifni ilgari suramiz.

Ommaviy boshqaruv organlari faoliyatining huquqiy va nohuquqiy (tashkiliy) shakllari deb ularning faoliyatida o'zlariga qonunlar va kodekslar bilan berilgan vakolatlarni, huquq hamda majburiyatlarni kundalik tarzda amalga oshirishiga qaratilgan boshqaruv shakliga aytildi.

O'z navbatida ommaviy boshqaruv orgaplari faoliyatida boshqaruvning huquqiy shakllari deb u yoki bu ommaviy boshqaruv organi va ular mansabdon shaxslarining harakatlari va qabul qilgan qarorlarining qonunlar va kodekslarga hamda yuqori turuvchi organlar hujjatlariga to'la mos ravishdagi yuridik javobgarlikni keltirib chiqaruvchi harakatiga aytildi.

**Boshqaruvning huquqiy shakllari, o'z navbatida,  
ikkiga bo'linadi. Bular:**

- huquq normasini o'rnatish;
- huquqni qo'llash.

**Huquq normasini o'rnatish** ommaviy boshqaruv organlariga qonunlar bilan belgilab berilgan vakolatlarni, huquq va majburiyatlarni amalga oshirish mexanizmlarini aniqlashtirishga qaratilgan ijro hokimiyati organlarining norma ijodkorigi faoliyatidagi harakatlaridir.

**Huquqni qo'llash** ommaviy boshqaruv organlari va ular mansabdon shaxslarining qonunlar bilan belgilab berilgan vakolatlarni, huquq va majburiyatlarni amalga oshirish mexanizmlarining ijro hokimiyati organlari tomonidan huquq normasi o'rnatilganidan

so'ng uni qo'llash yuzasidan qaror qabul qilish shaklida namoyon bo'ladigan faoliyatidir.

## **Dastavval huquq normasini o'rnatish deb nomlangan boshqaruving huquqiy shakliga misol keltiramiz:**

<b>Huquqiy shakl turi</b>	<b>Huquqiy shaklning nomlanishi</b>	<b>Misol</b>
<b>Huquq normasining o'rnatilishi</b>	2021-yil 21-dekabr-dagi «Xalqaro pochta va kurerlik jo'natmalarining bojxona nazorati va bojxona rasmiy-lashtiruvidan o'tkazish tartibi to'g'risida»gi 767-sohli nizomi	Fuqaro A. AQShdag'i o'z xorijiy hamkorlariga buyurtma pochta orqali xat yo'llamoqchi bo'lib, O'zbekiston pochтasi xizmatidan foydalandi. Xizmat narxi 34.600 so'm pul to'ladi. Pochta jo'natmasining yetib borish muddati bilan qiziqqan A. uning 20-25 kun davomida yetib borishini bildi. Pochta mas'ul xodimi xatning bojxona nazoratidan o'tishini va shu sababli ham kamida 20 kun muddatdan so'ng manzilga yetib borishini bildirdi. Fuqaro A. xatning 4 dona Faxriy yorliq ekanligi va uni bojxona nazoratiga aloqasi yo'qligini bo'yicha e'tiroz bildirdi. Mas'ul xodim bu qonun talabi ekanligini fuqaroga eslatdi.
<b>O'rnatilgan huquq normasining qonunlar va kodekslarga mosligi</b>	O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi	
<b>Qonunlar va kodekslarning Konstitutsiyaga mosligi</b>	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi	
<b>Eslatma!</b>		
<p>Ushbu misolda «O'zbekiston Pochtasi» mas'ul xodimi va bojxona xodimlari o'z xatti harakatlarining huquqiyligini ta'minlashi uchun quyidagilarga qat'iy rioya etishi shart:</p>		

– o'rnatilgan huquq normasi chegarasidan chiqmasligi. (2021-yil 21-dekabrdagi «Xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarini bojxona nazorati va rasmiylashtiruvidan o'tkazish tartibi to'g'risida»gi 767-sonli Nizom);

– ushbu o'rnatilgan huquq normasi ham, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi tegishli moddalari va bandlariga to'liq mos ravishda qabul qilingan bo'lishi shart.

– o'z navbatida, mazkur qonunlar ham mantiqan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi moddalari va bandlariga mos bo'lishi lozim.

Mana shu talablarga mos bo'lgan ommaviy boshqaruvi organining («O'zbekiston Pochtasi»ning) harakatlarini huquqiy shakldagi harakatlar deyish mumkin.

B.M. Lazarevning fikricha, ma'muriy organlarning norma ijodkorligi faoliyatida normativ hujjatlar ular faoliyatining eng huquqiy asoslantirilgan qismi bo'lib, u qonunchilik bilan aniq va ravshan belgilanishi lozim<sup>1</sup>. Darhaqiqat, ma'muriy organlarning norma ijodkorligi bilan shug'ullanishi, ba'zi hollarda qonunlar normalarining yuzaki talqin qilinishiga yoki umuman talqin qilinmasdan insoniylilik, adolatlilik va demokratizm prinsiplariga zid ravishda qo'llanilishiga ham olib kelishi mumkin. Natijada qonun bir tarafda, amalda esa huquqni qo'llash amaliyoti ikkinchi tarafda qolib ketishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham qonunlarni ortiqcha norma ijodkorligiga o'rin qoldirmasdan ijrosini ta'minlash mumkin bo'ladigan holda qabul qilish ham o'ta ahamiyatlidir. Ammo bu borada ham ma'muriy huquq sohasining klassik vakillarida yagona fikr mavjud emas. Jumladan, Georg Yellinekning fikricha, saqat qonunlar ko'rsatmasi asosida boshqarishni amalga oshirish, hukumatga ega bo'limgan davlatda mumkindir. Ammo bunday davlatni barpo etish haqiqatdan anche yiroqdir<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Б.М. Лазарев. Компетенция органов управления. – М.: Юрид. Лит., 1972. – С. 53.

<sup>2</sup> Г. Еллинек. Общее учение о государстве. – Спб.: Изд-во «Юридический Центр Пресс», 2004. – С. 592.

G. Yellinekdan deyarli bir asrdan so'ng AQSHlik ma'muriy huquq bo'yicha olim R. Lorch ham shunday fikr bildirgan edi: «Agar kongress eng a'llo darajadagi manbalar, kuch va vositalar bilan ta'minlangan taqdirda ham milliy norma ijodkorligining barcha yukini torta olmasdan uning katta qismini boshqaruvin organlariga topshirgan bo'lar edi<sup>1</sup>».

Endigi navbatda huquq normasini qo'llash deb nomlangan boshqaruvining huquqiy shakliga misol keltiramiz. Bunda tizimli va tushunarli bo'lishi uchun yuqoridagi kazusli vaziyatni davom ettirgan holda kazusdagi huquqni qo'llash shaklida qabul qilingan qarorlarga misol keltiramiz.

Yuqorida biz huquqni qo'llash, om'maviy boshqaruvin organlari va ular mansabdor shaxslarining qonunlar va kodekslar bilan belgilab berilgan vakolatlarni, huquq va majburiyatlarni amalga oshirish mexanizmlarining ijro hokimiyati organlari tomonidan huquq normasi o'rnatilganidan so'ng uni qo'llash yuzasidan qaror qabul qilish shaklida namoyon bo'ladigan faoliyati degan ta'rifni ilgari surdik.

Xo'sh, chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasida o'tka-ziladigan soliq tekshiruvlarida nazorat xaridini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlanib, huquq normasi o'rnatilgan ekan, mazkur tadbirni o'tkazish asoslari, muddatlari, ishtirokchilari va boshqa zarur shartlarini huquqiy asoslantirgan tarzda tuman soliq inspeksiyasi buyruq qabul qilishi shart. Mazkur buyruqda yuqoridagi ta'kidlangan barcha shartlar o'z ifodasini topishi lozim. Eng avvalo, nazoratning bunday shaklini qo'llashga bo'lgan zarurat va asos aniq hamda to'liq keltirilishi darkordir.

Demak, ushbu shartlar aniq va to'liq asoslantirilgan tarzda qabul qilingan nazorat xaridini o'tkazish to'g'risidagi qaror – huquqni qo'llash hisoblanadi. Ya'ni soliq inspeksiyasi rahbari qonuniy va hatto Konstitutsiyaviy asoslarga ega bo'lgan, avval o'rnatilgan huquq normasiga asoslangan va uning ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilgan buyrug'i huquqni qo'llash deb ataladi.

Shunday qilib, om'maviy boshqaruvin organlarining boshqaruvin shakllarining huquqiy turlari bo'lgan huquq normasini o'rnatish va

---

<sup>1</sup> R.S. Larch. Democratic process and administrative law. Rev.ed. – Detroit: Wayne state univ press, 1980. P. 23.

huquqni qo'llash turlari bir-biri bilan bevosita bog'liqlikda va bir-birini to'ldirib turish xususiyatiga ega. Ta'kidlash kerakki, bunda shartli ravishda avval huquq normasi o'rnatilishi shart, so'ngra uni qo'llash mumkin. Agar uning aksi yuz beradigan bo'lsa, ya'ni huquq normasi o'rnatilmasidan qo'llanilsa, bunday harakatni o'z-o'zidan nohuquqiy yoxud noqonuniy hisoblashga asos bo'ladi.

Ommaviy boshqaruв organlarining faoliyatida nohuquqiy (tashkiliy) shakllari deb, boshqaruв organining huquqiy shakllarini amalga oshirish maqsadida qo'llaniladigan harakatlar algoritmi tushuniladi. O'z navbatida, ushbu shakl ham ikkiga ajratiladi. Bular:

- tashkiliy shakllar;
- moddiy-texnik shakllar.

**Tashkiliy shakllar** deb ommaviy boshqaruв organining huquqiy shakllarida belgilangan vakolatlarni, huquq va majburiyatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy, uslubiy harakatlar algoritmini amalga oshirish tushuniladi.


**Moddiy-texnik shakllar** deb ommaviy boshqaruв organining huquqiy shakllarida belgilangan vakolatlarni, huquq va majburiyatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan moddiy ajratmalar, ommaviy boshqaruв organining resurslari, kuch va vositalarining ajratilishi, foydalanilishiga aytildi.

Boshqaruvning ushbu shaklini ta'riflar ekanmiz, yuqoridagi tuman soliq inspeksiyasi misolini davom ettirish maqsadga muvofiq. Tashkiliy shakllarga quyidagilar taalluqli. Bunda tuman soliq inspeksiyasi xodimlari mazkur tadbirkorlik subyekti ustidan jismoniy yoki yuridik shaxs tomonidan kelib tushgan shikoyatini o'rganib chiqadi. Jumladan, tegishli bo'lim uni (shikoyatni) ro'yxatga oladi; shikoyat mazmuni bo'yicha murojaatchi bilan bog'lanishi mumkin; ustidan shikoyat kelib tushgan tadbirkorlik subyektining soliq organi ixtiyorida mavjud bo'lgan soliq hisobotlarini o'rganishi mumkin; uning soliq to'lash tarixini o'rganishi mumkin; tadbirkor faoliyat yurituvchi hudud uchastka soliq inspektoridan tavsiyanoma so'rashi mumkin; shikoyat yuzasidan qisqa muddatli tekshirish o'tkazish yoki o'tkazmaslik to'g'risida kengashishi mumkin; so'ngra soliq organi ish yurituvchisi tomonidan tekshirish o'tkazish to'g'risida soliq organi rahbari imzolaydigan buyruq loyihasini tayyorlaydi va boshqa shu kabi harakatlarni amalga oshiradi. Bularning barchasini ommaviy boshqaruв organlarining boshqaruvdagи tashkiliy shakllari

deb ataladi. Boshqacha qilib ta'kidlaganda, boshqaruvning huquqiy shakllari tomonidan o'rnatilgan tartib qoidalarni bevosita ro'yobga chiqarish yo'lida amalga oshiriladigan ish yurituv jarayoniga aytildi.

Boshqaruv nohuquqiy shaklining ikkinchi turi bu moddiy-texnik shaklidir. Bunda yuqoridagi misol asosida davom ettirgan holda shuni ta'kidlash kerakki, litsenziyalovchi organ tegishli litsenziya turi bo'yicha uni rasmiylashtirish tartibi to'g'risidagi tegishli Nizom talablari doirasida o'z kuch va vositalaridan foydalanishi mumkin. Bunda mazkur davlat boshqaruvi organi Nizom talablaridan tashqari «Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida»<sup>1</sup>gi Qonun talablariga mos ravishda harakat qilib, litsenziyaga talabgor shaxsga uning hujjatlari ma'qullangani yoki ma'qullanmaganligi to'g'risida xabar berishi kerak. Litsenziya talabgori so'ragan masala yuzasidan ko'rilgan majlis Bayonnomalar nusxasi ham qoida tariqasida talabgorga berilishi kerak. Ushbu jarayonlarning barchasi boshqaruvning moddiy-texnik shakliga misol bo'ladi.

### 3-chizma



<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyuldag'i «Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida»gi O'RQ-701-sonli Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2021-y., 03/21/701/0674-soni.

Ya'ni bunda ommaviy boshqaruv organining u yoki bu o'z vakolatiga taalluqli bo'lgan tadbirni o'tkazishi uchun ishlatalishi mumkin bo'lgan kuch va vositalari, boshqaruvning nohuquqiy moddiy-texnik shakllaridir.

Ta'kidlash kerakki, ko'plab adabiyotlarda boshqaruvning ushbu shaklida nohuquqiy degan ta'rifni ishlatadi. Nazarimizda, ushbu atama uning asl ma'nosini bera olmaydi. Shu bilan birga, bunday atama talabalar orasida uni huquqqa xilof degan ma'nolarda tushunishga ham olib kelishi mumkin. Shuning uchun ommaviy boshqaruv organlarining boshqaruv shakllarini huquqiy va tashkiliy deb atash maqsadga muvofiq.

Boshqaruv shakllari huquqiy yoki tashkiliy shakllarga ajratilishi shartli tushunchalar ekanligini ham ta'kidlash zarur. Chunki ushbular biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydi, ya'ni ular bir tizimning ajralmas qismlaridir. (*3-chizmaga qarang*)

#### **Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol:**

Talaba qonunchilikda belgilangan 74 soatdan ko'p miqdorda uzrli sabablarsiz dars mashg'ulotlarini qoldirdi. Natijada tegishli fanlar professor-o'qituvchilari talaba tahsil oluvchi dekanatiga bildirgilar kiritdi, talabaning o'zi ham bir necha bor tushuntirish xatlarini taqdim etdi. Belgilangan tartibda talabaga qayta o'zlashtirish uchun vaqt va imkoniyat yaratildi, shunga qaramasdan talaba vaziyatni o'zi uchun ijobji tomonga o'zgartira olmadi. Yakunda tegishli tartibda institut rahbarining buyrug'i rasmiylashtirildi. Buyruqda talabaning shikoyat keltirishi mumkinligi to'g'risidagi band ham mustahkamlab qo'yildi.

*Mazkur vaziyatda boshqaruvning huquqiy shakllarini aniqlang.*

*Mazkur holatda huquq normasini qo'llash amalga oshirilganmi?*

*Mazkur vaziyatda qanday tashkiliy-uslubiy ishlar amalga oshirilgan bo'lishi mumkin?*

### **2.3. Davlat boshqaruvi organlari faoliyatida boshqaruvning maxsus shakllari**

Avvalgi paragrafimizda O'zbekiston Respublikasi ijro hokimiyati tizimiga taalluqli bo'lgan tuzilmalarni davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan iborat ekanligini hamda ularni yagona kategoriya ostida birlashtirgan holda ommaviy boshqaruv organlari deb atagan

edik. Ushbu ommaviy boshqaruv organlarining boshqaruv shakllari nafaqat huquqiy va tashkiliy shakllardan iborat, balki, bugungi kunda ularning faoliyatida keng qo'llanilayotgan maxsus shakllarni ham ta'riflab o'tish joiz.

Albatta, maxsus shakllar deb nomlashimiz prinsipial ahamiyatga ega emas. Har bir olim, tadqiqotchi ushbu shakllarni tadqiq qilishi davomida uning yangi qirralarini «kashf» etishi orqali uni boshqacha nomlashi ham mumkin. Asosiysi, bugungi kunda shunday «maxsus boshqaruv shakllari» degan shartli nomlanishdagi kategoriyaning mavjudligi, uning ommaviy boshqaruv organlari faoliyatiga, qolaversa, rasmiy hujjat shakliga kirganidan so'ng jamiyat hayotiga ham ta'sir etishi hamda ushbu shakllarning ijtimoiy munosabatlarni yuzaga keltira olishi faktini o'rganish zarurati mavjud.

Ushbu maxsus boshqaruv shakllariga ommaviy boshqaruv organi yoki uning bir qismi istiqboldagi rivojlanishi va zamonaviy yondashuvlarni qo'llash faoliyati tushun'iladi. Odatda, ushbu shakllar Konsepsiya, strategiya, doktrina, dastur va «yo'l xaritalari» shaklida namoyon bo'ladi. Ushbu tushunchalarning barchasining o'ziga xos umumiyligi va o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Strategiya, Konsepsiya va doktrina tushunchalari biri-biriga yaqin tushunchalar va ular istiqbolda erishish lozim marralarni, rejalarни, loyihalarni ifoda etadi. Ushbu tushunchalar bir-biriga o'xshash va yaqin bo'lsa-da, ma'lum farqlarga ham ega ekanligini ta'kidlash lozim. Xususan, ayrim jihatlariga ko'ra strategiya keng va umumiy ahamiyatga ega. Har qanday davlat, xalqaro hamjamiyatning bir qismi sifatida o'z istiqbolining 10, 20, 30 va hatto 50 yilga mo'ljallangan strategiyalarini qabul qilishi mumkin. Ularning ayrim yo'nalishlari yoki davrlaridagi marralarga erishishi uchun Konsepsiya yoki doktrina shaklidagi hujjatlarni ham qabul qilishi mumkin. Ma'lumki, bugungi kunda ijro hokimiyatining ma'lum tarmoqlarida ham o'zlarining rivojlanish strategiyalari, Konsepsiyalari qabul qilinmoqda. Mazkur tarmoqdagi ommaviy boshqaruv organlari va ularning mansabdor shaxslari o'z kundalik faoliyatida mazkur hujjatlarga asoslangan holda, aniqrog'i, mazkur hujjatlardagi marralarga erishish, ro'yobga chiqarish maqsadida ommaviy boshqaruv organi tuzilmasi, funksiyalari, vakolatlari, huquq va majburiyatlari, faoliyat yuritish uslubi va shakllarini yanada yaxshilashga, xalq, jamiyat uchun yaqin va qulay sharoit yaratishga

urinadi. Boshqacha qilib ta'kidlaganda, davlatning ijro hokimiyati organlari «o'zini shakllantirish va takomillashtirish» tadbirlarini amalga oshiradi. Shuning uchun ham ushbu hujjat yoki boshqaruva shakli normativ-huquqiy hujjatlardagidan, ya'ni boshqaruvinning huquqiy shaklidan ajralib turuvchi bir qator xususiyatlarga ega.

Dasturlar va «yo'l xarita»lari ham strategiya, Konsepsiya va doktrinalardan so'nggi o'rinnlarda turuvchi, odatda, qisqa muddatli istiqbolga (1 yilgacha) mo'ljallangan loyihalardir. Ushbu rejadagi loyihadagi tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali u huquqiy, bajarilishi majburiy bo'lgan kategoriyaga aylanadi. Strategiya va Konsepsiya shaklidagi hujjatning boshqa huquqiy, ijro etilishi majburiy bo'lgan hujjatlardan bir qator xususiyatlari bilan farqlanadi.

### **Strategiya, Konsepsiya va doktrina shaklidagi hujjatning normativ-huquqiy hujjatlardan farqi**

<b>Strategiya, Konsepsiya va doktrina shaklidagi hujjatning o'ziga xosligi</b>	<b>Normativ-huquqiy hujjatlarning o'ziga xosligi</b>
Istiqbolga mo'ljallangan qarashlar, g'oyalilar, yo'naliishlar yig'indisi.	Rasmiy ravishda tayyorlanib, tahlil qilinib, huquqiy va boshqa ekspertizalardan o'tkazilgan, ro'yxatga olingan va bajarilishi majburiy kuchga ega bo'lgan rasmiy hujjatdir.
Kelgusida davlat va jamiyat hayotidagi obyektiv o'zgarishlar ta'siri ostida strategiya, Konsepsiya va doktrinalarning u yoki bu qismi o'zgarishi, ommaviy va xususiy huquq subyektlari huquq va manfaatlari javob bermay qolishi natijasida bajarilmasdan qolishi mumkin.	Normativ-huquqiy hujjatning barcha normalari rasmiy kuchga kirganidan keyin ijro etilishi va ommaviy boshqaruva organlarining mansabdon shaxslariga ma'lum huquq va majburiyatlar yuklanadi.

Bir qator yangi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi yoki eskilari ma'lum o'zgarishlarga uchrashi kuzatiladi.	Rasmiy qabul qilingan hujjat amalda o'z kuchida turli yuridik faktlarga huquqiy ta'sir etishda davom etadi.
Odatda o'rta va uzoq istiqbolga mo'ljallanadi.	Odatda muddatsiz yoki yangisi qabul qilinmaguncha davom etadi.
Bajarilishi ommaviy boshqaruv organlaridan talab qilinadi.	Bajarilishi ommaviy va xususiy huquq subyektlaridan birdek talab qilinishi mumkin.
Odatda amalga oshirish mexanizmlari noma'lum holatda bo'ladi.	Mexanizmlari aniq belgilangan bo'ladi.
Xohish, istak yoki tasavvurdagi ideal holat.	Jamiyat hayotga bevosita bugungi kunda ta'sir qiladigan real holat.

Ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan strategiya, Konsepsiya va doktrinalar, yuqoridagi jadvalda ko'rsatilgan xususiyatlaridan kelib chiqib hamda ma'lum o'zgarishlarga uchrashi mumkinligini e'tiborga olib, parlament, mahalliy vakillik organlari kabi kollegial institutlar tomonidan e'lon qilinishi maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. Ammo ta'kidlash lozim, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasidagi barcha darajadagi vakillik organlari faoliyatida, eski tuzum davridan qolgan «boqimondachilik» kayfiyati ma'lum darajada saqlanib qolmoqda va natijada barcha strategiya, Konsepsiya va doktrina kabi muhim istiqbolli hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumat tashabbusi bilan amalga oshirilmoqda.

Ommaviy boshqaruv organlari faoliyatida maxsus boshqaruv shakllari (strategiya, Konsepsiya, doktrina, dastur va «Yo'l xaritasi») ga quyidagilar misol bo'lishi mumkin:

<b>Strategiya</b>	2017-yil 7-fevralda qabul qilingan «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishing beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi»
-------------------	---

	2010-yil 12-noyabrda e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasida demokratik islohotlarni chiqurlash-tirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish Konsepsiysi.
<b>Konsepsiya</b>	2017-yil 8-sentyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar» Konsepsiysi.
	2018-yil 8-avgustda qabul qilingan «Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish Konsepsiysi».
<b>Doktrina</b>	<p>Doktrina<sup>1</sup> tushunchasi mazmun-mohiyatiga ko'ra siyosiy va ilmiy kategoriya bo'lib, uni huquqiy kategoriyaga bog'liqligi yuqori darajada o'rin tutmasligini ta'kidlash joiz. Doktrina ikki ko'rinishda bo'ladi. Bular yuqorida ta'kidlanganidek, ilmiy va siyosiydir.</p> <p>Ilmiy doktrinalarga ko'ra turli sohalardagi olimlar, shu jumladan, huquq sohasi olimlarining umumiy tan olingan qarashlari va g'oyalari nazarda tutiladi.</p> <p>Siyosiy doktrinalarga siyosiy arboblarning qarashlari, chiqishlari va ilgari suradigan takliflari hamda murojaatlarini keltirish mumkin.</p>
<b>Dastur</b>	<p>2019-yil 17-yanvarda qabul qilingan «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi.</p> <p>2018-yil 22-yanvarda qabul qilingan «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalilar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi».</p>

<sup>1</sup> Юридический словарь / Под ред. А.Н. Азрилияна. – М.: Институт новой экономики, 2007. – С. 187.

	2018-yil 5-sentyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi bilan Misr Arab Respublikasi tashqi ishlar vazirligi o'rtasida 2019-2020-yillarga mo'ljallangan Hamkorlik dasturi».
«Yo'l xaritasi»	O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar Konsepsiyanining samarali amalga oshirilishi bo'yicha «Yo'l xaritasi» <sup>2</sup> .  «Xalq ta'limi tizimida maktab va mактабдан ташқари та'лим сифатини янада яхшилаш бойича босқичма-босқич чора-тадбирларни амалга оширишга гаратилган Yo'l xaritasi».

Ma'muriy huquq doirasida ommaviy boshqaruв organlari tomonidan boshqaruvning maxsus shaklini o'rganish natijasida ushbu organlar va ularning mansabdor shaxslari xatti-harakatlariga baho berish, ularning qabul qilayotgan qarorlari va chiqarayotgan xulosalarining qanchalik huquqiy tomonidan asoslanganligiga, adolatlilik, xolislik va ochiqlik prinsiplariga mosligiga baho berish imkoniyatini yaratadi<sup>1</sup>.

#### **Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol:**

2030-yilgacha xalq ta'limi tizimini rivojlantirish Konsepsiysi qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining Strategik tahlil, progressiv pedagogik texnologiyalar va ta'lim sohasida yangi tashabbuslarni joriy etish boshqarmasiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasidan Konsepsiya belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga гаратилган «Yo'l xaritasi»ni tayyorlab, Vazirlar Mahkamasiga tasdiq uchun taqdим etish topshirig'i kelib tushdi. Shu munosabat bilan vazirlik tegishli xat bilan ta'lim sohasini takomillashtirish masalalariga oid olib borilgan ilmiy va tahliliy tadqiqotlar natijalarini so'rab tegishli OTMlarga, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiga, O'zbekiston Respublikasi Oliy

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5185-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami, 2017-yil, 37сон, 979-modda.

Majlisi huzuridagi Parlament tadqiqotlari va qonunchilik muammolari institutiga boshqa ta'limga aloqador tashkilotlarga xat yo'lladi. Mazkur masala yuzasidan soha mutaxassislari bilan konferensiya o'tkazish masalalari belgilab olindi.

*Mazkur vaziyatda boshqaruvning qanday maxsus shakli qo'llanilgan?*

*Ma'muriy huquq subyektlari maqomiga baho bering.*

*Ushbu holatda ma'muriy huquq predmeti doirasidagi ijtimoiy munosabatga misol mavjudmi?*

## **2.4. Davlat boshqaruvi organlari faoliyatida boshqaruvning ma'muriy-huquqiy shartnoma shakllari**

Ommaviy boshqaruv organlari faoliyatida boshqaruvning ma'muriy-huquqiy shartnoma shakli O'zbekiston huquq tizimi uchun nisbatan yangi shakl bo'lib, bugungi kunda amaliyotda kam uchraydigan va yetarli darajada ilmiy tadqiq etilmagan qismidir. Shunday bo'lsa-da, O'zbekiston Respublikasi ijro hokimiyati organlari tizimida ham ma'muriy-huquqiy shartnomalardan foydalangan holdagi boshqaruv shakli mavjudligini, faqat ular yetarli darajada ilmiy tadqiq etilmaganligini kuzatish mumkin.

**Ma'muriy-huquqiy shartnomalar nazariy jihatdan subyektlariga ko'ra ikkita guruhga bo'linadi. Bular:**

- yuridik shaxslar bilan tuziladigan ma'muriy-huquqiy shartnomalar;
- jismoniy shaxslar bilan tuziladigan ma'muriy-huquqiy shartnomalar.

**Muddatiga ko'ra:**

- ma'lum muddatga tuziladigan ma'muriy-huquqiy shartnomalar;
- noma'lum muddatga tuziladigan ma'muriy-huquqiy shartnomalar.

**Darajasiga ko'ra esa quyidagilar:**

- respublika darajasidagi ma'muriy-huquqiy shartnomalar;
- mahalliy darajadagi ma'muriy-huquqiy shartnomalar.

Ma'muriy-huquqiy shartnomalarga oid ushbu nazariy kategoriyalarni tahlil qilishdan oldin ushbu tushuncha ta'rifini keltiradigan bo'lsak, ma'muriy-huquqiy shartnoma – bu ommaviy

boshqaruv organining o'ziga berilgan qonuniy vakolatlari doirasida ularni samarali amalga oshirish, jamiyatning qonuniy huquq va manfaatlarini ro'yobga chiqarish maqsadida turli mulkchilik shakllaridagi yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuziladigan shartnomasi bo'lib, ularga o'z funksiyalari va vakolatlariga oid ayrim boshqaruv bilan bog'liq bo'lган ustunliklarning ta'minlashidir.

Shu masalaga alohida urg'u berish lozimki, ma'muriy-huquqiy shartnomalar fuqarolik-huquqiy shartnomalardan tubdan farq qiladi. Fuqarolik-huquqiy shartnomaning huquqiy asoslari mavjud va u yillar davomida shakllanib ulgurgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 26-bobi, O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonuni kabi normativ-huquqiy hujjatlar mazkur shartnoma turining huquqiy asoslarini tashkil etadi. Ammo ularning barchasi fuqarolik sohasiga oid bo'lган shartnomalardir. O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonuning 8–9-moddalari<sup>1</sup>da mustahkamlangan normalar ham ma'muriy-huquqiy shartnoma mazmunini bera olmaydi. Ommaviy boshqaruv organlarining xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan tovarlar yetkazib berish va xizmatlarni amalga oshirish yuzasidan tuziladigan shartnomalari fuqarolik-huquqiy shartnomalar guruhiiga taalluqli bo'lib, unda shartnoma predmetiga ommaviy boshqaruv organi vakolatlari, huquq va majburiyatları, tuzilmaviy masalalar kiritilmaydi..

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagи «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi 670-l-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, 1998-yil, 9-sod, 170-modda.

**Ma'muriy-huquqiy shartnomalarning nazariy tasnif-  
lanishiga misollar:<sup>1</sup>**

<b>Tasniflanishi</b>	<b>Xususiyati</b>	<b>Amaliy misollar</b>
<b>Subyektlariga ko'ra</b>	Yuridik shaxslar bilan tuziladigan ma'muriy-huquqiy shartnomalar	Mahsulot taqsimotiga oid bitim (bundan buyon matnda bitim deb yuritiladi) shartnoma hisoblanib, unga muvofiq O'zbekiston Respublikasi haq olish asosida va muayyan muddatga chet ellik investorga (bundan buyon matnda investor deb yuritiladi) bitimda ko'satilgan yer qa'ri uchastkasida konlarni aniqlash, qidirish va foydali qazilmalarni kavlab olish hamda shular bilan bog'liq bo'lgan ishlarni olib borish uchun mutlaq huquqlar beradi, investor esa mazkur ishlarni o'z mablag'lari hisobiga va tavakkal qilib amalga oshirish majburiyatini oladi <sup>1</sup> .
	Jismoniy shaxslar bilan tuziladigan ma'muriy-huquqiy shartnomalar	Kontrakt asosida harbiy xizmatga kirish.
<b>Muddatiga ko'ra</b>	Ma'lum muddatga tuziladigan ma'muriy-huquqiy shartnomalar	Odatda yuridik shaxslar bilan tuziladigan har qanday shartnoma muayyan muddatga tuziladi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 7-dekabrdagi «Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'grisida»gi 312-II-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, 2002-yil, 1-son, 12-modda.

	Noma'lum muddatga tuziladigan ma'muriy-huquqiy shartnomalar	Davlat xizmatiga qabul qilinayotgan fuqarolar bilan tuziladigan shartnomalar.
<b>Darajasiga ko'ra</b>	Respublika darajasidagi ma'muriy-huquqiy shartnomalar	Davlat boshqaruvi organlari sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun nodavlat notijorat tashkilotlariga budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan bevosita davlat ijtimoiy buyurtmasi berishi mumkin <sup>1</sup> .
	Mahalliy darajadagi ma'muriy-huquqiy shartnomalar	Qonun hujjatlarda belgilangan hollarda vakolatli davlat organlari tomonidan ushlangan transport vositalarini saqlash Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tanlab olingen yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Har bir mintaqada tanlov asosida, mintaqaning ma'muriy-hududiy bo'linishing joylashishidan kelib chiq-qan holda transport vositalarini saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi bir necha yuridik shaxslar aniqlanishi mumkin <sup>2</sup> .

12

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 3-yanvardagi «Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-y., 1-2сон, 2-modda.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 25-maydag'i «Qonun hujjatlari buzilganligi uchun ushlangan transport vositalarini to'xtash joylariga olib kelish, joylashtirish va saqlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi 149-sonli qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011-yil, 20-21-son, 207-modda.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ma'muriy-huquqiy shartnomalar masalasi u yoki bu qonunlarning ayrim normalarida ko'rsatilishiga qaramasdan bugungi kunda alohida institut sifatida o'r ganilmaydi. Ushbu holat Ma'muriy huquq fani doirasida, xalq tili bilan ta'kidlaganda, «tesha tegmagan» masalalardan biridir. Aynan ushbu shartnoma turining o'r ganilishi, aniqlashtirilishi O'zbekiston Respublikasida davlat xizmati, davlat xizmatchisi institutining rivojlanishiga ham zamin yaratishi mumkin. Zero, davlat xizmatchisi maqomidagi mansabdar shaxs bilan tuziladigan shartnoma mazmuni bilan oddiy ishga joylashish masalasi bo'yicha tuziladigan mehnat shartnomalari orasida katta huquqiy farq mavjud. Chunki davlat xizmatchisi boshqaruvi bilan bog'liq bo'lgan hokimiyat vakolatiga ega mansabdar shaxs hisoblanadi. Mehnat shartnomasini imzolayotgan ikkinchi tomonda esa har doim ham hokimga tegishli vakolatlar bo'lmasligi aniq. Aynan ushbu «joy», ushbu «nuqta», «hudud» bugungi kundagi ma'muriy huquqning mustaqil institutlaridan biri bo'lgan Davlat xizmati institutining mehnat huquqi bilan eng yaqin joylashgan «chegaralari» hisoblanadi. Davlat xizmati va davlat xizmatchilar to'g'risida keyingi bobimizda atroflicha to'xtalamiz.

#### **Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol:**

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi soliq organlarini yangi kompyuter jihozlari bilan ta'minlash maqsadida ommaviy axborot vositalari orqali kompyuter xaridi tenderini e'lon qildi. Tenderdag'i talablarga ko'ra har bir kompyuter narxi 3 mln. so'mdan ko'p bo'lman, oxirgi rusumdag'i qo'shimcha uskunalar bilan jihozlangan hamda 1 kalendar yili davomida dasturlash va sozlash xizmatlari sharti belgilandi. Tenderda Toshkent shahrida ro'yxatdan o'tgan 5 ta va Samarqand shahrida faoliyat yurituvchi 3 ta, jami 8 ta mazkur xizmatni ko'rsatishga tayyor xo'jalik yurituvchi subyekt qatnashdi. Natijada Toshkent shahridagi «REAL LIFE» MChJ g'olib deb topildi va DSQ bilan shartnoma imzolanadi. Shartnoma shartlariga ko'ra ma'muriy organ 15 foiz to'lovni amalga oshirdi. MChJ kelishilganidek 150 ta dona kompyuter yetkazib berdi. So'ngra DSQ yana 75 foiz to'lovni amalga oshirdi. Qolgan 10 foiz to'lov bir kalendar yili yakunlanganidan keyin amalga oshiriladigan bo'ldi. «REAL LIFE» MChJ shartlarda belgilanganidek, bir yil davomida dasturlash va sozlash xizmatlarini amalga oshirib keldi.

*Mazkur vaziyat ma'muriy huquq predmetiga taalluqlimi?*  
*Mazkur vaziyatdagi shartnoma ma'muriy-huquqiy shartnoma maqomiga egami?*  
*Ma'muriy-huquqiy shartnoma tushunchasi va shartlarini yana bir esga oling.*

## **2.5. Davlat boshqaruvi organlari faoliyatida boshqaruv uslublari tushunchasi va ahamiyati**

Har qanday boshqaruvga oid bo'lgan tizimda (davlat boshqaruvi, xo'jalik boshqaruvi, oilaviy boshqaruv) boshqaruv organi tomonidan organ (tizim)ning maqsad va vazifalariga hamohang ravishda ma'lum uslublar qo'llaniladi. Boshqaruv organi tomonidan qo'laniqidigan u yoki bu uslub, eng avvalo, huquq normasi bilan tartibga solinishi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishga va ularni ro'yobga chiqishiga zamin yaratishi lozim.

Ommaviy boshqaruv organlari kundalik faoliyatida qo'llaydigan u yoki bu uslublari, odatda, ma'muriy-huquqiy munosbatlarga kirishadigan subyektlarga qaratilgan bo'ladi. Ushbu subyektlarga fuqarolar, yuridik shaxslar taalluqlidir. Boshqaruv organlarining uslublarni qo'llashi, ularning qonuniy vakolatlari doirasida amalga oshirilib, eng asosiy maqsadi – qonuniy, o'zlariga yuklatilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishi uchun yetarli va zarur hajmda bo'lishi muhim. Boshqacha qilib ta'kidlaganda, mutanosiblik tamoyiliga javob berishi kerak.

Ilmiy jamoatchilikda ommaviy boshqaruv organlari qo'llaydigan uslublar turlari borasida har xil yondashuvlar mavjud. Xususan, M. Shotursunovning fikricha, ommaviy boshqaruvda ishontirish, boshqaruv, rag'batlantirish, tarbiyalash va majburlash uslublari mavjud<sup>1</sup>.

D.N. Baxraxning fikricha, yuqoridagi olim sanab o'tgan uslublar bilan bir qatorda ommaviy boshqaruv organlarida normativ tartibga solish, tashkillashtirish, legallashtirish, vakolat bilan ta'minlash, taqsimlash, hisob-kitob qilish, nazorat, ishontirish, rag'batlantirish, muammoni bartaraf

<sup>1</sup> Административное право Республики Узбекистан: Учебник для юридических вузов // Авт. коллектив: Х.Р. Алимов, Л.И. Соловьева и др. – Т.: Адолат, 1998. – С. 177.

etish, majburlash, qurolli bostirish kabi uslublarni sanab o'tadi. Mazkur olim ommaviy boshqaruv organlari uslublarini ma'muriy organning bevosita va bilvosita ta'sir etish turlariga ham ajratish lozimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, birinchisi «buyurilganidek bajar», ikkinchisi «vaziyatga qarab bajar» degan tamoyillarga to'g'ri kelishi kerak'ligiga urg'u beradi. Bunda, albatta, olim fikrlarida sobiq Ittifoq davridan «meros» bo'lib qolgan ommaviy boshqaruv organlari uslublari targ'ibotini sezish mumkin.

B.N. Gabrichidzening fikricha, ommaviy boshqaruv organlari tabiatiga iqtisodiy uslub, statistik uslub, Sotsiologik, psixologik va axborot bilan ta'minlash uslublari xos degan fikr bildirib, mazkur uslublar bir-biri bilan uzziy bog'liqlikda bo'lib, ijro hokimiyati uslublarining yagona majmuyini tashkil etishini ta'kidlaydi<sup>2</sup>.

Yu.M. Kozlovning fikricha, ishontirish, majburlash va iqtisodiy uslublar ommaviy boshqaruv organlari tomonidan eng ko'p qo'llaniladi. Olim majburlash uslubining ommaviy boshqaruv organlari o'z qonuniy maqsad va vazifalarini amalgalash oshirishi uchun zarur ekanligini ta'kidlaydi<sup>3</sup>.

Shunday qilib, ommaviy (davlat) boshqaruv organlari faoliyatida uslublar deb, boshqaruv organiga qonunan yuklatilgan maqsad va vazifalarni amalgalash oshirishga qaratilgan harakatlari davomida ishlataladigan vositalari yig'indisi tushuniladi. Ma'muriy huquq nazariyasidagi turli xil uslublarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash joizki, har bir olim, ommaviy boshqaruv organlari uslublarini qanday turlarga, toifalarga ajratmasin, ularning mazmuni bir xil bo'lib qolaveradi. Jumladan, bu ommaviy boshqaruvni amalgalash oshirishga qaratilgan, qonuniy tartibga solingan, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini asossiz cheklamaydigan harakatlar majmuyidir. Bular odadta ishontirish, rag'batlantirish va majburlash uslublarida o'z aksini topadi.

<sup>1</sup> Бахрах Д.Н. Административное право России. Учебник для вузов. – М.: Издательства «НОРМА», 2000. – С. 352 – 356.

<sup>2</sup> Габричидзе Б.Н., Елисеев Б.П. Российское административное право. Учебник для вузов. М.: Издательская группа «НОРМА-ИНФРА М», 1998. – С. 250 – 252.

<sup>3</sup> Алехин А.П., Кармолицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право Российской Федерации. Учебник. – М.: Издательство «ЗЕРЦАЛО», 1996. – С. 262.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, aksariyat rivojlangan, fuqarolik jamiyati institutlari yuksak darajaga ko'tarilgan mamlakatlarda, asosan, ishontirish uslubi aholi huquqiy ongining yuqoriligi evaziga ommaviy boshqaruв organлari tomonidan qo'llaniladi.

### **Yodda tuting!**

Ommaviy (davlat) boshqaruв organлari faoliyatida uslublar deb, boshqaruв organiga qonunan yuklatilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan harakatlari davomida ishlataladigan vositalari yig'indisi tushuniladi.

### **Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol:**

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasida 2018-yil yakunlari bo'yicha hisobot majlisi bo'lib o'tdi va unda bir qator masalalar ko'rib chiqildi. Xususan, majlisda DSQ raisining birinchi o'rinnbosari hisobot yili davomida soliq organлari tomonidan budgetga tushumлarni yashirgan va kamomad bilan to'lagan shaxslarga nisbatan jami 1174 ta ma'muriy ish ochilganligi, insofli soliq to'lovchilarga o'z vaqtida va to'la hajmda soliqlarni to'laganliklari uchun jami 24 ta xo'jalik yurituvchi subyektlarga «soliq ta'tillari» e'lon qilinganligi ta'kidlandi. Hisobot yilda namunali xizmati uchun soliq organлari xodimlarining 47 nafari «O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 27 yilligi» ko'krak nishoni bilan taqdirlanganligi, aholining soliq to'lovlarini o'z vaqtida to'lashlari uchun jami 4 ta ijtimoiy videorolik tayyorlanib davlat telekanallarida e'sirga uzatilganligi ta'kidlangan. Natijada hisobot yilda avvalgi yillarga nisbatan soliq tushumлari 33 foizga oldindan va to'la hajmda ixtiyoriy to'lanishi ta'minlanganligi ta'kidlandi.

*Mazkur misolda ma'muriy huquq predmeti mavjudligiga baho bering.*

*Ommaviy boshqaruв organлari faoliyatida qanday uslublar qo'llanilganligini izohlang.*

## **2.6. Davlat boshqaruvi organлari faoliyatida boshqaruв uslubлari**

Ommaviy boshqaruв organлari tomonidan qo'llaniladigan turli xil uslubлarni umumlashtirib, mazmuni jihatidan uch turga bo'lish mumkinligini avvalgi paragrafda ham qayd etilgan.

Bular:

- ishontirish uslubi;
- rag‘batlantirish uslubi;
- majburlash uslubi.

Ommaviy boshqaruv organi faoliyatida ishlatiladigan uslublaridan biri bu **ishontirish uslubi** bo‘lib, davlat dasturlarini, qonun normalarini va, umuman, davlat siyosatini amalga oshirishning eng afzal va ko‘p qo’llaniladigan uslublaridan biridir. Davlat organlarining o‘z faoliyati davomida mazkur uslubdan foydalanishi va ko‘zlangan ezgu natijaga erishishi ko‘rsatkichining yuqoriligi davlat va jamiyat uyg‘unligi ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Ommaviy boshqaruv organlarining ishontirish uslubini qo’llashi ma’muriy-huquqiy munosabatlar subyektlarining ongiga, dunyoqarashiga va ma’naviyatiga ijobiy ma’nodagi ta’sir etish orqali amalga oshiriladi. Bunda, albatta, ommaviy boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladigan xatti-harakatlarning ham ommaviy (jamiyat va shaxs) manfaatlariga monand bo‘lishi muhim. Ta’kidlash kerakki, deyarli har bir ommaviy boshqaruv organi (ma’muriy organ) faoliyatida ishontirish uslubidan foydalanish mumkin.

Misol uchun:

Uslub nomi	Darajasi	Tashqi ko‘rinishi va ahamiyati
	Umumdavlat miqyosida	<p>2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh-ta ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risidagi Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi.</p> <p>Mazkur dastur orgali jamiyatni birlashtirishga, bir maqsad sari yo‘nal-tirishga, ideal g‘oyalarning aniq muddatlarda ro‘yobga chiqishiga undovchi ijobiy ma’nodagi, bunyod-korlikka boshlovchi ishontirish uslubi-ning yaqqol ko‘rinishi.</p>

<b>Ishontirish</b>	Mahalliy yoki ma'lum sohalar miqyosida	Soliq to'lovarining ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni moliyalashtirish uchun sarflanishi to'g'risidagi davlat telekanallaridagi video roliklar yoki Vatan himoyasi tuyg'usini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan roliklar.
		Mazkur roliklar orqali jamiyatning davlat va uning organlariga bo'lgan ishonchi ortishi ta'minlanadi.

		Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish Konsepsiyaning qabul qilinishi.
		Xalq ta'limi sohasida faoliyat yurituvchi shaxslarni yagona maqsad sari jipslashtirish va rivojlanish sari yo'naltirishga ishontiruvchi chora tadbir hisoblanadi.

Shunday qilib, ommaviy boshqaruv organlari faoliyatidagi ishontirish uslubi deb davlat organlari tomonidan funksiya va vazifalarini amalga oshirishda jamiyat qo'llab-quvvatloviga erishish va ularni yagona maqsad sari birlashtirish orqali yo'nalish berishga xizmat qiluvchi boshqaruvning samarali uslublaridan biriga aytildi. Ushbu uslubni amalga oshirish turli darajadagi huquq normalari orqali tartibga solinadi.

Ommaviy boshqaruv organlari tomonidan keng qo'llaniladigan yana bir boshqaruv uslublaridan biri **rag'batlantirish uslubidir**. Ushbu uslub ham mazmuniga ko'ra ishontirish uslubiga yaqin bo'lib, bunda ommaviy boshqaruv organlari qonun hujjatlari doirasida o'z funksiya va vakolatlarini bajarish uchun alohida rag'batlantirish tizimidan foydalanadi. Tabiiyki, rag'batlantirish uslubi, ham davlat xizmatchisining o'ziga, ham jamiyatga moddiy yoki nomoddiy nafolib kelishi sharti belgilanadi. Ushbu uslub shu jihat bilan ishontirish uslubidan ta'sirchanroq va samaraliroq ko'rindi. Ammo ommaviy boshqaruv organlari ushbu uslubdan doimiy ravishda foydalana olmaydi. Chunki doimiy ravishdagi rag'batlantirish uslubi ham davriy bo'lib, ma'lum vaqt o'tgach o'z qadrini, qiymatini yo'qotishi mumkin.

Ommaviy boshqaruv organining rag'batlantirish uslubi ham umum davlat, ham mahalliy, shuningdek, ma'lum sohalar doirasida kuzatilishi mumkin.

Misol uchun:

<b>Uslub nomi</b>	<b>Darajasi</b>	<b>Tashqi ko'rinishi va ahamiyati</b>
<b>Rag'batlantirish</b>	Umum davlat miqyosida	<p>«O'zbekiston Qahramoni» unvonining berilishi, «Mehnat shuhrati» ordenining topshirilishi va hokazo.</p> <p>Bular nomoddiy ko'rinishdagi rag'batlantirish uslublaridir.</p>
	Mahalliy yoki ma'lum sohalar miqyosida	<p>Urgut, Angren, Jizzax, G'ijduvon, Qo'qon, Hazorasp va Navoiy erkin iqtisodiy hududlarining e'lon qilinishi.</p> <p>Moddiy ko'rinishdagi rag'batlantirish uslublariga taalluqlidir.</p>
		<p>Ustama haqlarning belgilanishi, xodimga yaxshi xizmatlari uchun rag'batlantirish pullarining berilishi.</p> <p>Moddiy ko'rinishdagi lokal darajadagi rag'batlantirish uslublarining ko'rinishi.</p>

Shunday qilib, ommaviy boshqaruv organlari faoliyatidagi rag'batlantirish uslubi deb ommaviy boshqaruv organlari tormonidan ma'muriy-huquqiy munosabatlar subyektlarining o'z funksional,

jamoatchilik yoki shaxsiy manfaatidagi maqsad va vazifalarini<sup>1</sup> samarali amalga oshirishiga zarur qonuniy, moddiy va nomoddiy shart-sharoitlar yaratib berishga qaratilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu uslubni amalga oshirish turli darajadagi huquq normalari bilan tartibga solinadi.

Ommaviy boshqaruv organlarining **majburlash uslubi** ham keng foydalaniladigan uslublardan biri bo'lib, uning zarurati har qanday munosabatlarda obyektiv ravishda yuzaga kelishini ta'kidlash lozim. Ushbu uslubni faqatgina negativ ma'noda tushunmaslik kerak. Zero, har qanday jamiyatda, tabiatan mazkur uslublarga zarurat yuzaga keladi. Ta'kidlash joizki, mazkur uslubning qo'llanilishi jamiyatdagi boshqa, qonunni hurmat qiluvchi shaxslarning huquq va manfaatlari himoyasini ta'minlash maqsadida ham amalga oshiriladi.

Ommaviy boshqaruv organlari tomonidan qo'llaniladigan majburlash uslubini nazariy jihatdan aktiv va passiv shakllarga ajratish mumkin. Bunda aktiv shakldagi majburlash uslubiga jismoniy yoki yuridik shaxs tomonidan sodir etilgan huquqbazarlik natijasida ommaviy boshqaruv organi tomonidan ularga ko'rsatiladigan ta'sir chorasi nazarda tutilsa, passiv shaklga xususiy shaxslarning o'z subyektiv ommaviy huquqlarini ro'yobga chiqarishi uchun amalga oshirishi lozim bo'lgan xatti-harakatlariga aytildi.

Misol uchun:

<b>Uslub nomi</b>	<b>Darajasi</b>	<b>Tashqi ko'rinishi va ahamiyati</b>
<b>Majburlash</b>	<b>Aktiv</b>	<p>Fuqaroning jamiyatda yurish-turish qoidalarini buzishi natijasida unga nisbatan ta'sir chorasining qo'llanilishi.</p> <p>Ommaviy boshqaruv organlari va ularning mansabdor shaxslari boshqa qonunni hurmat qiluvchi shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun mazkur huquqbuzarga nisbatan tegishli ta'sir chorasini qo'llaydi.</p>

<sup>1</sup> Xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'z shaxsiy loyihalari asosida o'z tashabbuslari bilan amalga oshiriladigan faoliyati nazarda tutilmogda.

		<p>Tadbirkorning belgilangan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda to'lamaganligi uchun unga nisbatan tegishli ta'sir chorasini qo'llashi.</p> <p>Maqsad, mazkur soliq tushumi ni ta'minlash orqali aholining nafaqa va stipendiya, yoki yordam pullariga muhtoj bo'lgan qatlamlarini moddiy ta'minlashni amalgaga oshirish uchun qo'llaniladi.</p>
Passiv		<p>Manfaatdor shaxsning u yoki bu litsenziyalanadigan faoliyat bilan shug'ullanish huquqini olishi uchun zarur bo'lgan hujjatlarni tegishli ma'muriy organ komissiyasiga topshirishi va to'lovlarni amalgaga oshirish majburiyati.</p> <p>Shu tariqa ommaviy boshqaruvin organlari manfaatdor shaxsning rasmiy faoliyat yuritishiga, inson huquq va manfaatlarining, sog'lig'i va hayotining muhofaza etilishiga zamin yaratadi.</p>
		<p>Shaxsning aeroport va vokzallardagi majburiy tarzdagi pasport va yuk nazorati tekshiruvidan o'tishi.</p> <p>Bu ham qonunni buzmoqchi bo'lgan shaxsni zararsizlantirish orqali boshqa qonunni hurmat qiluvchi yollovchilar sog'lig'i va hayotini muhofaza qilishga qaratilgan majburiy ko'rikning, uslubning bir ko'rinishidir.</p>

Shunday qilib, ommaviy boshqaruvin organlari faoliyatidagi majburlash uslubi deb ommaviy boshqaruvin organlari tomonidan ma'muriy-huquqiy munosabatlar subyektlariga nisbatan aktiv va

passiv shakllarda qo'llaniladigan qonun hujjatlari bilan tartibga solingan ta'sir etish choralar majmuyiga aytiladi.

**Ommaviy boshqaruvdag'i uslublar** deganda, ma'muriy organning o'ziga yuklatilgan qonuniy funksiya va vakolatlaridan kelib chiqib<sup>1</sup>, inson huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida o'z faoliyatida qo'llashi mumkin bo'lgan kuch va vositalarining amaliy ko'rinishidir.

**Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol:**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 2018-yil 20-avgustdagi vazir bo'yrug'i bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 15-fevralda imzolanib, davlat ro'yxatidan o'tkazilmasdan OTMlariga ijro qilish uchun tarqatilgan «Professor-o'qituvchilarning vaqt me'yorlarini tasdiqlash to'g'risida»gi buyrug'i bekor qilinib, tegishli mansabdar shaxslarga nisbatan ma'muriy bayonnomma tuzilgan va ko'rib chiqish uchun sudga yuborilgan.

*Mazkur vaziyatda Adliya vazirligi tomonidan qanday boshqaruv uslubi qo'llanilgan?*

*Mazkur vaziyatda passiv boshqaruv uslubi talablari mavjudmi?*

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-oktabrdagi «Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi PQ-2646-sonli qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-yil, 45-son, 522-modda.

## **II bobni o'zlashtirish bo'yicha KROSSVORD**

### **Bo'yiga:**

1. Soliq to'lovchilarga ma'lum imtiozlar yaratish yoki xalq oldida ko'rsatgan yuksak xizmatlari uchun ma'lum unvonning berilishi bo'yicha davlat boshqaruvining uslubi.

3. ...texnik shakllar deb ommaviy boshqaruv organining huquqiy shakllarida belgilangan vakolatlarni, huquq va majburiyatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan moddiy ajratmalar, ommaviy boshqaruv organining resurslari, kuch va vositalarining ajratilishi, foydalanilishiga aytildi.

6. Davlat boshqaruvi organining uzoq muddatga mo'ljallanadi-gangan va istiqbolli rejalar belgilanadigan hujjat.


### **Eniga:**

2. Nazariy jihatdan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining umumiyl nomlanishi – ... boshqaruv organlari.

4. Ommaviy boshqaruv organlarining psixologik uslubi mavjudligi to'g'risidagi fikrni bildirgan olim.

5. Aksariyat ommaviy boshqaruv organlari tomonidan bugungi kunda keng qo'llanilayotgan maxsus boshqaruv shakli. Gabrichidzening fikricha, qaysi ommaviy boshqaruv organlari tabiatiga iqtisodiy, statistik, sotsiologik, psixologik uslublar kiradi?

7. Huquq normasini ... ommaviy boshqaruv organlariga qonunlar va kodekslar bilan belgilab berilgan vakolatlarni, huquq va majburiyatlarni amalga oshirish mexanizmlarini aniqlashtirishga qaratilgan ijro hokimiyati organlarining norma ijodkorligi faoliyatidagi harakatlaridir.



### **III bob. DAVLAT BOSHQARUVIDA DAVLAT XIZMATI**

#### **3.1. Davlat xizmati tushunchasi va mohiyati**

«Byurokratiya haqidagi ilm» – siyosatshunoslik va davlat hamda huquq nazariyasining markaziy qismlaridan biridir. G'arb davlatlarida ushbu yo'naliш bir necha o'n yillardan buyon alohida fan sifatida rivojlanmoqda. Uning u yoki bu qismlariga oid tadqiqotlar olib borilmoqda, darsliklar chop etilmoqda, o'quv kurslari o'tilmoqda. Ushbu sohaning – «Public Administration» – asoslarini bilmay turib, zamonaviy huquqshunosni, siyosatchini, menejerni, iqtisodchini va, umuman, oliv ma'lumotli insonni tasavvur qilish qiyin<sup>1</sup>.

Ma'lumki, ma'muriy-huquqiy munosabatlarda bir tomonda shartli ravishda ommaviy boshqaruв (davlat boshqaruvi yoki xo'jalik boshqaruvi) organi turadi. Mazkur organlar nomidan ish yurituvchi shaxslar esa davlat xizmatchilari maqomiga ega bo'lishi tabiiy qonuniyatdir.

**Davlat xizmati** – bu qonunlar asosida ommaviy boshqaruв organiga rasmiy ravishda yuklatilgan funksiya, vazifa va vakolatlarni amalga oshirish Kompetensiyasiga ega bo'lgan, vertikal bo'ysunishga asoslangan ijro hokimiyati faoliyatidir. **Davlat xizmatchilari** esa ommaviy boshqaruв organida professional faoliyat yurituvchi ijroiya-taqsimot vakolatiga ega bo'lgan intellektual faoliyat bilan shug'ullanuvchi mansabdor shaxslardir.

Davlat xizmati tushunchasiga adabiyotlarda turlicha ta'riflar keltirilgan. Jumladan, rus olimlari tomonidan tayyorlangan «Slovar administrativnogo prava» («Ma'muriy huquq lug'ati») deb nomlangan lug'atda yozilishicha, Davlat xizmati – fuqarolarning qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan davlat hokimiyati organlariga yuklatilgan vazifalarni professional darajada bajarishi<sup>2</sup> ta'kidlangan bo'lsa, Yu.N. Starilovning fikricha, davlat xizmatiga keng va tor ma'nolarda qarash mumkinligini ta'kidlaydi.

<sup>1</sup> Государственная служба (комплексный подход): Учебное пособие. — М.: Дело, 1999. — С. 13.

<sup>2</sup> Словарь административного права / Колл. Авт. — М.: Фонд правовая культура, 1999, — С. 96.

Olimning fikricha, tor ma'noda davlat xizmatiga ijro hokimiyati organi taalluqli bo'lsa, keng ma'noda qonunchilik, ijro va sud hokimiyati organlari ham taalluqliligini ta'kidlaydi<sup>1</sup>.

Fikrimizcha, yuqorida lug'atdan iqtibos keltirilgan ta'rif e'tiborga loyiqidir. Shu bilan birga, davlat hokimiyati tushunchasi o'rniда «davlat (ommaviy) boshqaruvi organlari» degan ta'rifni ishlatalish yanava aniqroq bo'lardi. Zero, «davlat hokimiyati» va «davlat boshqaruvi» tushunchalari orasida prinsipial farq mavjud. (2-chizmaga qarang)

Yu.N. Starilovning qonunchilik va sud hokimiyatlariga davlat xizmati sifatida qarash lozimligi to'g'risidagi fikri bahslidir. Zero, qonunchilik va sud hokimiyatlarining klassik funksiyalari davlat xizmati mezonlariga to'g'ri kelmaydi. Quyida bu to'g'risida batafsil to'xtalamiz.

Shuni ham ta'kidlash joizki, ommaviy boshqaruuv organida faoliyat yurituvchi har qanday xodimda ham davlat xizmatchisi maqomi mavjud deb ta'kidlash noo'rindir. Zero, ma'muriy huquq tarmog'ining bir qismi hisoblangan davlat xizmati instituti, mehnat-huquqiy munosabatlardagi ishtirokchilardan tubdan farq qiladi. Davlat xizmatchilari ommaviy boshqaruuv organiga qonunan yuklatilgan funksiya va vakolatlarni ro'yobga chiqarish uchun ma'lum hokimlik, ya'ni boshqaruuv bilan bog'liq bo'lgan funksional vazisalarni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan mansabdor shaxslar doirasi tushuniladi. Shu o'rinda «davlat xizmatchilari» kategoriyasiga taalluqli bo'lgan mansabdor shaxslarni aniqlab olish uchun u ma'lum mezonlarga javob berishi lozim. Jumladan:

- ommaviy boshqaruuv organining rasmiy vakili bo'lishi kerak;
- davlat budgetidan moliyalashtirilishi lozim;
- tayinlanadigan lavozimda faoliyat yuritishi zarur;
- ijroiya-taqsimot vakolatiga ega bo'lishi kerak.

Sanab o'tilgan mezonlarning ichida oxirgisi eng ahamiyatlisisidir. Zero, ommaviy boshqaruuv organining rasmiy vakili bo'lish - bu hali ijroiya-taqsimot vakolatiga ega bo'lishni anglatmaydi. Misol uchun, xodim O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida inspektor yoki kichik mutaxassis lavozimlarida ishlashi mumkin, ammo u ijroiya-taqsimot vakolatiga ega, degan xulosani bermaydi. Shuning

<sup>1</sup> Стариев Ю.Н. Служебное право: Учебник. – М.: БЕК, 1996. – С. 132.

uchun ham, uning ommaviy boshqaruv organi bilan munosabatlari mehnat-huquqiy munosabatlardan turkumiga taalluqlidir.

Davlat budgetidan moliyalashtirilish mezoni ham ikkinchi darajali mezonlardan biridir. Zero, u yoki bu tashkilotning davlat tomonidan moliyalashtirilgari uning xodimlari davlat xizmatchisi maqomiga ega bo'ldi, degan xulosani bermaydi. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi ham to'la davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladi. Ammo deputatlarni davlat xizmatchilari qatoriga kiritish ham nazariy jihatdan, ham amaliy jihatdan hokimiyatlar muvozanati prinsipiga zid. Chunki, birinchidan, parlament bu vakillik organi, undagi faoliyat yurituvchi deputatlar esa xalq vakillaridir. Deputatlar o'z mandatini bevosita xalqdan oladi, ya'ni xalq ularni saylash orqali qonunchilik hokimiyatiga vakil qiladi. Ikkinchidan, parlament yoki mahalliy kengashlar – bu kollegial organ. Undagi qabul qilinadigan masalalar ko'pchilikning qo'llab quvvatlashi natijasida amalga oshiriladi.

Davlat xizmati instituti mohiyatini aniqlashtirishga ushbu kategoriyaning sud hokimiyatidan ham tubdan farq qilishini ta'kidlash lozim. Zero, sud hokimiyatining yagona klassik funksiyasi: odil sudlovni amalga oshirish. Bunda u na xalq xizmatida va na davlat xizmatida turadi. Sud – davlat va jamiyat kabi falsafiy kategoriyalarning orasida turib, ularning xatti-harakatlariga xolis baho beruvchi arbitr vazifasini bajaradi. Sud hokimiyatini yoki sudyalarini davlat xizmati institutiga qo'shish uning fundamental prinsipi bo'lgan sudyalar mustaqilligi prinsipiga putur yetkazadigan bo'lsa, uni xalq xizmati deb baholash ham ushbu institutning xolisligiga ta'sir etishi mumkin. Shuning uchun ham sud hokimiyatining davlat xizmati institutiga kiritilmasligi juda muhim. Davlat xizmati esa tayinlanadigan va yuqori turuvchi mansabdar shaxsga bo'yusunish prinsipi asosida odatda rahbar shaxsning yakka o'zi tomonidan qaror qabul qilinadigan vertikal tizimdir. Tabiiyki, davlat xizmatchisida avval ta'kidlaganimizdek, ijroiya-taqsimot vakolati mavjud bo'ladi. **Ijroiya-taqsimot vakolati tushunchasi quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:**

- ommaviy boshqaruv organi xodimlari orasida vazifalarni taqsimlash;
- ommaviy boshqaruv organining tuzilmasi va shtat birliklari bo'yicha strategik qarirlarni tayyorlash;

ommmaviy boshqaruv organi faoliyatiga oid funksiya va vakolatlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish va joriy etish choralarini ko'rish;

- ishga qabul qilish, lavozimga tayinlash yoki yuqori turuvchi organiga bu to'g'risida tavsiyalar berish;

- rag'batlantirish, mukofotlash yoki shu to'g'risida yuqori turuvchi organlarga tavsiyalar berish;

ommmaviy boshqaruv organi xodimlariga nisbatan intizomiy va boshqa qonun doirasidagi ta'sir choralarini ko'rish;

- ommmaviy boshqaruv organining tashkiliy-uslubiy va moddiy-texnik bazasiga rahbarlikni amalga oshirish.

### **Yodda tuting!**

**Davlat xizmati** – bu konstitutsiya, qonunlar va qonun osti hujjatlari asosida ommmaviy boshqaruv organiga yuklatilgan qonuniy funksiya va vakolatlarni amalga oshirish kompetensiyasiga ega bo'lgan, vertikal bo'ysunishga asoslangan ijro hokimiyati faoliyatidir. Davlat xizmatchilar esa ommmaviy boshqaruv organida professional faoliyat yurituvchi ijroiya-taqsimot vakolatiga ega bo'lgan intellektual faoliyat bilan shug'ullanuvchi mansabdar shaxslar.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, davlat xizmati institutining davlat mexanizmida tutgan o'rni nihoyatda katta. Zero, asosiy qonun, qonunlar va qonunosti hujjatlarining ijrosini, fuqarolar va yuridik shaxslar subyektiv omnaviy huquqlarining ro'yobga chiqishini ta'minlash masalalarining barchasi yaxshi tashkillashtirilgan va ijtimoiy-iqtisodiy ta'minlangan davlat xizmatchilarini instituti ummaradorligiga bog'liqdir. Zero, davlat xizmatchilar davlat mexanizmning samarali ishlashi va shu tariqa davlat hamda jamiyat rivojini ta'minlashga zamin yaratuvchi yuksak intellektual alohiyatga ega bo'lgan boshqaruv kadrlaridir. Agar qonunchilik hokimiyati vakillari – deputatlar, ideal nuqtayi nazardan qaraganda jamiyat va xalq tomonidan turib faoliyat yuritish lozim bo'lsa, davlat xizmatchilar xalq vakillari o'rnatgan qonun-qoidalar asosida uning ijrosini ta'minlashi, shu tariqa, davlat mexanizmning ijro hokimiyati deb nomlangan katta «dvigateli»ni doimiy ishlatishi va bunda ushbu mexanizmga ham putur yetmasligini o'ylashi kerak. Bu esa doimiy

intellektual va jismoniy faoliyatni talab qiladi. Davlat xizmati institutiga modellashtirish uslubidan foydalangan holda ta’rif berish mumkin bo’lsa, unda ushbu institutni insonning miyasiga qiyoslash mumkin. Shuning uchun ham davlat xizmatchilarini aksariyat masalalarini ortiqcha ehtiroslarsiz, vertikal bo’ysunuv prinsipi asosida qonun normalariga tayangan holda bajarishi lozim. Aynan shuning uchun ham ushbu mashaqqatli yo’nalish vakillarining ijtimoiy-iqtisodiy va maishiy holati maxsus qonunlar asosida yetuk darajada ta’milanishi lozim. Bu esa ushbu mexanizmning samarali ishlashi garovidir. Aks holda, bunday katta mexanizmni ishlatishi lozim bo’lgan ushbu elementlar o’zini o’zi ishdan chiqarishiga sabab bo’lishi mumkin. Mashhur fransuz davlat va siyosat arbobi Sharl de Gol ta’kidlaganidek, «oddiy odamlar do’stlarga ega bo’lishi mumkin, ammo davlat xizmatchilariga emas»<sup>1</sup>.

#### **Paragraf mazmunini o’zlashtirish uchun kichik kazusli misol:**

«O’zagrolizing» AJda bosh buxgalter lavozimida faoliyat yurituvchi A. ismli shaxs, auditorlik tekshiruvi natijalari bo'yicha buxgalterlik va moliyaviy hisob-kitoblarni o'z vaqtida taftibga keltirmaganligi sababli jamiyat raisidan tanbeh eshitdi va jamiyat boshqaruvi qarori bilan unga nisbatan o'z xizmatiga e'tiborsizlik bilan yondashganligi uchun oylik ish haqining 30 foiz miqdorida intizomiy javobgarlikka tortildi.

*Mazkur vaziyat ma'muriy-huquqiy munosabatlar predmetiga taalluqlimi?*

*Bosh buxgalter davlat xizmatchisi hisoblanadimi?*

*AJ boshqaruvining intizomiy jazo chorasini qo'llash vakolati bormi?*

### **3.2. Davlat xizmati prinsiplari va ularning mohiyati**

Davlat xizmatini amalga oshiruvchi ijroiya-taqsimot vakolatiga ega bo’lgan mansabdor shaxslarning ommaviy boshqaruvi organlari faoliyatida nisbatan ko’pligi va faoliyatining ahamiyatini e’tiborga olib, ushbu faoliyat yaxlit bir qonun bilan tartibga solinishi va faoliyati mezonini belgilab beruvchi asosiy prinsiplarga tayanishi lozim. Davlat xizmatchilarini faoliyatlarining ma'lum prinsiplarga

<sup>1</sup> <https://aphorism.ru/comments/ipsefyk236.html>

rioya etishini qonuniy ta'minlash orqali ularning jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo'ladigan munosabatlarida qonuniy vakolatlari chegarasini belgilash hamda xususiy shaxslarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishi belgilanadi. Bu esa fuqarolarda jamiyatda davlat organlariga bo'lgan ishonchning ortishiga zamin yaratadi.

### **Davlat xizmatida rioya etilishi kerak bo'lgan prinsiplar quyidagilardan iborat:**

- qonuniylik;
- fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustunligi;
- professionallik va kompetentlilik;
- vatanparvarlik va xizmat vazifasiga sodiqlik;
- adolatlilik, haqiqatparvarlik va xolislik;
- etikaga rioya etish va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik;
- yuqori turuvchi davlat organlari va mansabdor shaxslarining davlat xizmatchilar uchun majburiyligi;
- yakkaboshchilikning kollegiallik bilan hamohangligi;
- davlat xizmatchilarining o'z xizmat vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi hamda o'z vakolatlarini suiste'mol qilganligi uchun javobgarligi;
- davlat xizmatchilarining bo'ysunuvchanligi va hisobdorligi;
- davlat xizmati to'g'risidagi axborot olish imkoniyatining mavjudligi;
- nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolar, ommaviy axborot vositalari va tadbirdorlik subyektlari bilan o'zaro munosabatlari;
- davlat xizmatiga teng imkoniyatlarning mavjudligi;
- davlat xizmatiga kirish va o'tashning shaffofligi;
- davlat xizmatchilarining iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy himoyalanganligi;
- davlat xizmatiga kirishning ixtiyoriligi.

Qonuniylik prinsipining mohiyati shundaki, davlat xizmatchisining har bir xatti-harakati va qabul qiladigan qarorlari tegishli qonunlarga mos bo'lishi lozimligini anglatadi. Ushbu prinsipga rioya qilish orqali davlat xizmatchisi, eng avvalo, o'z xatti-harakatlari va qarorlarini asoslay olish imkoniyatiga ega bo'ladigan bo'lsa, boshqa tomonidan fuqarolar va yuridik shaxslarni davlat xizmatchilarining noqonuniy xatti-harakatlaridan himoya qilinishiga zamin yaratadi.

Fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustunligi prinsipi aslida qonuniylik prinsipining aniqlashtirilgan ko'rinishidir. Boshqacha qilib ta'kidlaganda, ommaviy boshqaruv organlari o'z faoliyatida yuzaga keladigan va qonunlar bilan aniq yechimi ko'rsatilmagan har qanday noaniqlik vaziyatida inson huquq va manfaatlarini ustuvor belgilab, uning foydasiga hal etishi lozimligini anglatadi. Ushbu prinsipning qonuniy asoslarini bugungi kunda ayrim qonun normalarida kuzatishimiz mumkin. Jumladan, «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning 11-moddasi Ma'muriy ish yuritish davomida yuzaga keladigan, qonun hujjatlarining bartaraf etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshiliklari va noaniqliklari manfaatdor shaxslar o'rtaida kelishmovchiliklar mavjud bo'lмаган taqdirda, ushbu manfaatdor shaxslar foydasiga talqin qilinadi, deb belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 11-moddasida ham soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchining foydasiga talqin qilinishi mustahkamlangan.

Professionallik va kompetentlilik prinsipi davlat xizmatchisining mas'uliyati va intizomi bilan bog'liq bo'lib, u o'ziga yuklatilgan funksional vazifalar o'z vaqtida, to'liq va malakali darajada amalga oshirilishi lozimligini hamda o'z sohasi bo'yicha zarur bilim va malakaga ega bo'lishi lozimligini anglatadi. D.N. Baxraxning fikricha, davlat xizmatchilarining professionalligini ta'minlashning samarali yo'llaridan biri yuksak darajada yo'lga qo'yilgan kadrlarni tanlash tizimidir<sup>1</sup>. Amaliyotda davlat xizmatchilarining professionalligi davriy attestatsiya va malaka oshirish tizimlari orqali yuksaltirib boriladi.

Vatanparvarlik va xizmat vazifasiga sodiqlik prinsipi davlat xizmatchisining o'z ishiga, kasbiga sodiqligini, shu bilan birga, qonunan bajarishi kerak bo'lgan funksional vazifalarini belgilanganidek amalga oshirishi lozimligini anglatadi. Ammo bu ularning qonun normalarini sharhlash imkoniyati cheklanishini bildirmaydi.

Adolatlilik, haqiqatparvarlik va xolislik prinsiplari davlat xizmatchisining psixologik holati bilan bog'liq bo'lib, ularning har

<sup>1</sup> Д.Н. Бахрах. Административное право России. Учебник для вузов. – М.: НОРМА, 2002. – С. 166–167.

bir xatti-harakatining va qabul qiladigan qarorlarining umuminsoniy qadriyatlarga mos bo'lishi lozimligini anglatadi.

Etikaga rioya etish va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'y-maslik prinsipi ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, har bir davlat xizmatchisining xatti-harakatlari uning maqomiga salbiy ta'sir etmasligini va jamiyatda o'z yurish-turish, axloq qoidalarini doimiy nazoratda ushlashi lozimligini anglatadi. Manfaatlar to'qnashuvi esa uning o'z lavozimini suiiste'mol qilishining ma'n etilishini anglatadi. Ta'kidlash kerakki, manfaatlar to'qnashuvi masalasi bugungi kunda qonunlarda o'z aksini topgan. Xususan, «Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 21-moddasiga ko'ra davlat organlarining xodimlari mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymasligi kerak.

Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda davlat organlarining xodimlari o'zining bevosita rahbarini darhol xabardor qilishi kerak. Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar olgan rahbar bu to'qnashuvning oldini olish yoki uni bartaraf etish yuzasidan o'z vaqtida choralar ko'rishi shart.

Davlat organlarining maxsus bo'linmalari yoki odob komissiyalari manfaatlar to'qnashuvini hal etish qoidalariга rioya qilishi yuzasidan monitoringni amalga oshiradi.

Davlat organlarining manfaatlar to'qnashuvining oldini olish yoki uni bartaraf etish talablari buzilishiga yo'l qo'ygan xodimlari, shuningdek, ularning rahbarlari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'lishi mustahkamlangan<sup>1</sup>.

Yuqori turuvchi davlat organlari va mansabdor shaxslarining davlat xizmatchilar uchun majburiyligi prinsipi ijro hokimiyatidek vertikal tizimga xos bo'lgan prinsip bo'lib, o'z mazmun-mohiyati bo'yicha yuqori turuvchi organlar qarorlarini so'zsiz amalga oshirishni taqozo etadi. Ta'kidlash kerakki, ushbu prinsipning mavjudligi davlat xizmatchilarining ayrim Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarida obyektiv cheklov larga ega ekanligining yorqin ko'rinishidir. Ushbu prinsip davlat xizmatchilariga, ayniqsa,

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'RQ-419-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 1-son, 2-modda.

quyi turuvchi davlat xizmatchilariga, ayrim cheklovlarni keltirib chiqarsa ham ommaviy manfaatlarga zid emas. Ya’ni ma’lum soha davlat xizmatchilarining majburiy tarzda yuqori turuvchi organlar qarorlarini amalga oshirishi lozimligi, pirovardida, jamiyat, xalq manfaatlariga javob berishini anglash lozim.

Yakkaboshchilikning kollegiallik bilan hamohangligi prinsipi ham vertikal tizimga xos bo’lgan prinsiplardan biri bo’lib, qaror qabul qiluvchi davlat xizmatchisi o’zaro maslahatlashib, xalq tili bilan ta’kidlaganda «etti marta o’lchab, bir marta kesish» uchun amalga oshiradigan kengashishi nazarda tutiladi. Buning uchun har bir ommaviy boshqaruv organi tuzilmasida kengash, kollegiya, rayosat kabi kollegial organlari mavjud, ammo oxirgi so’z – xulosa barcha mas’uliyat qaror qabul qiladigan davlat xizmatchisining o’zida qoladi. Ayni ushbu holat vertikal tizimning mas’uliyatini ko’rsatadi.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash lozimki, mazkur paragrafda ko’rsatilgan prinsiplarning barchasi rasmiy ravishda maxsus qonunda o’z aksini topishi katta ahamiyatga ega. Chunki mazkur prinsiplarning qonun darajasida mustahkamlanishi bir tomonidan davlat xizmatchilarining mas’uliyatini oshirsa, ikkinchidan, fuqarolarning ular faoliyatiga baho berishi, ularning vakolatlari chegarasini tasavvur qilishi hamda yurish-turish qoidalarini tahlil qila olishiga zamin yaratadi.

#### **Paragraf mazmunini o’zlashtirish uchun kazusli misol:**

O’zbekiston Respublikasi G’aznachilik boshqarmasi moliya resurslarini tartibga solish bo’limida shtat birliklarini qisqartirish amalga oshirildi. Ish hajmining qisqarishi natijasida jamoada kam tajribali boshqa xodimlar bor bo’lishiga qaramasdan, istiqbolli va iqtidorli xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi. Mazkur xodimning qaramog’ida ishsiz xotini va ikki nafar voyaga yetmagan farzandlari mavjudligi ham e’tiborga olinmadidi.

*Ish beruvchining harakatlari qonuniymi?*

*Xodimning oilaviy ahvoli e’tiborga olinishi kerakmi?*

*Ushbu xodimda davlat xizmatchisi maqomi bormi?*

*Normativ-huquqiy hujjatlarga asoslangan holda javob bering.*

### **3.3. Davlat xizmatining huquqiy asoslari**

O'zbekiston Respublikasida davlat xizmati instituti huquqiy asoslarining yagona tizimini yaratish va takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir. Zero, ushbu institutni yagona qonun bilan tartibga solish orqali mansabdor shaxslarning tasnifiga, ularning vakolat doirasining «chegaralariga», mamlakatda qonunlar ijrosini ta'minlovchi minglab ommaviy boshqaruv organlaridagi shaxslar ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlanishining yangi bosqichiga erishiladi. Natijada korrupsiya va boshqa shunga o'xshash salbiy holatlarni sezilarli darajada kamaytirish imkonи yaratiladi.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish vazifasi belgilanib, mazkur hujjatga ko'ra 2017-yilning III choragiga qadar «Davlat xizmati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni loyihasi tayyorlanishi rejalashtirilib, loyihada davlat xizmati tizimini tashkil etish va faoliyat ko'rsatishining asosiy tamoyillari, davlat xizmatining kadrlar tarkibini shakllantirish, davlat xizmatiga ishga o'tish, xizmatni o'tash va xizmatdan ketish masalalari bu boradagi kafoatlар tartibga solinishi belgilangan<sup>1</sup>. So'ngra ushbu masala bo'yicha qonun loyihasini tayyorlash O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida»gi 2018-yil 22-yanvardagi PF–5308-sonli Farmoni bilan 2018-yilning 1-iyuliga qadar qoldirildi<sup>2</sup>. Qonun loyihasi bugungi kunda ekspertlik muhokamasi jarayonida qolmoqda.

---

<sup>1</sup> 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-sonli Farmoniga 8-ilova.

<sup>2</sup> 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi PF–5308-sonli Farmoniga ilova.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5843-sonli Farmonini keltirib o'tish mumkin<sup>1</sup>. Mazkur farmon asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi **Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi** tashkil qilindi.

**Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

– davlat fuqarolik xizmati transformatsiyasining g'oyaviy platformasini, uni rivojlantirish dasturlari va loyihalarini ishlab chiqish, shuningdek, davlat fuqarolik xizmati sohasida yagona siyosatning amalga oshirilishini ta'minlash;

– davlat organlari va tashkilotlarining davlat kadrlar siyosati sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

– davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish jarayonlari va istiqbollarini monitoring va tahlil qilish hamda ushbu sohadagi muammolar va tahdidlarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

– ochiqlik, professionallik va hisobdorlik tamoyillariga asoslangan xodimlarni boshqarish va inson resurslarini rivojlantirishning innovatsion usullarini joriy etish;

– milliy kadrlar zaxirasini boshqarish, davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reestrini yuritish, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portalini tashkil etish va yuritish;

– davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholashning o'lchanadigan indikatorlari (eng muhim ko'rsatkichlari) tizimini joriy etish va ularning natijalarini tahlil qilish, jamoatchilik fikrini o'rGANISH hamda davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining ochiq reytingini shakllantirish;

– malakali va yuqori malakali mutaxassislarini, shu jumladan, xorijda yashayotgan vatandoshlar orasidan aniqlash va jalb etish, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatiga iqtidorli yoshlar va xotinqizlarni keng jalb etish bo'yicha tizimli ishlarni olib borish;

– eng istiqbolli kadrlarni davlat fuqarolik xizmatiga ochiq mustaqil tanlov asosida qabul qilishni tashkillashtirish;

---

<sup>1</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2019-y., 06/19/5843/3900-son.

– davlat fuqarolik xizmatchilarida yuksak kasbiy axloq-odobni, korrupsiyaga qarshi turish madaniyatini va unga toqatsiz munosabatni shakllantirish;

– davlat fuqarolik xizmati sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ularni izchil takomillashtirib borish, davlat fuqarolik xizmatchilari shaxsiy ma'lumotlarining xavfsizligini ta'minlagan holda ular to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

– davlat fuqarolik xizmatchilarining ish beruvchilar bilan o'zaro munosabatlarida ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, ularning mehnat faoliyati va ijtimoiy himoyasi uchun munosib shart-sharoitlar yaratishga ko'maklashish.

Ta'kidlash kerakki, bugungi kungacha O'zbekiston Respublikasida Davlat xizmati instituti har bir ommaviy boshqaruv organlari uchun alohida qabul qilingan qonunlar bilan tartibga solinmoqda. Masalan:

– O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi O'RQ-407-sonli Qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi «Ummiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi 436-II-sonli Qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagagi «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi 474-I-sonli Qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktabrdagi «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi O'RQ-502-sonli Qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 26-dekabrdagi «Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida»gi O'RQ-195-sonli Qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi 913-XII-sonli Qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagagi «Prokuratura to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi 257-II-son Qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 5-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida»gi O'RQ-471-sonli Qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi to'g'risida»gi O'RQ-647-sonli Qonunlari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5843-sonli Farmonini keltirib o'tish mumkin<sup>1</sup>. Mazkur farmon asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi **Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi** tashkil qilindi.

**Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

– davlat fuqarolik xizmati transformatsiyasining g'oyaviy platformasini, uni rivojlantirish dasturlari va loyihalarini ishlab chiqish, shuningdek, davlat fuqarolik xizmati sohasida yagona siyosatning amalga oshirilishini ta'minlash;

– davlat organlari va tashkilotlarining davlat kadrlar siyosati sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

– davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish jarayonlari va istiqbollarini monitoring va tahlil qilish hamda ushbu sohadagi muammolar va tahdidlarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

– ochiqlik, professionallik va hisobdorlik tamoyillariga asoslangan xodimlarni boshqarish va inson resurslarini rivojlantirishning innovatsion usullarini joriy etish;

– milliy kadrlar zaxirasini boshqarish, davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reestrini yuritish, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchilar vakant lavozimlarining yagona ochiq portalini tashkil etish va yuritish;

– davlat fuqarolik xizmatchilar faoliyati samaradorligini baholashning o'lchanadigan indikatorlari (eng muhim ko'rsatkichlari) tizimini joriy etish va ularning natijalarini tahlil qilish, jamoatchilik fikrini o'rghanish hamda davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining ochiq reytingini shakllantirish;

– malakali va yuqori malakali mutaxassislarini, shu jumladan, xorijda yashayotgan vatandoshlar orasidan aniqlash va jalb etish, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatiga iqtidorli yoshlar va xotinqizlarni keng jalb etish bo'yicha tizimli ishlarni olib borish;

– eng istiqbolli kadrlarni davlat fuqarolik xizmatiga ochiq mustaqil tanlov asosida qabul qilishni tashkillashtirish;

---

<sup>1</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2019-y., 06/19/5843/3900-son.

– davlat fuqarolik xizmatchilarida yuksak kasbiy axloq-odobni, korrupsiyaga qarshi turish madaniyatini va unga toqatsiz munosabatni shakllantirish;

– davlat fuqarolik xizmati sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ularni izchil takomillashtirib borish, davlat fuqarolik xizmatchilari shaxsiy ma'lumotlarining xavfsizligini ta'minlagan holda ular to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

– davlat fuqarolik xizmatchilarining ish beruvchilar bilan o'zaro munosabatlarida ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, ularning mehnat faoliyati va ijtimoiy himoyasi uchun munosib shart-sharoitlar yaratishga ko'maklashish.

Ta'kidlash kerakki, bugungi kungacha O'zbekiston Respublikasida Davlat xizmati instituti har bir ommaviy boshqaruв organlari uchun alohida qabul qilingan qonunlar bilan tartibga solinmoqda. Masalan:

– O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi O'RQ-407-sonli Qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi «Ummiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi 436-II-sonli Qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagи «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi 474-I-sonli Qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktabrdagi «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi O'RQ-502-sonli Qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 26-dekabrdagi «Qutqaruв xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida»gi O'RQ-195-sonli Qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi 913-XII-sonli Qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagи «Prokuratura to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi 257-II-son Qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 5-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida»gi O'RQ-471-sonli Qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi to'g'risida»gi O'RQ-647-sonli Qonunlari mavjud.

Yuqoridagi organlarning davlat apparatida tutgan ahamiyati va muhimligini e'tirof etgan holda shuni ta'kidlash kerakki, davlat va jamiyat hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, gumanitar va texnik sohalarida ham davlat xizmati mavjudligini hamda minglab davlat xizmatchilari o'zlariga biriktirilgan yo'nalishlar bo'yicha ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish, aholi moddiy va ma'naviy farovonligini ta'minlashga qaratilgan yo'nalishlarni boshqarish sohasida faoliyat olib borayotganligiga ham urg'u berish lozim. Shunday ekan, mazkur sohalardagi amalga oshirilayotgan davlat xizmati ham qonuniy tartibga solinishi hamda mas'ul mansabdon shaxslarning moddiy va ijtimoiy-iqtisodiy holati bo'yicha kafolatlari yagona qonun bilan tartibga solinishi ahamiyatlidir. Shuni ham qo'shimcha qilish kerakki, yuqorida sanab o'tilgan sohalar bugungi kunda qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinib kelinmoqda. Mazkur sohada faoliyat yurituvchi ommaviy boshqaruvin organlarining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlanadigan nizomlar asosida tartibga solinmoqda. Bunday norma «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi Qonunning 19-moddasi to'rtinchi bandida o'z ifodasini topgan. Shuni e'tiborga olib xulosa qilish mumkinki, davlat va jamiyat hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, gumanitar va texnik sohalaridagi davlat xizmatining huquqiy asoslari bilvosita ta'minlangan.

Davlat xizmati to'g'risidagi maxsus qonunda avvalgi paragraflarda tahlil qilinganidek, «davlat xizmati», «davlat xizmatchisi», davlat xizmatchisining tasnifi, faoliyati prinsiplari, qonunning amal qilish doirasi, kadrlar masalalari bo'yicha vakolatli davlat organining hamda ommaviy boshqaruvin organlarining huquq va majburiyatları, davlat xizmatchilari kategoriyalari, davlat xizmatiga qabul qilish shartlari, ularning moddiy, ijtimoiy-iqtisodiy ta'minoti masalalari o'rinni olishi muhim hisoblanadi. Yuqoridagi, faoliyati maxsus qonunlar bilan tartibga solingen davlat boshqaruvi organlarida davlat xizmati institutining ushbu muhim masalalari o'z ifodasini topgan. Jumladan, «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi qonun normalariga ko'ra ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy prinsiplari qonuniylik, yagonalik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioxat etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni hurmat qilish, ochiqlik va shaffoflikdan iborat ekanligi, ichki ishlar organlarining majburiyatları va huquqlari, ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash tartibi va shartlari, maxsus unvonlar masalasi,

xodimlarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish<sup>1</sup> kabi muhim masalalar o'z ifodasini topgan.

«Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to‘g‘risida»gi qonun normalariga ko‘ra, qutqaruv xizmatiga oid asosiy tushunchalar, qutqaruv xizmatlari, qutqaruv tuzilmalari va qutqaruvchilar faoliyatining asosiy prinsiplari, asosiy vazifalari, qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarini attestatsiyadan o‘tkazish, faoliyatini moliyalashtirish masalalari, qutqaruvchilar va ularning maqomi, ish vaqt (xizmatni o‘tash) rejimi, mehnatiga haq to‘lash, uy-joy bilan ta’minlash va ijtimoiy muhofaza qilish masalalari o‘z ifodasini topgan<sup>2</sup>.

#### **Paragraf mazmunini o‘zlashtirish uchun kichik kazusli misol:**

A. ismli fuqaro Porloq tumani hokimi o‘rinbosari lavozimida faoliyat yuritar va davlat boshqaruvi sohasida 25 yillik mehnat tajribasiga ega edi, «Yuksak xizmatlari uchun» ordeni bilan ham taqdirlangan edi. Ammo u 2011-yil 12-apreldagi o‘z qo‘snnisining shikoyat qilishi natijasida ishdan ozod qilindi. Shikoyatda yozilishicha, u o‘z qo‘snnisini ko‘pchilik oldida betartib hayot tarzi kechirishida, ichkilikboz va aqldan ozgan inson deb kamsitganligi, hatto, qo‘snnisiga qo‘l ko‘targanligi bayon qilingan. Ayrim ig‘vagar qo‘snnilarning bosimi ostida mazkur jabrlangan qo‘snni shikoyatnomaga yozishga qaror qilgan. Natijada A. ismli fuqaro ishdan bo‘shatilgan.

*Hokim o‘rinbosari davlat xizmatchisi hisoblanadimi? Fikringizni asoslang.*

*Mazkur muammoli vaziyatga qonuniy yechim bering.*

#### **3.4. Davlat xizmatiga kirish, o‘tash va tugatish**

Davlat xizmatiga kirish, o‘tash va uni tugatish masalalari mehnat-huquqiy munosabatlari bilan chambarchas bog‘liqlikka ega bo‘lsa ham davlat xizmatchisining ommaviy boshqaruв organiga qonuniy yuklatilgan funksiya va vazifalaridan kelib chiqib, uning

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida»gi O‘RQ-407-sonli Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-yil, 38сон, 438-modda.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 26-dekabrdagi «Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to‘g‘risida»gi O‘RQ-195-sonli Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-yil, 52-son, 511-modda.

ijroiya-taqsimot vakolatlariga ega ekanligini e'tiborga olib ayrim o'ziga xosliklarga ega ekanligini ta'kidlash zarur.

A. Lining fikricha, davlat xizmatiga kirishda o'n sakkiz yoshga to'lgan, tegishli soha bo'yicha qonunchilikda belgilangan professional bilim va malakaga ega bo'lgan, davlat xizmatini o'tash uchun qo'yilgan talablarga javob beradigan O'zbekiston Respublikasining har qanday fuqarosi qabul qilinishi huquqiga egaligiga urg'u beradi. Olimning qo'shimcha qilishicha, davlat xizmatini o'tashda millati, tili, dini, jinsi, irqi, ijtimoiy ahvoli va dinga munosabatidan, lavozimidan va jamoat tashkilotlariga taalluqliligidan qat'iy nazar bevosita yoki bilvosita cheklovlarni belgilashga yo'l qo'yilmasligini ta'kidlaydi<sup>1</sup>. Olimning aksariyat mushohadalarining to'g'riligini ta'kidlay turib, shuni qo'shimcha qilish lozimki, qonunchilikka ko'ra davlat xizmatining ayrim asosli va obyektiv zaruratga aylangan cheklovlar ham mavjud ekanligini ta'kidlash zarur. Jumladan, **ushbu obyektiv cheklovlar quyidagilarda o'z ifodasini topadi:**

- davlat xizmatini o'tashda diniy va siyosiy tashkilotlarga a'zosi bo'lmaslik;
- davlat xizmatiga kirish va uni o'tashda foyda yoki qo'shimcha daromad keltiradigan xo'jalik yurituvchi subyektlarda hisobda turmaslik hamda unga rahbarlik qilmaslik;
- davlat xizmatini o'tashda yuqori turuvchi tashkilotlar ruxsatsiz o'z xizmat olib borish hududini tark etmaslik;
- davlat xizmatini o'tashda chet el safarlari uchun yuqori turuvchi tashkilotlardan oldindan ruxsat olish<sup>2</sup>;
- davlat xizmatchisining yuqori tashkilotlar qonuniy talablarini ortiqcha muhokama qilmasligi va ijroga qaratishi;
- davlat xizmatchilarining ayni bir sohada va ayni bir tizimda biri ikkinchisining bo'ysunuvida bo'lgan qarindosh-urug'lar o'rta-sidagi vertikal tizimda ishlashning taqiqlanishi kabi ayrim obyektiv cheklovlar mavjud.

Ushbu obyektiv cheklovlar qonun hujjatlari bilan rasmiy ravishda mustahkamlanganligiga ham urg'u berish lozim. Xususan,

<sup>1</sup> А.А. Ли. Государственная служба. Учебное пособие. – Т.: ТЮИ, 2008. – С. 73.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 5-martdag'i «Mansabdor shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish choralar to'g'risida»gi PQ-2142-sonli qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-yil, 10-son, 103-modda.

ichki ishlar organlari to'g'risidagi qonun normalariga ko'ra o'n sakkizdan o'ttiz yoshgacha, shu jumladan, o'ttiz yoshdag'i, tegishli ma'lumotga ega bo'lgan, o'zining shaxsiy va ishchanlik sifatlari, sog'lig'ining holati va jismoniy tayyorgarligi bo'yicha ichki ishlar organi xodimining xizmat majburiyatlarini bajarishga qodir O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ichki ishlar organlaridagi xizmatga ixtiyoriy tartibda, tanlov asosida qabul qilinadi.

Zarur bo'lgan hollarda, ichki ishlar organlarining ayrim bo'linmalari va tashkilotlariga xizmatda bo'lishning eng yuqori yoshiga to'lgan paytida ko'p yillik xizmati uchun pensiya olish huquqiga ega bo'ladigan o'ttiz yoshdan katta fuqarolar qabul qilinishi mumkin.

Ichki ishlar organlarining o'ttiz yoshdan katta fuqarolar qabul qilinadigan ayrim bo'linmalari, tashkilotlari va lavozimlarining ro'yxati O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri tomonidan belgilanadi.

Erkaklar ichki ishlar organlaridagi xizmatga kirguniga qadar O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlaridagi muddatli harbiy xizmatni yoki safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmatni o'tashi yoxud oliv o'quv yurtlarida harbiy tayyorgarlikdan o'tishi kerak.

Siyosiy partiyalarning a'zolari bo'lgan, ichki ishlar organlaridagi xizmatga qabul qilingan fuqarolar xizmatni o'tash davrida siyosiy partiyalarga a'zolikni to'xtatib turadi.

Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, xizmatni o'tashga to'sqinlik qiladigan kasalligi yoki jismoniy nuqsonlari bo'lgan, boshqa davlat organlaridan salbiy sabablarga ko'ra bo'shatilgan fuqarolar, shuningdek, sodir etgan jinoyati uchun qo'llanilgan jazo turidan, sudlanganlik holati tugallanganligidan yoki olib tashlanganligidan va amnistiya akti qo'llanilganligidan qat'iy nazar muqaddam sudlangan fuqarolar ichki ishlar organlariga xizmatga qabul qilinishi mumkin emas.

Ichki ishlar organlaridagi xizmatga qabul qilingan shaxslar uchun dastlabki sinov muddati uch oydan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Ichki ishlar organlaridagi xizmatga qabul qilingan harbiy xizmatga majbur O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shu jumladan,

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ta'lim muassasalarining harbiy xizmatga chaqiriluvchi bo'lgan tinglovchilari va kursantlari harbiy hisobdan chiqariladi hamda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining maxsus hisobida turadi.

Ichki ishlar organi xodimi xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida faqat bevosita yoki to'g'ridan-to'g'ri boshqliqqa bo'yusunadi. Qonunga ziddigi aniq bo'lgan buyruq yoki farmoyish olganda ichki ishlar organi xodimi uni bajarishni rad etish huquqiga ega va qonunga amal qilishi shart.

Ichki ishlar organi xodimi egallagan lavozimi, turgan joyi va vaqtidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining butun hududida boshlig'i (komandiri)ning buyrug'iga binoan istalgan vaqtida xizmat majburiyatlarini bajarishga kirishishi hamda quyidagi choralarini ko'rishi shart:

- jinoyatlar, boshqa huquqbazarliklar sodir etilgan joyda yoki hodisalar joyida jabrlangan fuqarolarga, shuningdek, nochor ahvolda qolgan fuqarolarga birinchi tibbiy yordam yoki boshqa xil yordam ko'rsatilishini tashkil etish;

- odamlarni qutqarish, huquqbazarliklarning oldini olish va ularga chek qo'yish, ularni sodir etgan shaxslarni ushslash, hodisa joyini qo'riqlash hamda unga fuqarolar o'zlarining shaxsiy xavfsizligiga yoki jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi voqealar to'g'risidagi xabarlar bilan murojaat qilgan yoxud bevosita o'zi shunday voqealarga duch kelgan taqdirda eng yaqindagi ichki ishlar organlari bo'linmasiga xabar berish.

Ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarining amal qilishi ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash masalalarini belgilovchi qonun hujjatlarida va ichki ishlar organlari to'g'risidagi qonunda tartibga solinmagan qismiga nisbatan tatbiq etiladi<sup>1</sup>. Boshqacha qilib aytganda, Ichki ishlar organlaridagi aksariyat harbiy unvonga ega bo'lgan xizmat turlari bu davlat xizmati hisoblanadi.

Prokuratura organlaridagi davlat xizmatiga kirish va o'tash tartibiga ham nazar solinsa, unda prokuratura organlarida

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi O'RQ-407-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-yil, 38-son, 438-modda.

prokurorlar, tergovchilar, surishtiruvchilar va ish o'rganuvchilar lavozimiga oliv yuridik ma'lumotga ega, zarur kasbiy fazilatlari bo'lgan, zimmalariga yuklanadigan xizmat vazifalarini bajarishga sog'lig'i imkon beradigan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tayinlanadi. Alovida hollarda, prokuratura organlaridagi xizmatga iqtisodiyot, moliya, Sotsiologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida va boshqa sohalarda oliv ma'lumotga, zarur bilim va tajribaga ega bo'lgan mutaxassislar qabul qilinishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori; viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar lavozimiga yigirma besh yoshdan kichik bo'Imagan shaxslar tayinlanadi. Prokuratura organlari xodimlari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori belgilaydigan tartibda attestatsiyadan o'tkazilishi lozim. Prokuratura organlari xodimlari haq to'lanadigan boshqa biron-bir faoliyat turi bilan shug'ullanishi mumkin emas. Ular ilmiy, o'qituvchilik va ijodiy faoliyat bilan faqat asosiy ishdan bo'sh vaqtida shug'ullanishi mumkin. Prokuratura organlari xodimlariga egallab turgan lavozimlari va mehnat stajiga muvofiq darajali unvonlar yoki harbiy unvonlar beriladi. Prokuratura organlari va muassasalarida xizmatni o'tash, prokuratura organlari va muassasalarining xodimlariga darajali unvonlar va harbiy unvonlar berish hamda ulardan mahrum etish, ularni rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan Prokuratura organlari va muassasalarida xizmatni o'tash to'g'risidagi nizomda belgilab qo'yiladi. Prokuratura organlari xodimlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'qotar quroq hamda boshqa shaxsiy himoya vositalari olib yurish huquqiga ega. Prokuror, tergovchi va surishtiruvchiga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish va dastlabki tergov o'tkazish prokuratura organlarining mutlaq vakolati hisoblanadi. Prokuratura organlari xodimlarining ma'muriy huquqbazarlik va intizomiy nojo'ya xatti-harakat uchun javobgarligi masalasi yuqori turuvchi prokuror tomonidan hal etiladi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagи «Prokuratura to'g'risida»gi 257-II-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-yil, 9-10-sон, 168-modda.

Prokuratura organlari qoshidagi muhim organ – Majburiy ijro byurosida olib boriladigan davlat xizmati to'g'risida ham qisqacha to'xtalib o'tish joiz. Umuman, ushbu funksiyaning prokuratura organlariga o'tkazilishi, unda ijroni amalgga oshirish funksiyalarining mavjudligini, rasmiy ijro hokimiyati tizimiga taalluqli bo'lmasa ham nazariy jihatdan ijro hokimiyatiga xos vazifalarni amalgga oshirishini kuzatish mumkin. Majburiy ijro byurosiga Bosh prokurorning taqdimnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimidan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi.

Byuro direktori byuro direktorining taqdimnomasiga asosan Bosh prokuror tomonidan lavozimiga tayinlanadigan uchta o'rinnbosarlarga, shu jumladan, birinchi o'rinnbosarga ega bo'ladi. Maqomi, mehnatga haq to'lash, tibbiy va transport ta'minoti shart-sharoitlari bo'yicha Bosh prokurorning o'rinnbosariga tenglashtiriladi. Lavozimi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi bosh davlat ijrochisi hisoblanadi; o'zining faoliyatni bo'yicha Bosh prokurorga bo'ysunadi va unga hisobdordir.

**Yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun byuro direktori:**

- a) byuro faoliyatiga umumiylar rahbarlik qiladi;
- b) byuro xodimlarini belgilangan tartibda lavozimiga tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi;
- c) byuro hududiy tuzilmalari boshliqlarining hisobotlarini eshitadi;
- d) Bosh prokurorga quyidagilarni kiritadi (taqdim etadi):
  - byuro vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar loyihalarni;
  - byuro va uning hududiy tuzilmalarining tashkiliy-shtat tuzilmalariga o'zgartish kiritish to'g'risidagi takliflarni;
  - byuroning tegishli xodimlariga darajali unvonlarni berish bo'yicha takliflarni;
  - byuro xodimlarini rag'batlantirish, ularni O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlariga tavsiya etish to'g'risidagi taqdimnomalarni;
  - byuroda xizmat qilish uchun yurisprudensiya, moliya, iqtisodiyot, qishloq va suv xo'jaligi va boshqa sohalarda oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotli, sog'lig'iga ko'ra xizmat majburiyatlarini

bajarishga qodir bo‘lgan, zarur kasb-kor va ma’naviy fazilatlarga ega O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari qabul qilinadi.

Bunda byuroning davlat ijrochilar iavozimlariga oliy yoki o‘rta maxsus yuridik ma’lumotga ega, ayrim hollarda boshqa mutaxassislikdagi oliy ma’lumotga ega shaxslar, byuroning boshqa iavozimlariga oliy yoki o‘rta maxsus ma’lumotli boshqa mutaxassislikka (iqtisodchi, moliyachi, muhandislar va boshqalar) ega shaxslar ham tayinlanadi. Byuroga xizmatga qabul qilishda nomzodlarning belgilangan talablarga muvofiqligini o‘rganish maqsadida tekshirish hamda maxsus komissiya tomonidan bilim saviyasini, zarur kasb malakasi va ishchanlik qobiliyatini aniqlashga qaratilgan majburiy suhbat o‘tkaziladi. Byuroga xizmatga qabul qilishda zimmalariga yuklanadigan xizmat vazifalarini bajarishga sog‘lig‘i imkon berishini aniqlash maqsadida nomzodlar majburiy tartibda tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladi. Xodimlarni xizmatga qabul qilish va lavozimiga tayinlash Bosh prokuror, byuro direktorining yoki byuroning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari boshliqlarining buyruqlari bilan rasmiylashtiriladi. Xizmatga qabul qilish to‘g‘risidagi buyruq xodimga imzo qo‘ydirib e’lon qilinadi. Agar shaxs O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasa; sudning qarori bilan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb e’tirof etilgan bo‘lsa; sudlangan bo‘lsa; nojo‘ya xatti-harakatlar sodir etganligi uchun huquqni muhofaza qiluvchi, sud yoki boshqa davlat organlaridan hamda boshqa tashkilotlardan bo‘shatilgan shaxslar bo‘lsa, byuroga va inspeksiyaga xizmatga qabul qilinishi mumkin emas.

Byuroga xizmatga qabul qilinganda xodimlar o‘z xizmat davrida siyosiy partiyalarga a’zolikni to‘xtatib turadi. O‘zaro yaqin qarindoshlik yoki quda-andachilikda bo‘lgan byuro va inspeksiya xodimlari (ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o‘g‘il va qizlar, er-xotinlar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va bolalari)ning, basharti ulardan biri ikkinchisiga bevosita bo‘ysunib yoki uning nazorati ostida xizmat qiladigan bo‘lsa, birgalikda xizmat qilishlari taqiqланади.

Xodimlar ilmiy, pedagogik va ijodiy faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan faoliyatning biror-bir turi bilan shug‘ullanishi mumkin emas. Ular bunday faoliyat bilan faqat asosiy ish vaqtidan bo‘sh paytda shug‘ullanishlari mumkin.

Xodimlarning lavozimlari ro'yxati byuro direktori tomonidan tasdiqlanadigan shtat jadvali bilan belgilanadi. Xodimlar xizmatni o'tash davrida tegishlicha Byuro direktori tomonidan tasdiqlanadigan byuro xodimlarining kasbiy odobnomasiga rioya qilishlari shart. byuro xodimining kasb odobnomasi talablarini buzish, belgilangan tartibda javobgarlikni keltirib chiqaradi. Mazkur qoidalar buzilishining har bir holati bo'yicha xizmat tekshiruvi o'tkaziladi.

Korrupsiya va boshqa suiiste'molchiliklarning profilaktikasi va ularga yo'l qo'ymaslik, xodimning shaxsiy va ishchanlik fazilatlarini, uning faoliyati samaradorligini muntazam o'rganish, shuningdek, byuro faoliyatining turli yo'nalishlarida malaka va ish tajribasiga ega bo'lgan kadrlar zaxirasini shakllantirish maqsadida xodimlarning rotatsiyasi o'tkaziladi. Byuro xodimlarining rotatsiyasi qida tariqasida egallab turgan lavozimida uch yil o'tishi bilan o'tkaziladi. Xodimlarni rotatsiya qilish tartibi Byuro direktori tomonidan belgilanadi<sup>1</sup>.

Guvohi bo'lganimizdek, yuqoridagi tahlil qilingan davlat boshqaruvi organlarining aksariyati ma'muriy-siyosiy sohaga oid bo'lgan organlar bo'lib, ular faoliyatida davlat xizmati elementlarining u yoki bu qismlarini kuzatish mumkin. Shu bilan birga, faoliyati qonun osti hujjatlari bilan belgilangan boshqa davlat boshqaruvi organlarida ham davlat xizmati institutini huquqiy mustahkamlashga urinishlarni ko'rish mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyati ham aholi bandligi, mehnat migratsiyasi va mehnat munosabatlari sohasida yagona siyosat olib boruvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi hamda o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi.

Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi. Vazir o'rinosarlari vazirlik nazoratidagi tarkibiy bo'linmalarda vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi; o'z

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-maydag'i «O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-3016-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi to'g'risidagi nizom // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 22-son, 425-modda.

funksional majburiyatlarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradilar.

Markaziy apparatning tarkibiy bo'linmalari rahbarlari tegishli tarkibiy bo'linmalarga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishi uchun o'z funksional majburiyatları sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

Vazirlikning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tumanlar (shaharlar)dagи hududiy bo'linmalari rahbarlari: bo'linmalarga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun; o'z funksional majburiyatlarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi. Vazirlikka O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tasdiqlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan vazir rahbarlik qiladi.

– Vazir vazirlik faoliyatiga yakka boshchilik asosida umumiy rahbarlik qiladi va vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

– vazirlik faoliyatining alohida yo'nalishlari va uchastkalariga rahbarlik qilish va idora bo'ysunuvidagi tashkilotlar faoliyi uchun vazir o'rribosarlari va vazirlik tizimining boshqa mansabdar shaxslari vakolatlarini va shaxsiy javobgarligi darajasini belgilaydi;

– o'z vakolati doirasida vazirlik tizimi xodimlari tomonidan ijro etilishi shart bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

– xodimlarning belgilangan umumiy soni doirasida markaziy apparat xarajatlar smetasini va shtat jadvalini tasdiqlaydi, vazirlikning respublika budgetida turgan idoraviy mansub tashkilotlarining xarajatlar va daromadlar smetalarini ro'yxatdan o'tkazadi;

– xodimlar, shu jumladan boshqaruv xodimlari, xo'jalik hisobida bo'lgan idora bo'ysunuvidagi tashkilotlar xodimlari sonini mustaqil belgilaydi, idora bo'ysunuvidagi xo'jalik tashkilotlari tuzilmasini, shtatlar sonini, shu jumladan, boshqaruv xodimlarini, mehnatga haq to'lash fondini, xarajatlar smetasini, avtotransport vositalari limitini tasdiqlaydi, shuningdek, ularning mol-mulkini tasarruf etadi;

– vazir vazirlikning markaziy apparati tuzilmasiga jamoatchilik asoslarda vazir maslahatchisi lavozimini kiritish va ushbu lavozimga yuqori malakali mutaxassisni, shu jumladan, xorij fuqarosini tayinlash huquqiga ega.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlар va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari va tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlariga ishga qabul qilishga ko'rsatilgan nomzodlar majburiy tartibda bir haftalik kirish-molashtirish kurslaridan, mehnat organlari xodimlari esa muntazam ravishda Respublika mehnat organlari xodimlari malakasini oshirish kurslarida har uch yilda kamida bir marta malaka oshirish kurslaridan o'tadi. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri «Mikrokreditbank» ATB Kuzatuv kengashining raisi, Kasbiy malaka va bilim kengashi raisi, shuningdek, vazirlik huzuridagi Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini qo'llab-quvvatlash hamda himoya qilish jamg'armasi Kuzatuv kengashi raisi hisoblanadi. Tashqi mehnat migrantsiyasi agentligi (keyingi o'rinnlarda agentlik deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining mehnat migrantsiyasi jarayonlarini tartibga solish va ularni xorijda uyushgan holda ishga joylashtirish masalalari bo'yicha vazirlikning vakolatli organi hisoblanadi, Agentlik respublika fuqarolarini mamlakat hududidan tashqarida ishga joylashtirish borasidagi o'z faoliyatini xalqaro huquqiy normalar va qoidalarga asoslanib, respublika milliy manfaatlarini va O'zbekiston Respublikasidagi yuridik shaxs maqomiga ega xorijiy fuqarolar manfaatlarini inobatga olgan holda amalga oshiradi. Oliy yuridik ma'lumotga ega Davlat mehnat inspeksiyasining davlat mehnat inspektordagi davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmati xodimlariga tenglashtiriladi, ularga adliya organlari xodimlariga beriladigan mansab darajalari tatbiq etiladi. Vazirlik tizimi xodimlarini moddiy rag'batlantirish va mehnatiga haq to'lash budjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti, O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, Mehnat organlari xodimlari mehnatini rag'batlantirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash jamg'armasi mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi. O'z funksional majburiyatlarini samarali bajarayotgan, oldiga qo'yilgan vazifalarga erishishga salmoqli hissa qo'shgan vazirlikning professional, tashabbuskor xodimlariga ujoy va avtotransport vositalarini xarid qilish uchun kreditlarni rasmiylashtirishda dastlabki badalni to'lash uchun Mehnat organlari

xodimlari mehnatini rag'batlantirish va moddiy-texnik bazasini muustahkamlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan foizsiz qarzlar taqdim etilishi mumkin.

Foizsiz qarzlar vazirlik va xodim o'rtasidagi qarz bitimi tuzish va qarzni uzish jadvalini tasdiqlash orqali vazirlik hay'ati qarori mosida beriladi. Uy-joy xarid qilish uchun kreditlar bo'yicha dastlabki badalni to'lashga qarz 10 yilgacha, avtotransport vositalarini xarid qilish uchun kreditlar bo'yicha dastlabki badalni to'lashga qarz 5 yilgacha beriladi.

Taqdim etiladigan qarz summasi kredit bo'yicha xarid qilinadigan uy joy yoki avtotransport vositasi qiymatining 25 foizidan oshmasligi kerak. Qarz uchinchi shaxsning kafilligi asosida taqdim etiladi, kafillik shartnomasini notarial tasdiqlash talab etilmaydi. Tasdiqlangan jadvalga muvofiq qarz to'lanmasa, to'lov summasi belgilangan tartibda qarz bitimi shartlariga muvofiq undirib olinadi<sup>1</sup>.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, ommaviy boshqaruvinizini samarali yo'lga qo'yish, xalq davlat organlariga emas, davlat organlarining xalqqa xizmat qilishini huquqiy ta'minlashning yo'li bareha davlat boshqaruvi organlari uchun uchun yagona bo'lgan O'zbekiston Respublikasi davlat xizmati to'g'risida»gi qonunni qabul qilish va uning normalariga qat'iy rioya etish hisoblanadi.

### **Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol**

A. ismli moliya sohasida 25 yillik mehnat stajiga ega bo'lgan xodim 2014-yilgi parlament saylovlarda deputat etib saylandi. U 2019-yilgi saylovlarda ishtiroy etmadni va o'zining ilgarigi lavozimiga – tuman moliya bo'limi boshlig'i lavozimiga qaytishini rejalashtirgan edi. Ammo viloyat moliya bo'limi boshlig'i unga ayni paytdagi tuman moliya bo'limi boshlig'i – yosh iqtidorli kadr o'z vazifalarini a'lo darajada uddalayotganligini ta'kidlab, A. ismli xodimiga pensiyaga chiqishni taklif etadi. Bundan A. ismli xodim norozi bo'lib O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rahbariyatiga murojaat qildi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-dekabrdagi „O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1066-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi to'g'risida nizom Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2018-y., 09/18/1066/2428-son.

*Vaziyatga huquqiy baho bering.*

*Tuman moliya bo'limi lavozimi davlat xizmatiga taalluqlimi?*

*Davlat xizmatining mezonlarini yodga oling.*

*Kazusdagi muammoli vaziyatga yechim taklif qiling. A. ismli xodimning e'tirozi huquqiy asoslarga egami?*


### **III bobni o'zlashtirish bo'yicha KROSSVORD**

#### **Bo'yiga:**

1. Davlat xizmatiga kirish uchun nomzodlar uchun lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar.
2. Davlat xizmatiga keng va tor ma'nolarda qarash mumkinligini ta'kidlagan olim.
3. Davlat boshqaruvida munosib kadrlar ishlashi lozimligini anglatuvchi prinsip.

#### **Eniga:**

3. Shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan «to'qnashuv».
4. Davlat xizmati o'taladigan davlat boshqaruvi organi.
5. Davlat xizmati prinsiplaridan biri.
6. Harbiy unvon.



## **IV bob. IQTISODIY SOHANI MA'MURIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

### **4.1. Ma'muriy huquqda iqtisodiy soha tushunchasi va uni ma'muriy-huquqiy tartibga solish mohiyati**

Faoliyat yurituvchi barcha ommaviy boshqaruv organlari (ma'muriy organlari) o'z mazmun-mohiyati qonuniy funksiya va vakolatlari doirasidan kelib chiqib u yoki bu sohada davlat boshqaruvini amalga oshiradi. Ularning faoliyati, tuzilishi va maqsadi hamda vazifalarini samarali tahlil qilish, faoliyatiga ilmiy va nazariy baho berish uchun qoida tariqasida ommaviy boshqaruv organlarini katta uchta yo'nalishga ajratish mumkin.

Bular – iqtisodiy sohadagi ma'muriy organlar, ijtimoiy sohadagi ma'muriy organlar va ma'muriy-siyosiy sohadagi ma'muriy organlar. Ommaviy boshqaruv organlarini shu tariqa tasniflagan holda o'rganish, ularning faoliyati mezonlarini aniqlash, xolis baholash, sohada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan masalalarga to'g'ri yechim topish hamda mazkur soha ma'muriy organlari faoliyatini takomillashtirish yuzasidan aniq takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish uchun ham qulaydir. (*3-chizmaga qarang*)

Har qanday jamiyat va davlat hayotida iqtisodiyotning muhim o'ringa ega ekanligini, uning siyosatdan ustun turishi prinsiplariga asoslangan holda, eng avvalo, iqtisodiy sohani ma'muriy-huquqiy tartibga solish, so'ngra ijtimoiy soha va yakunda ma'muriy-siyosiy sohani ma'muriy-huquqiy tartibga solish masalalari ketma-ketlikda o'rganilishi mantiqan to'g'ri hisoblanadi. Zero, davlat mexanizmining ishlashiga, jamiyatning farovonligi va fuqarolar moddiy ahvolining muttasil yuksalib borishi uchun aynan iqtisodiy soha ommaviy boshqaruv organlarining samarali ishlashi juda muhim. Bugungi globallashuv jarayonida har qanday davlatning qudratini uning harbiy yoki siyosiy obro'siga qarab emas, balki iqtisodiy qudratiga, aholisining moddiy farovonligiga qarab baho berishi tabiiy qonuniyatga aylanib ulgurgan.

Demak, iqtisodiy sohadagi ommaviy boshqaruv organlarini ham ikki guruhga ajratish mumkin. Bular davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik boshqaruvi organlari.

## **Davlat boshqaruvi organlariga:**

- iqtisodiy va sanoat, hamda davlat mulkini boshqarish sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari;
- moliya va g‘aznachilik sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari;
- soliq va bojxona sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari;
- tashqi savdo va investitsiya sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari;
- qishloq va suv xo‘jaligi sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlaridir.

## **Xo‘jalik boshqaruvi organlariga:**


- agrosanoat va oziq-ovqat sohasidagi xo‘jalik boshqaruvi organlari;
- transport va logistika sohasidagi xo‘jalik boshqaruvi organlari;
- bank va xizmat ko‘rsatish sohasidagi xo‘jalik boshqaruvi organlari;
- ishlab chiqarish sohasidagi xo‘jalik boshqaruvi organlaridir.

Avvalgi boblarda ta‘kidlanganidek, ushbu davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining iqtisodiy sohadagi faoliyati ularning maqomidan kelib chiqib farqlanadi. Xususan, sohadagi davlat boshqaruvi organlarining asosiy vazifasi qonunlarga va boshqa qonunosti hujjatlariga asoslangan holda mazkur sohani boshqarish, uning barcha yo‘nalishlari mutanosib rivojlanishi uchun huquqiy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Iqtisodiy sohada faoliyat olib boruvchi xo‘jalik boshqaruvi organlarining asosiy vazifasi har bir yo‘nalishlar kesimida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish, eksportni qo‘llab-quvvatlash va shu tariqa davlat iqtisodiyotini diversifikatsiyalashdan iboratdir. Shu o‘rinda ta‘kidlash kerakki, iqtisodiy sohadagi ko‘plab yo‘nalishlarning ommaviy boshqaruv organlari orqali tartibga solinib kelinayotganligi sobiq Ittifoq davridan «meros» bo‘lib qolgan boshqaruv uslublarining ko‘rinishlaridan biridir. Ayni ushbu masalani sof bozor iqtisodiyoti sharoitlariga o‘zgartirish uchun ham **2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining uchinchi yo‘nalishida** iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo‘naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni

mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish<sup>1</sup> ustuvor vazifa etib belgilandi. Boshqacha qilib ta'kidlaganda, bugungi kunda davlat ishtirokidagi aksariyat iqtisodiy soha tarmoqlarini xususiy sektorga o'tkazish, sog'lom va adolatli huquqiy himoyalangan raqobatbardoshlikni yaratish, tabiiy monopoliya sohalaridan tashqari ko'plab ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hamda qishloq xo'jaligi sohalaridagi davlat ishtirokini keskin qisqartirish vazifasi belgilangan.

#### **4-chizma**



Shunday qilib, **iqtisodiy sohani ma'muriy-huquqiy tartibga solish** deb mamlakat iqtisodiyotini, investitsiyaviy holatini va moliya sohasini hamda eksport va importni qonuniy yo'lga qo'yish va boshqarishga qaratilgan ommaviy boshqaruv organlarining doimiy ma'muriy faoliyatiga aytildi.

Bugungi kunda iqtisodiy sohani ma'muriy-huquqiy tartibga

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 4947-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.

soluvchi ommaviy boshqaruv organlari faoliyatining huquqiy asoslarini quyidagi asosiy qonunchilik hujjatlari tashkil etadi:

- O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 19-noyabrdagi «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi 425–XII-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrdagi «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi 310–II-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 12-sentabrdagi «Birjalar va birja faoliyati to'g'risida»gi O'RQ–375-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'RQ–677-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 1-apreldagi «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi O'RQ–680-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 2-oktabrdagi «Avtomobil yo'llari to'g'risida»gi O'RQ–117-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi O'RQ–580-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 6-yanvardagi «Raqobat to'g'risida»gi O'RQ–319-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 13-yanvardagi «Aloqa to'g'risida»gi 512–XII-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 28-dekabrdagi «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlash to'g'risida»gi 1006–XII-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 28-dekabrdagi «Standartlashtirish to'g'risida»gi 1002–XII-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabrdagi «2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida»gi O'RQ–742-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi O'RQ–730-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-maydagi «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi 837–XII-sonli Qonuni;

- O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 13-dekabrdagi «Yer osti boyliklari to'g'risida»gi 444-II-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi 2002-yil 29-avgustdagи «Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida»gi 397-II-son Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi «Chel el investitsiyalari to'g'risida»gi 609-I-son Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagи «Davlat xususiy sheriklik to'g'risida»gi O'RQ-537-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining «Davlat xaridlari to'g'risida»gi 2018-yil 9-apreldagi O'RQ-472-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi O'RQ-457-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyuldagи «Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida»gi O'RQ-701-sonli Qonuni.

Ushbu kodeks va qonunlar normalari iqtisodiy sohani ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi ommaviy boshqaruв organlari faoliyatidagi birinchi navbatdagi huquqiy asoslar hisoblanadi. Boshqa barcha qonunosti hujjatlari mazkur qonun hujjatlariga zid bo'lmasligi, uning protsessual normalarini amalga oshirish mexanizmlarini aniqlashtirishi kerak.

#### **Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol**

Fuqaro B. O'zbekistondagi eng yirik va moliyaviy jihatdan ancha barqaror bo'lgan «Sun Bank»ning omonat jamg'armasiga 10 mln. so'm pul mablag'larini omonatga qo'ygan edi. Biroq vaqt o'tishi bilan ushbu bankning moliyaviy ahvoli og'irlashib bordi. Natijada O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonunining 53-moddasi va «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunining 14-moddasiga asosan amaldagi bank qonunchiligi talablarini buzganligi sababli O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki «Sun Bank» aksiyadorlik tijorat bankidan bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani chaqirib oldi.

Tadbirkor B. sizdan yuridik yordam olish uchun murojaat qilib, uning omonatga qo'ygan mablag'larining taqdiri nima kechishi, qanday qilib o'z omonatini qaytarib olishi, uning tartibi va asoslari, shuningdek, bankning tugatish tartibi va bunda omonatchilar huquqlarining kafolatlari bo'yicha huquqiy maslahat so'radi.

1. *Mazkur holatni normativ-huquqiy hujjatlarga asoslangan holda sharhlang va tahlil eting.*
2. *Mazkur vaziyatdan kelib chiqib, banklarda depozit operatsiyalarini amalga oshirish va fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash tartiblari bilan bog'liq bo'lgan normalarni talqin eting hamda bildirilgan fikrlarni normativ-huquqiy hujjatlarga asoslangan holda bayon eting.*

## **4.2. Davlat iqtisodiy faoliyatini ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi boshqaruv organlari**

Iqtisodiy sohaning har qanday davlat va jamiyat hayotida muhim o'rincini tutishini avvalgi paragrafimizda ta'kidlagan edik. Ushbu sohaning muhimligi shundaki, u ko'p tarmoqli, ko'p qirrali hisoblanadi. Misol uchun, iqtisodiy soha tushunchasi o'z ichiga iqtisodiyot, moliya, bank va investitsiya sohalarini ham qamrab oladi. Shuning uchun ham bugungi kunda ushbu sohaga oid ko'plab huquq tarmoqlari shakllangan va rivojlanmoqda. Bular moliya huquqi, budget huquqi, soliq huquqi, bojxona huquqi, bank huquqi, sug'urta huquqi, valyuta huquqi, investitsiya huquqi. Bularning barchasi Ma'muriy huquqning tarmoqlari hisoblanadi. Chunki yuqorida nomi atalgan tarmoqlarning barchasini ma'muriy-huquqiy tartibga solish bilan shug'ullanadigan ma'lum ommaviy boshqaruv organlari mavjud.

Ushbu paragrafimizda iqtisodiy va sanoat hamda davlat mulkini boshqarish sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari haqida fikr yuritamiz. Ularning faoliyati huquqiy asoslarini va asosiy funksiya hamda vakolatlarini tahlil qilamiz.

Ushbu yo'nalishdagi strategik ahamiyatga ega bo'lgan davlat boshqaruvi organlaridan biri bu O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligidir. Vazirlilik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlariga va boshqa qonunosti hujjatlariga asosan o'z faoliyatini olib boradi. Ushbu idora mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va industrial rivojlanishi hamda investitsiya sohasidagi davlat siyosatini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

## **Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:**

- ✓ Makroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va yuritish;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi, Madaniyat vazirligi, Turizm va sport vazirligi bilan hamkorlikda inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ✓ Ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda hududlarni rivojlantirishning milliy metodologik asoslari va yondashuvlarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish;
- ✓ Asosiy sanoat tarmoqlari va yirik korxonalarini isloh qilish bo'yicha strategiya va dasturlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;
- ✓ Davlat ulushi mavjud strategik tarmoq va korxonalarda mehnat unumдорligini, energiya va boshqa ishlab chiqarish resurslari tejamkorligini oshirish hamda mahsulot tannarxini kamaytirishda zamonaviy mexanizm va yondashuvlarni qo'llanilishi bo'yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirishda ishtirok etish;
- ✓ Yangi barpo etiladigan yondosh shaharlar aholisining yashash sharoiti darajasini yanada oshirish, hamda shaharlarning bosh rejalarini ishlab chiqishni moliyalashtirish manbalarini aniqlashtirish va moliyalashtirish;
- ✓ biznes ekotizimi, jumladan startap, biznes-inkubator, biznes-akseleratorlar asosida tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida venchur fondlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- ✓ mamlikatni iqtisodiy rivojlantirish strategiyasidan, shu jumladan o'rta va uzoq muddatli tashqi iqtisodiy muvozanatni ta'minlash maqsadlaridan kelib chiqib, xalqaro iqtisodiy hamkorlikning ustuvor yo'naliishlari bo'yicha takliflarni ishlab chiqish<sup>1</sup>.

## **Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:**

### **1. Makroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va yuritishda, xususan:**

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining rasmiy veb sayti ma'lumotlari. <https://mineconomy.uz/uz/info/331>.

*a) makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning tahlili va prognozi, iqtisodiy boshqaruvning bozor mexanizmlarini joriy etishda:*

– makroiqtisodiy indikatorlarni tahlil qilish va prognozlash orqali mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, bozor islohotlari jarayonlarining tahlili asosida iqtisodiyotni liberalallashtirish bo'yicha tizimli monitoring va tahlilini amalga oshiradi;

– iqtisodiyotning mavjud salohiyati hamda tashqi iqtisodiy sharoitlarni inobatga olgan holda iqtisodiy rivojlanishning o'rta va uzoq muddatli strategiyasi va makroiqtisodiy senariylarini ishlab chiqadi va uning amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi;

– mavjud tashqi sharoitlarni, monetar va fiskal siyosatning joriy holatini baholash asosida qisqa, o'rta va uzoq muddatli prognozlarga hamda makroiqtisodiy siyosat yo'nalishlariga tegishli o'zgartirishlar kiritib boradi;

– iqtisodiyotni boshqarishda bozor usullari va mexanizmlarini joriy etishni kengaytirish, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishni qisqartirish va optimallashtirish bo'yicha takliflarni tanqidiy tahlil asosida ishlab chiqadi va boshqalar;

*b) milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini oshirishda:*

– hukumat tomonidan tasdiqlangan dasturlar asosida o'rta va yaqin muddatlarga mo'ljalangan tovarlarning asosiy guruhlari bo'yicha tashqi savdo prognozini shakllantiradi;

– eksport tarkibi va hajmining chuqur tahlili asosida O'zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini rivojlantirish bo'yicha amaliy choralar ishlab chiqish, eksport mahsulotlari turlarini kengaytirish va hajmlarini oshirish rezervlarini aniqlaydi;

– makroiqtisodiy parametrlar va to'lov balansi bilan uyg'unlashgan holda tashqi savdoni rivojlantirish prognoz parametrlarini, xususan tovar (ish, xizmat)lar importi ko'rsatkichlarini va eksport prognozini ishlab chiqadi va boshqalar.

## **2. Kambag'allikni qisqartirish borasida:**

– iqtisodiy o'sishning inklyuzivligini tahlil qilish asosida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha strategiyani ishlab chiqadi va uning ijrosi yuzasidan doimiy monitoring olib boradi;

– xalqaro tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda mutasaddi vazirlilik va idoralar bilan birgalikda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan dastur va «yo'l xarita»larini ishlab chiqadi;

- kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, xorij tajribasini inobatga olgan holda kambag'allik darajasini o'lchashning milliy mezonlari va baholash usullarini qamrab olgan uslubiyotni ishlab chiqadi va boshqalar.

### **3. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sohasida:**

– hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi o'rtasidagi farqni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish orqali tarkibiy o'zgarishlarning borishini belgilaydi;

– hududlarda foydalanimagan mehnat zaxiralarini va ishlab chiqarish salohiyatlarini aniqlaydi va ulardan samarali foydalananish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi. Bunda, tabiiy va iqtisodiy resurslardan samarali foydalangan holda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi;

– hududiy investitsiya dasturlarini shakllantirish jarayonida loyihalarini, xususan ishlab chiqarish kuchlari, infratuzilma va turar joylarni hududga tabiiy, iqtisodiy, arxitektura-qurilish, shuningdek iste'mol bozori kabi omillarni inobatga olgan holda maqbul joylashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi va boshqalar.

### **4. Mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish sohasida:**

– biznesni rivojlantirishni rag'batlantirish yo'lida iqtisodiyot tarmoqlari va kichik sanoat zonalarida xususiy sektorning ulushini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish orqali mamlakatda kichik va o'rta biznesni hamda tadbirkorlikning barcha shakllarini rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini yuritadi;

– mamlakatdagi ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish va kichik sanoat zonalarining salohiyatidan samarali foydalananish, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda kichik va o'rta biznesni muhim drayverga aylantirishning konseptual va strategik yondashuvlarini sohani rivojlantirish borasida fundamental to'siq va muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

– jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida vazirlik, vazirlikning tuman va shahar bo'limlari, vazirlikning hududiy

boshqarmalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar va takliflar ishlab chiqadi;

– biznes muhitini yanada yaxshilash va qonunchilik bazasini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda tadbirkorlik subyektlarini jalb qilish, shuningdek, tadbirkorlik sohasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni amalga oshirishda jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi va boshqalar.

## **5. Sanoatning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish – yagona industrial siyosatni yuritish, jumladan:**

a) *sanoat korxonalarini samarali joylashtirish, hududlarning tabiiy va iqtisodiy resurslaridan oqilona foydalanish asosida respublika sanoatini rivojlantirish strategiyasi(modeli)ni ishlab chiqish sohasida:*

– erkin bozor munosabatlariga asoslangan sanoat siyosatini ishlab chiqadi va yuritadi. Bunda, sanoat raqobatbardoshligini oshirish, uning salohiyatlari drayverlarini aniqlash, baho'lash hamda ularni harakatga keltirishni nazarda tutuvchi sanoatni rivojlantirishning o'rta va uzoq muddatli strategiyalari(modellari) ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi;

– sanoatni rivojlantirish tendensiyalarini tahlil qilish indikatorlarini yuritadi hamda respublikada mavjud ishlab chiqarish quvvatlari, ishlab chiqarish hajmlari, ichki bozor talabining qoplanish darajasi yuzasidan tahlillar o'tkazadi hamda takliflar tayyorlaydi va boshqalar;

b) *tovar bozorlaridagi muvozanatni ta'minlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish sohasida:*

– geologik tadbirlarni amalga oshirish va tabiiy yer osti boyliklaridan unumli foydalanish siyosatini yuritishda ishtirok etadi. Bunda, iqtisodiyotni mineral xomashyo resurslari bilan barqaror ta'minlashda foydali qazilma konlari zaxiralarini oshirishni nazarda tutuvchi yo'nalishlar bo'yicha tahlillarni amalga oshiradi va takliflar tayyorlaydi;

– foydali qazilma konlarini geologik o'rghanish va sanoat yo'li bilan o'zlashtirishda mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish bo'yicha geologiya-iqtisodiy takliflar tayyorlanishini muvofiqlashtiradi;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari bilan yirik sanoat korxonalari o'rtasida hamkorlikni kengaytirish uchun shart-sharoitlar yaratadi;

– yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan mineral xomashyoni chuqur qayta ishlash asosida bazaviy tarmoqlarni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshirilishini ta'minlaydi va boshqalar;

Yuqoridagi sanab o'tilgan mamlakatning muhim iqtisodiy vazifalarini amalga oshirishda vazirlik tuzilmasida tegishli boshqarma va bo'limlar, jamg'arma va markazlar, departament va agentliklarda yuzlab davlat xizmatchilari faoliyat yuritadi<sup>1</sup>.

### **Vazirlik o'z faoliyatida quyidagi qonunlarning bevosita ijrochisi hisoblanadi:**

– O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 22-maydag'i «Elektron tijorat to'g'risida»gi O'RQ-385-sonli Qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 25-avgustdag'i «Investitsiya va pay fondlari to'g'risida»gi O'RQ-392-sonli Qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi O'RQ-598-sonli Qonuni va boshqalar.

Shu kungacha vazirlik tomonidan ko'plab strategik rejalash-tirish va prognozlashtirish natijalari bo'yicha mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, hududlar o'rtaisdagi ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishda muvozanatni ta'minlash va tadbirkorlikni, xususiy biznesni rivojlantirish uchun bir qator qonun osti hujjatlari tayyorlanib amaliyotga joriy etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 16-dekabrdagi «Xorazm viloyatining obodonchilik va aholi suv ta'minotini tubdan yaxshilash, Urganch shahar bosh rejasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1874-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-maydag'i «Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-4302-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-fevraldag'i «Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahrida obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilishga doir kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi 31-sonli qarori tayyorlanib tegishli tartibda amaliyotga joriy etilgan.

---

<sup>1</sup> Davlat xizmatchilari atamasini batafsil o'rganish uchun mazkur dasrlikning III bobi mazmuniga qarang.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi vakolatli organ huquqiy asoslarini o'rganish natijalari bo'yicha shuni alohida ta'kidlash kerakki, uning davlat mexanizmining tarkibiy bir elementi sifatida ideal darajada erishishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

– iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini minimal darajada saqlash va shu tariqa sanoat, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi xususiy sektorning ulushi ortishiga zamin yaratish;

– aholi ijtimoiy-iqtisodiy va moddiy ahvolining jahon standartlari darajasidan past bo'lmagan ko'rsatkichlariga erishish;

– mamlakatning barcha hududlari mutanosib rivojlanishini ta'minlash;

– mamlakatda eksport salohiyatining importga nisbatan lozim darajadagi ustunligini doimiy saqlab turish;

– aholi daromadlarini oshirish va kambag'allikni qisqartirishning samarali mexanizmlarini yo'lga qo'yish;

– mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiyalash.

Aynan shu mezonlarga erishishda tizimli ravishda aniq va biri ikkinchisini takrorlamaydigan mustahkam huquqiy asoslarga ega bo'lgan faoliyat yurituvchi davlat boshqaruvi organi davlat va jamiyat rivojining garovidir.

### **Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol**

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tashabbusi bilan tayyorlanib, hukumat qarorida tasdiqlangan qishloq xo'jaligi nisbatan past darajada bo'lgan hududlardagi dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash va shu tariqa mintaqalar rivojlanishida muvozanatga erishish maqsadida mazkur hududlardagi qishloq xo'jaligi subyektlariga Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi darajasidagi imtiyozli kreditlar ajratish tizimini yo'lga qo'yish nazarda tutilgan edi. Biroq Markaziy bank bunday ko'rinishdagi qo'llab-quvvatlash choralarini tijorat banklariga va yakunda davlat budgetiga sezilarli foyda keltirmasligini ma'lum qilib, hukumat qarorining tegishli bandi ijrosini to'xtatishni so'rab Hukumatga murojaat qildi. Natijada Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi bilan Markaziy bank o'rtasida boshqaruvga oid ma'muriy jarayonida ish yuzasidan nizo yuzaga keldi.

*Mazkur vaziyatga tegishli qonunlarga asoslanib huquqiy baho bering.*

*O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonuni asosida Markaziy bank vakolatlarini tahlil qiling.*

*O'z nuqtayi nazaringizni bayon qiling.*

#### **4.3. Davlat moliyaviy faoliyatini ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi boshqaruv organlari**

Iqtisodiy sohasidagi davlat boshqaruvi organlari mamlakatning yalpi ichki mahsuloti ko'rsatkichi, makroiqtisodiy barqarorlik va umum davlat darajasidagi rivojlanish istiqbollari masalalari bo'yicha huquqiy asoslangan faoliyatni amalga oshirsa, moliya sohasidagi davlat boshqaruvi organlari davlatning markazlashgan pul mablag'larini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish hamda uning maqsadli sarflanishi bo'yicha nazoratni olib borish yo'nalishida huquqiy siyosatni amalga oshirish bilan shug'ullanadi.

**O'zbekiston Respublikasidagi davlat moliyaviy faoliyatini ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi vakolatli davlat organlariga:**

- O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo'mitasi;
- O'zbekiston Respublikasining Davlat bojxona qo'mitasi taalluqli.

**Ushbu davlat boshqarushi organlari o'z faoliyatini asosan quyidagi qonunlarga tayanib amalga oshiradi:**

- O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 5-apreldagi «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi 358-II-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-maydag'i «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi 78-II-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi 2016-yil 13-apreldagi «Buxgalterlik hisobi to'g'risida»gi O'RQ-404-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi 1997-yil 29-avgustdag'i «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi 474-I-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi 2018-yil 18-oktabrdagi «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi O'RQ-502-sonli qonunlaridir.

## **O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksi normalariga ko'ra:**

- davlat maqsadli jamg'armalarining budgetlari loyihalarini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining daromadlari va xarajatlarini ko'rib chiqadi;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Davlat budgeti to'g'risidagi qonun loyihasini va budgetnomani ko'rib chiqish uchun taqdim etadi;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasiga Davlat budgetining daromadlari prognozini har chorakda yetkazadi;
- birinchi va ikkinchi darajali budget mablag'larini taqsimlovchilarga ular uchun nazarda tutilgan budgetdan ajratiladigan mablag'larni taqsimlash, shuningdek, navbatdagi yil uchun xarajatlar smetasini tuzish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalarni yuboradi;
- o'rta muddatli budgetni tayyorlash jarayonini ikki bosqichda (tuzish va tayyorlash) amalga oshirish bo'yicha yagona uslubiy qo'llanmalar to'plamini (sirkulyarni), shuningdek, Davlat budgetini shakllantirishda budgetdan ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlarini yetkazish hamda qayta ko'rib chiqish tartibini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;
- birinchi darajali budget mablag'larini taqsimlovchilarining takliflari asosida Davlat budgeti to'g'risidagi Qonun qabul qilingan kundan e'tiboran bir oylik muddatda birinchi darajali budget mablag'-larini taqsimlovchilar uchun O'zbekiston Respublikasining respublika budgetidan ajratiladigan tasdiqlangan mablag'lar doirasida ikkinchi darajali budget mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan budget mablag'larining cheklangan miqdorlarini tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;
- birinchi darajali budget mablag'larini taqsimlovchilarining takliflari asosida ikkinchi darajali budget mablag'larini taqsimlovchilar uchun tasdiqlangan budgetdan ajratiladigan mablag'larga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ma'qullash uchun kiritadi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi budgetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlarining, tumanlar va shaharlar budgetlarining hududiy budget mablag'larini taqsimlovchilar ro'y-xatini tasdiqlaydi;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga mahalliy budgetlarning loyihalarini tayyorlash bo‘yicha tavsiyalar yuboradi;
- birinchi va ikkinchi darajali budget mablag‘larini taqsimlovchilarning xarajatlar sметalarini va jamlanma xarajatlar sметаларини, shtat jadvallarini, shuningdek, ularga kiritilgan o‘zgartirishlarni ro‘yxatdan o‘tkazadi;
- budget tizimi budgetlarining mablag‘laridan maqsadli foydalaniishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- o‘z vakolatiga kiramagan masalalarga doir normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qonun hujjatlariga muvofiq budget sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin<sup>1</sup>.

Mamlakatning bosh moliyaviy idorasi budget-huquqiy sohasini boshqarishdan tashqari tartib-taomillar bilan bog‘liq bo‘lgan ma’muriy protsessni ham amalga oshiradi<sup>2</sup>. Jumladan, sug‘urta va auditorlik faoliyatlarini litsenziyalash, shuningdek, auditor va buxgalterning malaka sertifikatlarini olish uchun qilgan murojaatlari asosida malaka imtihonlarini tashkillashtirish.

Davlat budgeti bilan bog‘liq bo‘lgan budget-huquqiy munosabatlar uning shakllanishi, taqsimlanishi va ijro etilishi kabi qismlarga bo‘linadigan bo‘lsa, uning oxirgi ikki qismini Moliya vazirligi o‘z qonuniy vakolatlari orqali tartibga soladi. Davlat budgetining shakllanishida esa yana bir o‘ta muhim davlat boshqaruvi organi – **O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi** faoliyati alohida ahamiyatga ega.

Davlat soliq xizmati organlari soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning (bundan buyon matnda soliqlar deb yuritiladi) budgetga to‘liq va o‘z vaqtida tushishini ta‘minlash maqsadlarida tuziladi.

Davlat soliq xizmati organlari o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, ushbu qonunga, boshqa qonun

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini to‘plami, 2013-yil, 52-I-son.

<sup>2</sup> Ma’muriy protsess va ma’muriy tartib-taomillar tushunchalari to‘g‘risida mazkur darslikning VII va VIII boblarida atroflichcha ma’lumot olishingiz mumkin.

hujjatlariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga amal qiladi.

Davlat soliq xizmati organlari o'z faoliyatini davlat boshqaruvi organlaridan, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil tarzda qonun hujjatlariga muvofiq amalgaga oshiradi.

Davlat soliq xizmati organlarining o'z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlari barcha soliq to'lovchilar – yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslar uchun majburiydir.

Davlat soliq xizmati organlari yuridik shaxslar bo'lib, respublika budgeti mablag'lari hisobidan ta'minlanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan va o'z nomi bitilgan muhrga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi markaziy apparati tuzilmasi uning xodimlari cheklangan soni bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risidagi nizom, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, tumanlar, shaharlar va shahardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalarining namunaviy tuzilmasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

### **Davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

- davlat soliq siyosatini amalgaga oshirish hamda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni ta'minlash;

- soliqlarning soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'liq hamda o'z vaqtida tushishini ta'minlash;

- soliq to'lovchilarni va soliq solish obyektlari o'z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta'minlash, ularning to'liq qamrab olinish mexanizmlarini soliq ma'muriyatichiligi jarayoniga zamонавиy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish orqali takomillashtirish;

- soliq solinadigan bazani kengaytirish bo'yicha tahlil qilish va ta'sirchan choralar ishlab chiqish, shu jumladan makroiqtisodiy

ko'rsatkichlarning o'zgarishi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali ta'sirchan choralar ishlab chiqish, soliqlar yig'ilishi bo'yicha choralarni amalga oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish, soliqlarga oid huquqbazarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha kompleks tadbirlarni bajarish;

– pul mablag'larining g'ayriqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, aholi bilan pullik hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumining to'liq va o'z vaqtida topshirilishi ustidan muntazam nazoratni ta'minlash;

– soliq to'lovchilar bilan ishlashni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan soliq to'lovchilarga muloqotsiz elektron xizmat ko'rsatishga o'tish yo'li bilan amalga oshirish;

– soliq to'lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda har tomonlama ko'maklashish;

– soliqlarning ixtiyoriy ravishda to'lanishini ta'minlashga qaratilgan, soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha ishlarni takomillashtirish;

– xo'jalik yurituvchi subyektlar, yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatini rag'batlantirishga, ularga zarur imtiyozlar va preferensiyalar berishga doir qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

– bozor va savdo komplekslarining moliya-xo'jalik faoliyati, ular tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioxva etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish hamda ularning hududida aniqlangan huquqbazarliklar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv o'tkazib, jinoyat ishlarni tegishliligiga ko'ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirish;

– davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyyati organlari bilan davlat budgetini shakllantirish masalalari bo'yicha hamkorlik qilish;

– yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta hamda eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish chog'ida qonun hujjatlariga rioxva etilishi ustidan o'z vakolatlari doirasida nazoratni amalga oshirish;

– kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, soliq organlarini yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan malakali xodimlar bilan to'ldirish, korrupsiya va ishga rasmiyatchilik bilan yondashish faktlariga barham berish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek, xodimlar o'rtasida huquqbuzariliklar profilaktikasini va ular uchun xizmatni o'tashning munosib shart-sharoitlari yaratilishini ta'minlash.

**1-jadval<sup>1</sup>**  
(foiz hisobida)

T/t	Manbalar nomi	2017-yil IV chorak	2018-yil IV chorak	O'zgarishi
1.	<b>Budjet</b>	64,8	66,3	1,5
2.	<b>Pensiya jamg'armasi</b>	29,4	28,2	-1,2
3.	<b>Respublika yo'l jamg'armasi</b>	4,2	4,3	0,1
4.	<b>Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi</b>	1,6	1,2	-0,4
	<b>Respublika bo'yicha jami:</b>	100,0	100,0	0,0

Davlat soliq xizmati organlari o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni davlatning boshqa boshqaruvin organlari, davlat hokimiyyati mahalliy organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qiluvchi, statistika va moliya organlari, banklar va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda bajaradilar. Mazkur organlar va tashkilotlar soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish va soliqlar

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy veb-sayti ma'lumotlariidan.

bo'yicha huquqbezarliklarga qarshi kurashda davlat soliq xizmati organlariga ko'maklashishlari shart<sup>1</sup>.

Mamlakatning markazlashgan pul mablag'larini (Davlat budgeti nazarda tutilmoxda) shakllantirishda **O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining** ham salmoqli o'rni borligiga urg'u berish kerak. Davlat bojxona qo'mitasining budgetga tushumlarni ta'minlash bilan bir qatordagi yana bir muhim vazifalaridan biri bu – mamlakat iqtisodiy xavfsizligini amalga oshirishidir.

Davlat bojxona tizimi yordamida O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni va transport vositalarini olib o'tish, bojxona to'lovlarini undirish, bojxona rasmiylashtiruvni, bojxona nazoratini amalga oshirish, shuningdek bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish hollarining oldini olish, aniqlash va ularga chek qo'yish tartibini belgilash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi<sup>2</sup>.

### **Bojxona organlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

- jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilish;
- o'z vakolati doirasida O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash;
- bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini amalga oshirish;
- bojxona to'lovlarini undirish;
- bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, qonun hujjatlari buzilishlarining, shu jumladan, kontrabandaning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish;
- tashqi savdo operatsiyalarining monitoringini amalga oshirish, eksport-import shartnomalarining ijrosini tahlil qilish, shuningdek tashqi savdo operatsiyalarining bojxona organlariga taalluqli qismini o'tkazishda valyuta to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etish;

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagи «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi 474-I-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 9-son, 232-modda.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-yil, 3(I)-son, 31-modda.

- tovarlarning tashqi savdosiga doir bojxona statistikasini hamda tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasini yuritish;
- fuqarolarning bojxona sohasidagi huquqiy madaniyatini yuksaltirish;
- xavfni boshqarish tizimi qo'llanilishi samaradorligining muntazam monitoringini amalgga oshirish;
- bojxona organlari faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va nazoratning texnik vositalarini qo'llash;
- bojxona ishini rivojlantirish va takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish;

– O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining bojxona ishiga taalluqli qismidan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash.

Bojxona organlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar maqomiga ega.

### **Bojxona organlari o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda quyidagi huquqlarga ega:**

- bojxona nazoratini amalgga oshirish uchun ma'lumotlar va hujjatlarni tekshirish, og'zaki so'rov o'tkazish, axborot olish, bojxona ko'zdan kechiruvini, bojxona ko'rigini va shaxsiy ko'rnikni o'tkazish, shuningdek binolar, hududlar va transport vositalarini ko'zdan kechirish;
- tovarlar va transport vositalari erkin muomalaga chiqarilgandan so'ng jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligini hamda ularning tashqi savdo faoliyati qonuniyligini tekshirish maqsadida tovarlar va transport vositalariga nisbatan bojxona nazoratini amalgga oshirish;
- banklardan, moliya organlaridan hamda boshqa tashkilotlardan, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslardan eksport-import operatsiyalarini amalgga oshirish bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar va hujjatlarni so'rash va olish;
- bojxona nazoratini o'tkazish maqsadida tovarlar hamda boshqa buyumlardan namunalar va nusxalar olish;
- bojxonaga oid huquqbazarliklarning bevosita predmeti bo'lgan tovarlar va boshqa qimmatliklarni ushlab turish hamda olib qo'yish;

- tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv olib borish va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish;
- huquqbazarlik sodir etgan shaxslarni ma'muriy yo'l bilan ushlab turishni amalga oshirish;
- maxsus ruxsatnomalar va litsenziyalar berish;
- bojxona organlari faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va nazoratning texnik vositalaridan foydalanish;
- bojxona to'g'risidagi qonun hujjalariiga rioya etilishini ta'minlash maqsadida mutaxassis yoki ekspertni jalg etish;
- bojxona organlari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish<sup>1</sup>.

Davlat moliyaviy faoliyatini ma'muriy-huquqiy tartibga solish yo'nalishidagi yuqorida tahlil qilingan uchala organlarning har biri davlat mexanizmi tizimida o'ziga xos funksiyani amalga oshiradi.

Xususan, soliq organlarining vazifasi ko'rsatilgan xizmat yoki ishlab chiqarilgan mahsulotdan tegishli tartibda Davlat budgetiga soliq undirish bilan shug'ullansa, bojxona organlarining vazifasi ichki bozorni kontrabanda va sifatsiz mahsulotlardan himoyalash hamda tovar va transport vositalarining bojxona chegarasi orqali olib o'tilishida bojxona to'lovlarini undirish bilan shug'ullanadi.

Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi hududi orqali har kuni xorijiy davlatlarning minglab yuk va yengil avtomashinalari o'tadi, boshqacha qilib aytganda, mamlakatning transport infratuzilmasidan foydalanadi.

Buning uchun esa ma'lum miqdordagi majburiy to'lovlar amalga oshirilishi jahon amaliyotida keng uchraydigian holatdir.

Moliya organlari esa mamlakat hududidagi soliq va boshqa majburiy to'lovlar sifatida to'langan pul mablag'larining konsolidatsiyasini ta'minlab, aholini ijtimoiy va iqtisodiy qo'llab quvvatlashga, kapital qo'yilmalar soni va sifatini oshirishga hamda davlat tuzilmalarini moddiy qo'llab-quvvatlashga qonunlarda belgilangan muddatlar va hajmlarda ajratish bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy boshqaruvni amalga oshiradi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktabrdagi «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi O'RQ-502-soni Qonuni // Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2018-y., 03/18/502/2068-soni.

## **Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol**

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-tahlil boshqarmasi tomonidan Andijon viloyati Sog'liqni saqlash boshqarmasida budget intizomiga riousa qilinishi ustidan o'tkazilgan tekshirish davomida B. Nosirov tomonidan Sog'liqni saqlash vazirligi ruxsatisiz maslahatchi-shifokor shtat birligi kiritilganligi va bu vazifaga fuqaro B. Saliev ishga qabul qilinib, 2015-yil uchun 2 mln. 200 ming so'm oylik maosh hisoblanganligi aniqlangan. Shuningdek, tekshirish davomida boshqarma boshlig'i B. Nosirov tomonidan mehnatga haq to'lash bo'yicha belgilangan razryadlarga, lavozim maoshlari, ustamalar, ish haqiga qo'shimchalar va boshqa to'lovlar miqdorlariga riousa etmasdan, moliya yili davomida to'lovlarни amalga oshirib kelayotganlik bo'yicha bir nechta holatlar aniqlandi. Bundan tashqari, tekshiruv davomida aniqlanishicha, B. Nosirov tashkilotning xarajat smetasida ko'zda tutilmagan ofis mebelini tashkilot uchun xarid qilganligi hamda Xitoy Xalq Respublikasi tomonidan O'zbekiston Respublikasiga beg'araz yordam doirasida kelib tushgan 100 dona mebeldan 50 donasini sotib yuborganlik holatlari ham aniqlangan.

*Vaziyatga huquqiy baho bering.*

*Ushbu holatda davlat moliyaviy faoliyatini tartibga soluvchi ma'muriy organ mavjudmi?*

### **4.4. Davlat investitsiyaviy faoliyatini ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi boshqaruв organлari**

Davlat investitsiyaviy faoliyati o'z nomi bilan mamlakatga xorijiy sarmoyalarni jalb qilish tizimini anglatadi. Xorijiy investitsiyalar chet davlatlarning xo'jalik yurituvchi subyektlarini, transmilliy korporatsiyalarni yoki xorijiy mamlakatlar hukumatlarining moddiy va nomoddiy resurslarini hamda xalqaro moliya institutlarining mablag'larini jalb qilish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bo'lib, davlatning ushbu sohani ma'muriy-huquqiy tartibga solishi mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishga, eksport salohiyati va import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishiga zamin yaratadi. Ushbu yo'naliшhda davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi organ bu O'zbekiston Respublikasi **Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi** hisoblanadi.

– Vazirlik o'z faoliyatida mamlakatning tashqi iqtisodiy manfaatlarini ilgari surish, O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy

faoliyati ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish doirasida vazirlik va idoralar, shuningdek mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi;

– O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Iqtisodiyot va sanoat vazirligi bilan birgalikda eksportni qo'llab-quvvatlash strategiyasini, shu jumladan, uni rag'batlantiruvchi instrumentlarni ishlab chiqadi va amalga oshirilishini ta'minlaydi;

– xalqaro va xorijiy hukumat moliya institutlarining jalb qilinadigan kredit resurslari va texnik ko'maklashish vositalari (grantlar) idan, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'laridan, O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti va davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari hisobidan markazlashgan investitsiyalardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;

– idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi, Davlat veterinariya qo'mitasi, «O'zstandart» agentligi, Sog'liqni saqlash vazirligining Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati respublika markazining ichki va tashqi bozorlardagi savdo faoliyatiga ta'sir qiluvchi choralarни qo'llash qismi bo'yicha harakatlarini qonunchilikda belgilangan tartibda muvofiqlashtiradi.

### **Vazirlikning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlariga quyidagilar taalluqli:**

– yagona davlat investitsiya siyosatini amalga oshirish, davlat rivojlanish dasturlari va investitsiya dasturlari, shu jumladan tarmoq va hududiy investitsiya dasturlari ishlab chiqilishi va samarali amalga oshirilishini muvofiqlashtirish;

– xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ishlarini muvofiqlashtirish, xalqaro iqtisodiy va moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama formatda o'zaro samarali hamkorlikni amalga oshirish;

– davlat organlari va tashkilotlarining, O'zbekiston Respublikasining xalqaro hamda xorijiy moliya va iqtisodiy institutlardagi doimiy vakillarining, shuningdek Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasining xorijiy muassasalarida tashqi iqtisodiy faoliyat masalalari bilan shug'ullanuvchi xodimlarning faoliyatini muvofiqlashtirish;

- O'zbekiston Respublikasining investitsiyaviy hamkorlik masalalari borasidagi xalqaro shartnomalarini tayyorlash, kelishish va imzolashda ishtirok etish;
- investorlar bilan doimiy qayta aloqani yo'lga qo'yish, investitsiyalarni jalb qilishda hududlar va mahalliy kompaniya-larga ko'maklashish, investitsiya takliflarini ishlab chiqishni tashkillashtirish;
- tashqi savdo sohasida yagona davlat siyosatini amalgaga oshirish, eksportni qo'llab-quvvatlash milliy tizimining samarali ishlashiga ko'maklashish va ta'minlash, tashqi savdo faoliyatini tartibga solish sohasida davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirish;
- savdoda tarif va notarif tartibga solish choralarini qo'llash hamda elektron tijorat tartib-taomillarini takomillashtirish bilan bog'liq tadbirlarni muvofiqlashtirish;
- O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarini kengaytirish va mustahkamlash, tovarlar, ishlar va xizmatlar eksportini qo'llab-quvvatlash;
- O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish va boshqa ko'p tomonlama iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish;
- ulgurji va birja savdolarini tartibga solish masalalarini muvofiqlashtirish, bozor holatini monitoring va tahlil qilish, marketing tadqiqotlarini o'tkazish va tovarlar narxlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish;
- tashqi savdo infratuzilmasini rivojlantirish, shu jumladan, tranzit salohiyati darajasini oshirish, logistika va transport yo'laklarini takomillashtirish, shuningdek, eksport marshrutlarini diversifikatsiya qilish masalalarini ilgari surish<sup>1</sup>.

**Mazkur davlat boshqaruvi organi o'z faoliyatini quyidagi qonunlarga asosan amalgaga oshiradi:**

- O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrdagi «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi O'RQ-573-sonli Qonuni;

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-yanvardagi «Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruuv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5643-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.01.2019-y., 06/19/5643/2545-son.

- O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi O'RQ-598-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-maydag'i «Tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida»gi 77-II-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi O'RQ-518-sonli Qonuni.

Ta'kidlash kerakki, vazirlik o'z faoliyatida jismoniy va yuridik shaxslarga tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar ko'rsatish faoliyatini ham amalga oshiradi. Jumladan, chet el tijorat vakillarini O'zbekiston Respublikasida akkreditlash, Tashqi savdo operatsiyalari va xalqaro shartnomalar shartlariga O'zbekiston Respublikasi hududida ro'y bergan favqulorra vaziyatlarni (fors-major) tasdiqlash to'g'risida sertifikat berish, O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari tomonidan chet tashkilotlar ta'sis etish to'g'risidagi xabarni tasdiqlash kabi faoliyatni ham amalga oshiradi.

Iqtisodiy sohani ma'muriy-huquqiy tartibga solish masalasida mahalliy davlat hokimiyati organlari ham katta ahamiyatga ega. Agar ma'lum sohalarga oid davlat boshqaruvi organlari faqat o'ziga qonunlarga muvofiq biriktirilgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyat olib borsa, mahalliy davlat hokimiyati organlari (hokimliklar) har bir sohaning o'ziga biriktirilgan hududida rivojlanishini ta'minlashi zarur.

«Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni normalariga ko'ra viloyat, tuman va shahar hokimi; qonunlarning hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi hujjatlarining, yuqori turuvchi organlar va tegishli xalq deputatlari Kengashi qarorlarining ijrosini tashkil etadi; viloyat, tuman, shaharni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini, viloyat va Toshkent shahar mahalliy budgetining, tuman va shahar budgetining tegishli loyihasini, shuningdek uning ijrosi to'g'risidagi hisobotni xalq deputatlari kengashiga taqdim etadi; tegishli xalq deputatlari kengashiga viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotlar taqdim etadi; qonun hujjatlarida belgilanadigan alohida soliqlar bo'yicha belgilangan stavkalarga hududlarning hamda

faoliyatni amalga oshirish joyining xususiyatlarini inobatga olgan holda pasaytiruvchi va oshib boruvchi koeffitsientlarni kiritish<sup>1</sup> kabi vakolatlarga ega. Ta'kidlash kerakki, qonunda belgilangan vakolatlar mazmuni «Mahalliy hokimliklarga nimalar qilishi kerak?» degan savolga javob bersa ham, ammo uni «Qanday qilishi kerak?» degan savollarning javobiga aniqlik kiritilishi kerak, nazarimizda. Mahalliy hokimliklar faoliyatida ular tomonidan rioya etilishi lozim bo'lgan prinsiplar masalasi, xususan, qonuniylik, adolatlilik, mutanosiblik, tinglash imkoniyatining mavjudligi, ochiqlik va shaffoflik, manfaatdor shaxslar huquqlarining ustunligi, teng huquqlilik, ishonchning himoya qilinishi, tekshirish kabi ma'muriy huquqning maxsus prinsiplari ham e'tibordan chetda qolmasligi muhim hisoblanadi. Aynan ushbu masalalarning qonundan joy olmaganiligi va bu to'g'risida salmoqli ilmiy izlanishlar, asoslantirilgan xulosalar olinmaganligi tufayli ham bugungi kunda hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni olib kirishda hal qilinishi kerak bo'lgan masalalar ko'ndalang turibdi<sup>2</sup>. Vaholanki, har qanday qonunlarning ijrosi joylarda, mintaqalarda amalga oshiriladi.

Respublika davlat boshqaruvi organlari vakolatlarini mahalliy davlat hokimiyati organlariga, viloyatdan tuman (shahar) davlat hokimiyati organlariga o'tkazishni nazarda tutgan holda davlat boshqaruvini bosqichma-bosqich nomarkazlashtirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy imkoniyatlarini, shu jumladan mahalliy budgetga soliq ajratmalarini ko'paytirish hamda hududlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadida mahalliy davlat hokimiyati organlarining soliq solish bazasini kengaytirishdan manfaatdorligini kuchaytirish orqali mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida boshqaruv samaradorligini oshirish masalasi ham bugungi kunning dolzarb mavzularidan biridir.

Umuman, ommaviy boshqaruv organlarining asosiy qismini iqtisodiy sohaga oid bo'lgan organlar tashkil etadi. Xususan,

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi 913-XII-son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, 9-son, 320-modda.

<sup>2</sup> «Buning nomi – feodalizm». Qashqadaryo hokimi qonunga zid cheklov kiritdi <https://qalampir.uz/news/buning-nomi-feodalizm-k-ashk-adare-%D2%B3okimi-k-onunga-zid-cheklov-kiritdi-52492>.

yuqorida tahlil qilingan davlat boshqaruvi organlaridan tashqari iqtisodiy sohaning rivojlanishi, pirovardida, aholi ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta'minlash yo'lida faoliyat yurituvchi bir qator davlat boshqaruvi organlari mavjud. Xususan:

- O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi;
- O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi;
- O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi;
- O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorni rivojlantirish agentligi;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi kabi va boshqa ayrim davlat boshqaruvi organlari faoliyat yuritadi.

Davlatning iqtisodiy sohasini boshqarish, xususan, eksport va importni yo'lga qo'yish hamda iqtisodiyotni diversifikasiya qilishga yo'naltirilgan bir qator xo'jalik boshqaruvi organlari ham faoliyat yuritadi.

#### **Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol:**

Namangan viloyati Pop tumani «Madaniyat» qishlog'ida faoliyat yurituvchi «Porloq» fermer xo'jaligi tuman prokurori ustidan shikoyat qilib xalq qabulxonasiga murojaat qildi. Nizoning mazmuni shuki, fermer o'ziga biriktirilgan 35 ga yerning davlat rejasini bo'yicha 20 ga paxta, 10 ga bug'doy ekib davlat rejasini bajargan, ammo bundan hech qanday foyda ko'rmagan, aniqrog'i, topgan daromadi ketgan sarf-xarajatlariga birma-bir to'g'ri kelgan. Shuning uchun u o'z qo'l ostidagi ishchilar bilan qolgan 5 ga yerni meva-cheva ekib, undagi hosil natijasi bo'yicha hisoblashishni maqsad qilgan. Ammo bundan xabar topgan tuman prokurori fermerning yerida ekilgan mevalarni buzdirtirib

tashlagan va qonunchilikka ko'ra bu yerlarga meva ekish mumkin emasligi va ishchilar bilan natura ko'rinishida hisoblashish taqiqlanishini vaj qilgan. Natijada fermer o'z ishchilari bilan qanday hisoblashishi mumkinligini bilmay boshi qotgan.

*Vaziyatga huquqiy baho bering.*

*Ekin yerlariga qanday mahsulot ekish-ekmaslikni belgilaydigan qonun hujjatlarini toping.*

*Ishchilar bilan natura ko'rinishida hisoblashish mumkin emasligi masalasini tahlil qiling.*


## **IV bobni o'zlashtirish bo'yicha KROSSVORD**

### **Bo'yiga:**

1. Alkogol mahsulotlari bilan chakana savdo qilish huquqini beruvchi vakolatli organ.
3. Ma'muriy organning o'ziga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan qismini shartnoma asosida boshqa xususiy tashkilotga o'tkazish.
4. Sug'urta tashkiloti tashkil etish uchun ruxsatnoma beradigan vazirlilik.

### **Eniga:**

2. Ilgarigi O'zbekiston Respublikasi Xususiy lashtirilgan korxonalarini qo'llab-quvvatlash va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi o'rnila yaratilgan davlat boshqaruvi organi qanday maqomda qayta tashkil etilgan?
5. O'zbekiston Respublikasining Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan eksport shartnomasi ro'yxatdan o'tganligini tasdiqlovchi hujjat.
6. Iqtisodiy sohada faoliyat olib boruvchi ... boshqaruvi organlarining asosiy vazifasi har bir yo'nalishlar kesimida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni rivojlantirish, eksportni qo'llab-quvvatlash va shu tariqa davlat iqtisodiyotini diversifikatsiyalashdan iboratdir.
7. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va ... rivojlanishi hamda investitsiya sohasidagi davlat siyosatini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.



## V bob. IJTIMOIY SOHANI MA'MURIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

### 5.1. Ma'muriy huquqda ijtimoiy soha tushunchasi va uni ma'muriy-huquqiy tartibga solish mohiyati

**Ijtimoiy soha** bu fuqarolar hayoti, sog'lig'i, jismoniy va ruhiy holati, ma'naviy va ma'rifiy olami, madaniyati va ijodi bilan bog'liq bo'lgan soha bo'lib, insonning ushbu kategoriyadagi ehtiyojlarini qondirish uchun ham davlatning ma'lum tuzilmalari mavjud. Har qanday davlat va hukumat mavjud ekan, xalqaro hamjamiyatning teng huquqli subyekti va ajralmas bir qismi sifatida, eng avvalo, o'z aholisining farovonligini ta'minlash yo'lida faoliyat yuritishi tabiiy. Aholi farovonligi masalasi esa yuqoridagi ijtimoiy soha kategoriyasiga taalluqli bo'lgan masalalardir. Shuning uchun ijtimoiy soha mamlakat taraqqiyoti darajasini baholashning bir ko'rsatkichi hisoblanadi. Bunga misol sifatida bugungi kunda turli xil xalqaro reytinglarning e'lon qilinishini ta'kidlab o'tish joiz. Xususan, «Eng baxtli mamlakat», «Eng ozoda shahar», «Eng uzoq umr ko'rvuchchi aholi» va boshqalar. Shunday ekan, fuqarolarning ijtimoiy huquqlari bilan bog'liq bo'lgan ushbu sohani tartibga solish, rivojlantirish uchun doimiy asosda tizimli faoliyat yurituvchi bir qator ommaviy boshqaruvi organlari mavjud. Jumladan:

- Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi;
- Maktabgacha ta'lrim vazirligi;
- Xalq ta'limi vazirligi;
- Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi;
- Innovatsion rivojlanish vazirligi;
- Sog'liqni saqlash vazirligi;
- Turizm va sport vazirligi;
- Madaniyat vazirligi;
- Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi;
- Oila va mahallani qo'llab-quvvatlash vazirligi;
- Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi;
- Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va boshqa ko'plab davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari mavjud. Albatta, ushbu nomdagi ommaviy boshqaruvi organlarining vaqt

o‘tishi bilan nomlanishi, tuzilmasi o‘zgarishi mumkin, ammo eng asosiy funksiyasi hamisha saqlanib qolnadi. Zero, har bir davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining o‘z yo‘nalishidan kelib chiqib, pirovard g‘oyasi, doimiy intiladigan marrasi bo‘lishi zarur. Misol uchun, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining maqsadi O‘zbekiston Respublikasida voyaga yetgan va mehnatga layoqatli aholi o‘rtasidagi ishsizlik darajasini eng past ko‘rsatkichga tushirish yoki umuman ushbu toifadagi aholi orasida ishsizlar sonini bartaraf etish, pensiya va boshqa ijtimoiy to‘lovlarning o‘z vaqtida to‘lanishi, ularning qiymatini oshirish masalalari hisoblanadi. Ushbu masalalarning a‘lo darajada yo‘lga qo‘yilganligi mazkur davlat idorasidagi davlat xizmatchilari mehnati samaradorligining ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Boshqa bir misol, Sog‘liqni saqlash vazirligining marrasi – tug‘ruq paytidagi onalar va bolalar o‘limi foizini kamaytirish yoki bartaraf etish, O‘zbekistonda jarrohlik operatsiyasi turlari imkoniyatlarini oshirish, sog‘liqni saqlash sohasida xizmat qiluvchi oliy ma'lumotli kadrlar soni va sifatini oshirish kabi masalalar.

Ushbu marralarga bosqichma-bosqich olib boruvchi vosita bu qonunlardir. Ushbu sohadagi qonunlar, uning mazmuni va uzoq muddatga mo‘ljallanganligi uning normalari bilan belgilanishi kerak. Bugungi kunda mazkur sohadagi ommaviy boshqaruv organlari quydagi qonunlarning ijrochilari hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 26-avgustgadi «Aholini sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida»gi O‘RQ-393-sonli Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 2-yanvardagi «Vasiylik va homiylik to‘g‘risida»gi O‘RQ-364-sonli Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 29-dekabrdagi «Veterinariya to‘g‘risida»gi O‘RQ-397-sonli Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 5-iyuldaggi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi O‘RQ-699-sonli Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 4-sentabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi O‘RQ-406-sonli Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi «Jismoni tarbiya va sport to‘g‘risida»gi O‘RQ-394-sonli Qonuni;

- O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrdagi «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi 7540-XII-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi «Ta'lif to'g'risida»gi O'RQ-637-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentabrdagi «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi 938-XII-sonli Qonuni va boshqalar.

**Ijtimoiy sohani ma'muriy-huquqiy tartibga solish** deb ommaviy boshqaruvin organlarining fuqarolar hayoti, sog'lig'i, ma'naviyati va ma'rifati, madaniyati hamda ijodi, shuningdek, boshqa ijtimoiy huquqlari bilan bog'liq bo'lgan subyektiv ommaviy huquqlarini amalgalashishini ta'minlashga, himoya qilishga va rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan qonuniy faoliyati tushuniladi. Ta'kidlash joizki, davlatning ijtimoiy sohani boshqarish masalasi Davlat va huquq nazariyasidagi Davlat funksiyalari masalasidan kelib chiqadi.

### **Yodda tuting!**

**Ijtimoiy soha** – bu fuqarolar hayoti, sog'lig'i, jismoniy va ruhiy holati, ma'naviy va ma'rifiy olami, madaniyati va ijodi bilan bog'liq bo'lgan sohadir.

Harakatlar strategiyasining to'rtinchi yo'nalishi ham bezij ijtimoiy sohaga ajratilmagan. Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalgalashish, ta'lif, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish kabi ustuvor vazifalarning barchasi bugungi kunda jamiyatimiz, xalqimiz barpo etishga intiladigan va daxldorlik hissida faoliyat yuritishi kerak bo'lgan, tegishli ommaviy boshqaruvin organlarining kundalik shug'ullanadigan marralari bo'lmog'i zarur.

## **Yodda tuting!**

Ijtimoiy sohani ma'muriy-huquqiy tartibga solish deb ommaviy boshqaruv organlarining fuqarolar hayoti, sog'lig'i, ma'naviyati va ma'rifati, madaniyati hamda ijodi, shuningdek, boshqa ijtimoiy huquqlari bilan bog'liq bo'lgan sub'ektiv ommaviy huquqlarini amalga oshishini ta'minlashga, himoya qilishga va rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan qonuniy faoliyati tushuniladi.

Ma'muriy huquqda ommaviy boshqaruv organlarining ijtimoiy sohani tartibga solish faoliyati ham avvalgi boblarda ta'kidlanganidek, ma'lum prinsiplar doirasida amalga oshirilishi lozim. Xususan, qonuniylik, ochiqlik va shaffoflik, umum manfaatning ustunligi, mutanosiblik, tenglik, davlat boshqaruvining samaradorligi, manfaatdor shaxs fikrlarini inobatga olish kabi muhim prinsiplarda o'z ifodasini topishi kerak. Buning uchun ushbu sohadagi har bir qonunlarda mazkur prinsiplarning amaliy ifodasini anglatuvchi normalar mustahkamlanishi zarur.

### **Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol:**

Qoraqalpog'iston Respublikasining Qo'ng'irot shahrida istiqomat qiluvchi A. ismli nafaqa yoshidagi fuqaro tuman Bandlik va mehnat munosabatlari bo'limiga murojaat qiladi. Murojaatda u o'zi va 3 nafar nabiralari uchun Toshkent viloyatining tog'li hududlarida joylashgan sanatoriy va bolalar oromgohlariga bepul yo'llanma ajratishini so'raydi. Buning sababi A. ismli fuqaroning ta'kidlashicha, u va uning oila a'zolari nurlanish dozalarining belgilangan asosiy chegaralaridan oshib ketish ehtimoli bo'lgan hududda yashayotganligidir.

*Vaziyatga huquqiy baho bering.*

*A. ismli fuqaroning talablari huquqiy asosga egami?*

*Qanday normativ-huquqiy hujjalarni ushbu masalani tartiga soladi?*

## **5.2. Sog'lijni saqlash, jismoniy tarbiya va sport sohasini ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi boshqaruv organlari**

Sog'lijni saqlash, jismoniy tarbiya va sport yo'nalishlarini boshqarish va rivojlantirish, fuqarolarning Konstitutsiyaviy ijtimoiy huquqlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yo'nalish bo'lib, ommaviy boshqaruv organlari aholining mazkur Konstitutsiyaviy subyektiv ommaviy huquqlarining ro'yobga chiqishini ta'minlash bilan shug'ullanadi.

Sog'lijni saqlash yo'nalishidagi davlat boshqaruvi organi vazifasini O'zbekiston Respublikasining sog'lijni saqlash vazirligi amalga oshiradi. Vazirlik sog'lijni saqlashda davlat siyosatini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi, sog'lijni saqlash, tibbiy sug'urta, dori vositalari va tibbiy buyumlarning muomalasi, aholining sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi, tibbiy ekspertizalar o'tkazish, tibbiy va farmatsevtik ma'lumotni tashkil etish sohasida normativ-huquqiy tartibga soluvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligi va hududiy boshqaruv organlari, ularning tumanlar va shaharlardagi bo'linmalari respublika sog'lijni saqlashni boshqarish organlarining yagona tizimini tashkil etadi. **Vazirlik quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishga mas'ul hisoblanadi:**

aholiga, shu jumladan, davlat tomonidan kafolatlangan hajmlarda to'liq va o'z vaqtida tibbiy xizmatlar ko'rsatishni ta'minlashda vazirlikning organlari va tashkilotlari roli va mas'uliyatini oshirishga yo'naltirilgan fuqarolarning sog'lig'ini muhofaza qilish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

jamoat sog'lig'ini saqlash ustuvorligini ta'minlash, aholini sog'lom turmush tarzi yuritishga undash, eng avvalo, o'z sog'lig'i va atrofidagilarning sog'lig'i uchun mas'ullik tuyg'usini tarbiyalashda aholining madaniyati va tibbiy savodxonligini oshirish;

millatning genofondini yaxshilash maqsadida sog'lom avlod tug'ilishi va tarbiyalanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, oilada tibbiy madaniyatni, umrning sifati va uzoq davom etishini oshirish, aholining sog'lig'ini muhofaza qilish va sanitariya-epidemiologik osoyishtalik sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish;

bevosita birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tashkilotlarida qishloq aholisiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam hajmlarini kengaytirish, asosiy, tez-tez uchraydigan kasalliklar turlari bo'yicha tuman bo'g'ini darajasida ixtisoslashtirilgan xizmatlar tizimini barpo etishda amaliy yordam berishni tashkil etish;

ham tibbiy yordamni xizmat ko'rsatilayotgan aholiga yaqinlashtirish, ham axborot texnologiyalarini, teletibbiyotni, davolashning klinik protokollarini keng joriy etish hamda yetakchi xorijiy va mahalliy mutaxassislarning tajribasini mintaqaviy tibbiyot muassasalarining tibbiyot xodimlariga berish hisobiga aholiga ko'rsatilayotgan birlamchi, tez, kechiktirib bo'lmaydigan va ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamning qulayligi va tezkorligi darajasini oshirish;

dorilar muomalasini davlat tomonidan tartibga solish choratadbirlarini amalga oshirish, dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llashga ruxsat berilgan asbob-uskunalarini standartlashtirish va sertifikatlashtirish;

yolg'iz keksa fuqarolar, pensionerlar, nogironlarni manzilli ijtimoiy muhofaza qilishni takomillashtirish, ularni davolashni, tizimli sog'lomlashtirishni tashkil etish yo'li bilan ularga ko'rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy yordam darjasini va sifatini oshirish, profilaktik tadbirlarni kengaytirish, davolashning zamonaviy usullari bilan qamrab olish va ularni qo'llash;

mahalliy tajribani va eng yaxshi jahon yutuqlarini birga qo'shish asosida tibbiyot fanini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va prognozlashtirish, ilmiy tibbiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, fan, texnika yutuqlarini va ilg'or tajribani sog'liqni saqlash amaliyotiga joriy etish, oliy va o'rta tibbiy ta'lim tizimini rivojlantirish;

sog'liqni saqlash tizimida yagona tashkiliy-metodik rahbarlik qilishni va ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifati nazorat qilinishini ta'minlaydigan zamonaviy, xorijiy amaliyotda sinab ko'rilgan sog'liqni saqlash tizimini boshqarish usullarini joriy etish.

**Vazirlik yuklangan vazifalarga muvofiq qator funksiyalarni bajaradi:**

**a) aholiga, shu jumladan, davlat tomonidan kafolatlangan hajmlarda to'liq va o'z vaqtida tibbiy xizmatlar ko'rsatishni ta'minlashda vazirlikning organlari va tashkilotlari roli va mas'uliyatini oshirishga yo'naltirilgan fuqarolarning sog'lig'ini muhofaza qilish sohasida yagona davlat siyosatini amalgga oshirish sohasida:**

– aholi salomatligini saqlash va yaxshilashni, sog'lom avlodni tarbiyalash uchun shart-sharoitlarni shakllantirishni, profilaktik sog'liqni saqlashni rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini keng ommalashtirishni ta'minlovchi davlat siyosatini amalgga oshirishni ta'minlaydi;

– fuqarolar sog'lig'ini saqlashni ta'minlashga qaratilgan davlat dasturlari ijrosi yuzasidan nazorat olib boradi va ishlarni muvosifqlashtiradi;

– sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish dasturlarini amalgga oshiradi, sog'liqni saqlashning nodavlat sektorini rivojlantiradi va tibbiy xizmatlar bozorini tashkil etadi;

– sog'liqni saqlash, shu jumladan, tibbiy yordam berish, dori vositalari, tibbiy buyumlar ishlab chiqarish va ulardan foydalanish hamda ularga rioya qilinishi ustidan nazorat qilish sohasida normativlar va standartlar tizimini yaratadi;

– tibbiy yordam sifati standartlarini va hajmini belgilaydi, tibbiy va farmatsevtik faoliyatni litsenziyalashni amalgga oshiradi;

– tibbiyot tashkilotlari tomonidan aholiga o'z vaqtida malakali va sifatli tibbiy yordam ko'rsatilishi ustidan nazorat qiladi;

– sud-tibbiy, sud-ruhiy va tibbiy-mehnat ekspertizasini ta'minlaydi;

– tarmoqni kadrlar bilan ta'minlash dasturlarini ishlab chiqadi va amalgga oshiradi, sog'liqni saqlashda tegishli yo'nalishlar va mutaxassislar bo'yicha tibbiyot kadrlariga bo'lgan ehtiyojni aniqlaydi va ularni tayyorlaydi;

– o'z vakolatlari doirasida tegishli xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning sog'liqni saqlash tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

**b) Jamoat sog'lig'ini saqlash ustuvorligini ta'minlash, aholini sog'lom turmush tarzini yuritishga undash, eng avvalo, o'z sog'lig'i va atrofidagilarning sog'lig'i uchun mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalashda aholining madaniyatni va tibbiy savodxonligini oshirish sohasida:**

– kasalliklar va nogironlikning oldini olish tadbirlarini amalga oshiradi, tibbiy va tibbiy-mehnat ekspertizasi o'tkazilishini tashkil etadi;

– profilaktik yordam yo'nalishlari va hajmlari, profilaktik emlash muddatlari va usullari to'g'risida qarorlar qabul qiladi, aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qiladi;

– manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan bирgalikda muhim tibbiy-ijtimoiy normalar va normativlar ro'yxatini belgilaydi va ularning ishlab chiqilishini muvofiqlashtiradi;

– sog'liqni saqlashda statistika yuritilishi ishlarini tashkil etadi, sog'liqni saqlash tizimida statistik hisobot va hisobot berish tartibiga metodik rahbarlik qiladi, statistika axborotining ishonchliligini nazorat qiladi;

– tarmoqni axborotlashtirish tizimi shakllantirilishini ta'minlaydi, manfaatdor vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar bilan bирgalikda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan, sog'liqni saqlash tizimida hisob va hisobotni yuritish bo'yicha zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqadi va joriy etadi.

**d) Millatning genofondini yaxshilash maqsadida sog'lom avlod tug'ilishi va tarbiyalanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, oilada tibbiy madaniyatni, umrning sifati va uzoq davom etishini oshirish, aholining sog'lig'ini muhofaza qilish va sanitariya-epidemiologik osoyishtalik sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish sohasida:**

– fertil yoshidagi ayollar, homilador ayollar, bolalar, shuningdek, yolg'iz keksalar, surunkali kasalliklarga chalingan nogironlar, o'zgalarning parvarishi hamda tibbiy-ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan boshqa shaxslar orasida patronaj ishi doimiy asosda olib borilishini ta'minlaydi;

– favqulodda tusdagisi avariiali vaziyatlar va halokatlarni bartaraf etish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok

etadi, favqulodda vaziyatlarni tugatishda foydalanish uchun tibbiy buyumlar, dorilar, dezinfeksiya vositalarining zaxirasini belgilangan tartibda tashkil etadi;

– yuqumli va yuqumli bo‘lmagan parazitar kasalliklar, shuningdek, insонning yashash muhiti omillari uning sog‘lig‘iga va mehnat faoliyatiga noxush ta’sir etishi bilan bog‘liq kasb kasalliklari profilaktikasi ishlarini olib boradi;

– manfaatdor organlar bilan birqalikda boshqa davlatlar hududidan yuqumli va karantin kasalliklar kirib kelishining oldini olish ishlarini tashkil etadi va nazorat qiladi;

– sanitariya normalari, qoidalari, gigiena normativlarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, ularga rioya etilishi ustidan davlat sanitariya nazoratini amalga oshiradi, shuningdek, sanitariya-epidemiologiya xizmatlari ishiga ularning idoraviy bo‘ysunishidan qat’iy nazar, metodik rahbarlik qiladi;

– iste’molchilarining jamoat tashkilotlari taqdimnomasi bo‘yicha idoraviy mansub laboratoriyalarda tovar (ish, xizmat)larning xavfsizlik talablariga muvofiqligiga shartnoma asosida sinovlar o’tkazadi.

**e) Bevosita birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tashkilotlarida qishloq aholisiga ko‘rsatilayotgan tibbiy yordam hajmlarini kengaytirish, asosiy, tez-tez uchraydigan kasalliklar turlari bo‘yicha tuman bo‘g‘ini darajasida ixtisoslashtirilgan xizmatlar tizimini barpo etishda amaliy yordam berishni tashkil etish sohasida:**

– birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tashkilotlaridan tortib ixtisoslashtirilgan tibbiyot tashkilotlarigacha tibbiy yordam ko‘rsatishning barcha darajalarida kasalliklarning oldini olish va profilaktikasini ta’minlaydi, ushbu maqsadlarda ilmiy-tadqiqot, diagnostika va patronaj ishlarini kengaytiradi;

– asosiy, tez-tez uchraydigan kasalliklar turlari bo‘yicha tuman bo‘g‘ini darajasida ixtisoslashtirilgan xizmatlar tizimini qurishda amaliy yordam berishni tashkil etadi;

– birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarining ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan o‘zaro aloqalari takomillashtirilishini ta’minlaydi;

– tibbiy diagnostika tizimini takomillashtiradi, respublika hududlarida diagnostika xizmatlari tarmog‘ini rivojlantiradi, tibbiy ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tarmog‘i faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi;

**f) Tibbiy yordamni xizmat ko‘rsatilayotgan aholiga yaqinlashtirish, axborot texnologiyalar, teletibbiyot, davolashning klinik protokollarini keng joriy etish, shuningdek, yetakchi xorijiy va mahalliy mutaxassislarining tajribasini mintaqaviy tibbiyot muassasalarining tibbiyot xodimlariga berish hisobiga aholiga ko‘rsatilayotgan birlamchi, tez, kechiktirib bo‘lmaydigan va ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamning qulayligi va tezkorligi darajasini oshirish sohasida:**

– axborot texnologiyalari, teletibbiyot, davolashning klinik protokollari keng joriy etilishini hamda yetakchi xorijiy va mahalliy mutaxassislar tajribasi mintaqaviy muassasalarining tibbiyot xodimlariga berilishini ta’minlaydi;

– barcha darajalarda aholiga shoshilinch, kechiktirib bo‘lmaydigan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini tashkil etadi va mustahkamlaydi, uni samarali boshqarishni ta’minlaydi;

**g) Dorilar muomalasini davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlarini amalga oshirish, dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llashga ruxsat berilgan asbob-uskunalarini standartlashtirish va sertifikatlashtirish sohasida:**

– dori-darmon muomalasini davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari amalga oshirilishini ta’minlaydi, dori va dezinfeksiya, sanitariya-gigiena va pardoz-andoz vositalari, tibbiy buyumlar, kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi va zaharli moddalar, giyohvandlik, psixotrop vositalarni standartlashtiradi hamda sertifikatlashtiradi, ularni ishlab chiqarish va foydalanish tartibi ustidan nazorat qiladi;

– dori, dezinfeksiya vositalari va tibbiy buyumlarga bo‘lgan ehtiyojlarni o‘rganadi, ularga talab va takliflarni ishlab chiqadi;

– tibbiyot tashkilotlarida dori vositalarini tayinlash, qabul qilish, saqlash va qo‘llash tartibini belgilaydi.

**h) Yolg‘iz keksa fuqarolar, pensionerlar, nogironlarni manzilli ijtimoiy muhofaza qilishni takomillashtirish,**

**ularni davolash, tizimli sog'lomlashtirishni tashkil etish yo'li bilan ularga ko'rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy yordam darajasi va sifatini oshirish, profilaktik tadbirlarni kengaytirish, davolashning zamonaviy usullari bilan qamrab olish va ularni qo'llash sohasida:**

– nogironlarga, shu jumladan, nogiron bolalar, urush qatnashchilari, faxriylar, yolg'iz keksalar va aholining boshqa zaif qatlamlariga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy yordamning tabaqlashtirilishini kuchaytirishga va manzilliligiga yo'naltirilgan ijtimoiy siyosat amalga oshirilishi mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflarni tayyorlashda ishtirot etadi;

– Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiysi, bosh, tumanlararo, tuman, shahar va ixtisoslashtirilgan tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari faoliyatiga rahbarlik qiladi;

– davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirish, nogironlar, shu jumladan, nogiron bolalar, urush qatnashchilari, faxriylar, yolg'iz keksalar va aholining boshqa zaif qatlamlariga tibbiy-ijtimoiy yordam berish mexanizmi faoliyat ko'rsatishi bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ishlab chiqilishida ishtirot etadi;

– manfaatdor vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda pensionerlar, nogironlar va yolg'iz keksa fuqarolarga qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar, jumladan, sanatoriyyurortda davolanish uchun yo'llanmalar va maxsus harakatlanish vositalari berishda ishtirot etadi;

– fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan birgalikda o'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksa fuqarolarni aniqlaydi va ularga ijtimoiy xizmatlarning yakka tartibdag'i dasturlari ko'rsatilishini, shu jumladan uyda qarashni tashkil etadi;

– nogironlar, shu jumladan, nogiron bolalar, urush qatnashchilari, faxriylar, yolg'iz keksalar va aholining boshqa zaif qatlamlarining ehtiyojlariga muvofiq bo'lgan tibbiy-ijtimoiy yordam turlarini tanlash va taqdim etishda, shu jumladan, ortopediya buyumlari, reabilitatsiyaning texnik vositalari va aravacha-kolyaskalar bilan ta'minlash maqsadida ular hisobini yuritadi;

– tibbiy-ijtimoiy muassasalarda yashayotgan keksa fuqarolar va nogironlarga maishiy, tibbiy va madaniy xizmat ko'rsatilishini tashkil etadi, ushbu muassasalarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishini ta'minlaydi;

– nogironlar, shu jumladan, nogiron bolalar, urush qatnash-chilari, faxriylar, yolg‘iz keksalar va aholining boshqa zaif qatlamlariga tibbiy-ijtimoiy yordam dasturlarini moliyalashtirish uchun maablag‘larni jalb etish ishida nodavlat-notijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlarning o‘zaro hamkorligini ta’minlaydi;

– nogironlarni tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish bosqichi sifatida ularning jismoniy tarbiyasi va sport yutuqlari rivojlanishiga ko‘maklashadi;

– ehtiyojmand shaxslarni protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiyaning texnik vositalari bilan ta’minlashni tashkil etadi;

– nogironlar va pensiya yoshidagi shaxslarni protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiyaning texnik vositalari bilan ta’minlash tartibini belgilaydi.

**i) Mahalliy tajribani va eng yaxshi jahon yutuqlarini birga qo‘sish asosida tibbiyat fanini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish hamda prognozlashtirish, ilmiy-tibbiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, fan, texnika yutuqlarini va ilg‘or tajribani sog‘liqni saqlash amaliyotiga joriy etish, oliy va o‘rta tibbiy ta’lim tizimini rivojlantirish sohasida:**

– mahalliy tajribani va eng yaxshi jahon yutuqlarini birga qo‘sish asosida tibbiyat fanini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqadi hamda prognozlashtiradi;

– ilmiy-tibbiy tadqiqotlar rivojlanishini va ularning samaradorligi oshirilishini, fan, texnika yutuqlari va ilg‘or tajriba tibbiyat amaliyotiga joriy etilishini ta’minlaydi;

– ilmiy tadqiqotlar natijalarini ekspertizadan o‘tkazadi, sog‘liqni saqlashning dolzarb muammolari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga muassasalar, tashkilotlar, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi oldida buyurtmachi bo‘ladi;

– sog‘liqni saqlash sohasida xorijiy tajribadan va jahon standartlaridan foydalaniлади;

– respublikada xalqaro tadbir (simpozium, konferensiya, ko‘rgazma va shu kabi)lar o‘tkazilishini tashkil etadi;

– belgilangan tartibda ilmiy, metodik adabiyotlar va ixtisosga oid axborotni chop etadi va vazirlik bo‘limmalarini ta’minlaydi.

**j) Sog‘liqni saqlash tizimida yagona tashkiliy-metodik rahbarlik qilishni va ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar**

**sifati nazorat qilinishini ta'minlaydigan zamonaviy, xorijiy amaliyotda sinab ko'rilgan sog'liqni saqlash tizimini boshqarish usullarini joriy etish sohasida:**

– Sog'liqni saqlash vazirligi markaziy apparati va tarkibiy bo'linmalariga rahbarlik qilish shakllari va ish usullarini takomillashtiradi, sog'liqni saqlash organlari faoliyatida byurokratizm va korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymaslik choralarini ta'minlaydi, insonning huquqlari, erkinliklari va manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi;

– sog'liqni saqlash organlari xodimlariga yuklangan vazifalar o'z vaqtida hamda sifatlari bajarilishi uchun ularning mas'uliyatini oshirish tadbirlarini amalga oshiradi va nazorat qiladi;

– sog'liqni saqlash tizimida yagona tashkiliy-metodik rahbarlikni va ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifati nazorat qilinishini ta'minlaydigan sog'liqni saqlash tizimini boshqarishning jahon amaliyotida sinovdan o'tkazilgan zamonaviy usullarini joriy etadi;

– vazirlikka idoraviy mansub muassasalar, tashkilotlar va korxonalarining tuzilmasini takomillashtirish tadbirlarini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

– joylarda sog'liqni saqlash mahalliy boshqaruvi organlariga metodik rahbarlik qiladi va faoliyatini nazorat qiladi;

– idoraviy mansub tashkilotlarning tuzilmasi, nizomlari va ustavlarini tasdiqlaydi;

– sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalişlarida moliyaviy resurslarni jamlash tadbirlarini ta'minlaydi;

– aholi sog'lig'ini muhofaza qilishga yo'naltiriladigan budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshiradi, maqsadli dasturlarni moliyalashtirish va sog'liqni saqlashning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun budgetdan tashqari mablag'larni, xorijiy investitsiyalarni va xalqaro tashkilotlarning mablag'larni jalb etadi;

– vazirlik tizimida iqtisodiy va moliyaviy ishlarni tashkil etadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan tibbiyot va tibbiy-ijtimoiy tashkilotlarni saqlab turishda xarajatlarni moliyalashtirishni ta'minlaydi, tizim xodimlarining mehnatini normallashtirish va haq to'lashni tashkil etishni takomillashtirish tadbirlarini o'tkazadi;

– idoraviy mansub tashkilotlarda faoliyatni tahlil qiladi va buxgalteriya hisobi va hisoboti yuritilishiga metodik rahbarlik qiladi, budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanilishi ustidan nazorat qiladi;

– sog'liqni saqlash bo'yicha maqsadli dasturlarni moliyalashtirish uchun mablag'larni jalb etish ishida davlat, jamoat, xayriya tashkilotlari va jamg'armalarning, muassasalar va korxonalarning o'zaro hamkorligini ta'minlaydi;

– sog'liqni saqlashni moliyalashtirish tizimini takomillashtiradi, tibbiyot tashkilotlarining xizmat ko'rsatishning pullik shakllariga va tibbiy sug'urtani joriy etishga bosqichma-bosqich o'tishini ta'minlaydi;

– jismoniy va yuridik shaxslarning vazirlik faoliyatiga tegishli masalalar bo'yicha murojaatlarini ko'rib chiqadi;

– qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy va yuridik shaxslarga axborot va maslahat ko'magini beradi;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarini amalgalashiradi.

Yuqoridaagi sog'liqni saqlash yo'nalishidagi davlat boshqaruvi organining atroficha sanab o'tilgan vazifa va funksiyalarini nazariy jihatdan tahlil qilish va mohiyatini anglab yetish uchun ularni quyidagi kategoriyalarga ajratish mumkin:

- 1) boshqaruv xarakteridagi ma'muriy jarayon;
- 2) tartib-taormillar bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy jarayon;
- 3) yustitsiyaviy xarakteridagi ma'muriy jarayon;
- 4) yurisdiksiyaviy xarakteridagi ma'muriy jarayon.

Boshqaruv xarakteridagi ma'muriy jarayonda har bir davlat boshqaruvi organi o'z yo'nalishi bo'yicha fuqarolar qonuniy huquq va manfaatlarini hamda erkinliklarini himoya qilish maqsadida qonunchilik va tuzilmaviy hamda tashkiliy-texnik amaliyotni yanada yaxshilash, kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilish va qonuniy asoslangan javob qaytarish yo'lida asosan vertikal va gorizontal faoliyatni amalgalashiradi.

Shu va boshqa masalalar bilan darslikning VII bobida atroficha tanishishingiz mumkin.

### **Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol**

O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport universitetini tugatgan yosh iqtidorli A. ismli inson o'z bilimi va tajribasidan foydalangan holda moddiy daromad olish, shu bilan birga, yoshlarni sportga jalb qilish maqsadida o'zi ta'lrim olgan maktab direktori bilan og'zaki bitim tuzib, sportning futbol turi bo'yicha maktab o'quvchilarini tayyorlashni boshladi. Bir qator mahalliy doiralarda o'tkazilgan musobaqalarda uning sportchilari sovrinli o'rirlarni qo'lga kiritdi. Ammo oradan yarim yil o'tgach, maktabdagagi ta'lim sifatini o'rganishga tashrif buyurgan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi vakillari uning faoliyatini noqonuniy deb topib, dalolatnoma rasmiylashtirib, Jismoniy tarbiya va sport vazirligiga xabar bergen. Vazirlik esa yosh iqtidorli mutaxassisni Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 165-moddasi faoliyat bilan litsenziyasiz va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug'ullanish, deb baholab ish materiallarini tegishli ma'muriy sudga jo'natgan.

*Mazkur vaziyatga huquqiy baho bering.*

*Ma'muriy huquqning mutanosiblik prinsipi nuqtayi nazaridan baho bering.*

*Mazkur vaziyat ma'muriy huquq predmetiga taalluqlimi?*

### **5.3. Ilm-fan va ta'lrim sohasini ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi boshqaruv organlari**

Ilm-fan va ta'lrim sohasi davlat va jamiyat rivojlanishining lokomotivi hisoblanadi. Zero, malakali ta'lim olgan har qanday shaxs, borliqning ko'rinnagan, abstrakt qismini his qiladi va tushunadi. Shu tariqa olingan bilimning ilmiy tomonlarini o'rganadi, natijada mamlakat hayotidagi, tabiatdagagi ko'plab savollarga ilmiy asoslangan javob topadi hamda ularni yanada takomillashtirishga, ma'lum qiymatga ega bo'lgan yangilik yaratilishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun ham ilm-fan va ta'lrim sohasi rivojlanishini davlat va uning tuzilmalari tomonidan qo'llab-quvvatlash juda muhim hisoblanadi. Ma'lumot uchun ta'kidlash joizki, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi hududidagi mavjud oliy ta'lim muassasalarini tahlil qilinganida Rossiya Federatsiyasida 2018-yilda 662 ta, shundan 484 tasi davlat va 178 tasi xususiy oliy ta'lim muassasalarini tashkil etgan bo'lsa, Ukrainada bu ko'rsatkich 224 va 113 tani

tashkil etadi. Shu bilan birga ularning son jihatidan ko'pligi malakali mutaxassislar tayyorlanishining garovi bo'la olmasligini ham ta'kidlash kerak. Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.V. Putinning 2018-yil 6-martdagি Rossiya rektorlar Ittifoqida qilgan ma'ruzasida «muammo shundaki, 1991-yildan 2010-yilgacha OTM va ularning filiallari soni ikki baravarga oshgan. Va tan olib ta'kidlash kerakki, ularning aksariyati, OTM emas, «qattiq qog'oz»larni bosib chiqaruvchi laboratoriyaga aylanib qolg'an»<sup>1</sup>.

Shu va shunga o'xhash salbiy holatlarni bartaraf etish va oldini olish uchun ilm-fan va ta'lrim sohasi ham ma'muriy-huquqiy tartibga solinmog'i lozim. Demak, oliy ta'lim muassasalarining soni emas, sifatiga, tayyorlanayotgan mutaxassislarining malakasiga e'tibor qaratish lozim, bu esa ularni tayyorlayotgan pedagogik kadrlar malakasi va dunyoqarashi masalasini tahlil qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Bugungi kunda O'zbekistonda mazkur sohani tartibga soluvchi quyidagi davlat boshqaruvi organlari faoliyat yuritmoqda:

- Maktabgacha ta'lrim vazirligi;
- Xalq ta'limi vazirligi;
- Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi;
- Innovatsion rivojlanish vazirligi;
- Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi;
- Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi;
- Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiysi;
- O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi kabi davlat boshqaruvi organlari mavjud.

Mazkur davlat boshqaruvi organlari o'z faoliyati doirasida quyidagi qonunlarning ijrochilari hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida»gi 1997-yil 29-avgustdagи 463-I-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi 2020-yil 23-sentabrdagi ORQ-637-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi 2016-yil 4-sentyabrdagi O'RQ-406-sonli Qonun.

<sup>1</sup> Заседание Союза ректоров России от 6 марта 2018 года fgosvo.ru.

O'zbekiston Respublikasi mактабгача та'lim vazirligi мактабгача та'lim sohasida davlat siyosatini ishlab chиqish va amalga oshirish uchun javob beradigan vakolatli davlat boshqaruvi organi hisobланади.

Vazirlik tizimiga quyidagilar kiradi: vazirlikning markaziy apparati; hududiy bo'linmalar; Maktabgacha ta'lim muassasalarini rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti; «Maktabgacha ta'lim metodikasi» jurnali tahririysi; davlat maktabgacha ta'lim muassasalarini.

### **Quyidagilar vazirlikning asosiy vazifalari hisobланади:**

1) maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chиqish va amalga oshirish;

2) maktabgacha yoshdagи bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

3) bolalarni maktabgacha ta'lim bilan bosqichma-bosqich to'liq qamrab olishni ta'minlash;

4) zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etish;

5) maktabgacha ta'lim muassasalarini milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqish uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik materiallar, rivojlantiruvchi o'yin va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash;

6) zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda bolalarni tarbiyalash va har tomonlama kamol toptirish masalalarini yuqori professional darajada hal etishga qodir bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalarini rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

7) maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish tizimini yaratish hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga tajribali, yuqori malakali va kasbiy jihatdan puxta tayyorlangan pedagog kadrlar hamda tarbiyachilarni jalg qilish;

8) maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari uchun munosib shart-sharoitlar, shu jumladan, to'laqonli va ratsional, muvozanatli, sog'lom va to'g'ri ovqatlanishni ta'minlashga, asoslangan tibbiy ko'rsatmalar bilan belgilanadigan hajmlarda hamda intensivlikda ko'ngilochar va bilim beruvchi mashg'ulotlar

elementlari bo‘lgan serharakat o‘yinlar uyushtirishga yo‘naltirilgan shart-sharoitlar yaratish;

9) O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan bиргаликда мактабгача та’лим муассасалари бодаларга тиббий хизмат ко‘рсатиш hamda ularning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish bo‘yicha profilaktika chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish.

Ta’kidlash joizki, Maktabgacha ta’lim vazirligining eng ustuvor vazifasi – mактаб yoshigacha bo‘lgan bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalari bilan qamrab olib, ularning boshlang‘ich dunyoqarashi shakllanishi uchun tashkiliy, uslubiy, moddiy va ma’naviy shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Ushbu g’oya mazkur sohan ni ma’muriy-huquqiy tartibga soluvchi davlat boshqaruvi organining o‘z oldiga belgilagan «marrasi»ga aylanishi lozim va barcha amalga oshirilayotgan ishlar ushbu g’oyaga yo‘naltiruvchi qadamlarg aylanishi lozim. So‘ngra yosh avlodga munosib ta’lim va tarbiya berish «estafetasi» keyingi davlat boshqaruvi organi bilan bog‘liq. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining ta’limga doir konstitutsion huquqlariga rioya etilishini ta’minlovchi, umumiy o‘rtta va maktabdan tashqari ta’lim sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun javob beradigan vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

### **Quyidagilar vazirlikning asosiy vazifalari hisoblanadi:**

- umumiy o‘rtta va maktabdan tashqari ta’lim sohasida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy, intellektual va jismoniy rivojlanishi darajasini yanada yuksaltirishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- maktabdan tashqari ta’limga bo‘lgan umumiy o‘rtta ta’lim davlat ta’lim standartlari va davlat talablariga muvofiq umumta’lim muassasalari faoliyatini metodik boshqarishni amalga oshirish;

- o‘qituvchi kasbining maqomi va obro‘sini ko‘tarish, umumta’lim muassasalari xodimlari, shuningdek, xalq ta’limi tizimi xodimlarining moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishini ta’minalash, ularning samarali mehnat faoliyatini uchun munosib sharoitlar yaratish;

- o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllarini, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini, kasbiy yo‘naltirishning samarali uslublarini, o‘quvchilarning o‘quv,

psixologik va jismoniy yuklamalari optimallashuvini inobatga olgan holda o'qitish va tarbiyalashni joriy qilish;

– umumta'lismuassasalarida chet tilini o'qitishning samaradorligini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– mazmun va sifat jihatidan xalqaro talablarga javob beradigan, yangi pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda yangilangan o'quv rejalarini va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodiy yaratilishi va nashr etilishini tashkil qilish;

– nodavlat ta'lismizmatlari sektorini yanada rivojlanтирish, xalq ta'limi sohasida davlat-xususiy sheriklik uchun qulay sharoitlar yaratish;

– pedagogik kadrlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni joriy etish;

– Mehribonlik uyulari faoliyatini takomillashtirish, ota-onalar qarovisiz qolgan bolalarning ijtimoiy-psixologik reabilitatsiyasini va huquqiy himoya qilinishini ta'minlash, ularning ijtimoiy-mehnat ko'nikmalarini hosil qilishiga va jamiyatga uyg'unlashuviga ko'maklashish;

– jismoniy rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan hamda davolanish va sog'lomlashtirishga muhtoj bo'lgan bolalarga ijtimoiy kafolatlarni ta'minlovchi chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ularning ta'lim va tarbiya (shu jumladan, inklyuziv) olishlariga ko'maklashuvchi mos muhitni yaratish, imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari (maktablar, maktab-internatlar) faoliyatini takomillashtirish;

– o'quvchilarini umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma'naviyat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga mustaqillik g'oyalalarini yanada chuqur singdirish, milliy mentalitetga yet g'oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash;

– umumiyl o'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tomonidan davlat ta'lim standartlari va talablarining bajarilishining tizimli monitoringini olib borish;

– umumta'lismuassasalarining 10–11-sinflari o'quvchilariga kasb-hunar ta'limini ta'minlash bo'yicha faoliyatni muvofiq-lashtirish;

– xalq ta'limi tizimidagi muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularning bino va inshootlaridan foydalanish bo'yicha ishlar monitoringini olib borish va ushbu ishlarni muvofiqlashtirish.

– Yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish uchun vazirlik tuzilmasida tegishli boshqarma va bo'limlar, markazlar va boshqa tuzilmalar mavjud. (*5-chizmaga qarang*).

Misol uchun, vazirlikning asosiy vazifalaridan biri bo'lgan «maktabdan tashqari ta'limda umumiy o'rta davlat ta'lim standartlari va davlat talablariga muvofiq umumta'lim muassasalari faoliyatini metodik boshqarishni amalga oshirish» deb nomlangan vazifani amalga oshirish uchun vazirlik tuzilmasidagi O'quv jarayonini metodik jihatdan ta'minlashni rivojlantirish boshqarmasi yoki Maktabdan tashqari ta'limni rivojlantirish, sport va turizmni tashkil etish boshqarmasi mavjud. Mazkur boshqarmalarda faoliyat yurituvchi davlat xizmatchilarining bevosita funksional vazifalari jumlasiga aynan yuqorida keltirilgan vazifani amalga oshirish hisoblanadi. Ushbu ijtimoiy munosabatda davlat xizmati institutining ham naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini anglash mumkin. Zero, davlatning ta'lim sohasidagi ushbu vazifalarini amalga oshirish masalalari mazkur 10-12 ta davlat xizmatchilarining ixtiyorida ekanligini ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, ta'lim sohasida faoliyat yurituvchi deyarli har bir davlat boshqaruvi organida tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan vakolatlar ham mavjud. Xususan, Xalq ta'limi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi:

– o'quvchini umumiy o'rta ta'lim muassasasidan boshqa ta'lim muassasasiga o'tkazish;



– alohida fanlar bo'yicha chuqur o'rgatish maqsadida 2-sinf o'quvchilarini ixtisoslashgan davlat umumiy ta'lim muassasalariga qabul qilish;

– 5-sinf o'quvchilarini ixtisoslashgan davlat umumiy ta'lim mакtab-internatlariga qabul qilish;

– yo'qolgan attestatlar bo'yicha dublikat berish uchun ariza qabul qilish;

– attestat berilganligi haqida tasdiqnomalar ma'lumot berish;

– chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lмаган shaxslar bolalarini umumiy o'rta ta'lim muassasalariga qabul qilish uchun arizalar olish;



Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni – 140 nafar

– eksternat tartibida imtihonlar olish uchun arizalar qabul qilish kabi fuqarolar bilan bevosita bog'liq bo'lgan masalalar bilan ham shug'ullanadi.

O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi har bir yosh avlodni tarbiyalab, zamonaviy munosib ta'lim berib, voyaga yetkazish ishida ta'lim sohasidagi «estafeta»ni O'zbekiston Respublikasining Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi qabul qilib oladi. Vazirlik O'zbekiston Respublikasida oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasidagi yagona davlat siyosatini izchillik bilan amalga oshiradi, jahon andozalari darajasida mutaxassislar tayyorlash maqsadida oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida davlat tomonidan belgilangan talablar hamda normativlarning bajarilishini ta'minlaydi. Idoraviy bo'ysunishi va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlariga o'quv-uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi hamda ular tomonidan O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qiladi.

### **Vazirlikning bosh vazifalari:**

- respublikada oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni hisobga olgan holda respublikada oliy va o'rta maxsus ta'limni rivojlantirish Konsepsiyanini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- respublika oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida xalqaro talablarga mos keladigan, nazariy va kasbiy layoqatlilikni jahon madaniyati qadriyatlari va milliy an'analarga asoslangan yuksak axloqiy fazilatlar bilan chog'ishtirgan, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyot vazifalarini tashabbus hamda mas'uliyat bilan hal eta oladigan mutaxassislarni tayyorlaydi;
- oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashga, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari ilmiy-pedagog xodimlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashga ilmiy-uslubiy rahbarlik qilish, shuningdek, respublika xalq xo'jaligidagi ishlayotgan mutaxassislarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashga umumiy uslubiy rahbarlikni amalga oshirish;
- jamiyatning umumiy hamda kasb madaniyati jahon darajasiga muvofiqligini ta'minlash maqsadida oliy va o'rta ta'lim tizimini rivojlantirish;

- oliy mактабда илмий-тадқиқот ишларини, республика олий ва о‘рта максус о‘кув ўртларидаги ўзбек тарбијати та’лимий-техника ижодийотини ривоҷлантириш hamda самарадорлигини ошириш. Yuqori malakali илмий xодимлар тавъорлаш;
- иқтидорли ўзбекларни излаб топиш ва тарбијалаш;
- вазирлик тизимида олий ва о‘рта максус о‘кув ўртлари, корхоналар, ташкilotлар ва муассасаларнинг моддий-техника негизини mustahkamlash ва rivojlantirish;
- вазирлик тизимида олий ва о‘рта максус о‘кув ўртлари талабалари, о‘кувчилар, aspirantlari, илмий-pedagog xodimlarining, корхоналар, ташкilotлар ва muassasalar ishchi va xizmatchilarining uy-joy, madaniy-maishiy sharoitlarini va ularni ijtimoiy himoya qilish choralarini yaxshilash, ularga xavf-xatarsiz mehnat sharoitlarini ta’minlash.

### **Vazirlikka yuklatilgan vazifalarga ko‘ra quyidagi huquqlar beriladi:**

- respublikada олий ва о‘рта максус та’лим тузилмасини ва boshqaruvini takomillashtirish masalalari bo‘yicha takliflarni ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish;
- idoraviy bo‘ysunishidan va mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, олий ва о‘рта максус о‘кув ўртларida ta’lim to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish;
- davlatga qarashli bo‘lmagan олий ва о‘рта максус о‘кув ўртларida hamda ularga tenglashtirilgan ta’lim muassasalarida O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari buzilgan taqdirda, ularning faoliyatini to‘xtatib qo‘yish;
- o‘z tizimida qonunlarni qo‘llash tajribasini umumlashtirish, uni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va tegishli organlarga taqdim etish. Respublika олий ва о‘рта максус о‘кув ўртлари faoliyatining turli sohalarida paydo bo‘ladigan munosabatlarni huquqiy tartibga keltirish bo‘yicha berilgan vakolat doirasida me’yoriy aktlar chiqarish;
- олий ва о‘рта максус о‘кув ўртлари hamda ularning filiallarini о‘кув ўртларining idoraviy bo‘ysunishidan va mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, ochish (qayta tuzish va tugatish) uchun xulosa berish;
- davlatga qarashli bo‘lmagan олий ва о‘рта максус о‘кув ўртларига hamda ularga tenglashtirilganlarga hukumat tasdiqlagan nizomga muvofiq ta’lim faoliyati huquqi litsenziyalarini berish;

– oliv va o'rta maxsus o'quv yurtlari o'qituvchilari malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakultetlari tashkil qilinadigan oliv o'quv yurtlari ro'yxatini belgilash;

– vazirliklar, idoralardan bevosita oliv va o'rta maxsus o'quv yurtlaridan vazirlik zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi uchun zarur materiallarni, shuningdek oliv va o'rta maxsus ta'lim bo'yicha belgilangan statistik hisobotni olish. Vazirlik o'quv yurtlarida hisob-kitob va hisobotning holatini nazorat qilishni amalga oshirish;

– O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish va bank hamda boshqa kredit muassasalarida valyuta hisoblariga ega bo'lish;

– o'ziga bo'ysunuvchi o'quv yurtlari va tashkilotlardan mutaxassislar tayyorlaganliklari uchun tadbirkorlik faoliyatlari daromadlaridan, shuningdek xayriya jamg'armalari, homiyalar va chet el investitsiyalaridan pul o'tkazish tartibida tushayotgan budgetdan tashqari mablag'lar hisobiga markazlashtirilgan rivojlantirish, ijtimoiy himoya qilish va boshqa jamg'armalarni tuzish;

– mutaxassislarni shartnomaga asosida maqsadli tayyorlash uchun o'ziga bo'ysunuvchi oliv o'quv yurtlarida maxsus kafedra, fakultet, kurslar ochish;

– oliv va o'rta maxsus o'quv yurtlari bo'lgan respublika vazirliklari va idoralari rahbar xodimlarining axborot (ma'ruza) larini hay'at majlisiga kiritish;

– vazirlikda O'zbekiston Respublikasi oliv va o'rta maxsus o'quv ta'limini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish, Vatan va chet el fani, texnikasi hamda oliv va o'rta maxsus o'quv yurtlari faoliyati ilg'or tajribasining yangi yutuqlarini hisobga olgan holda, mutaxassislar tayyorlashning ilmiy mazmunini aniqlash uchun yetakchi olimlar, yuqori malakali mutaxassislar, ilmiy-texnika jamiyatlari va boshqa tashkilotlarning vakillaridan iborat ilmiy-uslubiy kengash tuzish. Ilmiy-uslubiy kengash tarkibi va uning nizomi vazir tomonidan tasdiqlanadi;

– tasdiqlangan boshqaruva apparati tuzilmasiga vazirlikning ish haqi fondi hamda apparat xodimlarining cheklangan soni doirasida boshqaruva texnologiyasi hamda texnikasini takomillashtirish zarurati bilan bo'ladigan o'zgartishlarni kiritish;

– o'ziga bo'ysunuvchi muassasalar tomonidan amaldagi qonunlarga zid ravishda chiqarilgan buyruqlarni bekor qilish.

— vazirlik o‘z ishini vazirlikning oliy va o‘rtalik maxsus o‘quv yurtlari, korxonalarini va muassasalariga rahbarlik bo‘yicha barcha masalalarni muhokama qilishda va hal etishda kollegiallik hamda yakkaboshchilikning uyg‘unligi asosida tashkil etadi. Vazirlik hay‘ati oliv va o‘rtalik maxsus ta’limni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini qabul qilingan qarorlar ijrosini tekshirish, kadrlarni tanlash va ulardan foydalanish masalalarini, muhim buyruq va yo‘riqnomalar loyihalarini, vazirlik boshqarmalari va bo‘limlari, o‘quv yurtlari rahbarlarining hisobotlarini ko‘rib chiqadi. Qarorlar qabul qiladi. Vazirlik fuqarolarning xatlari, shikoyatlari va arizalarining o‘z vaqtida e’tibor bilan ko‘rib chiqilishini tashkil qiladi, bu xatlarda ko‘tarilgan masalalarning to‘g‘ri hal etilishiga erishadi, shuningdek, fuqarolar xatida bayon etilgan vazirlik tizimidagi oliv va o‘rtalik maxsus o‘quv yurtlari, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘radi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ta’lim sohasida faoliyat yurituvchi barcha davlat boshqaruvi organlari umumiy bir tizimning, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi deb nomlangan davlat mexanizmining bir elementlari hisoblanib, bu ularning hamkorlikda, bevosita bir-biriga bog‘liqlikda faoliyat yuritishi lozimligini taqozo etadi.

#### **Paragraf mazmunini o‘zlashtirish uchun kichik kazusli misol:**

Oliy ta’lim vazirligi professor-o‘qituvchilarining vaqt me’yorlarini optimallashtirilishi bilan «OTM professor-o‘qituvchilarining yangi vaqt me’yorlari to‘g‘risida»gi Nizom loyihasini tayyorlab, barcha davlat oliy ta’lim muassasalariga ijro etish uchun jo‘natdi. Tegishlichcha barcha OTMlari vazirlikdan tushgan mazkur Nizom asosida professor-o‘qituvchilarining o‘quv yuklamasidan tashqari barcha yo‘nalishlarida soat bilan hisob-kitob qilishi hamda yiliga 1540 soat qoidasini ham qo‘llashni to‘xtatishdi. Ammo o‘quv yili yakunida Ta’lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasidan kelgan tekshiruvchilar mazkur nizomning Adliya vazirligidan ro‘yxatdan o‘tmaganligini va OTM rahbarlarini noqonuniy ish yuritganlikda aybladi va tegishli choralar ko‘rilishini bildirishdi.

*Vaziyatga huquqiy baho bering.*

*Oliy va o‘rtalik maxsus ta’limi vazirligining funksiya va vazifalarini hamda vakolatlarini tahlil qiling.*

*Mazkur vaziyatda qaysi davlat idorasi xatoga yo‘l qo‘ygan?*

#### **5.4. Atrof-muhitni muhofaza qilish va madaniyat sohasini ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi boshqaruv organlari**

Atrof-muhitni muhofaza qilish va madaniyat sohasini ma'muriy-huquqiy tartibga solish vazifasi davlatning ijtimoiy sohadagi vazifalaridan biri bo'lib, bugungi kunda butun dunyo bo'yicha dolzarb masalalardan biriga aylangan. Ishlab chiqarish va sanoatning rivojlanishi yangi ish o'rinalining ochilishiga va iqtisodiyotning rivojlanishiga zamin yaratayotgan bo'lsa, boshqa tomonдан ochiq havoga chiqarilayotgan turli zararli gazlar va chiqindilar atrof-muhitning ifloslanishiga, flora va faunaning nobud bo'lishiga hamda inson hayoti va sog'lig'iga xavf tug'diruvchi masalaga aylangan. Dunyo jamoatchiligining globallashishi esa ommaviy madaniyat kabi zararli illatlarning keng tarqalishiga olib kelmoqda. Shuning uchun ham bunday illatlarga qarshi turishda Milliy madaniyatni tanitish va aholini o'zlikni anglash va qadrlash ruhida tarbiyalash, tabiat va atrof-muhit obodligini saqlab turish maqsadida ham ushbu sohalarni tartibga soluvchi ma'muriy organlar faoliyat yuritishi lozim. **Bugungi kunda O'zbekistonda ushbu vazifalarni amalga oshirish bilan quyidagi davlat boshqaruvi organlari shug'ullanmoqda:**

- Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi;
- Vazirlar Mahkamasi huzuridagi o'simliklar karantini Davlat inspeksiyasi;
- Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish Davlat inspeksiyasi;
- Madaniyat vazirligi;
- «O'zbekkino» Milliy agentligi;
- Vazirlar Mahkamasi huzuridagi millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi kabi organlarni keltirish mumkin.

Ushbu organlar o'z faoliyati davomida quyidagi qonunlarning bevosita ijrochilari hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrdagi «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi 710-II-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrdagi «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi 754-XII-sonli Qonuni;

- O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 16-apreldagi «O‘rmon to‘g‘risida»gi O‘RQ-475-sonli Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-iyuldagi «O‘simliklar karantini to‘g‘risida»gi O‘RQ-484-sonli Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 21-maydagi «Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida»gi O‘RQ- 539-sonli Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 13-oktabrdagi «Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida»gi O‘RQ-229-sonli Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdagи «Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida»gi 269-II-sonli Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 12-sentabrdagi «Muzeylar to‘g‘risida»gi O‘RQ-177-sonli Qonuni va boshqalar.

Ijtimoiy sohaning ushbu yo‘nalishidagi davlat boshqaruvi organlarining asosiy vazifasi aholining atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi madaniyatini oshirish, fuqarolar hayoti va sog‘lig‘i hamda mamlakatning tibbiy turistik imkoniyatlarini oshirish hisoblansa, madaniy sohada jahonga asl o‘zbek milliy madaniyatini tarannum etishdir. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun ham Ekoliya va atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasi tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni qayta tiklash sohasida davlat nazoratini hamda tarmoqlararo boshqaruvni amalga oshiruvchi, idoralardan ustun turuvchi va muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organdir. O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga bo‘ysunadi va unga hisobdordir.

#### **O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

- atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni qayta tiklash ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;
- tabiatni muhofaza qilish faoliyatini tarmoqlararo kompleks boshqarish;
- tabiatni muhofaza qilish va resurslarni tejash borasida yagona siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish;

– atrof-muhitning ekologik holati qulay bo'lishini ta'minlash, ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish.

### **O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarga muvofiq:**

– atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishning ko'proq iqtisodiy usullarini keng qo'llash, resurslarini tejaydigan, kamchiquvchi va chiqitsiz texnologiyalar barcha joylarda qo'llanilishini rag'batlantirish, chiqindilarini xo'jalik oborotiga jalb etish, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish sohasidagi fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etish asosida tabiatni muhofaza qilish faoliyatini kompleks boshqaradi;

– tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish yuzasidan respublika ekologiya normativlari, qoida va standartlari ishlab chiqilishini tashkil etadi va ularni tasdiqlaydi, tarmoqlarning ana shunday normativlari, qoida va standartlarini o'zaro muvofiqlashtiradi, ularning fondlarini shakllantiradi va yuritadi;

– tabiatni muhofaza qilish faoliyatini metrologiya jihatidan ta'minlash yuzasidan ish olib boradi, tabiiy muhit obyektlarining ifloslanishini nazorat qilish bo'yicha uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi;

– barcha turdag'i tabiiy resurslarni xo'jalik aylanmasiga jalb etish ko'lamlarini tartibga solib turish maqsadida atrof tabiiy muhit holatiga antropogen faoliyatning ta'sirini tahlil qiladi;

– Oliy Majlisga, Vazirlar Mahkamasi va mahalliy davlat hokimiyyati organlariga atrof-muhit holatiga doir uzoq muddatli va bir yillik taxminlar loyihalari kiritish uchun tabiatdan foydalanuvchilar tabiatni muhofaza qilishning zarur chora-tadbirlarini bajarishlariga qaratilgan takliflarni, shuningdek, tabiatni muhofaza qilish majmuyida iqtisodiy islohotlar qanday borayotganligining tahlili uchun belgilangan hisobotlarni taqdim etadi;

– vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va tabiatdan foydalanuvchi boshqa tashkilotlarning tabiatni muhofaza qilish tadbirlari va tabiatni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan foydalanish yuzasidan olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari dasturlarini, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi nizomlarini muvofiqlashtiradi;

– atrof-muhitga ifloslantiruvchi moddalarni chiqarib tashlash

hamda oqizishning yo'l qo'yiladigan normativlarini va chiqindilarni joylashtirish limitlarini belgilaydi, atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun kompensatsiya to'lovlari undiradi va ulardan belgilangan tartibda foydalanadi;

– atrof tabiiy muhit sifatining normalarini belgilash ishini tashkil etadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitalasi, boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, korxonalar va tashkilotlar bilan birgalikda ifloslantiruvchi manbalar va ular atrof-muhitga ko'rsatadigan zararli ta'sirning (jismoniy ta'sirdan tashqari) hisobini yuritadi;

– respublika ishlab chiqaruvchi kuchlarini joylashtirish hamda ularni rivojlantirish dasturlari, Konsepsiyalari, asosiy yo'nalishlari va sxemalari loyihalarni, loyihalashga tayyorgarlik va loyiha hujjatlarni, yo'riqnomा-uslubiy hamda normativ-texnikaviy hujjatlarni, ayrim mintaqalar, joylar va ishlab turgan obyektlardagi ekologik vaziyatni, shuningdek, atrof-muhit holatiga ta'sir ko'rsatuvchi yangi texnika, texnologiyalar, materiallar va moddalarni davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazadi;

– atrof tabiiy muhit monitoringining tuzilishi, mazmuni va uni amalgalashishining ahvoli va unga boshqacha zararli ta'sirlar, tabiiy resurslardan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlarning respublika yagona ekologik axborot bankini tashkil etadi va yuritadi;

– mamlakatda qo'riqxonalarga doir ishga rahbarlik qiladi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi bilan birgalikda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning davlat kadastrini yuritadi, yangi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish to'g'risida takliflar kiritadi;

– yangi (qayta qurilgan) obyektlarni, shuningdek, tabiatni muhofaza qilish obyektlari va inshootlarini qabul qilib olish va ishga tushirish bo'yicha davlat komissiyalari ishida qatnashadi, barcha turdag'i xo'jalik faoliyati uchun joy tanlash va yer ajratishga doir materiallarni muvofiqlashtiradi;

– O'zbekiston Respublikasining «Qizil kitobi to'g'risida»gi nizomni, uni yuritish bo'yicha Idoralararo komissiyaning shaxsiy tarkibini, bu komissiya to'g'risidagi nizomni (O'zbekiston

Respublikasi Fanlar akademiyasi bilan birligida), shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining vakolat doirasiga kiradigan masalalar bo'yicha boshqa idoralararo komissiyalarning tarkibi va ular to'g'risidagi nizomni tasdiqlaydi;

– viloyatlar va Toshkent shahar tabiatni muhofaza qilish qo'mitalari, tumanlararo, tuman va shahar tabiatni muhofaza qilish qo'mitalari (inspeksiyalari) nizomlarini tasdiqlaydi;

– belgilangan tartibda o'z korxonalarini, muassasalarini, tashkilotlari va boshqa tarkibiy bo'linmalarini tuzadi, qayta tashkil etadi va tugatadi, ularning ustavlarini tasdiqlaydi;

– fuqarolarni tabiatni, tabiiy resurslarni asrab-avaylash ruhida tarbiyalash ishini, tabiat to'g'risidagi bilimlarni targ'ib qilishni va ommalashtirishni tashkil etadi, ekologik ta'lim saviyasini oshirishga ko'maklashadi, bu sohada tanlovlardan, ko'rgazmalar, boshqa tadbirlar o'tkazadi;

– o'z tizimi xodimlarining malakasini oshirishni tashkil etadi, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning tabiatni muhofaza qilish tabiiy resurslardan foydalanish sohasida mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini oshirish borasidagi ishiga uslubiy rahbarlik qiladi;

– ifloslantiruvchi moddalarni atrof-muhitga chiqarib tashlash va oqizish, suvdan maxsus foydalanish, suv chiqarish uchun quduq qazish, ekologik normalarni joriy etish ishlarini bajarishga belgilangan tartibda ruxsatnomalar, zararli moddalar, radioaktiv chiqindilar va ishlab chiqarish chiqindilarini ko'mish uchun yer ostidan foydalanish huquqini, ovchilik va baliqchilik xo'jaligi yuritish, shuningdek Qizil kitobga kiritilgan turlaridan tashqari hayvonot dunyosidan (shu jumladan, baliqlardan) va o'simlik dunyosidan foydalanish, yovvoyi dori-darmon giyoohlari, ozuqa o'simliklari va manzaralri o'simliklarni, texnikaviy xomashyo va boshqa tabiiy hosilalarni (shu jumladan, mo'miyoni) yig'ish (tayyorlash), ularni respublika hududidan olib chiqish va respublikaga olib kirish huquqini beradi;

– ovchilik va baliqchilik xo'jaligi tashkil etish va yuritish, hayvonot dunyosini (shu jumladan, baliqlarni) va o'simlik (shu jumladan, o'rmonlarni) muhofaza qilish, qayta tiklash va ulardan oqilona foydalanish sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiradi, hayvonot dunyosini (shu jumladan, baliqlarni) va o'simlik dunyosini

(shu jumladan, o'rmonlarni) muhofaza qilish, tartibga solish va ulardan foydalanishga doir normativ hujjatlarni ishlab chiqadi;

– zarur hollarda, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish masalalari yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining hisobotlarini qarab chiqish to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;

– hay'at majlislarida tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish masalalari yuzasidan vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar rahbarlarining, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning hisobotlarini eshitadi, yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklar uchun rahbarlarni jazolash to'g'risida tegishli organlar oldiga masala qo'yadi;

– tabiatni ifloslantirganlik va tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaganlik natijasida unga yetkazilgan ziyonni qoplash to'g'risida yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan da'vo qo'zg'atadi; undirib olingen summalarни tabiatni muhofaza qilish fondlari va maxsus, budgetdan tashqari hisobvaraqlarga o'tkazadi;

– bank muassasalariga tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarni buzgan holda ish olib borilayotgan sanoat obyektlarini va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan obyektlarni loyihalash, qurish, qayta qurish yoki kengaytirishlarini mablag' bilan ta'minlashni to'xtatish to'g'risida, shuningdek, tegishli organlarga qonun hujjatlari, ekologik normativlar, qoida va standartlar buzilganligi uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning rahbarlarini javobgarlikka tortish, shu jumladan, xo'jalik faoliyati yakunlari bo'yicha beriladigan mukofotlardan mahrum etish to'g'risida taqdimnomalar kiritadi;

– qonun hujjatlarni buzgan holda ish olib borilayotgan sanoat obyektlari yoki boshqa maqsadlarga mo'ljallangan obyektlarni loyihalash va qurish, qayta qurish yoki kengaytirishni taqiqlaydi, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish normalari va qoidalalarini buzayotgan sanoat korxonalari va boshqa korxonalarining, muassasalar va tashkilotlarning ishini to'xtatib qo'yadi, foydalanish natijasida tabiat obyektlari ifloslanadigan yoki buziladigan mahsulotlarni ishlab chiqarishni taqiqlaydi;

– tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish sohasidagi ma'muriy huquqbazarliklarga doir materiallarni o'z

vakolatlari doirasida ko'rib chiqadi va aybdor shaxslarga jarima soladi hamda boshqa ma'muriy choralar ko'radi, zarurat bo'lganda materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga oshiradi;

– yuridik va jismoniy shaxslardan tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishga taalluqli zarus axborot va tushuntirishlarni talab qiladi hamda ularni belgilangan shaklda bepul oladi;

– tabiiy muhitning holatini aniqlash va uni yaxshilash choratadbirlarini ishlab chiqish uchun idoralararo ilmiy-texnikaviy, ekspert kengashlari va boshqa kengashlar, guruhlar va komissiyalar tuzadi, tabiatni muhofaza qilish vazifalarini hal etish uchun O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi huzurida idoraviy xo'jalik hisobidagi ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari, institutlar, markazlar va boshqa bo'linmalar tuzadi;

– tabiatni muhofaza qilishning uzoq muddatli dasturlarini, hududiy kompleks sxemalarini, qonun hujjatlarining loyihalarini ishlab chiqish, davlat ekologik ekspertizasi o'tkazish hamda tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish bilan bog'liq boshqa masalalarni hal etish uchun ilmiy-tadqiqot, loyiha, konstrukturlik tashkilotlarini, oly o'quv yurtlarini, ilmiy-texnika ijodiyoti va axborot markazlarini, boshqa tashkilotlarni, shuningdek, ayrim olimlar va mutaxassislarni belgilangan tartibda jalg etadi;

– vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning rahbarlaridan, boshqa yuridik shaxslardan o'zlariga qarashli obyektlarda atrof tabiiy muhitni ifoslantiruvchi moddalar chiqarib tashlanishi (oqizilishi) ni uzluksiz nazorat qilib boruvchi vositalar bilan ta'minlangan punktlar (postlar) tashkil etishni, bunday punktlar (postlar) ishini nazorat qilishni, mazkur punktlar (postlar) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va uning joylardagi organlariga muntazam axborot berib turishlarini talab qiladi;

– belgilangan tartibda mahalliy va respublika tabiatni muhofaza qilish fondlarini tashkil etadi va ulardan foydalanadi;

– o'z bo'linmalarining va O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning maxsus hisobvaraqlarini ochadi, ularning topishini ta'minlash va ulardan foydalanish qo'mitaning O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan qaroriga binoan amalga oshiriladi;

- tabiatni muhofaza qilish bo'yicha shtatsiz inspektorlar va ekspertlar tarmog'ini tashkil etadi, ularning faoliyati O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining hay'ati tasdiqlaydigan nizomlarga muvofiq tartibga solib boriladi;
- tabiatni muhofaza qilishga doir jurnallar, gazetalar, ilmiy ishlar to'plamlari, axborot byulletenlari nashr etadi;
- xavfli yuklarning tranziti uchun o'z vakolatlari doirasida xulosa beradi.

Avvalgi o'rganilgan davlat boshqaruvi organlari kabi ushbu davlat qo'mitasiga ham yuklatilgan vazifalarni amalgaga oshirish uchun tashkiliy tuzilmasida tegishli boshqarma va bo'lmlar, markazlar mavjud bo'lib, ularning har biri lokal hujjatlar bilan biriktirilgan funksional vazifalarni amalgaga oshiradi. Ushbu davlat boshqaruvi organi boshqaruv bilan bog'liq bo'lgan ishlardan tashqari tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan, ya'ni jismoniy va yuridik shaxslarning ruxsatnomalar, litsenziyalar, sertifikatlar va ro'yxatga olishni so'rab murojaat qilgan ishlarini ham amalgaga oshiradi. Xususan:

<b>Nº</b>	<b>Faoliyat turi</b>
<b>1</b>	O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan benzin va dizel motorlari bilan jihozlangan «M2», «M3» va «N2» toifalaridagi yangi avtotransport vositalarini «Evro-2» ekologik darajadan kam bo'limgan talablarga muvofiqligi bo'yicha ekologik sertifikatlashtirish
<b>2</b>	Ekologik xavfli mahsulotlar va chiqindilarni O'zbekiston Respublikasiga olib kirish va olib chiqish
<b>3</b>	Tarkibida ozonni buzuvchi moddalar mavjud bo'lgan mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasiga olib kirish va O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish uchun ruxsatnomalar berish
<b>5</b>	Yovvoyi hayvonlarni tutqunlikda saqlashda ruxsatnoma
<b>6</b>	O'simlik dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish uchun ruxsatnoma
<b>7</b>	Qizil kitobga kiritilgan kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi o'simlik turlarini tabiiy muhitdan olishga ruxsatnoma

<b>8</b>	Yovvoyi hayvonlarni tutqunlikda saqlash va ko'paytirish pitomniklari hamda zoologik kolleksiyalarining davlat hisobiga olinganligi haqidagi guvohnoma
<b>9</b>	Yovvoyi hayvonlarni ovlash, ushslash va tayyorlash uchun ruxsatnoma
<b>10</b>	O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan kamyoib va yo'qolib ketish xavfi ostidagi o'simlik turlarini tabiiy muhitdan olishga ruxsatnoma
<b>11</b>	Suvga quduqlarni burg'ulash uchun ruxsatnoma berish
<b>12</b>	Yovvoyi o'simliklarni va ularning qismlarini olib kirish va olib chiqish uchun ruxsatnoma
<b>13</b>	Yo'qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo to'g'risidagi Konvensiya (CITES)ning I, II va III ilovalariga kiruvchi hayvonot turlarini olib kirish va chetga olib chiqish uchun ruxsatnoma
<b>14</b>	Suvdan maxsus foydalanish yoki suvni maxsus iste'mol qilish uchun ruxsatnoma berish
<b>15</b>	Yovvoyi hayvonlar, ularning qismlari, zoologiya kolleksiyalari, hayot faoliyati mahsulotlari, o'ljalar, tulumlarni olib kirish va olib chiqishga ruxsatnoma olish

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi madaniyat sohasida davlat boshqaruvi organi hisoblanadi va o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi.

### **Quyidagilar vazirlikning asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari hisoblanadi:**

- madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, milliy madaniy va ma'naviy merosni asrab-avaylash va ko'paytirish, san'at va badiiy ijodni har tomonlama rivojlantirish, aholining ma'naviy-axloqiy va madaniy darajasini yanada yuksaltirishni rag'batlantirish, uni milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalaridan bahramand etish borasida tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- aholi keng qatlamlari, ayniqsa, yoshlar orasida milliy ongda mustaqillik g'oyalarini yanada teran tomir orttirishga, yuksak ma'naviyat, insonparvarlik an'analariga sadoqat, milliy o'zlikni

anglash g'oyalarini yanada chuqur singdirish, radikalizm va ekstremizmning yot g'oyalariga qarshi immunitetini mustahkamlash, jamiyatning muttasil ortib borayotgan intellektual, estetik va madaniy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan ommaviy-madaniy tadbirlarni o'tkazishga qaratilgan ma'rifiy ishlarni amalga oshirish;

– badiiy ijod, shu jumladan, teatr, musiqa, xoreografiya, estrada, sirk va xalq amaliy san'atini yanada rivojlantirishni rag'batlantirish, xalqimiz tarixi va bugungi hayotining eng yorqin sahifalarini, mamlakatimizning erkin demokratik taraqqiyotini aks ettiruvchi asarlar yaratishda ijodiy jamoalarga, ayniqsa, ijodkor yoshlarga har tomonlama ko'maklashish;

– madaniyat muassasalari, jumladan, teatrlar, madaniyat markazlari, madaniyat va istirohat bog'lari, muzeylar hamda boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularning faoliyati samaradorligini oshirish, ma'naviy yetuk, intellektual barkamol va yuksak madaniyatli shaxslarni tarbiyalash ishida ushbu muassasalar imkoniyatlaridan yanada to'liq foydalanish;

– davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari, jumladan, mahalliy hokimiyat idoralari, jamoat tashkilotlari, ta'lim muassasalari, ijodiy uyushmalar va boshqa tashkilotlar bilan asosiy vazifalar hamda faoliyat yo'nalishlarini, madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirishda, madaniyat va ijodiy muassasalar ishining samaradorligini ta'minlashda mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish;

– madaniyat sohasida kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonini milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insонparvarlik va yuksak ma'naviyat ruhida takomillashtirish, bunda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, ilg'or xalqaro tajribadan foydalanish, madaniy-ma'rifiy muassasalar va ta'lim muassasalarini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash;

– davlatlararo va xalqaro madaniy aloqalarni kengaytirish hamda mustahkamlash, mamlakatimizning madaniy merosini, mamlakatimiz ijodiy jamoalari va mualliflari asarlarini, shu jumladan, konferensiylar va ko'rgazmalar, madaniy tadbirlar va anjumanlar o'tkazish yo'li bilan chet ellarda keng targ'ib qilish, madaniyat sohasiga xorijiy investitsiyalar va grantlar jalb etish, shuningdek, madaniyat sohasiga oid ommaviy adabiyotlarni chop etish, video va kinomateriallar tayyorlash.

## **Vazirlilik o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni amalgga oshirishda quyidagi huquqlarga ega:**

– vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarni amalgga oshirish bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek, boshqa hujjatlarni belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

– davlat boshqaruvi organlaridan va mahalliy davlat hokimiyati organlaridan vazirlik vakolatiga kiruvchi masalalarni hal etishga doir ma'lumotlarni belgilangan tartibda so'rash va olish;

– vazirlik vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha zarur statistik ma'lumotlarni davlat statistika organlaridan bepul asosda olish;

– vazirlikning va uning idoraviy mansub tuzilmalarining davlat mulkini beg'araz foydalanish huquqi bilan o'z tashkiliy tuzilmasi doirasida bir bo'linmadan boshqa bo'linmaga belgilangan tartibda o'tkazish;

– vazirlik vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha ilmiy ishlarni amalgga oshirish va tadqiqotlar olib borish uchun idoraviy mansub Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markaziga, axborot-kompyuter texnologiyalarini ishlab chiqish, joriy etish va kuzatib borish bo'yicha buyurtmalarni vazirlik huzuridagi Axborot va kompyuter texnologiyalari markaziga tender (tanlov) o'tkazmasdan joylashtirish;

– belgilangan tartibda noshirlik faoliyatini amalgga oshirish;

– binolarga xizmat ko'rsatish ishlarini bajarishga, inventar va xo'jalik anjomlari, avtotransport, aloqa vositalarini, hisoblash va kompyuter texnikasini, tashkiliy texnikani saqlash hamda ulardan foydalanishga, dasturiy ta'minotni xarid qilishga belgilangan tartibda shartnomalar tuzish;

– vazirlik vakolatiga kiruvchi masalalarni hal etishga shartnomaga asosida ilmiy tashkilotlarni, olim va mutaxassislarini, shu jumladan, chet ellar olimlari va mutaxassislarini jalb etish;

– belgilangan tartibda jahon internet axborot tarmog'ida rasmiy veb-saytlar yaratish, o'z faoliyatini yoritib borish uchun ijtimoiy tarmoqlar va media-resurslardan foydalanish;

– vazirlik vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha xorijiy davlatlarning tegishli tuzilmalari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining topshirig'i bo'yicha xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi manfaat-

larini ifodalash va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va xalqaro huquq normalariga muvofiq boshqa davlatlarning vakolatli tashkilotlari bilan madaniyat masalalari bo'yicha hamkorlik qilish to'g'risida shartnomalar tuzish;

– tegishli vazirliklar va idoralar bilan birgalikda vazirlilik tizimiga kiruvchi tashkilotlar toifasini o'zgartirish bo'yicha takliflarni tayyorlash va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga ko'rib chiqish uchun kiritish;

– umumxalq bayramlari, yubileylar, madaniy-ommaviy tadbirlarni belgilangan tartibda tashkil etish va o'tkazish;

– vazirlilik tizimiga kiruvchi teatr-tomosha tashkilotlari, madaniy-ma'rifiy va ta'lim muassasalarini jihozlash uchun yoritish va ovoz yozish qurilmalari, musiqa asboblari, inventar va boshqa zarur jihozlarni markazlashtirilgan tartibda xarid qilish;

– muzey fondlarini va asarlar ko'rgazmalarini to'ldirish uchun tarixiy-badiiy qimmatga ega bo'lgan kino, teatr, tasviriy va dekorativ-amaliy san'at asarlari, noyob qadimiy raritetlarni hamda materiallarini, noyob qadimiy buyumlarni, shuningdek, sahna va musiqa asarlarini, qo'shiqlarni aniqlash va sotib olish, muzeylar fondlaridagi eksponatlarning yagona katalogini nashr etish;

– respublikada o'tkaziladigan xalqaro tanlovlari, ko'rniklar, festivallar va boshqa tadbirlarda qatnashish uchun xorijiy jamoalarini va alohida ijrochilarni taklif etish;

– vazirlilik tizimiga kiruvchi ta'lim muassasalarida dars berish, shuningdek, mahorat darslari o'tkazish uchun yuqori malakali professorlar va o'qituvchilarni, respublikamizdagi va chet ellardagi taniqli madaniyat va san'at arboblarini taklif etish;

– madaniyat va san'at sohasida iqtidorli yoshlar vakillarini aniqlash, ularni chet ellarga o'qishga yuborish;

– badiiy havaskorlik jamoalariga, madaniyat muassasalariga «Xalq», «Bolalar namunali jamoasi», «Xalq muzeyi» unvonlari, diplomlar, yorliqlar berish va sovrinlar bilan mukofotlash;

– vazirlilik mablag'larini, shu jumladan, budgetdan tashqari mablag'larni vazirlilik tizimi tashkilotlari tomonidan o'tkaziladigan madaniy-ommaviy va konsert-tomosha tadbirlari tashkil etilishiga, madaniyat va san'at arboblarini turli festivallar (tanlovlari) va shu kabilarga tayyorlash hamda ularda qatnashish uchun yo'naltirish;

- festivallar, tanlovlар va boshqa tadbirlar g'oliblari, qatnashchilari va faxriy mehmonlarini esdalik sovg'alari bilan mukofotlash;
- eng iqtidorli san'at arboblari, alohida fidokorlik va mehnatsevarlik fazilatlarini namoyon qilgan madaniyat sohasi xodimlari nomzodlarini mukofotlashga belgilangan tartibda taqdim etish.

Vazirlik O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Vazirlikka O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tasdiqlanadigan va lavozimidan ozod qilinadigan vazir (keyingi o'rirlarda vazir deb ataladi) boshchilik qiladi. Vazir bir vaqtning o'zida O'zbekiston Davlat konservatoriyasining rektori hisoblanadi. Vazirning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan va lavozimidan ozod qilinadigan bir nafar birinchi o'rindbosari va ikki nafar o'rindbosari bo'ladi. Vazirlik nomenklaturasiga kiruvchi idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlari O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi mavjud bo'lib, uning moddiy asoslari konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish huquqi uchun litsenziya berilganligi uchun undiriladigan davlat bojidan tushgan mablag'larning 70 foizi miqdoridagi ajratmalar; O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi faoliyat turlari bo'yicha budget tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasiga tushayotgan mablag'lardan 20 foiz miqdoridagi ajratmalar; O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi davlat korxonalarining foydasidan ajratmalar; jamg'armaning vaqtinchcha bo'sh mablag'larini joylashtirishdan tushadigan daromadlar; jismoniy va yuridik shaxslar, xalqaro tashkilotlarning xayr-ehsonlari, grantlari; qonun hujjatlarida taqilanganboshqa manbalar.

Shunday qilib, ushbu sohadagi davlat boshqaruvi organlarining asosiy vazifasi O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi barcha aholining hayoti, sog'lig'i, ma'naviy va ruhiy holati, madaniyati va ijodiyoti rivojlanishi, huquqiy atamalarda ta'kidlaganda, fuqarolarning subyektiv ommaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish uchun faoliyat olib boradi. Shuning uchun minglab davlat xizmatchilari mazkur organlarda kundalik tarzda faoliyat yuritadi.

## **Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol**

2018-yil aprel oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati navbatdagi sessiyasi yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligiga «Ommaviy madaniyatga qarshi kurashish va yoshlarni milliy an'analar va qadriyatlar ruhida tarbiyalash ishida hamda san'at vakillari orasida o'zligimizga mos bo'limgan harakatlarning oldini olish borasida qanday ishlar olib borilayotganligi bo'yicha» Senat kengashida asoslanrilgan tushuntirish berish talabi bilan parlament so'rovini jo'natgan edi. Ammo vazirlik uzrli sabalarsiz ikki oygacha rasmiy javob taqdim etmadi va yuqori palataning keyingi yalpi majlisи oldidan parlament so'rovida ko'rsatilgan savollarga rasmiy tarzda javob qaytarish bilan cheklandi.

*Vaziyatga huquqiy baho bering.*

*Ushbu vaziyat Ma'muriy huquq fani predmeti doirasiga taalluqlimi? Javobingizni tushuntiring.*

*Madaniyat vazirligining ommaviy madaniyatga qarshi kurashish va yoshlarni milliy an'analar va qadriyatlar ruhida tarbiyalash ishida hamda san'at vakillari orasida o'zligimizga mos bo'limgan harakatlarning oldini olish borasida qanday vakolatlari bor va ular qaysi normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan?*


## **V bobni o'zlashtirish bo'yicha KROSSVORD**

### **Bo'yiga:**

1. Qaysi vazirlik huquqiy asosiga ko'ra vazir bir paytning o'zida Oliy ta'lif muassasasi rektori lavozimini egallaydi?
2. Inson ehtiyojini qondirish bilan bog'liq bo'lgan yangilik, uni yaratish, tarqatish va ishlatish bilan bog'liq bo'lgan majmuaviy jarayon.
3. Nogironligi mavjud bo'lgan shaxslar uchun tashkil qilinadigan Olimpiada o'yinlari.
4. ... tartibida imtihonlar olish uchun arizalar qabul qilish kabi fuqarolar bilan bevosita bog'liq bo'lgan masalalar bilan ham shug'ullanadi.
5. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi qaysi organ oldida hisobdir?

### **Eniga:**

1. Qarovisiz qolgan bolalarning ijtimoiy-psixologik reabilitatsiyasini va huquqiy himoya qilinishini ta'minlash, ularning ijtimoiy-mehnat ko'nikmalarini hosil qilishiga va jamiyatga uyg'unlashuviga ko'maklashuvchi ijtimoiy maskan.
4. «Yevro-2» nima?



## **VI bob. MA'MURIY-SIYOSIY SOHANI MA'MURIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

### **6.1. Ma'muriy huquqda ma'muriy-siyosiy soha tushunchasi va uni ma'muriy-huquqiy tartibga solish mohiyati**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, davlat, eng avvalo, fuqarolarning tinch va osoyishta yashashini hamda sog' va salomat hayot kechirishini ta'minlashi kerak<sup>1</sup>. Darhaqiqat, agar inson o'z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshira olsa, erkin va xotirjam harakatlana olsa, buning barchasi tinchlik va xavfsizlikning ta'minlanganligi evazigadir. Ushbu masalalar ham davlat boshqaruvingeng dolzarb va muntazam ta'minlanishi lozim bo'lgan vazifalaridan biridir. Albatta, ma'muriy-siyosiy soha deganda nafaqat tinchlik masalasi, balki uni ta'minlashga zamin yaratuvchi boshqa omillar ham nazarda tutiladi. Bular mudofaa, xavfsizlik, tashqi siyosat, huquqiy targ'ibot va huquqiy savodxonlik masalalaridir. Mamlakatimizda tinchlikni va fuqarolar osoyishtaligini ta'minlashga safarbar etilgan bir qator davlat boshqaruvi organlari va davlat xizmatchilari faoliyat yuritadi. Bular:

- Ichki ishlar vazirligi;
- Favqulodda vaziyatlar vazirligi;
- Mudofaa vazirligi;
- Milliy gvardiya;
- Davlat xavfsizlik xizmati;
- Bosh prokuratura;
- Adliya vazirligi;
- Tashqi ishlar vazirligi.

Darsligimiz tuzilishiga amal qilgan holda ushbu sohadagi davlat boshqaruvi organlari bevosita ijrosini ta'minlaydigan ayrim qonunlar bilan tanishtiramiz. Bunday qonunlar qatoriga:

- O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 11-maydag'i «Mudofaa to'g'risida»gi 211-II-sonli Qonuni;

<sup>1</sup> Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на двадцатом пленарном заседании Сената Олий Мажлиса состоявшегося 20 июня 2019 года. <https://www.pv.uz/ru/news/vystuplenie-prezidenta-respublikи-uzbekistan-shavkata-mirzieeva-na-dvadtsatom-plenarnom-zasedanii-senata-olij-mazhlisa>.

- O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi 436-II-sonli Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 25-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to‘g‘risida»gi 478-II-sonli Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi;
- O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risi-dagi Kodeksi;
- O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi;
- O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-iijroiya kodeksi;
- O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi «Korruptioniga qarshi kurash to‘g‘risida»gi O‘RQ-419-sonli Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-dekabrdagi «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi O‘RQ-344-sonli Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi «Huquq-buzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi O‘RQ-371-sonli Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 15-dekabrdagi «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi 167-II-sonli Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 30-iyuldagagi «Ekstre-mizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi O‘RQ-489-sonli Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-apreldagi «Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma‘muriy nazorat to‘g‘risida»gi O‘RQ-532-sonli Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 26-dekabrdagi «Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to‘g‘risida»gi O‘RQ-195-sonli Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-fevraldagagi «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida»gi O‘RQ-518-sonli Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 3-iyuldagagi «O‘zbekiston Respublikasining diplomatik xodimlari uchun diplomatik daraja va martabalari belgilash to‘g‘risida»gi 650-XII-son Qonuni va boshqa ko‘plab qonunlar taalluqlidir.

Shu o‘rinda ma‘muriy-siyosiy soha tushunchasiga oydinlik kiritib o‘tish lozim. **Ma‘muriy-siyosiy soha** jamoat va davlat xavfsizligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan davlat funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organlari majmuasiga aytildi.

Shunday qilib, **ma'muriy-siyosiy sohani ma'muriy-huquqiy tartibga solish** deb ma'muriy-siyosiy sohadagi vakolatli davlat organlarining jamiyat va davlat xavfsizligini, fuqarolarning subyektiv ommaviy huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan qonuniy faoliyatni tushuniladi.

Ushbu sohada faoliyat yurituvchi va deyarli har bir fuqaro har kun to'qnash kelishi mumkin bo'lgan xizmat bu ichki ishlar organlaridir. Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, Konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlashdan, shuningdek, huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat.

**Ichki ishlar organlari faoliyatini o'z vakolatlari doirasida quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiradi:**

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash;
- tergovga qadar tekshiruvni, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv hamda dastlabki tergovni o'tkazish;
- jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashish, shu jumladan, terrorchilik harakatlariga chek qo'yishda hamda garovga olinganlarni ozod qilishda ishtirok etish yo'li bilan kurashish, shuningdek, odam savdosiga qarshi kurashish;
- huquqbazarliklar profilaktikasi, ularning sabablarini va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, huquqbazarliklarni sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash;
- ehtiyyot choralarini, jinoiy jazoni va jinoiy-huquqiy ta'sir ko'rsatishning boshqa choralarini ijro etish, shuningdek, shaxslarni qidirish bo'yicha ishlarni tashkil etish;
- ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish, ma'muriy jazolarni qo'llash to'g'risidagi qarorlarni ijro etish;
- yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash;
- pasport tizimi talablarining bajarilishini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasidan chiqish va unga kirish uchun

zarur bo'lgan hujjatlarni, doimiy va vaqtincha yashash uchun ruxsatnomalarni berishga hamda rasmiylashtirishga doir ishlarni, passport tizimiga va O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat qilishni amalga oshirish;

– fuqaroviylarining hamda o'q-dorilarining, sanoat uchun mo'ljalangan portlovchi materiallarning, shuningdek, pirotexnika buyumlarining, giyohvandlik vositalarining, psixotrop moddalarning va prekursorlarning muomalada bo'lish sohasini nazorat qilish;

– yong'in xavfsizligini ta'minlash;

– ekspert-kriminalistika faoliyatini amalga oshirish;

– davlat obyektlarini, o'ta muhim, toifalangan obyektlarni va boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo'riqlash;

– litsenziyalash va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish, shuningdek, litsenziya va ruxsat etishga oid talablarga hamda shartlarga rioya etilishini nazorat qilish;

– harbiy-safarbarlik ishlarni va fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish;

– qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir ishlarda ishtirok etish. Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy prinsiplari qonuniylik, yagonalik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni hurmat qilish, ochiqlik va shaffolikdan iborat.

Ichki ishlar organlari o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi hamda aniqlangan jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarga oid mavjud materiallar to'g'risidagi axborotni almashishni, shu jumladan, elektron shaklda almashishni, shuningdek, boshqa axborotni almashishni amalga oshiradi.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda, jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlashda, jinoyatlar va ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga chek qo'yish, ularni fosh etishda, jinoyat ishlarni tergov qilishda,

jinoyatchilarni qidirishda, bedarak yo'qolganlarning turgan joyini aniqlashda, shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasida ichki ishlar organlariga o'z vakolatlari doirasida ko'maklashishi shart. Ichki ishlar organlarining tizimi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari, tumanlar va shaharlar ichki ishlar boshqarmalari (bo'limlari), transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmalari (bo'limlari), jazoni ijro etish muassasalari, ichki ishlar organlarining o'ta muhim va toifalangan obyektlardagi bo'linmalari, shaharcha ichki ishlar bo'linmalari va ichki ishlar organlarining tayanch punktlari, shuningdek, ta'lim va tibbiyot muassasalari, ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tashkil etiladigan boshqa bo'linmalar va tashkilotlardan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri o'z maqomiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tarkibiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga, qonun hujjatlariga muvofiq ayrim masalalar bo'yicha esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo'ysunadi.

### **Ichki ishlar organlari:**

– jinoyat sodir etganlikda guman qilinayotgan shaxslarni O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan tartibda;

– o'ziga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyyot chorasi qo'llanilgan shaxslarni;

– qidiruvdagi shaxslarni;

– o'ziga nisbatan ushlab berish to'g'risida so'rov kelib tushgan shaxslarni;

– ma'muriy qamoq jazosini o'tashdan, ma'muriy tarzda chiqarib yuborilishdan bo'yin tovlayotgan shaxslarni, shuningdek, o'ziga nisbatan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ish yuritilayotgan shaxslarni O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida nazarda tutilgan tartibda;

– jinoiy jazoni o'tashdan, shuningdek, o'ziga nisbatan sud tomonidan tayinlangan tibbiy va boshqa yo'sindagi majburlov choralarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan shaxslarni;

– aniq yashash joyiga ega bo‘limgan shaxslarni, keyinchalik ularni aniq yashash joyiga ega bo‘limganlarni reabilitatsiya qilish markazlariga sud ajrimi asosida joylashtirgan holda;

– favqulodda holat yoki favqulodda vaziyat rejimini buzgan shaxslarni;

– umumiy harbiy majburiyatni o‘tashdan bo‘yin tovlayotgan shaxslarni;

– qo‘riqlanadigan obyektlarga g‘ayriqonuniy ravishda kirgan yoki kirishga uringan shaxslarni;

– o‘zini o‘zi o‘ldirishga uringan yoxud ruhiy holatining yaqqol ifodalangan buzilishi belgilariga ega bo‘lgan hamda o‘z harakatlari bilan o‘zi va atrofdagilar uchun xavf tug‘dirayotgan shaxslarni ushlab turish huquqiga ega.

Jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxslarni ularning shaxsi hamda huquqbazarlikning holatlari aniqlanguniga qadar, shuningdek, ular tegishli davlat organlariga yoki mansabdon shaxslarga topshirilguniga qadar ushlab turiladi.

Ushlab turilgan shaxsga telefon orqali so‘zlashish yoki advokatiga yoxud yaqin qarindoshiga o‘zining ushlab turilganligi va turgan joyi haqida xabar berish, ushlab turilgan paytidan e’tiboran himoyachiga (advokatga) ega bo‘lish huquqi, shuningdek, qonunga muvofiq boshqa huquqlar beriladi.

Ushlab turilgan shaxslar, ularning yonidagi ashyolar va hujjatlar, shuningdek, ularning transport vositalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘rikdan o‘tkazilishi mumkin.

Ichki ishlar organlari voyaga yetmagan shaxs ushlab turilgan har bir holat to‘g‘risida uning yaqin qarindoshlariga yoki boshqa qonuniy vakillariga darhol xabar beradi Ichki ishlar organlari harbiy xizmatchi ushlab turilganligi to‘g‘risida u harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy qism qo‘mondonligiga xabar beradi.

Ichki ishlar organlari chet el fuqarosi ushlab turilganligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga xabar beradi. Amalga oshiradigan ishlar ko‘lami va ahamiyati hamda fuqarolarga ko‘rsatiladigan tartib-taomillar bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlari doirasi bo‘yicha Ichki ishlar organlari fuqarolar va yuridik shaxslar bilan uzviy bog‘liqlikda ishlaydigan davlat boshqaruvi organlaridan biridir.

### **Yodda tuting!**

Ma'muriy-siyosiy soha milliy xavfsizligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan davlat funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organlari majmuasiga aytildi.

### **Yodda tuting!**

Ma'muriy-siyosiy sohani ma'muriy-huquqiy tartibga solish deb ma'muriy-siyosiy sohadagi vakolatli davlat organlarining milliy xavfsizlikni, fuqarolarning sub'ektiv ommaviy huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan qonuniy faoliyati tushuniladi.

### **Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol:**

Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish Agentligida bo'lim boshlig'i lavozimida faoliyat yurituvchi fuqaro A. (davlat xizmatchisi) muhim topshiriq bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining choraklik majlisiga shoshilib o'z shaxsiy avtomashinasida ketayotganida atrofdagilarga zarar yetmaydigan darajadagi yo'l qoidasini buzdi. Natijada uni YPX xodimi to'xtatdi va ma'muriy bayonnomma rasmiylashtirishini ta'kidladi. A. ismli davlat xizmatchisi o'z xizmat guvohnomasini ko'rsatdi va shoshilinch topshiriq bilan ketayotganligini YPX xodimiga ma'lum qildi. YPX xodimi uning vaziyatini tushunib, yo'lida davom etishi mumkinligini ma'lum qildi. Ushbu vaziyatga guvoh bo'lgan B. ismli boshqa bir haydovchi YPX xodimining adolatsizlik qilganligini ta'kidlab, ushbu vaziyatni shaxsiy uyali aloqasi kamerasiga olganligini ma'lum qildi.

*Vaziyatga huquqiy baho bering.*

*Davlat xizmatchilarining birodarligi masalasiga izoh bering.*

*Ushbu vaziyatda huquq nuqtayi nazaridan qanday holat davom etishi lozim edi?*

*Fuqaroning o'z xizmat vazifasini amalga oshirayotgan YPX xodimini videoyozuvga olishi qonuniymi?*

## **6.2. Adliya va tashqi siyosiy faoliyat sohasini ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi boshqaruv organlari**

Har qanday davlatda Adliya organlarining o'rni nihoyatda katta. Aksariyat rivojlangan davlatlarda ular prokuratura

organlari hamda ozodlikdan mahrum qilinganlarni saqlash muassasalariga ham tuzilmaviy boshchilikni amalga oshiradi. Adliya organlarining klassik funksiyalaridan biri bu ommaviy boshqaruvin organlari doirasida norma ijodkorligini huquqiy va metodik yo'naltirib turuvchi, ularning qonunlarga to'g'ri kelishini monitoring qiluvchi davlat boshqaruvi organidir. Adliya organlari jamiyatda huquqiy savodxonlikni oshirishga, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan davlatning huquqiy siyosatini amalga oshirishga mas'ul bo'lgan davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Boshqacha qilib ta'kidlaganda, Adliya organlari bu – mamlakatning yuristidir. Agar iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi davlat boshqaruvi organlari fuqarolarning moddiy, ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta'minlashga mas'ul bo'lsa, ma'muriy-siyosiy sohadagi organlar, jumladan, Adliya organlari moddiy, ijtimoiy va iqtisodiy farovonlikning huquqiy asoslarini ta'minlovchi, xususiy shaxslarning bузilgan huquqlarini himoya qiluvchi organdir.

### **Adliya vazirligi o'z faoliyatida quyidagi qonunlarning bevosita ijrochisi hisoblanadi:**

- O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi O'RQ-445-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi O'RQ-457-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'RQ-419-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-dekabrdagi «Notariat to'g'risida»gi 343-I-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 11-oktabrdagi «Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida»gi O'RQ-60-sonli Qonuni va boshqalar.

Vazirlik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, faoliyatining ayrim masalalari bo'yicha esa bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadi. **Quyidagilar vazirlilikning asosiy vazifalari hisoblanadi:**

- yagona davlat huquqiy siyosatini yuritish, huquq ijodkorligi faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini oshirish;

### **Yodda tuting!**

Ma'muriy-siyosiy soha milliy xavfsizligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan davlat funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organlari majmuasiga aytildi.

### **Yodda tuting!**

Ma'muriy-siyosiy sohani ma'muriy-huquqiy tartibga solish deb ma'muriy-siyosiy sohadagi vakolatli davlat organlarining milliy xavfsizlikni, fuqarolarning sub'ektiv ommaviy huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan qonuniy faoliyati tushuniladi.

### **Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol:**

Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish Agentligida bo'lim boshlig'i lavozimida faoliyat yurituvchi fuqaro A. (davlat xizmatchisi) muhim topshiriq bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining choraklik majlisiga shoshilib o'z shaxsiy avtomashinasida ketayotganida atrofdagilarga zarar yetmaydigan darajadagi yo'l qoidasini buzdi. Natijada uni YPX xodimi to'xtatdi va ma'muriy bayonnomma rasmiylashtirishini ta'kidladi. A. ismli davlat xizmatchisi o'z xizmat guvohnomasini ko'rsatdi va shoshilinch topshiriq bilan ketayotganligini YPX xodimiga ma'lum qildi. YPX xodimi uning vaziyatini tushunib, yo'lida davom etishi mumkinligini ma'lum qildi. Ushbu vaziyatga guvoh bo'lgan B. ismli boshqa bir haydovchi YPX xodimining adolatsizlik qilganligini ta'kidlab, ushbu vaziyatni shaxsiy uyalı aloqasi kamerasiga olganligini ma'lum qildi.

*Vaziyatga huquqiy baho bering.*

*Davlat xizmatchilarining birodarligi masalasiga izoh bering.*

*Ushbu vaziyatda huquq nuqtayi nazaridan qanday holat davom etishi lozim edi?*

*Fuqaroning o'z xizmat vazifasini amalga oshirayotgan YPX xodimini videoyozuvgaga olishi qonuniymi?*

## **6.2. Adliya va tashqi siyosiy faoliyat sohasini ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi boshqaruv organlari**

Har qanday davlatda Adliya organlarining o'rni nihoyatda katta. Aksariyat rivojlangan davlatlarda ular prokuratura

organlari hamda ozodlikdan mahrum qilinganlarni saqlash muassasalariga ham tuzilmaviy boshchilikni amalga oshiradi. Adliya organlarining klassik funksiyalaridan biri bu ommaviy boshqaruvi organlari doirasida norma ijodkorligini huquqiy va metodik yo'naltirib turuvchi, ularning qonunlarga to'g'ri kelishini monitoring qiluvchi davlat boshqaruvi organidir. Adliya organlari jamiyatda huquqiy savodxonlikni oshirishga, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan davlatning huquqiy siyosatini amalga oshirishga mas'ul bo'lgan davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Boshqacha qilib ta'kidlaganda, Adliya organlari bu – mamlakatning yuristidir. Agar iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi davlat boshqaruvi organlari fuqarolarning moddiy, ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta'minlashga mas'ul bo'lsa, ma'muriy-siyosiy sohadagi organlar, jumladan, Adliya organlari moddiy, ijtimoiy va iqtisodiy farovonlikning huquqiy asoslarini ta'minlovchi, xususiy shaxslarning buzilgan huquqlarini himoya qiluvchi organdir.

### **Adliya vazirligi o'z faoliyatida quyidagi qonunlarning bevosita ijrochisi hisoblanadi:**

- O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi O'RQ-445-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi O'RQ-457-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'RQ-419-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-dekabrdagi «Notariat to'g'risida»gi 343-I-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 11-oktabrdagi «Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida»gi O'RQ-60-sonli Qonuni va boshqalar.

### **Vazirlik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, faoliyatining ayrim masalalari bo'yicha esa bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadi. Quyidagilar vazirlilikning asosiy vazifalari hisoblanadi:**

- yagona davlat huquqiy siyosatini yuritish, huquq ijodkorligi faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini oshirish;

- davlat boshqaruvi tizimi samaradorligini ushbu sohada tegishli islohotlarni amalga oshirish bo'yicha asoslangan takliflarni ishlab chiqqan holda kompleks va tanqidiy tahlil qilish;
- qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosi bo'yicha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy rahbarlikni amalga oshirish;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida huquqni qo'llash amaliyotini izchil va bir xilda ta'minlash bo'yicha choralarни amalga oshirish;
- nodavlat-notijorat tashkilotlarining faoliyatini rivojlantirish sohasida davlat siyosatini yuritish, ularning davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat tashkilotlari (keyingi o'rnlarda davlat organlari va tashkilotlari deb yuritiladi) bilan o'zaro hamkorligini tashkil qilishga ko'maklashish;
- ma'muriy tartib-taomillar va davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va uslubiy ta'minlash;
- huquqiy targ'ibotni amalga oshirish, aholiga qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mohiyatini va ahamiyatini yetkazish, aholining huquqiy savodsizligini tugatish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining huquqiy targ'ibot sohasidagi ishlarini muvofiqlashtirish;
- huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash;
- notariat, advokatura hamda jismoniy va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa tuzilmalar tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;
- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini huquqiy himoya qilish bo'yicha choralarни amalga oshirish;
- xalqaro-huquqiy hamkorlikni yo'lga qo'yish va mustahkamlash, xalqaro shartnomalarni huquqiy ekspertizadan o'tkazish;
- xalqaro va xorijiy tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi manfaatlarining huquqiy himoyasini ta'minlash, xalqaro hamjamiyat, xorijiy investorlarni milliy huquq tizimi va o'tkazilayotgan huquqiy islohotlar haqida o'z vaqtida xabardor qilish;
- yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish, yurisprudensiya sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishni ta'minlash;

– sud ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish, sud ekspertlarini tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini muvofiqlashtirish;

– adliya organlari va muassasalari faoliyatida, birinchi navbatda aholiga huquqiy xizmat ko'rsatish va davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ishlashning innovatsion uslublarini joriy qilish.

### **Vazirlilik o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga egadir:**

1) o'z vakolati doirasida davlat organlari va tashkilotlari, jismoniy va yuridik shaxslar uchun majburiy bo'lgan, shu jumladan, boshqa davlat organlari bilan birgalikda normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish;

2) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi va boshqa davlat organlari ko'rib chiqishi uchun qonun hujjatlarni va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish masalalari bo'yicha takliflar kiritish;

3) davlat organlari va tashkilotlarida:

– norma ijodkorligi faoliyati, huquqiy ishlar, yuridik xizmatlar faoliyati, normativ-huquqiy hujjatlarni e'lon qilish va manfaatdor shaxslar e'tiboriga yetkazish holatini;

– huquqni qo'llash amaliyoti, fuqarolar huquqlarini ta'minlash bo'yicha qonun hujjatlari ijrosi, davlat xizmatlarini ko'rsatishning belgilangan tartibiga rioya etish holatini, shu jumladan, joylarga chiqqan holda tekshirish;

4) nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan qonun hujjatlari va ta'sis hujjatlariga rioya qilinishi, shuningdek, ularga ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanishini tekshirish;

5) vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlarga bajarilishi majburiy bo'lgan:

– davlat ro'yxatidan o'tmagan normativ-huquqiy tusga ega bo'lgan hujjatlarni bekor qilish va ijrodan chaqirib olish to'g'risida;

– qonun hujjatlariga muvofiq bo'lмаган normativ-huquqiy hujjatlarni bekor qilish, to'xtatib turish (to'liq yoki qisman) yoxud ularni qonun hujjatlariga muvofiqlashtirish to'g'risida;

– ishlab chiqish muddatini ko'rsatgan holda normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, ular tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga rasmiy sharh berish zarurligi to'g'risida;

– huquqni qo'llash amaliyoti, fuqarolarning huquqlariga rioya qilish bo'yicha qonun hujjatlarini bajarish holatini tekshirish davomida aniqlangan huquqbazarliklarga yo'l qo'ymaslik, ularning sodir etilishiga ko'maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida;

– davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati faoliyati, ma'muriy tartib-taomillar va davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida aniqlangan huquqbazarliklarga yo'l qo'ymaslik, ularning sodir etilishiga ko'maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida taqdimnomalarni kiritish;

6) nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatida aniqlangan qonun hujjatlari va ta'sis hujjatlari buzilishlarini bartaraf etish to'g'risida nodavlat notijorat, shu jumladan, diniy tashkilotlariga, advokatlik tuzilmalariga bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish;

7) qonun hujjatlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik haqida mansabdon shaxslarini yozma ravishda ogohlantirish;

8) fuqarolarning qonuniy huquq va erkinliklari, yuridik xizmatlarning faoliyati sohasidagi qonun hujjatlari buzilishi holatlari aniqlanganda hamda adiliya organlarining qonuniy talablari bajarilmaganda, aybdor mansabdon shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risida tegishli davlat organlariga takliflar kiritish;

9) davlat, yuridik va jismoniy shaxslar manfaatlarini ko'zlab sudsida davlat boji to'lamasdan arizalar va da'volarni kiritish;

10) normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida zarur statistik ma'lumotlarni, tahliliy materiallarni, hujjatlarni, boshqa axborotlarni, qarorlar va boshqa hujjatlarni, ma'lumotlarni davlat organlari va tashkilotlaridan bepul tarzda so'rash va olish;

11) nodavlat notijorat, shu jumladan diniy tashkilotlardan axborot, hujjatlar va ma'lumotlar, shuningdek, ularning rahbarlari va mas'ul shaxslaridan tushuntirishlarni talab qilish va olish;

12) tekshirish o'tkazish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'rganish, shuningdek, vazirlik vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha axborot-tahliliy materiallarni tayyorlash uchun vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, ilmiy va ta'lim muassasalari va boshqa tashkilotlar vakillarini chaqirish va jalgab etish;

13) tekshirish va tahlil davomida aniqlangan holatlarga aniqlik kiritish maqsadida davlat organlari va boshqa tashkilotlarning mansabdon shaxslari hamda xodimlarini chaqirish, qonun

hujjatlarining buzilishi holatlari yuzasidan og‘zaki va yozma tushuntirishlar talab qilish;

14) davlatga tegishli vazirlikning va unga idoraviy mansub tuzilmalarning mol-mulkini o‘zining tashkiliy tuzilmasi doirasida bepul foydalanish huquqi bilan bir tarkibiy tuzilmadan boshqa tuzilmaga belgilangan tartibda o‘tkazish;

15) vazirlik va unga idoraviy mansub tashkilotlar xodimlari tomonidan o‘z sohasida ular faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha parametrlar bajarilishini hisobga olgan holda ularni moddiy rag‘batlantirish tartibi, miqdorlari va shartlarini belgilash;

16) budgetdan tashqari mablag‘larni hamda adliya organlari va muassasalarining depozit hisob raqamlarida joylashgan mablag‘larni O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining depozit raqamlarida milliy va xorijiy valyutada joylashtirish. Bunda mablag‘larni joylashtirishdan olingan daromad adliya organlari va muassasalarining budgetdan tashqari hisob raqamalariga ushbu daromadlar moddiy-texnik bazani ijtimoiy rivojlantirishga va xodimlarini moddiy rag‘batlantirish hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlarga yo‘naltirgan holda o‘tkaziladi;

17) vazirlik vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha idoralararo tusdagisi xalqaro shartnomalarni belgilangan tartibda tuzish;

18) vazirlik vakolatiga tegishli bo‘lgan masalalar bo‘yicha xalqaro darajada O‘zbekiston Respublikasi manfaatlarini belgilangan tartibda ifodalash;

19) qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlariga zid bo‘lgan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni belgilangan tartibda davlat reestridan chiqarish;

20) jismoniy va yuridik shaxslarning o‘z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to‘g‘risida murojaatlarni ko‘rib chiqish;

21) vazirlik vakolatiga kiruvchi masalalarni ko‘rib chiqishda davlat organlari va tashkilotlarining hay‘at majlislarida ishtirok etish;

22) xorijiy davlatlarning sudlari va xalqaro arbitrajlarda O‘zbekiston Respublikasining huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor huquqiy nizolar bo‘yicha da‘vogar va javobgarning vakili sifatida ishtirok etish;

- 23) advokatlar malaka komissiyalariga advokatlarni intizomiy javobgarlikka tortish masalasini kiritish;
- 24) advokatlarga berilgan litsenziyalarning amal qilishini to'xtatib turish va tugatish;
- 25) yuridik xizmat xodimining attestatsiyadan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatish;
- 26) nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarda (konferensiyalar, seminarlar, treninglar, yig'ilishlar, aksiyalar va shu kabilarda) ishtirok etish;
- 27) nodavlat notijorat, shu jumladan, diniy tashkilotlar tomonidan rejalashtirilgan tadbirlarning o'tkazilishini taqiqlash yuzasidan qaror qabul qilish;
- 28) siyosiy partiyalarning ustavlarida nazarda tutilgan faoliyatini davlat tomonidan moliyalashtirishni to'xtatib turish yoki tugatish to'g'risida qaror qabul qilish;
- 29) nodavlat notijorat tashkilotlarning chet el fuqarolari bo'lgan xodimlarini, shuningdek, ularning qaramog'idagi oila a'zolarini, ular tomonidan O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bузilgan hollarda akkreditatsiyadan mahrum qilish;
- 30) o'z vakolatlari doirasida xorijiy davlatlar organlari va xalqaro tashkilotlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatish;
- 31) adliya organlari va muassasalari faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tegishli tuzilmalar tashkil etish, ularni qayta tashkil etish va tugatish, shuningdek, ularning ustavlari (nizomlari) ni tasdiqlash;
- 32) davlat siri va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirga rioya qilish sharti bilan tekshirishni o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va materiallar bilan tanishish, davlat organlarining elektron bazalaridan (banklaridan) foydalanish uchun xizmat guvohnomasini ko'rsatgan holda davlat organlari va boshqa tashkilotlarning hududlariga va binolariga kirish;
- 33) o'z vakolati doirasida ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradigan holatlar yuzasidan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risida bayonnomalar tuzish.

Vazirlik qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Vazirlikka O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining tavsiyasiga va Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan ko'rib chiqib

ma'qullanganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan vazir boshchilik qiladi. Vazir o'zining maqomiga ko'ra Vazirlar Mahkamasi a'zosi hisoblanadi. Vazirning o'rinnbosarlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi. Vazir bo'limgan vaqtida uning vakolatlari vazirning birinchi o'rinnbosari tomonidan, u bo'limgan vaqtida esa vazir buyrug'iga asosan boshqa o'rinnbosar tomonidan amalga oshiriladi. Vazirlikning hududiy tuzilmalar va idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlari vazir tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi, qonun hujjatlari bilan belgilangan holatlar bundan mustasno. Agar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasi qarorlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, Vazirlikning hududiy tuzilmalari va idoraviy mansub tashkilotlari to'g'risidagi nizom vazir tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlikda rahbar (hay'at raisi), uning o'rinnbosarlari (lavozimi bo'yicha), shuningdek, uning faoliyatining asosiy yo'naliishlarini muvofiqlashtiruvchi tarkibiy tuzilmalar rahbarlaridan iborat tarkibda hay'at tuziladi. Hay'at tarkibining soni va shaxsiy tarkibi vazirning taqdimnormasiga binoan Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

### **Hay'atga quyidagi vazifalar yuklanadi:**

- Adliya vazirligi to'g'risidagi Nizomda belgilangan asosiy yo'naliishlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlarida belgilangan vazifalar o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash uchun vazirlik tizimi xodimlari va rahbarlarining shaxsiy javobgarligini oshirish bo'yicha choralarini ko'rgan holda tarkibiy va hududiy tuzilmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlari hisobotlarini muntazam ravishda eshitilishini tashkil etish;
- vazirlik faoliyati sohasidagi hududiy va tarmoq dasturlari amalga oshirilishining natijadorligini har chorakda va muntazam ko'rib chiqish;
- joylarda vazirlik faoliyati sohasidagi dolzarb masalalar muhokama qilinishini ta'minlagan holda hay'atning kengaytirilgan sayyor majlislari o'tkazilishini tashkil etish, shuningdek, yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha tegishli qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish;

- vazirlilik markaziy apparati va uning tizimiga kira digan lavozimlar nomenklaturasini ko'rib chiqish va tasdiqlash;
- vazirlilik nomenklaturasiga kira digan lavozimlarga kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish masalalarini ko'rib chiqish;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkama-sining qarorlari va topshiriqlari bilan belgilangan vazifalar o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash uchun vazirlik rahbarlari va xodimlarining ijro intizomini mustahkamlash va shaxsiy javobgarligini oshirish. Hay'at vazirlik vakolatiga kiritilgan boshqa masalalarni ham ko'rib chiqishga haqlidir. Hay'at majlisiga davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, boshqa tashkilotlar rahbarlari, ularning vakolatiga kira digan masalalar yuzasidan taklif etilishi mumkin. Hay'at, agar uning majlisida hay'at tarkibining yarmidan ko'pi qatnashsa, vakolatli hisoblanadi. Ko'rib chiqilayotgan masalalar yuzasidan qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Hay'at qarorlari vazirning buyruqlari bilan amalga oshiriladi. Vazir va hay'at a'zolari o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, vazir yuzaga kelgan kelishmovchiliklar haqida Vazirlar Mahkamasiga va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga axborot bergen holda mustaqil ravishda qaror qabul qiladi. Hay'at a'zolari ham Vazirlar Mahkamasiga va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga o'z fikrini xabar qilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xalqaro shartnomasi loyihasini yoki O'zbekiston Respublikasi ishtirokchisi bo'lishni maqsad qilgan ko'p tomonlama xalqaro shartnomasi matnini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiqligi borasida huquqiy ekspertizadan o'tkazadi. Xalqaro shartnomalarga doir masalalarda haqli ravishda O'zbekiston Respublikasining ham tegishli vakolatlari mayjudligin ta'kidlab o'tish joiz.

### **Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlari vazirligining asosiy vazifalari:**

- O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi, suvereniteti, xavf-sizligi, hududiy yaxlitligi va chegaralari daxlsizligini, shuningdek, boshqa milliy manfaatlarini himoya qilishni siyosiy-diplomatik va xalqaro-huquqiy vositalar orqali ta'minlash;
- O'zbekiston Respublikasining yagona tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy siyosati amalga oshirilishini ta'minlash, xalqaro hamkorlikning milliy manfaatlarga daxldor masalalari bo'yicha

tegishli vazirlik va idoralarning, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyatini, shu jumladan, o'zining hududiy bo'linmalari orqali muvofiqlashtirish;

– O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va ilgari surish, savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, chet el investitsiyalari va ilg'or texnologiyalarni jalb qilish, milliy tovarlar va xizmatlarni jahon bozorlarida targ'ib etish hamda mamlakatga sayyoohlар oqimining ko'payishi uchun qulay tashqi siyosiy sharoitlar yaratish;

– tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda xorijiy sheriklarning savdo-iqtisodiy, moliyaviy-investitsiyaviy va ilmiy-texnika-viy salohiyatini, ular bilan o'zaro hamkorlikning darajasi va ko'lami, ularning xalqaro munosabatlar tizimidagi roli va o'rnidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini inobatga olgan holda tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish;

– O'zbekistonning siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiyaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi xalqaro tashabbuslarini, shuningdek, mintaqaviy va global taraqqiyotning muhim masalalari bo'yicha mamlakatning nuqtayi nazari va yondashuvlarini ilgari surish;

– xalqaro munosabatlarning rivojlanish tendensiyalarini tizimli tahlil qilish, yuzaga kelayotgan jahon siyosiy-iqtisodiy jarayonlar dinamikasidan va xavfsizlik sohasidagi vaziyatdan kelib chiqadigan O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy manfaatlariga potensial xavflarni prognoz qilish va aniqlash, shuningdek, ularni o'z vaqtida bartaraf etishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

– O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatning ishonchli va mas'uliyatli sherik sifatidagi ijobiy imidjini shakllantirish va saqlash;

– O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining assosiy yo'nalishlari to'g'risida xolis axborotni har tomonlama yetkazish bo'yicha xorijiy mamlakatlarda faol axborot-targ'ibot ishlarini olib borish;

– xorijda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslarining huquq va qonuniy manfaatlarini diplomatik va xalqaro-huquqiy vositalar orqali himoya qilish;

- xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan samarali aloqalar va muloqtlarni yo‘lga qo‘yish hamda qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, chet davlatlardagi o‘zbek diasporasi vakillari bilan o‘zaro hamkorlik qilish;
- diplomatik kadrlarni kasbiy tayyorlashni, shuningdek, vazirlik tizimi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil qilish.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun Tashqi ishlar vazirligi tuzilmasida tegishli boshqarma va bo‘limlar, chet davlatlarda elchixona, konsulxonalar faoliyat yuritadi. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi, suvereniteti, xavfsizligi, hududiy yaxlitligi va chegaralari daxlsizligini, shuningdek, boshqa milliy manfaatlarini himoya qilishni siyosiy-diplomatik va xalqaro-huquqiy vositalar orqali ta’minalash deb normlangan asosiy vazifalardan birini bevosita amalga oshirish bilan vazirlikning deyarli har bir boshqarma va bo‘limlari shug‘ullansa, xorijda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslarining huquq va qonuniy manfaatlarini diplomatik va xalqaro-huquqiy vositalar orqali himoya qilish vazifasini asosan Konsullik huquqiy departamenti amalga oshiradi. Sharhnomalar huquq departamentining asosiy vazifasi esa, tashqi siyosiy faoliyat bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va tegishli instansiyalarga taqdim etish, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlari uchun bajarilishi majburiy bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi.

Muxtasar qilib ta’kidlaganda, mazkur paragrafda tahlil qilingan davlat boshqaruvi organlari ham O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining subyektiv ommaviy huquqlarini ro‘yobga chiqarish faoliyatini yuritadi.

#### **Paragraf mazmunini o‘zlashtirish uchun kichik kazusli misol:**

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Tojikiston Respublikasi Madaniyat vazirligi bilan ikki davlat rahbarlarining uchrashuvlari chog‘ida idoralararo sharhnomalar tuzishga kelishilgan edi. Tojikiston tomoni sharhnomalar matnnini tayyorlab, O‘zbekistondagi elchixonasi orqali Madaniyat vazirligiga taqdim qildi.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi shartnoma matniga O'zbekiston tomonini qiziqtiradigan fikr va mulohalarini qo'shimcha qildi va huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga rasmiy xat bilan yo'lladi. Oradan 1 oy o'tib Adliya vazirligi o'zining ijobiy xulosasini taqdim etdi. Ammo keyingi kuni O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligidan Madaniyat vazirligiga jiddiy e'tirozlar ko'rsatilgan xat keldi. Unda yozilishicha, Madaniyat vazirligi «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi Qonunining qator moddalarini buzganligi va idoralararo shartnomalar shartli ravishda Tashqi ishlar vazirligidan huquqiy ekspertizalan o'tishi hamda boshqa barcha bu bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy jarayonlar Tashqi ishlar vazirligining shofeligi ostida o'tishi lozimligini ta'kidlagan.

*Vaziyatga huquqiy baho bering.*

*Idoralararo shartnoma tushunchasiga ta'rif bering.*

*«O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi Qonun mazmunini tushuntiring.*

### **6.3. Huquqni muhofaza qilish sohasini ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi boshqaruв organlari**

Huquqni muhofaza qilish va, umuman, mudofaa va xavfsizlik sohalari, mamlakat fuqarolarining tinchligi, osoyishtaligi va xavfsizligi bilan bog'liq bo'lgan O'zbekistonning hayotiy muhim manfaatlarini ifodalovchi yo'nalish hisoblanib, mazkur sohada minglab davlat xizmatchilari faoliyat yuritmoqda. Ularning samarali faoliyatidan eng avvalo mamlakat fuqarolari hayoti va sog'lig'i, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati va mulki himoya qilinadi. Ushbu soha vakillari siz-u bizning huquqlarimiz va erkinliklarimizni hamda qonuniy manfaatlarimizni xotirjam ro'yobga chiqarishimizga sharoit yaratish uchun xizmat qiladi.

M.A. Mirenskiyning fikricha, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning asosiy vazifasi, davlatning huquqni muhofaza qilish funksiyasini amalga oshirishida ifodalanadi, shu taraqa ushbu organlarning faoliyati davlat boshqaruvingining boshqa organlardan farqlanadi. Olimning ta'kidlashicha, huquqni muhofaza qiluvchi organlar davlat boshqaruvingining boshqa organlari bilan turli masalalarda hamkorlik qiladi va ulardan mustaqil faoliyat olib

borishiga urg‘u beradi<sup>1</sup>. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, huquqni muhofaza qilish organlari tushunchasiga doktrinal yoki qonuniy ta’rif mavjud emas. Ushbu atama Sobiq Ittifoqdan qolgan atamalardan biri hisoblanadi.

Aksariyat adabiyotlarda huquqni muhofaza qiluvchi organlar qatoriga sud va advokatura organlari ham taalluqli ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Nazarimizda, sud organlari huquqni muhofaza qilishga yaqin funksiyani amalga oshirsa ham, aslida u ijro hokimiyatining organlaridan mutlaqo farq qiladi. Sud bu odillikni, ya’ni odil sudlovni ta’minlovchi mustaqil davlat hokimiyatining ajralmas bir qismidir. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar esa asosan, ijro hokimiyati tizimiga kiruvchi Hukumatga yoki Davlat rahbariga bevosita bo‘ysunuvchi organlardir. Ikkinchidan, ular huquqni muhofaza qilish borasida qonunlar va qonun osti hujjatlaridagi normalarga rioxaya qilgan holda ijro masalalarini amalga oshiradi. Sud hokimiyati yoki sudya esa huquqni emas, adolatni, odillikni muhofaza qiladi. Ya’ni, sudning u yoki bu qonun normasini<sup>2</sup> adolatlilik va gumanizm prinsiplari nuqtayi nazaridan kelib chiqib, sharhlar, talqin qilish imkoniyati mavjud. Agar sud hokimiyatini huquqni muhofaza qilish organlari qatoriga kiritadigan bo‘lsak, u huquq normasidagi qoidani muhofaza qilishiga va natijada «taroz pallasi» teng kelgan taqdirda, adolatni emas, aynan qonunda qayd etilgan normani bajarishga majbur holatga tushib qolishi va shu tariqa uning mustaqilligi prinsipiga ham putur yetishi mumkin.

Shunday qilib, **huquqni muhofaza qiluvchi organlar** deb, jamoat tartibini, fuqarolar tinchligi va osoyishtaligi hamda xavfsizligini ta’minlashga, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati va mol-mulkini muhofaza qilish maqsadida vertikal bo‘ysunuv asosida qat’iy tartib-intizomga asoslangan qonuniy faoliyat yurituvchi davlat boshqaruvi organlari tushuniladi.

Doktrinal nuqtayi nazardan bular jumlasiga, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar

<sup>1</sup> Миренский Б.А. Правоохранительные органы Республики Узбекистан. Учебник для юридических вузов. – Т.: «Адолат», 1998. – С. 9.

<sup>2</sup> E’tibor bering, qonun normasini, qonunosti normasini emas.

vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi kabi davlat boshqaruvi organlarini kiritish mumkin.

Ichki ishlar organlari to'g'risida oldingi paragrafimizda so'z yuritganligimiz uchun uning faoliyatiga qisqacha to'xtalamiz. Xususan, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri – O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tasdiqlanadi va lavozimidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ozod etiladi.

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining o'rinnbosarlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi. Ichki ishlar organlarining tayanch punktlari tumanlar va shaharlar ichki ishlar boshqarmalarining (bo'limlarining) ichki ishlar organlarining jamoatchilik bilan hamkorligini ta'minlash maqsadida tashkil etiladigan hamda qishloqlarda, ovullarda va mahallalarda jamoat tartibi saqlanishini, fuqarolar xavfsizligini, huquqbazarliklar profilaktikasini, jinoyatchilikka qarshi kurashishni bevosita ta'minlaydigan asosiy quyi bo'g'inidir. Ichki ishlar organlarining tayanch punktlari faoliyatni profilaktika katta inspektorlari va inspektorlaridan iborat tarkibda amalga oshiradi. Profilaktika inspektorlari xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashining qarori bilan lavozimga tasdiqlanadi. Profilaktika inspektorlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga belgilangan tartibda hisobotlar taqdim etadi. Ichki ishlar xodimlarining aholiga eng yaqin va jinoyatchilikka qarshi kurashish asosiy vazifalaridan biri bo'lgan davlat boshqaruvi organi bo'lganligi uchun uning huquqlari doirasi ancha keng. Xususan, profilaktik hujjatlarni tekshirishdan tortib, to maxsus vositalarni ishlatishga qadar yoki bino va inshootlarni o'rab olish kabi jamoat xavfsizligi bilan bog'liq bo'lgan huquqlarga ega.

2017-yil avgust oyida O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlari qatorida yangi davlat boshqaruvi organi – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tashkil etildi. Mazkur organning asosiy vazifasi jinoyatchilik profilaktikasi, jamoat xavfsizligini ta'minlash, qo'riqlash xizmati va aholining hayoti va sog'lig'iga qarshi qaratilishi mumkin bo'lgan tajovuzlardan himoya qilish hisoblanadi. Mazkur davlat boshqaruvi organining o'z

kadrlarini tayyorlash tizimi mavjud bo'lib, ushbu vazifani bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy-texnika instituti amalga oshirmoqda. Bugungi kunda Milliy gvardiya faoliyatining qonuniy asoslarini to'liq ta'minlash maqsadida qonun loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi ham ushbu yo'naliishga oid davlat boshqaruvi organlaridan biri hisoblanadi. Xususan, **Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

- o'z boshqaruvin organlari, kuchlari va qutqaruv vositalarini favqulodda vaziyatlarda tezkor harakat qilishga hamda ularni bartaraf etish ishlarini olib borishga doimiy shay holatda saqlab turish;

- favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha harakatlar rejalarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

- odamlarning hayotini asrab qolish va sog'lig'ini saqlash yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirish, shuningdek, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish;

- favqulodda vaziyatlar sharoitida yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini hamda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish ishlarini olib borish;

- aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi bilimlarni targ'ib qilish, aholini hamda korxonalar, muassasalar va tashkilotlar (bundan buyon matnda tashkilotlar deb yuritiladi) xodimlarini favqulodda vaziyatlar sharoitida harakat qilishga tayyorlashda ishtirok etish.

Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarining tarkibi, tuzilishi tegishlichcha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, davlat boshqaruvin organlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda tashkilotlar, shu jumladan, jamoat birlashmalari tomonidan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqqan holda belgilanadi. Vazirlik O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 4-martdag'i PF-1378-sonli Farmoni asosida aholini va xalq xo'jaligi obyektlarini tabiiy ofatlardan muhofaza qilishning samarali tizimini tashkil etish, respublikada

tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining Fuqaro mudofaasi va Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi negizida O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etilgan.

Navbatdagi huquqni muhofaza qiluvchi organ bu – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi bo'lib, ushbu organning maqomi davlat mexanizmida alohida ahamiyatga ega. Zero qonuniy nuqtayi nazardan ushbu organ ijro hokimiyati organlariga taalluqli emas. Ammo ayrim faoliyat yo'nalishlarining ijroga yaqin masalalar bilan bog'liq ekanligini kuzatish mumkin. Xususan:

- fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish;
- tezkor-qidiruv faoliyatni, tergovga qadar tekshiruvni, surish-tiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;
- jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borish;
- soliq intizomini mustahkamlashga, soliq, valyuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashga, shuningdek, davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;
- ushlab turilgancha, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;
- sud va boshqar organlar qarorlarining majburiy ijrosini ta'minlash kabi vakolatlarining mavjudligi ushbu organning ijroga yaqin funksiyalarni amalga oshirishini kuzatish mumkin.

Qolaversa, aksariyat rivojlangan davlatlarda prokuratura organlari bevosita Adliya organlari tarkibiga kiruvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Ushbu omillarni hisobga olib ushbu organni davlat boshqaruvi organlari qatorida o'rghanish maqsadga muvofiq. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod etiladigan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod

etiladigan birinchi o'rribosariga, o'rribosarlariga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorini lavozimiga tayinlash hamda lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan tasdiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida bosh boshqarmalar, boshqarmalar va bo'limlar tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati oldida hisobdordir.

### **O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga:**

- qonuniylik hamda jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to'g'risida – muntazam ravishda;
- o'ta og'ir jinoyatlar va favqulodda hodisalar to'g'risida – zudlik bilan;
- prokuratura organlari amalga oshirgan ishlar to'g'risida – har olti oyda axborot taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarini ijro etish maqsadida o'tkazilgan tekshiruvlar davomida davlat boshqaruvi organlari va hokimlarning qonun hujjatlari normalariga nomuvofiq bo'lgan hujjatlari aniqlangan taqdirda, Bosh prokuror bu hujjatlarni to'xtatib turish yoki bekor qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga takliflar kiritadi.

#### **Vodda tuting!**

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar deb, jamoat tartibini, fuqarolar tinchligi va osoyishtaligi hamda xavfsizligini ta'minlashga, shuningdek, ho'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati va mol-mulkini muhofaza qilish maqsadida vertikal bo'y sunuv asosida qatiy harbiy tartib-intizomga asoslangan qonuniy faoliyat yurituvchi davlat boshqaruvi organlari tushuniladi.

Davlat boshqaruvi organlari va hokimlarning hujjatlari fuqaro-larning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini jiddiy ravishda kamshitayotgan bo'lsa, Bosh prokuror bu hujjatlarni to'xtatib turish yoxud bekor qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga takliflar kiritishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash

lozimki, prokuratura organlari davlat boshqaruvi organi sifatida asosan boshqaruv va yustitsiyaviy xarakterda bo'lgan ishlarni amalga oshiradi.

### **Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol:**

Qamashi tuman IIB tergovchisi katta leytenant A. ishonchli manbalardan tumanning Sarbozor posyolkasidagi xonadonlardan birida qalbaki pul bosib chiqarish yo'lga qo'yilganligidan xabar topadi. Maxsus tadbir natijasida mazkur ma'lumot tasdiqlanib, jinoyatchilar qo'lga olinadi va A. ismli katta leytenant dastlabki tergov ishini qo'zg'atish haqida qaror qabul qiladi va bu qaror tuman IIB boshlig'i tomonidan ham tasdiqlanadi. Ammo oradan taxminan 24 soat o'tgach, tuman prokurori o'z e'tirozi bilan IIB boshlig'i va uning tergovchisi A.ga bu kabi ishlarda faqat prokuror qarori bilan tergov olib borilishi kerakligini hamda o'zboshimchalik qilgan IIB boshlig'i va tergovchisiga O'zbekiston Respublikasi IIVga taqdimnoma kiritib, hayfsan e'lon qildirishini ma'lum qiladi. Natijada IIB boshlig'i va tuman prokurori o'rtasida nizo kelib chiqadi. IIB boshlig'inining ta'kidlashicha, ushbu holatda prokuror aralashuvi shart bo'limgan ekan.

*Vaziyatga huquqiy baho bering.*

*Ushbu vaziyatda ma'muriy huquqiy muammo mavjudmi?*

*IIB boshlig'inining harakatlari huquqiy asosga egami?*

## **6.4. Mudofaa va xavfsizlik sohasini ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi boshqaruv organlari**

Qadimgi davrning yetuk allomalaridan biri, tarixchi olim Korneliy Nepota «Tinchlikni xohlasang, urushga tayyorlan» deb ta'kidlaganidek, har qanday davlat o'z xalqi, xalqaro hamjamiyatning teng huquqli subyektligini saqlab qolish hamda tinch va farovon rivojlanishini ta'minlash maqsadida o'z mudofaa va xavfsizlik tizimiga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida mudofaa va xavfsizlik tizimlarini boshqarish bilan asosan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati kabi davlat boshqaruvi organlari shug'ullanadi.

### **O'zbekiston Respublikasining Mudofaa sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:**

– boshqa davlatga qarshi harbiy kuch ishlataslik, tajovuzning oldini olish va uni daf etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi

tegishli shartnomalar bilan bog'langan davlatlarga yordam ko'rsatish hollari bundan mustasno;

- xalqaro huquq normalariga muvofiq ravishda kollektiv xavfsizlik tizimlarida ishtirok etish;
- harbiy-siyosiy bloklarda qatnashmaslik;
- harbiy qurilishning zamonaviy urushlar va qurolli mojarolarining xususiyatiga monand bo'lishi;
- yadroviy va boshqa turdag'i yalpi qirg'in qurollarini ishlab chiqarishni, qayta ishlashni, olishni, saqlashni, tarqatishni va joylashtirishni rad etish;
- Qurolli Kuchlarning, iqtisodiyotning, aholining, hududning tajovuzni daf etishga doim shay turishi;
- mudofaaning yetarli darajada bo'lishi;
- harbiy xizmat sharafli ekanligini ta'minlash.
- O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining qonunlariga, respublika Oliy Kengashining boshqa aktlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi mudofaa sohasidagi vakolatli davlat organi sifatida o'z faoliyatini qonuniylik prinsipi asosida amalga oshirishini ta'kidlash joiz. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligi «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, respublikaning davlat mustaqilligini va hududiy yaxlitligini, fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini himoya qilish maqsadida tuzilgan. Ushbu vazirlik tomonidan bevosa ijrosi amalga oshiriladigan bir qator qonunlar mavjud. Bularga:

- O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 11-maydagi «Mudofaa to'g'risida»gi 211-II-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi «Ummiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi 436-II-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasining mudofaa Doktrinasi to'g'risida»gi O'RQ-458-sonli Qonunlar taalluqlidir.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi o'z tasarrufidagi

qo'shinlarda boshqaruvni amalga oshiradi, mudofaa va harbiy qurilish sohasidagi davlat siyosati yuritilishini, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarining zamonaviy qurol-yarog'lar, harbiy texnika va moddiy-texnika vositalari bilan jihozlanishini, harbiy hamkorlik kengaytirilishini, chaqiruvning va Qurolli Kuchlar kadrлari tayyorlashning tashkil etilishini ta'minlaydi.

### **Mudofaa vazirligining vazifalari:**

- Milliy harbiy strategiya, Qurolli Kuchlar qurilishi va rivojlantirilishining konseptual asoslarini ishlab chiqish uchun mas'ul bo'ladi;
- Qo'shinlarning jangovar harakatlari strategik jihatdan va tezkor rejalashtirilishini hamda ularga rahbarlikni amalga oshiradi;
- Qo'shinlarning tezkor va jangovar tayyorgarligiga, ular tashkiliy-shtat tuzilishining qo'shinlarni qo'llash shakl va usullariga ko'nikma hosil qilishiga doir tadbir-choralar ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;
- O'z vakolatlari doirasida barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar tomonidan, Qurolli Kuchlarning shakl va turdagи qo'shinlarining, birlashmalari, qo'shilmalari va bo'linmalarining qo'mondonlari tomonidan ijro etilishi majburiy bo'lgan direktivalar va buyruqlar chiqaradi;
- Qurolli Kuchlarni, harbiy okruglarni, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning harbiy tuzilmalarini tezkor-strategik boshqarishning bosh organi vazifasini bajaradi.

Qurolli Kuchlar davlat harbiy tashkilotining va mamlakat mudofaa tizimining negizi bo'lib, harbiy mojarolarni jilovlash hamda ularning oldini olish, shuningdek, davlatning harbiy xavfsizligini ta'minlash uchun mo'ljallangandir. Qurolli Kuchlar tarkibiga O'zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlар, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Davlat xavfsizlik xizmatining, boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning tegishli boshqaruv organlari, qo'shinlari, harbiy tuzilmalarini va muassasalari, shuningdek, Milliy gvardiya kiradi.

Mudofaaga va Qurolli Kuchlarga rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy bosh qo'mondoni amalga oshiradi. Mudofaa vaziri urush davri sharoitida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy bosh qo'mondonining o'rinosi hisoblanadi. Harbiy okrug operatsion yo'naliishlarda O'zbekiston Respublikasining xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlovchi

asosiy harbiy-ma'muriy birlik hamda umumqo'shin tezkor-strategik hududiy birlashmasidir. Harbiy okruglar zimmalariga yuklangan vazifalarni bajaradilar hamda qonun hujjatlariga muvofiq qarorlar qabul qiladilar.

### **O'zbekiston Respublikasining harbiy ma'muriy-hudu-diy tuzilishi besh qismdan iborat bo'lib, bular:**

- Shimoliy-g'arbiy harbiy okrug – Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati;
- Janubiy-g'arbiy maxsus harbiy okrug – Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari;
- Markaziy harbiy okrug – Navoiy, Samarqand va Jizzax viloyatlari;
- Toshkent harbiy okrugi – Sirdaryo va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahri;
- Sharqiy harbiy okrug – Namangan, Farg'ona va Andijon viloyatlari.

Shuni alohida ta'kilash kerakki, shartnoma asosida harbiy xizmatga jalg qilinganlar harbiy sohadagi davlat xizmatini o'tayotgan shaxslar hisoblanadi va ularning maqomi muddatli harbiy xizmatdagi oddiy askarlardan tubdan farq qiladi. Tegishli mudofaa organi bilan shartnoma (odatda 5 yilga tuziladi) tuzayotgan shaxs davlat xizmatchisi hisoblanishining asosiy omillaridan biri shuki, shartnomaning ma'muriy-huquqiy shartnoma maqomiga egaligidadir. Ya'ni davlat mudofaa organlari timsolida unga (shartnoma tuzayotgan shaxsga) o'z vazifalarini hamda ma'lum vakolatlar va huquqlarni, shuningdek, majburiyatlarni topshiradi (delegirovanie).

O'zbekiston Respublikasining tashqi turli xil destruktiv kuchlar va ichki xavf-xatarlardan himoya qilish funksiyasini O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati amalga oshiradi. Garchand ushbu xizmat rasman uchala hokimiyat tizimiga kiritilmagan bo'lsa ham, uning faoliyat doirasi va amalga oshiradigan ishlari mohiyati jihatidan uni ijro hokimiyatiga xos bo'lgan davlat boshqaruvi organlari qatoriga kiritish maqsadga muvofiqdir. Ushbu organning huquqiy asoslari 2018-yil 5-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida»gi O'RQ-471-soni Qonuni bilan mustahkamlangan.

Davlat xavfsizlik xizmatining asosiy vazifalari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy

yaxlitligini hamda davlat milliy manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishdan, qonuniylikni mustahkamlash va qonun ustuvorligini ta'minlashdan, shuningdek, Davlat xavfsizlik xizmatining vakolatiga kiritilgan huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berishdan iborat. Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatining asosiy prinsiplari qonuniylik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularni hurmat qilish, fuqarolarning yordamiga tayanish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi ustuvorligi, yagonalik, mustaqillik, konspiratsiyadan iboratdir.

Davlat xavfsizlik xizmati tizimi Davlat xavfsizlik xizmatining markaziy devoni, Davlat xavfsizlik xizmatining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari, ularning tumanlar (shaharlar) bo'yicha bo'limlari (bo'linmalari), Davlat xavfsizlik xizmatining chegara qo'shinlari va Davlat xavfsizlik xizmatining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tashkil etiladigan boshqa organlardan iborat bo'ladi. Davlat xavfsizlik xizmatiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan rais boshchilik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan tasdiqlanadi. Davlat xavfsizlik xizmati raisining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan o'rribosarlari bo'ladi. Davlat xavfsizlik xizmati bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadi va unga hisobdordir. Davlat xavfsizlik xizmati O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasini o'z faoliyatining asosiy yo'nalishlari yuzasidan muntazam ravishda xabardor qiladi.

Davlat xavfsizlik xizmati davlat xavfsizligini ta'minlash maqsadida o'z faoliyatini maxsus vositalar, shakillar va uslublar bilan amalga oshiradigan maxsus vakolatli davlat organidir.

**Davlat xavfsizlik xizmati davlat xavfsizligini ta'minlash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi va o'z vakolatlari doirasida quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha faoliyat olib boradi:**

- O‘zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligini va davlat manfaatlarining tashqi hamda ichki tahdidlardan himoya qilinishini ta’minlash, mazkur sohada qonuniylik va qonun ustuvorligini mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berish;
  - O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligiga bo‘lgan tajovuzlarning oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga barham berish bo‘yicha razvedka va kontrrazvedka faoliyatini amalga oshirish;
  - O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo‘riqlash va himoya qilish;
  - O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari va mudofaa-sanoat majmuasini davlat xavfsizligiga bo‘ladigan xavf-xatarlar hamda tahdidlardan himoya qilish, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash bo‘yicha strategik tashabbuslarni amalga oshirishda ishtirok etish;
  - terrorizm, ekstremizm, uyushgan jinoyatchilikka, qurolyarog’, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish;
  - davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi milliy, etnik va diniy adovatni targ‘ib etishga qaratilgan buzg‘unchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash va unga barham berish;
  - iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy va axborot sohalarida davlat xavfsizligini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasi xalqining madaniy-tarixiy hamda boy ma’naviy merosini himoya qilish;
  - davlat organlari va boshqa tashkilotlarda davlat manfaatlariga hamda xavfsizligiga tahdid soluvchi korrupsiya holatlariga qarshi kurashish;
  - telekommunikatsiyalar va transport sohasida davlat xavfsizligini ta’minlash, favqulodda vaziyatlarga shart-sharoit yaratuvchi omillarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berish;
  - tergovi Davlat xavfsizlik xizmati vakolatiga kiritilgan jinoyat ishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergovni o’tkazish, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish;
  - davlat organlari va boshqa tashkilotlarda davlat sirlarining saqlanishini, maxsus aloqaning xavfsizligini ta’minlash hamda

axborotning kriptografik himoyasini tashkil etish ustidan nazorat qilish;

– davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi huquqbuza-liklarning sodir etilishiga imkon yaratuvchi sabablar hamda shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish;

– Davlat xavfsizlik xizmatining jangovarlik va safarbarlik shayligi holatini takomillashtirish hamda saqlab turish, favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda va harbiy holat joriy qilinganda kuch va vositalarni harakatlarga tayyorlash.

### **DXX o‘z faoliyatida quyidagi qonunlarning bevosita ijrochisi hisoblanadi:**

– O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagи «Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida»gi 848–XII-sonli Qonuni;

– O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustdagи «O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasi to‘g‘risida»gi 820–I-sonli Qonuni;

– O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12 dekabrdagi «Axbo-rot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida»gi 439–II-sonli Qonuni;

– O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 30-iyuldagи «Ekstre-mizmga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘RQ–489-sonli Qonuni;

– O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi;

– O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘ri-sidagi kodeksi.

Shunday qilib, davlat boshqaruving ma’muriy-siyosiy sohasidagi davlat boshqaruvi organlarining o‘rni va maqomi salmoqli hisoblanib, fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarining hamda qonuniy manfaatlarining erkin va bexavotir amalga oshirilishi uchun, jismoniy va yuridik shaxslarning mulki va faoliyati himoyasini ta’minlash uchun, shuningdek, davlat organlarida qonuniylilikni ta’minlash maqsadlarida ularga sharoit yaratishga xizmat qiladigan rasmiy organlarning qonuniy faoliyatidir.

Ushbu yo‘nalishdagi davlat boshqaruvi organlari tartib-taomillar bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalarni ham amalga oshiradi. Ushbu masalalar to‘g‘risida keyingi bobimizda atroflicha to‘xtalamiz.

## **Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol**

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan davlat mukofotlariga nomzodlarni taqdim etish to'g'risida barcha vazirlik va davlat idoralariga topshiriq kelib tushdi. Mudofaa vazirligi rahbariyati o'z tizimida mehnat qiluvchi ikki yuzdan ortiq nomzodlarning ro'yxatini tayyorlab, ushbu masalani vazirlikning kollegiyasida ko'rib chiqishga qaror qildi. Kollegiyada ko'rib chiqish davomida nomzodlardan biri – mudofaa sohasida 35 yillik mehnat stajiga ega bo'lgan Qashqadaryo viloyati Kitob tuman mudofaa bo'limida faoliyat olib boruvchi podpolkovnik A. edi.

Ammo kollegiya boshlanishidan bir hafta avval podpolkovnik A.ning o'g'li B. mast holda yo'l transport hodisasini sodir etib, mazkur masala yuzasidan sud jarayoni olib borilayotganligi tufayli kollegiya a'zolaridan biri A.ni davlat mukofoti ro'yxatidan chiqarib tashlashni taklif etdi. Natijada A. nomzodlar ro'yxatidan olib tashlandi. Nomzodlar ro'yxatida o'z familiyasi borligidan xabardor bo'lgan podpolkovnik A. kollegiya qaroridan norozi bo'ldi va vazir bilan uchrashdi. Ammo vazir qaror qabul qilinganligini va o'zgarmasligini ta'kidladi.

*Vaziyatga huquqiy baho bering.*

*Davlat mukofotlariga nomzodlarni taqdim etish tartibi va nomzodlarni aniqlab olish bilan qanday organ shug'ullanishiga oydinlik kiriting.*

*Ota harakatlari uchun farzandning yoki farzand harakatlari uchun otaning javob berishga mas'ulligining huquqiy asoslari mavjudmi?*

## **VI bobni o'zlashtirish bo'yicha KROSSVORD**

### **Bo'yiga:**

1. Ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash va ularni aniqlashni o'r ganuvchi fan.
2. Janubi-g'arbiy ... harbiy okrug – Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari.
3. Xorijiy davlatlarning sndlari va xalqaro arbitrajlarda O'zbekiston Respublikasining huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor huquqiy nizolar bo'yicha da'vogar va javobgarning vakili sifatida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan davlat boshqaruvi organi, vazirlilik.

4. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bevosita kimga bo'y sunadi?

**Eniga:**

5. Markaziy harbiy okrugga taalluqli bo'lgan viloyat.
  6. Ma'muriy-siyosiy sohani ma'muriy-huquqiy tartibga solish deb ma'muriy-siyosiy sohadagi vakolatli davlat organlarining jamiyat va davlat xavfsizligini, fuqarolarning ... ommaviy huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan qonuniy faoliyati tushuniladi.
  7. «Tinchlikni xohlasang, urushga tayyorlan» degan iboraning muallifi.
  8. Notarius faoliyat yuritish hududi.
  9. Bir davlat hukumati tomonidan boshqa davlat hukumatiga rasmiy diplomatik murojaat turi.
  10. Ma'muriy-siyosiy sohadagi davlat boshqaruvi organining qisqartma nomi.

## VII bob. MA'MURIY PROTSESS

### 7.1. Ma'muriy protsess tushunchasi, mohiyati va turlari

Ma'muriy protsess tushunchasi ancha keng tushuncha bo'lib, u butun ijro hokimiyati organlarida amalga oshiriladigan jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi. Ma'lumki, har qanday davlat boshqaruvi organining kundalik faoliyatida boshqaruvga oid ishlar, tartib-taomillar bilan bog'liq masalalar, shikoyatlarni o'rganish va deliktlar bilan bog'liq bo'lgan ishlarni ko'rib chiqishni amalga oshiradi.

Ma'muriy protsess tushunchasi o'z mazmuniga ko'ra, jinoyat protsessi, iqtisodiy protsess yoki fuqarolik protsessi tushunchalaridan tubdan farq qiladi. Oxirgi uchta protsess – bevosita sud jarayoni bilan bog'liq bo'lgan protsesslarni nazarda tutib, unda u yoki bu ishni hal qilish masalasi ko'rib chiqilsa va bu masalalarni faqat sud hokimiyati organlari amalga oshirsa, ma'muriy protsessda davlat boshqaruvi organlari qonun doirasida «qoida belgilovchi» maqomida ishtirok etadi. Shuningdek, ma'muriy protsessda har doim ham u yoki bu nizoni hal qilish bilan bog'liq bo'lgan masala ko'rila vermaydi. Ushbu tushunchalarning farqlari to'g'risida qo'shimcha ma'lumot olish uchun 6-jadvalga qarang.

*6-jadval*

Ma'muriy protsess	Xususiyatlari	Sud (jinoyat, fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy) protsessi
Ma'muriy (davlat boshqaruvi) organlar tomonidan amalga oshiriladi.	<b>Asosiy ishtirok etuvchi subyekt</b>	Sud organlari tomonidan amalga oshiriladi.
<ul style="list-style-type: none"><li>– boshqaruvga oid;</li><li>– tartib-taomillarga oid;</li><li>– mansabdor shaxslarning noqonuniy xattiharakatlariga oid;</li><li>– ma'muriy javobgarlikka oid.</li></ul>	<b>Ish mazmuni</b>	Jinoyat, huquqbuzarlik yoki fuqarolik da'vo masalalari (deliktlar).

mansabdor shaxslarning noqonuniy xattiharakatlari va ma'muriy javobgarlikka oid ishlar yuqori turuvchi ma'muriy organlar tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin.	<b>Qayta ko'rib chiqilishi</b>	Apellyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida
qonun normalarini ijro etish	<b>Maqsad</b>	Odil sudlovnita'minlash
normativ-huquqiy hujjat loyihasi yoki ma'muriy akt	<b>Qabul qilinadigan hujjat turi</b>	Sud hukmi, qarori va ajrimlar
mas'ul mansabdor shaxslar, mansabdor shaxs va manfaatdor shaxs (arizachi)	<b>Asosiy ishtirokchilar</b>	Da'vogar va javobgar, ayblanuvchi va jabrlanuvchi

Demak, **ma'muriy protsess** – bu boshqaruv, davlat xizmatini ko'rsatish, ommaviy-huquqiy nizo va qoida tariqasida huquqbuzarliklarga oid ishlarni hal qilishga qaratilgan ommaviy boshqaruv organlarining kundalik amalga oshiradigan qonuniy faoliyatiga aytildi.

Ma'muriy protsess bilan har qanday ommaviy boshqaruvi organi har kuni shug'ullanadigan va takrorlanish xususiyatiga ega bo'lgan qonuniy tartibga solingan jarayon tushuniladi. Ma'muriy huquqning umumiy nazariyasiga tayangan holda ma'muriy protsessni quyidagi to'rtta guruhga ajratish mumkin:

- boshqaruv bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsess;
- tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsess;
- yustitsiyaviy ma'muriy protsess;
- yurisdiktisiyaviy ma'muriy protsess.

Ma'muriy protsess tushunchasini bunday qismlarga ajratish uning mohiyatini tushunishga, ma'muriy organlar faoliyatiga huquqiy baho berishga imkon yaratadi. O'z davrida taniqli rus huquqshunos olimi V.D. Sorokin boshqaruv bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsess quyidagi belgilarini ta'kidlab o'tib, ma'muriy huquq sohasida katta iz qoldirgan edi:

- aniq boshqaruv-huquqiy tabiatiga ega;
- ijob hokimiyati faoliyatining yuridik shakli hisoblanadi;
- asosan ijob hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi;
- ma'muriy huquqning moddiy normalari amalga oshirilishini ta'minlaydi<sup>1</sup>.

Ta'kidlash joizki, boshqaruv bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsess har qanday ommaviy boshqaruv organining asosiy faoliyat turlaridan biridir. Bunda ommaviy boshqaruv organi «o'z-o'zini» tartibga keltiradi, boshqaruv jarayonini takomillashtirishga, jismoniy va yuridik shaxslarga yanada samarali va sifatli xizmat ko'rsatish uchun shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan bo'ladi. Boshqaruv bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsess tushunchasini aniqroq anglash uchun bir qator misollarni keltiramiz.

Misol uchun:

Ommaviy boshqaruv organining nomi	Ommaviy boshqaruv organining vakolatlari
<b>O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi</b>	<p>1) yer resurslaridan oqilona foydalanish, geodeziya va kartografiya sohasi faoliyati bo'yicha yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta'minlash;</p> <p>2) yer resurslaridan oqilona foydalanish, yerlarni saqlash va muhofaza qilish, tuproq unumtdorligini oshirish, geodeziya va kartografiya faoliyati samaradorligini kuchaytirish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;</p> <p>3) davlat yer kadastrini, davlat kartografiya-geodeziya kadastrini, binolar va inshootlar davlat kadastrini, hududlar davlat kadastrini, shuningdek, davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish;</p> <p>4) davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;</p>

<sup>1</sup> Сорокин В.Д. Проблемы административного процесса. – М.: Юрид. лит. 1968.

	<p>5) uchuvchisiz uchish qurilmalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi yerlarini, qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish va parvarishlashni monitoring qilish, geodeziya ma'lumotlari va kartografiya materiallaridan foydalangan holda sun'iy yo'ldosh navigatsiya tizimi ishlashini ta'minlash;</p> <p>6) aerokosmik suratga olish, topografiya-geodeziya, kartografiya, tuproqshunoslik, geobotanika ga oid va boshqa izlanishlar hamda tadqiqotlarni, yerlarni masofadan zondlash, geodinamik tadqiqotlar ma'lumotlari va materiallaridan foydalangan holda, kartografik monitoringni amalga oshirish;</p> <p>7) ko'chmas mulk obyektlarining elektron ma'lumotlar bazasini, ko'chmas mulk bahosini bozor qiymatida baholashga bosqichma-bosqich o'tish uchun davlat kadastrlari geoaxborot tizimlarini yaratish va doimiy ravishda yangilab borish;</p> <p>8) yer tuzish, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xalqaro grantlarni jalg etish;</p> <p>9) yer tuzish, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlari bo'yicha tizimli ravishda kadrlarni qayta tayyorlash, malakasining oshirilishini ta'minlash.</p>
<p><b>O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi</b></p>	<p>1) transportning barcha turlarini O'zbekiston Respublikasi yagona transport tarmog'iga integratsiyalashtirish va yangi samarali transport-logistika tizimlaridan foydalanish asosida birqalikda rivojlantirishga yo'naltirilgan yagona davlat transport siyosatini ishlab chiqish;</p> <p>2) transport va logistika xizmatlari bozorini rivojlantirishni rag'batlantirish, ularning barcha toifadagi iste'molchilar uchun ommabopligini ta'minlash, shuningdek, sohaga investitsiyalarini jalg etishga yo'naltirilgan transport sohasidagi yagona tarif siyosatini amalga oshirish;</p> <p>3) xalqaro transport koridorlarini rivojlantirish, logistika tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va chora-tadbirlarni amalga oshirish, mamlakat transport salohiyatidan samarali foydalanish, tadbirkorlik subyektlarining transport-logistika xizmatlaridan foydalanishdagi sarf-xarajatlarini kamaytirish;</p>

4) butun transport tizimini raqamlashtirish bo'yicha ilg'or axborot texnologiyalarini joriy etish, O'zbekiston Respublikasi transport tizimining bir-biriga bog'langan yagona tizimini istiqbolli rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

5) avtomobil yo'llari sohasida yagona texnika siyosatini amalga oshirish, foydalanuvchilar manfaatini hisobga olgan holda avtomobil yo'llari, aerodromlar va aeroportlar, vokzallar, temir yo'llar va transport infratuzilmasining boshqa obyektlarini moliyalashtirish, loyihalash, qurish, ta'mirlash va foydalanish masalalarining kompleks yechimini ta'minlash;

6) transport va yo'l xo'jaligi sohasidagi xalqaro va hududiy hamkorlikni rivojlantirish hisobidan jahon transport xizmatlari bozorida O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarini ta'minlash;

7) transport sohasidagi joriy va istiqbolli ehtiyojlarni inobatga olgan holda ta'lim, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg'or usullarini tizimli ravishda joriy etish.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan har ikkala davlat boshqaruvi organining vazifalari boshqaruvga oid hisoblanadi. E'tibor bersangiz, o'z sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish, tegishli dasturlarni tayyorlash, infratuzilma va logistikani yoki kadrlar malakasini oshirish kabi o'z tizimini, ya'ni «o'zini o'zi» takomillashtirishga qaratilgan masalalarni qamrab olgan. Shu sababli ham boshqaruv bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsess ularning kundalik faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Bugungi kunda ma'muriy protsessning ushbu qismi huquqiy asoslari, asosan, qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinib kelinmoqda. Mavjud qonunlar ham ommaviy boshqaruvning u yoki bu qismiga taalluqli bo'lib, ijro hokimiyati tizimidagi barcha ommaviy boshqaruv organlarini qamrab olmagan. Quyidagi qonunlar ommaviy boshqaruv organlarida boshqaruv bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsessning qonuniy asoslari sifatida taqdim etiladi:

- O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi O'RQ-407-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi «Ummiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi 436-II-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdag'i «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi 474-I-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktabrdagi «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi O'RQ-502-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 26-dekabrdagi «Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida»gi O'RQ-195-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi 913-XII-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdag'i «Prokuratura to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi 257-II-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 5-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida»gi O'RQ-471-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi to'g'risida»gi O'RQ-647-sonli Qonunlari mavjud;
- O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi.

Ma'muriy protsessning ushbu qismini nisbatan barcha ommaviy boshqaruvinin organlarini yaxlit qamrab olgan qonun bu O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 5-maydagi «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ochiqligi to'g'risida»gi O'RQ-369-sonli Qonunidir. Mazkur qonun nomlanishi shunday xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Yuqoridagi qonunlar ro'yxatidan ma'lumki, ushbu yo'nalishning huquqiy asoslari, asosan, maxsus, moddiy qonunlar bilan tartibga solingan. Mazkur tizimning yanada samarali ishlashi uchun va ushbu yo'nalishda qonunosti hujjatlarini qisqartirish uchun «Davlat xizmati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi

Qonunini qabul qilish lozim. Shunda turli xil sohalardagi davlat xizmatchilarining maqomi aniq belgilanar va faoliyati doirasini konkretlashar edi. Bu esa pirovardida ularning vakolatlari doirasini, ma'muriy protsessning keyingi bosqichi qanday natijalar olib kelishi mumkinligini baholash, samarali jamoatchilik nazoratini olib borish imkonini yaratadi.

Demak, **boshqaruv bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsess** – bu ommaviy boshqaruv organining o'z tizimini takomillashtirishga va ish samaradorligi hamda xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy jarayonlar yig'indisi tushuniladi.

Ma'muriy protsessning keyingi turi tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsess deb nomlanib, bunda ommaviy boshqaruv organlari bevosita jismoniy va yuridik shaxslarning sertifikat, litsenziya va ruxsatnomalar olish yoki ro'yxatga turish hamda boshqa davlat xizmatlaribidan bog'liq bo'lganishlarniamalgaoshirishigaaytiladi. Ushbu yo'nalishda qonuniylik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida 2018-yil 8-yanvarda O'zbekiston Respublikasining «Ma'muriy tartib- taomillar to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Undan tashqari ma'muriy protsessning ushbu turi moddiy qonunlariga quyidagilar taalluqlidir:

– O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyuldagagi «Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida»gi O'RQ-701-sonli Qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 28-dekabrdagi «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlash to'g'risida»gi 1006-XII-sonli Qonuni taalluqli.

Ma'muriy protsessning ushbu turining boshqaruv bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsessdan farqlanuvchi xususiyati shundaki, bunda ommaviy boshqaruv organlari bevosita aholi bilan, jismoniy va yuridik shaxslar bilan ishlaydi, ularga xizmat ko'rsatadi, ularning subyektiv ommaviy huquqlarining amalga oshirilishini ta'minlaydi. Avval tahlil qilgan ma'muriy protsess turida esa, asosan, davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimining o'z ichidagi jarayonni kuzatgan edik.

Tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsessni aniq misollarda tushunish uchun quyidagi jadvalni e'tiboringizga havola etamiz. Bunda tizimlilikni ta'minlash maqsadida yuqorida jadvalda aks etgan davlat boshqaruvi organlari misolida ko'rib chiqamiz.

Ommaviy boshqaruv organining nomi	Ommaviy boshqaruv organining vakolatlari
<b>O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo'mitasi</b>	1) geodeziya va kartografiya ishlarini ro'yxatga olishga ruxsatnoma; 2) geodeziya faoliyatini litsenziyalash; 3) kartografik faoliyatni litsenziyalash.
<b>O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi</b>	1) avtomobil transportida yo'lvochilarni va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish; 2) temir yo'l transporti faoliyatini litsenziyalash; 3) transport sohasi vakillarini attestatsiyadan o'tkazish; 4) transport sohasi vakillarini tayyorlash va qayta tayyorlash. 5) avtovokzal pasportni berish (avtostansiya).

Shunday qilib, yuqoridagi jadvalga e'tibor bergan bo'lsangiz, har ikkala davlat boshqaruvi organida tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsess aks ettirilgan. Avval ta'kidlaganimizdek, uning o'ziga xosligi shundaki, ushbu jarayonda davlat boshqaruvi organlari bilan xususiy shaxslar o'rtaida bevosita muloqot yuzaga keladi. Biri o'z qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun murojaat qiladi, ikkinchisi o'z vakolatlari doirasida unga xizmat ko'rsatadi. Shu tariqa xususiy shaxslar bilan ommaviy boshqaruv organlari o'rtaida ijtimoiy munosabat yuzaga keladi.

Demak, **tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsess** – bu ommaviy boshqaruv organining o'z qonuniy vakolatlari doirasida xususiy shaxslarga ularning subyektiv ommaviy huquqlari ta'minlanishida ko'rsatadigan xizmati tushuniladi.

Yustitsiyaviy ma'muriy protsess – ushbu katta bir jarayonning keyingi turi hisoblanib, bunda uning yuzaga kelishi tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsessning qonunlarda ko'rsatilganidek aniq bajarilganligi yoki bajarilmaganligiga bog'liq. Agar tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsessda ommaviy va xususiy huquq subyektlarining o'zaro

ijtimoiy munosabatga kirishishini inobatga olsak, ya'ni fuqaroning litsenziya, sertifikat yoki ruxsatnama olish uchun davlat boshqaruvi organiga qilgan murojaati natijasida davlat boshqaruvi organi tomonidan uning murojaati ko'rib chiqilmasdan, asossiz rad etilib yoki qonunlarda ko'rsatilganidan ortiq byurokratiya talab qilinib, jismoniy shaxsning qonuniy manfaatlariga zarar yetkaziladigan bo'lsa, u holda murojaat etgan shaxsda o'z qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun yuqori turuvchi mansabdar shaxsga yoki davlat boshqaruvi organiga shikoyat qilish huquqi mavjud. Aynan o'sha yuqori turuvchi mansabdar shaxsga yoki davlat boshqaruvi organiga shikoyat qilinishi natijasida boshlanadigan ma'muriy protsess turi – **yustitsiyaviy ma'muriy protsess** deb nomlanadi. Bunda yustitsiya<sup>1</sup> so'zi lotin tilidagi «*adolat*» degan ma'noni bildiradi. Ommaviy boshqaruv organlarida yuzaga keladigan yustitsiyaviy ma'muriy protsessni ma'muriy sud ish yuritushi protsessidan farqlash lozim. Ikkala tushuncha ham ma'muriy yustitsiyaning alohida katta qismlari hisoblanadi. Ammo bugungi kunda ommaviy boshqaruv organi bilan jismoniy shaxslar o'rtaSIDA yuzaga keladigan ommaviy-huquqiy nizolar ishini sudgacha hal qilish masalasi e'tibor markazidagi masalalardan biri hisoblanadi. Ya'ni fuqaroni sularga murojaat qildirib, vaqt va xaratjatining sarflanishiga olib kelmasdan, yuzaga kelgan muammoni yuqori turuvchi organlar tomonidan ko'rib qonun doirasida hal qilish amaliyoti ustunlikka ega. Zero, ma'muriy organ uchun ham unga tegishli ishning sudga yetib borganligi ish samaradorligi maqsadga muvofiq yo'lga qo'yilmaganligining bir ko'rsatkichi hisoblanadi.

Demak, yustitsiyaviy ma'muriy protsessning yuzaga kelishi ommaviy boshqaruv organi uchun ortiqcha ish bo'lmasa ham, uning kamchiliklarini, mas'ul davlat xizmatchilari professionallik darajasining yuqori yoki pastligidan dalolat beruvchi sharoitni yuzaga keltiruvchi jarayon hisoblanadi. Ta'kidlash kerakki, bugungi kunda amaliyotda yustitsiyaviy ma'muriy protsess bilan bog'liq jarayonlar davlat boshqaruvi organlari faoliyatida tez-tez uchrab turibdi. Jumladan, bunday muammolar mahalliy hokimiyatlar bo'g'inida hamda ichki ishlar organlari tizimida ko'zga tashlanib turadi. Ushbu jarayonning huquqiy asoslari 2018-yil

---

<sup>1</sup> Большой юридический словарь. – Litres, 2020.

8-yanvarda qabul qilinib, 2019-yil 10-yanvardan kuchga kirgan «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Ma'muriy shikoyat bo'yicha ish yuritish» deb nomlangan V bobida o'z aksini topgan.

Mohiyatan olib qaralganda, qonunlarda yustitsiyaviy ma'muriy protsessning rasmiy ravishda mustahkamlanganligi, inson huquqlarining ta'minlanishiga, «fuqarolar davlat organlariga emas, davlat organlari fuqarolarga xizmat qilishi kerak» degan prinsipning amaliy ifodasi deb ta'kidlash mumkin. Sobiq Ittifoq davrida ma'muriy huquqning ushbu qismi bo'yicha tadqiqotlar olib borilmas edi. Chunki Sobiq Ittifoq davlat qurilishi Konsepsiyasining o'zi bir tarafda davlat bo'lgan ommaviy boshqaruvi organi bilan ikkinchi tarafda turgan fuqaro – jismoniy shaxs o'rtasida konflikt yuzaga kelishi mumkinligini inkor etar edi<sup>1</sup>.

Ushbu masalani misollarda davom ettiradigan bo'lsak, yuqoridagi jadvalni davom ettirgan holda, quyidagicha vaziyatni modellashtiramiz:

Ommaviy boshqaruvining nomi	Ommaviy boshqaruvining organining vakolatlari	Yuqori turuvchi organ
Toshkent shahar Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri boshqarmasi jismoniy yoki yuridik shaxsning o'ng taraf-dagi jadvalda ko'rsatilgan murojaatlarini asossiz rad etdi <b>yoki</b>	1) geodeziya va kartografiya ishlarni ro'yxatga olishga ruxsatnoma berishni asossiz rad etdi; 2) geodeziya faoliyatidagi litsenziyani noma'lum sabablarga ko'ra to'xtatib qo'ydi;	O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi ushbu masaladagi yustitsiyaviy ma'muriy protsessni boshlab mazkur ommaviy-huquqiy nizoni ko'rib chiqishi mumkin.

<sup>1</sup> И.А. Хамедов, Л.Б. Хван, И.М. Цай. Административное право Республики Узбекистан. Общая часть. Учебник. Т.: – «KONSAUDITINFORM-NASHR», 2012. – С. 399.

<p>Toshkent shahar Mirobod tuman Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro boshqarmasi jismoniy yoki yuridik shaxsning o'ng tarafdagi jadvalda ko'rsatilgan murojaatlarini asossiz rad etdi</p>	<p>3) kartografik faoliyatni litsenziyalash uchun talab qilinadigan hujjalarga mos bo'limgan boshqa hujjalarni talab qilish.          1) geodeziya va kartografiya ishlarini ro'yxatga olishga ruxsatnomha berishni asossiz rad etdi;          2) geodeziya faoliyatidagi litsenziyani noma'lum sabablarga ko'ra to'xtatib qo'ydi;</p> <p>3) kartografik faoliyatni litsenziyalash uchun talab qilinadigan hujjalarga mos bo'limgan boshqa hujjalarni talab qilish.</p>	<p>Toshkent shahar Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro boshqarmasi ushbu masaladagi yustitsiyaviy ma'muriy protsessni boshlab mazkur ommaviy-huquqiy nizoni ko'rib chiqishi mumkin.</p>
<p>Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasi avtomobil transportida yo'lovchilarni va yuklarni tashishni rad etdi</p>	<p>1) avtomobil transportida yo'lovchilarni va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalişlar bo'yicha tashishni asossiz rad etish;          2) temir yo'l transporti faoliyatini litsenziyalashni asossiz kechiktirish;</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi ushbu masaladagi yustitsiyaviy ma'muriy protsessni boshlab mazkur ommaviy-huquqiy nizoni ko'rib chiqishi mumkin.</p>

	<p>3) transport sohasi vakillarini attestatsiyadan o'tkazmaslik;</p> <p>4) transport sohasi vakillarini tayyorlash va qayta tayyorlashda byurokratiyaga yo'l qo'yish;</p> <p>5) avtovokzal pasportini berishni (avtostansiya) qonunlardagi muddatlardan ham kechiktirish.</p>
--	---

Demak, **yustitsiyaviy ma'muriy protsess** – bu ommaviy boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan ma'muriy aktga<sup>1</sup>, davlat xizmatchisining noqonuniy xatti-harakatlariga nisbatan xususiy shaxs tomonidan o'z subyektiv ommaviy huquqlarini ta'minlash maqsadida shikoyat qilinishi natijasida yuzaga keladigan, hal qilinishi mazkur organ rahbariyati yoki yuqori turuvchi organlari vakolatiga taalluqli bo'lgan ma'muriy organ faoliyatidaadolat va qonuniylikni ta'minlashga qaratilgan jarayondir.

Ma'muriy protsessning to'rtinchı turi bu bevosita deliktlar bilan bog'liq bo'lgan jarayon bo'lib, bunda xususiy shaxslar tomonidan sodir qilingan huquqbazarliklarga nisbatan tegishli ommaviy boshqaruv organining ta'sir chorasi ko'rildi. Deliktlar bilan bog'liq bo'lgan ishlarni yuritishga har qanday ommaviy boshqaruvi organi vakolatli bo'lmasligi mumkin. Bunday holda ular aniqlangan huquqbazarlik fakti to'g'risida Ichki ishlar organlariga yoki tegishli boshqa ommaviy boshqaruv organiga xabar berishi mumkin. Ma'muriy huquq fani doirasida ushbu ma'muriy jarayon – yurisdiktsiyaviy ma'muriy jarayon deb yuritiladi.

---

<sup>1</sup> Ma'muriy akt tushunchasi to'g'risidagi bat afsil ma'lumotlar bilan darslikning X bobida tanishishingiz mumkin.

## **Yurisdiktsiyaviy ma'muriy protsessning asosiy vazifalari:**

- fuqarolar sog'lig'i va hayoti, sha'ni va qadr-qimmatini, shuningdek, mulkini himoya qilish;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning qonuniy faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- jamoat xavfsizligini ta'minlash;
- tabiiy muhitni muhofaza qilishni ta'minlash;
- ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlash;
- huquqbuzarliklarning oldini olish;
- fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalash hisoblanadi.

Ta'kidlab o'tish joizki, zamonaviy ma'muriy huquq nazariyasida ma'muriy javobgarliklar bilan bog'liq bo'lgan ishlarni o'rGANISH Jinoyat huquqi tarmog'iga o'tkazilgan bo'lsa-da, aksariyat ommaviy boshqaruв organlarining qonunan huquqbuzarliklar bilan bog'liq bo'lgan ishlarni yuritish, ko'rib chiqish va hal etishga doir vakolatlari mustahkamlanganini e'tiborga olsak, yurisdiktsiyaviy masalalar yuzasidan ish yuritish tartibi, mas'ul mansabdor shaxslarning vakolatlariga tegishli masalalarni ma'muriy huquq nuqtayi nazaridan o'rGANISH maqsadga muvofiq. Uning huquqbuzarlikka oid ta'sir chorasi tanlash, asosiy va qo'shimcha ta'sir chorasi masalalari, og'irlashtiruvchi va yengillashtirishuvchi holatlar, huquqbuzarlik elementlari bilan bog'liq bo'lgan masalalarni, tabiiyki, jinoyat huquqi tarmog'i ixtiyorida qolgani ma'qul. Ma'muriy protsessning ushbu turida huquqiy asosni O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi tashkil etadi. Nazariy fikrlarimizni amaliy misollar bilan mustahkamlaydigan bo'lsak, yuqoridagi jadvaldagи ikkita davlat boshqaruvi organi misolida o'rGANISHNI davom ettiramiz.

<b>Ommaviy boshqaruv organining nomi</b>	<b>Ommaviy boshqaruv organining yurisdiktsiyaviy ma'muriy protsessdagi vakolatlari</b>
<b>O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro Davlat qo'mitasi</b>	<p>MJTKning 266<sup>l</sup>-moddasiga ko'ra, 65-moddasi «Yerlardan xo'jasizlarcha foydalanish yoki ularni yaroqsiz holga tushirish», 68-moddasi «Xo'jalik ichidagi yer tuzish loyihalardan o'zboshimchalik bilan chetga chiqish, davlat yer kadastri yuritish qoidalarini buzish, 68<sup>l</sup>-moddasi «Yer uchastkasiga bo'lgan huquqni ro'yxatdan o'tkazish uchun o'z vaqtida murojaat etmaslik» va 69-moddasi «Chegara va cheklar belgilarini yo'q qilish yoki shikastlantirish» bilan bog'liq bo'lgan ishlar bo'yicha yurisdiktsiyaviy ma'muriy protsessni amalga oshiradi.</p>
<b>O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi</b>	<p>Shahar va shaharlararo yo'lovchilar tashiydigan avtomobil transporti va elektr transporti organlari MJTKning 121-moddasi «Transport vositalarining ichki jihozlariga shikast yetkazish», 122-moddasi «Tamaki mahsulotini transportda belgilanmagan joylarda iste'mol qilish», 123-moddasi «Transport vositalaridan axlat yoki boshqa narsalarni tashlab yuborish», 124-moddasi «Transportda yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish», 142-moddaning uchinchi qismi «Trolleybusda, tramvayda, metropolitenda, avtobusda, marshrut taksisida portlovchi, tez alanganuvchi, zaharovchi hamda zaharli moddalar va ashylarni olib yurish», 143-moddasi «Kira haqi to'lamasdan yuk olib yurish», 144-moddasi «Transportda chiptasiz yurish», 145-moddasi «Yo'lovchilarni chiptasiz tashish», 146-moddasi birinchi va ikkinchi qismlari «Temir yo'lning yuk tashish uchun mo'ljallangan qatnov tarkibiga, konteynerlarga, suzuvchi va boshqa transport vositalariga, shuningdek, yuk tashuvchi moslamalarga shikast yetkazish», «Havo kemalari, yuk vagonlari, avtomobillar, avtomobil tirkamalari, konteynerlar, suzuvchi vositalar tryumlari va boshqa yukxonalarining plombalariga va berkitkich</p>

qurilmalariga shikast yetkazish, ularning plombalarini buzish, ayrim yuk o'rinalariga va yuk o'ramalariga, paketlariga, yuk qo'ralarining, temir yo'l stansiyalarining, yuk avtomobilari stansiyalarining, konteyner punktlarining (maydonchalarining), portlarning (pristanlarning) va yuk tashish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni bajarish uchun foydalaniadigan omborlarning to'siqlariga shikast yetkazish, shuningdek, tegishli ruxsati bo'lmay turib yuk qo'ralariga, konteyner punktlariga (maydonchalariga), portlar (pristanlar), shlyuzlarning yuk turgan hududlariga (joylariga) va yuqorida zikr etilgan omborlarga kirish» bilan bog'liq bo'lgan ishlar bo'yicha yurisdiktsiyaviy ma'muriy protsessni amalga oshiradi.

N.G. Salishevaning fikricha, ma'muriy protsessning yurisdiktsiyaviy qismi ma'muriy organlarning o'zaro xizmat bo'ysunuviga ega bo'limgan ma'muriy-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari orasida yuzaga kelgan bahsli vaziyatni hal qilish va ma'muriy ta'sir chorasini qo'llashga qaratilgan faoliyatidir.

Shunday qilib, **yurisdiktsiyaviy ma'muriy protsess** – bu jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari ham qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, jamoat tartibi va xususiy shaxslarni qonunga hurmat ruhidha tarbiyalashga qaratilgan ommaviy boshqaruv organlarining qonuniy faoliyatidir.

#### **Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol:**

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga qarashli A. Avloniy nomidagi Xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti rektori institut bosh buxgalteriga Navro'z umumxalq bayrami munosabati bilan respublika budgetidan ajratilgan 42 mln. so'm xodimlarga bir martalik rag'batlantirish pulini zarurat yuzasidan institut tomonidan tayyorlangan «yangi avlod» darsligini chop ettirish uchun sarflashni buyurdi. Bunga sabab O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida bo'lib o'tgan yig'ilish bayoniga ko'ra Navruz bayramiga qadar mazkur dasrlikni chop ettirish majburiyatini olganlidir.

Mazkur darslik uchun mo'ljallangan pullar esa Moliya vazirligi tomonidan aprel oyida yangi smeta asosida tushirib berilishi va'da qilingan. Rektorning ta'kidlashicha, darslik uchun aprel oyida ajratiladigan pul xodimlarga Navro'z bayrami munosabati bilan tarqatiladi. Ammo bunday harakat bosh buxgalterga umuman ma'qul kelmadi va rektorning noqonuniy ko'rsatmasini bajarmasligini ta'kidladi. Natijada rektor va bosh buxgalter o'rtasida nizo kelib chiqdi. Ushbu nizoli vaziyatni institut yuriskonsulti qonuniy asoslarga tayanib, har ikkala tarafga zarar yetmaydigan tarzda hal qildi.

*Institut yuriskonsulti ushbu masalani qanday qilib qonuniy hal qilganligini tushuntiring.*

*Ushbu vaziyat ma'muriy protsessning qaysi guruhiga taalluqli? Vaziyatga oid normativ-huquqiy hujjatlarni sanab bering.*

## **7.2. Iqtisodiy sohani ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi boshqaruvi organlari faoliyatida ma'muriy protsess**

Avvalgi paragrafimizda ta'kidlaganimizdek, ma'muriy protsess juda keng tushuncha bo'lib, u barcha ommaviy boshqaruvi organlari faoliyatida uchraydi va qonuniy tartibga solingan jarayon hisoblanadi. Iqtisodiy sohadagi ommaviy boshqaruvi organlari ham bundan mustasno emas. Ma'muriy protsessning avvalgi paragrafdagi tahlil qilgan tasniflanishi ushbu sohaga ham birdek taalluqlidir. Ya'ni boshqaruvga, tartib-taomillarga oid yustitsiyaviy va yurisdiktsiyaviy turkumlanishni iqtisodiy sohada ham qo'llash mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ko'plab olimlar ma'muriy huquqning umumiy qismini yoritishga e'tibor qaratadi. Chunki uning maxsus qismi juda katta dinamik o'zgaruvchanlikka ega bo'lib, ko'proq amaliy xarakter kasb etadi. Ma'muriy huquqning maxsus qismi iqtisodiy, ijtimoiy va ma'muriy-siyosiy sohadagi davlat boshqaruvi organlarining amaldagi faoliyatini, ularning funksiya va vazifalarini, huquqlari hamda majburiyatlarini, davlat boshqaruvi organlarining tuzilishini o'rganishni taqozo etadi. Bu esa globallashuv jarayoni tezlik bilan kechayotgan, ijtimoiy munosabatlarning turi va mazmuni ko'payib borayotgan zamonda tabiiy ravishda ommaviy boshqaruvi organlarining ham funksiya va vazifalarida o'zgarishlarga olib keladi. L.B. Xvanning fikricha, ushbu soha barqarorlikka ega emas edi, shuning uchun ham ko'plab

tadqiqotchilar tez o'zgarayotgan qonunchilikning barchasini, shu jumladan, ma'muriy qonunchilikni o'rganib, tahlil qilib ulgurish mumkin emas deb hisoblar edi<sup>1</sup>. Shu bilan birga, ma'muriy huquqning maxsus qismini ma'muriy protsess tushunchasi nuqtayi nazaridan o'rganish, amaliy xarakterga ega bo'lган ushbu qismni nisbatan tartibli va tizimli o'rganish imkonini beradi.

Mazkur darsligimiz ham, asosan, maxsus qism mazmunini kengroq va ilmiy nuqtayi nazardan talqin qilishga, shu bilan birga amaliy misollar bilan tushuntirishga qaratilgan. Xususan, IV–XI boblarning barchasi ma'muriy huquqning maxsus qismiga oid bo'lган ma'lumotlarga ega. Demak, iqtisodiy sohadagi ommaviy boshqaruv organlari faoliyatidagi ma'muriy protsessni to'rt guruhga ajratamiz. Bular, quyidagilar:

- boshqaruv bilan bog'liq bo'lган ma'muriy protsess;
- tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lган ma'muriy protsess;
- yustitsiyaviy ma'muriy protsess;
- yurisdiktisiyaviy ma'muriy protsess.

Ushbu turkumlanishlarning barchasiga avvalgi paragrafimizda ta'rif berib o'tdik. Mazkur ta'riflar ularning qaysi sohada qo'llanilishidan qat'iy nazar birdek taalluqlidir. Iqtisodiy sohadagi **boshqaruv bilan bog'liq bo'lган ma'muriy protsessga** quyidagilar misol bo'ladi:

Iqtisodiy sohadagi ommaviy boshqaruv organining nomi	Boshqaruv bilan bog'liq bo'lган ma'muriy protsessga tegishli vakolatlari
<b>O'zbekiston Respublikasining Qishloq xo'jaligi vazirligi</b>	1) qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfisizligi sohasida tarmoqni kompleks modernizatsiya qilishga, qishloq xo'jaligida fan va texnika yutuqlarini, resurslarni tejaydigan zamонави и va intensiv agro-texnologiyalarni, ilg'or tajribalarni joriy qilishga yo'naltirilgan yagona siyosatni amalga oshirish;

<sup>1</sup> Л.Б. Хван. Административное право Республики Узбекистан. Особенная часть. Курс лекций. – Т.: «KONSAUDITINFORM-NASHR». 2010. – С. 16.

- 2) O'zbekiston Respublikasi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini muvo-fiqlashtirish;
- 3) raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining eksport salohiyatini oshirish, bozor kon'yukturasi bo'yicha chuqur marketing tadqiqotlarini o'tkazish, xorijiy investisiyalar va beg'araz texnik ko'mak mablag'larini (grantlar) jaib qilish;
- 4) aholini yil davomida va uzlusiz ravishda barqaror narxlarda ta'minlash uchun zarur bo'lgan hajmda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasini shakllantirishni tashkil etish;
- 5) qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda tadbirkorlik subyektlari ishtirokining rag'batlantirilishini ta'minlash;
- 6) qishloq xo'jaligini izchil va barqaror rivojlantirish, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq aholisining bandlik darajasini va daromadlarini oshirish, ichki bozorda oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining barqaror darajasini saqlab qolishga yo'naltirilgan kompleks maqsadli, tarmoq va hududiy dasturlarni ishlab chiqish;
- 7) qishloq xo'jaligini kimyoviy preparatlar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish, ulardan samarali foydalanish hamda kimyoviy preparatlarni hisobga olish va saqlash tizimini takomillashtirish;

	<p>8) ta'lim, fan va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tizimli asosda uzviy integratsiyalashtirishni, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining yuqori malakali soha mutaxassislariga bo'lgan joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta'minlash.</p>
<p style="text-align: center;"><b>O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi</b></p>	<p>1) mamlakatning turizm salohiyatini tubdan oshirishga, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berishga, turizm sohasida yagona davlat siyosati yuritishiga yo'naltirilgan turizmni rivojlantirishning yaxlit Konsepsiysi shakllantirilishi va amalga oshirilishini ta'minlash;</p> <p>2) turizm xizmatlarining tashqi va ichki bozorlarida marketing tadqiqotlari olib borishga, tarixiy-madaniy merosni keng targ'ib qilishga, O'zbekiston Respublikasining turizm qiyofasini saqlab qolish va rivojlantirishga, milliy turizm mahsulotlari va brendlari xalqaro turizm bozorlariga kirib borishiga yo'naltirilgan faol reklama-axborot siyosatini amalga oshirish;</p> <p>3) ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlari ishlab chiqilishini muvofiqlashtirish va ularning amalga oshirilish monitoringi, turizm turlarining keng doirasini jadal rivojlantirish, xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan turizm infratuzilmasini rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarни, shuningdek, xalqaro moliya institutlari va boshqa tashkilotlarning kreditlari va grantlarini jalb etish;</p>

	<p>4) turizm sohasini davlat tomonidan va bozor munosabatlari asosida tartibga solishni maqbullashtirish va turizm xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish, turizmni rivojlantirishga qarshilik qilayotgan barcha g'ov va to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish, turizm sohasida tadbirkorlik faolligi oshishiga har tomonlama ko'maklashish, ushbu sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol joriy etish;</p> <p>5) turizm faoliyati sohasida birinchi navbatda BMTning Butunjahon turizm tashkiloti, turizm bo'yicha nufuzli xalqaro va milliy tashkilotlar hamda turizm sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xorijiy kompaniyalar bilan xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xalqaro va davlatlararo standartlar va normalarni turizm faoliyati va amaliyotiga joriy etish;</p>
<p style="text-align: center;"><b>O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi</b></p>	<p>1) davlat aktivlarini samarali boshqarish bo'yicha yagona davlat siyosatini yuritish;</p> <p>2) o'ziga berilgan davlat ishtirokidagi korxonalar ustav kapitalining davlat aksiyalari paketlari (ulushlari) bo'yicha aksiyador (ta'sischi va ishtirokchi) huquqlarini amalga oshirish;</p> <p>3) ilg'or xorijiy tajriba asosida davlat ishtirokidagi korxonalarda zamonaviy korporativ boshqaruv shakl va usullarini joriy qilish, ularni boshqarishda kuzatuv kengashi va aksiyadorlarning rolini tubdan oshirish;</p> <p>4) davlat ishtirokidagi korxonalarni, shu jumladan, xalqaro moliya institutlari tavsiyalari asosida bosqichma-bosqich ichki va tashqi bozorlarda raqobatlasha oladigan, samarali korxonalarga aylan-tirishga ko'maklashish;</p>

- 5) davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatining samaradorligi va shaffofligini ta'minlash, boshqaruv tuzilmasini optimallashtirish, yuqori daromadlilik va kapitalizatsiyani oshirish, sohasiga kirmaydigan va foydalanilmayotgan aktivlarini chiqarib tashlashga qaratilgan rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish va tasdiqlashni muvofiqlashtirish;
- 6) davlat manfaatlarini ta'minlagan holda, shu jumladan, davlat aksiya paketlarini (ulushlarini) ishonchli boshqaruvga berish orqali investitsiya faoliyatini amalga oshirish;
- 7) davlat ishtirokidagi korxonalarining obligatsiya va aksiyalarini chiqarish va realizatsiya qilish, shu jumladan, mahalliy va xorijiy fond birjalarida IPO/SPO bo'yicha emissiyalarni joylashtirish hisobiga, shu jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni, shuningdek, portfel investitsiyalarni jalb qilish;
- 8) davlat aktivlarini realizatsiya qilish (xususiyashtirish) va ijaraga berishning ochiq va shaffof mexanizmini ta'minlash, investorlar tomonidan qabul qilingan investitsiya va ijtimoiy majburiyatlar bajariishi ustidan monitoring qilish, shuningdek, davlat xususiy sheriklik bo'yicha takliflarni tayyorlashda ishtirok etish;
- 9) tahlil asosida davlat ishtirokidagi faoliyat yuritmayotgan, past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarni aniqlash, ularni moliyaviy sog'lomlashtirish hamda faoliyati samaradorligini oshirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;
- 10) bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish;
- 11) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda davlat ishtirokidagi korxonalarda samarali dividend siyosatini olib borish;

**O'zbekiston  
Respublikasi  
Energetika vazirligi  
huzuridagi Neft  
mahsulotlari va  
gazdan foydalanishni  
nazorat qilish  
inspeksiyasi**

- 1) neft, gaz, gaz kondensatini qazib olish, qayta ishlash, tashish, taqsimlash, sotish hamda ularni qayta ishlash mahsulotlaridan foydalanish, shuningdek, ularning miqdor jihatidan va sifatli saqlanishini ta'minlash sohasida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan (aholidan tashqari) normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya qilinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;
- 2) iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada neft, neft mahsulotlari va gazni iste'mol qilishni qisqartirish va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlash tadbirlarini jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan (aholidan tashqari) bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;
- 3) iqtisodiyot tarmoqlarida davlat, tarmoq va hududiy energiya tejashta yo'naltirilgan konsepsiylar va dasturlarni ishlab chiqilishi, shu jumladan, neft, gaz, gaz kondensati va ularning qayta ishlash mahsulotlarini qazib olish, qayta ishlash, tashish, tarqatish, sotish va foydalanish jarayonlarini samarali tashkillashtirish masalalarida ishtirok etish;
- 4) neft, gaz, gaz kondensatini qazib olish, qayta ishlash, tashish, taqsimlash, sotish hamda ularni qayta ishlash mahsulotlaridan foydalanish sohasida texnik jihatdan tartibga solish sohasida normativ-huquqiy aktlar va normativ hujjatlarni ishlab chiqishda qatnashish;
- 5) neft, neft mahsulotlari va gaz iste'molchilarini energetik tekshirish va ekspertizadan o'tkazish ishlarini muvofiqlashtirish;

	<p>6) neft, gaz, gaz kondensati hamda ularni qayta ishslash mahsulotlaridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash bo'yicha iste'molchilar tomonidan bajari-ladigan chora-tadbirlarning energetik samaradorligini baholash;</p> <p>7) yoqilg'i-energetika sohasi bo'yicha, shuningdek, energiyani tejash va energetik samaradorlikni oshirish sohasida axborotni tayyorlash va tarqatish, energiyani tejaydigan innovatsion texnologiyalarni joriy etish tajribasini yoyish;</p>
<p><b>Joylardagi viloyat, tuman va shahar hokimliklari</b></p>	<p>1) viloyat, tuman, shahar hokimi mutloq O'zbekiston Respublikasi mulkida bo'lgan davlat mulki obyektlariga nisbatan ishlab chiqarish va ijtimoiy obyektlarni samarali joylashtirish, tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish sohasida nazoratni amalga oshiradilar;</p> <p>2) hokim viloyat, tuman, shahar mulki obyektlarini O'zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan doirada boshqaradi;</p> <p>3) tuman, shahar ijroiya hokimiyati organlarining strukturasi va shtatlari hokim tomonidan yuqori turuvchi hokim bilan kelishilgan holda tegishli xalq deputatlari Kengashi tasdiqlagan budget doirasida belgilanadi va o'zgartiriladi;</p> <p>4) ijroiya hokimiyati struktura bo'linmlarining rahbarlari davlat boshqaruvining yuqori organlari bilan kelishilgan holda ... hokim tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar;</p> <p>5) qonunlarning hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi hujjatlarining, yuqori turuvchi organlar va tegishli xalq deputatlari Kengashi qarorlarining ijrosini tashkil etadi;</p>

	<p>6) viloyat, tuman, shaharni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini, viloyat va Toshkent shahar mahalliy budgetining, tuman va shahar budgetining tegishli loyihasini, shuningdek, uning ijrosi to'g'risidagi hisobotni xalq deputatlari Kengashiga taqdim etadi;</p> <p>7) tegishli xalq deputatlari Kengashiga viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotlar taqdim etadi;</p>
<p style="text-align: center;"><b>«O'zbekoziq-ovqatxolding» xolding kompaniyasi</b></p>	<p>1) meva-sabzovot va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarining ichki va tashqi bozorlarini marketing jihatidan tadqiq qilish va bu asosda sohani kelgusida rivojlantirishning o'rta va uzoq muddatli dasturini ishlab chiqish;</p> <p>2) yuqori sifatli, ichki va tashqi bozorlarda talabgor bo'lgan yuqori qo'shimcha qiymatli oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish maqsadida soha korxonalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari chuqur qayta ishlashga mo'ljallangan zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishni tashkil etish;</p> <p>3) qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishti-ruvchilar, qayta ishlovchi korxonalar, tayyorlov va savdo tashkilotlari o'rtasida bozor munosabatlari asosida tayyorlash, saqlash, chuqur qayta ishlash va savdoni o'z ichiga olgan hamda qishloq xo'jaligining oziq-ovqat xom ashyosi sotuviga qaratilgan zamonaviy logistikani keng joriy etish;</p> <p>4) ilg'or xorijiy texnologiyalar va dizayn-dan foydalangan holda zamonaviy qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish;</p>

- |  |  |
|--|--|
|  | <p>5) go'sht, sut, meva-sabzovot va boshqa turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga yuqori samarali innovatsion texnologiyalarini joriy etish va bu maqsadlarda strategik xorijiy investorlarning tug'ridan-to'g'ri investitsiyalarini jalgan etish;</p> <p>6) qayta ishlangan meva-sabzovot va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari eksportini tashkil etish, ishlab chiqariladigan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish tadbirlarini ishlab chiqish, ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari silatini baholashning xalqaro zamonaviy tizimlarini joriy etish;</p> |
|--|--|

Yuqoridagi jadvaldagi ommaviy boshqaruvi organlarining barchasi iqtisodiy sohadagi organlarga taalluqlidir. Ularning ichida davlat boshqaruvi organi, xo'jalik boshqaruvi organi va mahalliy hokimiyat organlari ham ko'rsatilgan. Ularning barchasining umumiy va ilmiy nomlanishini «ommaviy boshqaruvi organlari<sup>1</sup>» deb nomlash maqsadga muvofiq. Zero, ularning barchasi bevosita davlat ishtirokida tashkil topgan.

Ushbu jadvaldagi ommaviy boshqaruvi organlari vakolatlarining barchasi boshqaruvga oid bo'lgan ma'muriy protsess hisoblanadi. E'tibor bergan bo'lsangiz, unda, asosan, tegishli sohada davlat siyosatini ishlab chiqish, dasturlarni tayyorlash va ijrosini ta'minlash, tegishli sohada innovatsion boshqaruvi va samaradorlikni oshirish choralarini ko'rish kabi «o'z-o'zini» tartibga solishga, takomillashtirishga qaratilgan masalalar ifodalangan. Ta'kidlash joizki, bunda ushbu organlar yuqori turuvchi, quyi turuvchi, maqomi jihatidan o'zi bilan teng bo'lgan boshqa ommaviy boshqaruvi organlari bilan hamkorlik qilishi, ma'lumot almashinishi mumkin. Ya'ni, ushbu jarayonda «tashqaridan» boshqa biror bir subyekt aralashmaydi. Boshqacha qilib ta'kidlaganda, boshqaruvi bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsessning xususiyati shundaki,

---

<sup>1</sup> Bu to'g'risida II bobning 2.1-paragrafida bat afsil ma'lumot olishingiz hamda 2-chizmada vizual kuzatishingiz mumkin.

unda davlat mexanizmiga taalluqli bo'lgan organlar o'rtasida butun jarayon amalga oshiriladi.

Mohiyatan ushbu jarayonning, ya'ni boshqaruvga oid bo'lgan ma'muriy protsessning o'zi ham katta ko'lamga ega bo'lganligi uchun uni quyidagi kichik guruhlarga bo'lib tahlil qilish maqsadga muvofiq:

- boshqaruvga oid bo'lgan ma'muriy protsessdagi internal jarayon;
- boshqaruvga oid bo'lgan ma'muriy protsessdagi vertikal jarayon;
- boshqaruvga oid bo'lgan ma'muriy protsessdagi gorizontal jarayon.

**Internal** jarayonda ommaviy boshqaruv organi rahbari o'zi bevosita rahbarlik qiladigan tashkilotda boshqaruvga oid ishlarni yo'lga qo'yish bilan shug'ullanishini tushunishimiz mumkin. Bunga, misol sifatida tashkilotning yillik rejalarini tayyorlash, davriy hisobotlarni ko'rib chiqish va tasdiqlash, tashkilot tuzilmalariga rahbarlar va mas'ullarni tayinlash va ularning rotatsiyasini amalga oshirish, o'z o'rinnbosarlari orasida vazifalarni taqsimlash kabi tashkilotning ichki masalalariga oid harakatlarni tushunamiz. Ushbu internal jarayon bilan bog'liq bo'lgan masalalar ommaviy boshqaruv organlarining Nizomlarida mustahkamlanadi va uning umumiy pirovard maqsadi tashkilotga qonunan yuklatilgan funksiya va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan bo'ladi.

**Vertikal** jarayonda, mazkur ommaviy boshqaruv organi, o'zidan yuqori turuvchi organ bilan o'z vazifalariga oid bo'lgan masalalar yuzasidan topshiriqlar olishi, dasturlarni kelishishi, o'z sohasiga taalluqli bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarini maslahatlashishi kabi masalalar amalga oshiriladi. Bundan tashqari, vertikal jarayonda mazkur ommaviy boshqaruv organining quyi turuvchi organlari bilan bo'ladigan munosabatlarini ham tushunish kerak. Bunda mazkur organ o'z tasarrufidagi organlarga ularning yillik daromadlari va xarajatlari smetalarini umumlashtirishiga oid u yoki bu davlat xizmatchilarini lavozimga tayinlash, ozod etish masalalariga tegishli quyi turuvchi tashkilotning samaradorligi bilan bog'liq hisobotlarini ko'rib chiqish va ma'lum topshiriqlar berish bo'yicha munosabatlarga kirishishini tushunish mumkin.

**Gorizontal** jarayonda maqomi jihatidan bir-biriga teng bo‘lgan yoki bevosita bir tizimga kirmaydigan ikki yoxud undan ortiq ommaviy boshqaruv organlari o‘rtasidagi boshqaruvga oid bo‘lgan munosabatlar tushuniladi. Misol uchun, yuqoridagi jadvalda «O‘zbekoziqovqatxolding» XK maqomi jihatidan xo‘jalik boshqaruvi organining meva-sabzovot va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarining ichki va tashqi bozorlarini marketing jihatidan tadqiq qilish va bu asosda sohani kelgusida rivojlantirishning o‘rta va uzoq muddatli dasturini ishlab chiqish vakolatiga ega. Demak, ushbu organ o‘zining faoliyatiga oid bo‘lgan o‘rta va uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqishda beixtiyor boshqa manfaatdor ommaviy boshqaruv organlari bilan maslahatlashadi, ma’lumotlar oladi, statistikani, ichki va tashqi bozor kon'yunkturasini o‘rganadi va hokazo. Boshqa manfaatdor ommaviy boshqaruv organlariga Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi, Davlat statistika qo‘mitasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi kabi davlat boshqaruvi organlarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Ushbu organlarning barchasi «O‘zbekoziqovqatxolding» XKga bevosita aloqasi bo‘lмаган yoki uning yuqori turuvchi organi maqomiga ega emas. Ular faoliyatlarining o‘xshashliklari o‘zaro birlashtirib turishi mumkin. Shu sababli ham bu kabi munosabatlarni boshqaruv bilan bog‘liq bo‘lgan ma’muriy protsessdagi gorizontal jarayon deb tushunish maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, boshqaruv bilan bog‘liq bo‘lgan ma’muriy protsess juda katta ijtimoiy munosabatlarni o‘z ichiga qamrab olishini ko‘rish mumkin. Biroq ushbu jarayon ommaviy boshqaruv organlari faoliyatining katta qismini egallasa ham bu ular amalga oshiradigan yagona faoliyat turi emas. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ma’muriy protsessning keyingi turi – bu **tartib-taomillar bilan bog‘liq bo‘lgan ma’muriy protsess** hisoblanib, bunda ommaviy boshqaruv organlari jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida ularga litsenziyalar, sertifikatlar, ruxsatnomalar berish yoki ro‘yxatga qo‘yish bilan bog‘liq bo‘lgan davlat xizmatlarini ko‘rsatishini tushunish joiz.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ommaviy boshqaruv organlaridagi ma’muriy protsessning aynan ushbu turi alohida ahamiyatga ega, chunki ushbu jarayonlarda ommaviy boshqaruv organining qanchalik samarali va sisfatli ishlashi, aholiga tegishli

davlat xizmatlarini ko'rsatish «mahorati» ko'rindi. Natijada murojaat qiluvchi o'ziga ko'rsatilgan davlat xizmatlarining samaradorligi va sifatiga qarab ushbu organga baho beradi. Boshqacha qilib ta'kidlaganda, «xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak» degan prinsipning amaliy ifodasi ushbu jarayonda ko'zga tashlanadi. I.M. Tsay ta'kidlaganidek, tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan jarayon ommaviy boshqaruvning oldingi «fronti» hisoblanib, ommaviy boshqaruv organining barcha soha va yo'nalishlaridan o'tib keladi. Shuning uchun ham davlatning imiji uning davlat xizmatlarini ko'rsatish sifati bilan baholanadi<sup>1</sup>.

Nazariy fikrlarni amaliy misollar bilan mustahkamlash uchun yuqorida jadvalda qayd etilgan ommaviy boshqaruv organlari misolida tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsess ko'rsatiladi.

<b>Iqtisodiy sohadagi ommaviy boshqaruv organining nomi</b>	<b>Tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsessga tegishli vakolatlari</b>
<b>O'zbekiston Respublikasining Qishloq xo'jaligi vazirligi</b>	Ushbu organ tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsessni amalga oshirmaydi, ya'ni litsenziya, sertifikat, ruxsat-noma, ro'yxatga olish va boshqa davlat xizmatlari turlari bilan shug'ullanmaydi.
<b>O'zbekiston Respublikasi turizm va sport vazirligi</b>	1) turoperatorlik faoliyatiga litsenziya berish; 2) mehmonxonalarни ro'yxatga olish; 3) turizm xizmatlarini sertifikatlashtirish.
<b>O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi</b>	1) sud boshqaruvchilari uchun attestat berish; 2) davlat mulklarini ijara qaga berish;

<sup>1</sup> И.А. Хамедов, Л.Б. Хван, И.М. Цай. Административное право Республики Узбекистан. Общая часть Учебник. – Т.: – «KONSAUDITINFORM-NASHR» – 2012. – С. 278.

ta'kidlaganimizdek, yustitsiyaviy ma'muriy protsess – bu ommaviy boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan ma'muriy aktga<sup>1</sup>, davlat xizmatchisining noqonuniy xatti-harakatlariga nisbatan xususiy shaxs tomonidan o'z subyektiv ommaviy huquqlarini himoya qilish maqsadida shikoyat qilinishi natijasida yuzaga keladigan, hal qilinishi mazkur organ rahbariyati yoki yuqori turuvchi organlari vakolatiga taalluqli bo'lgan ma'muriy organ faoliyatidaadolat va qonuniylikni ta'minlashga qaratilgan jarayondir. Ta'kidlash kerakki, bugungi kunda amaliyotda ommaviy va xususiy huquq subyektlari o'rtasidagi nizolarning aksariyati mahalliy hokimliklar ishtirokida ro'y bermoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining statistik ma'lumotlariga ko'ra fuqarolarning mansabdar shaxslar xatti-harakati ustidan ma'muriy sudga kiritgan arizalari natijasida bir yilda hokimlarning 685 ta (olti yuz sakson beshta!) qarori «haqiqiy emas» deb topilgan<sup>2</sup>. Birgina Samarqand viloyatining o'zidan 60 ta hokim qarori bekor qilingan. «Haqiqiy emas» deb topilgan 60 ta hokim qaroridan aksari yer olish va berish bilan bog'liq bo'lgan<sup>3</sup>. Ushbu faktlar tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsessning alohida ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Chunki ushbu jarayonlarda ommaviy boshqaruv organining qanchalik samarali va sifatli ishlashi, aholiga tegishli davlat xizmatlarini ko'rsatish «mahorati» ko'rindi. Aks holda nizo va kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Aynan mana shu ommaviy-huquqiy nizoning yuzaga kelishi natijasida boshlanadigan jarayon yustitsiyaviy ma'muriy protsess deb nomlanadi.

---

<sup>1</sup> Ma'muriy akt tushunchasi to'g'risida batafsил ma'lumot darslikning X bobida.

<sup>2</sup> Bir yilda hokimlarning nechta qarori bekor qilingan? <http://www.xabar.uz/huquq/bir-yilda-hokimlarning-nechta>.

<sup>3</sup> Samarqanda o'tgan yil davomida hokimlar chiqargan qarolarning 60 tasi bekor qilingan <https://kun.uz/37900415>.

Misol uchun:

Iqtisodiy sohadagi ommaviy boshqaruv organining nomi	Tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsessga tegishli vakolatlari	Iqtisodiy sohadagi yuqori turuvchi ommaviy boshqaruv organi
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm va sport boshqarmasi asossiz yoki ortiqcha byurokratik ravishda</b>	<p>1) turoperatorlik faoliyatiga litsenziya berishni rad etishi;</p> <p>2) mehmonxonalarini ro'y-xatga olishni kechiktirish;</p> <p>3) turizm xizmatlarini sertifikatlashtirishda qonunlarda ko'rsatilmagan hujjatlarni talab etishi.</p>	O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi ushbu masaladagi yustitsiyaviy ma'muriy protsessni boshlab mazkur ommaviy-huquqiy nizoni ko'rib chiqishi mumkin.
<b>Toshkent shahar Davlat aktivlarini boshqarish boshqarmasi asossiz yoki ortiqcha byurokratik ravishda</b>	<p>1) sud boshqaruvchilari uchun attestat berishdan bosh tortsa;</p> <p>2) davlat mulklarini ijara berishni belgilangan muddatlaridan ortiq kechiktirs;</p> <p>3) alohida uy (uyning bir qismi) yoki kvartirani, shu jumladan, idoralarga qarashli uy-joy fondiga tegishli bo'lgan uyni (uyning bir qismini) yoki kvartirani xususiy lash-tirgan fuqarolarga multu huquqini beruvchi davlat orderini berishda ortiqcha qog'ozbozlikka yo'l qo'ysa;</p> <p>4) rietlarning malaka sertifikatini berishda manfaatdor shaxsni asossiz malakasi pastligini ro'kach qilsa;</p>	O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi yoki Toshkent shahar Davlat aktivlarini boshqarish boshqarmasi boshlig'i ushbu masaladagi yustitsiyaviy ma'muriy protsessni boshlab mazkur ommaviy-huquqiy nizoni ko'rib chiqishi mumkin.

	<p>5) davlat aktivlariga egalik huquqi to'g'risida order berishni kechiktirsa;</p> <p>6) davlat aktivlariga egalik qilish huquqini beruvchi order dublikatini berishda ortiqcha to'lovlarni talab qilsa.</p>	
<p><b>Xorazm viloyat neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi asossiz ravishda</b></p>	<p>1) neft, gaz hamda gaz kondensatini qazib chiqarish, qayta ishslash va realizatsiya qilish faoliyatini litsenziyalashni kechiktirsa;</p> <p>2) neft mahsulotlarini (avtobenzin, aviabenzin, ekstrabenzin, dizel yonilg'isi, aviakerosin, mazut, pechka qoramoyi, neft bitumi, shuningdek, texnik moy va moylash materiallarini) realizatsiya qilish faoliyatini litsenziyalashdan bosh tortsa;</p> <p>3) magistral gaz quvurlari, neft quvurlari va neft mahsulotlari quvurlarini loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish va ularni ta'mirlash faoliyatini litsenziyalashda ortiqcha byurokratiyaga yo'l qo'ysa.</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi neft mahsulotlari va gazdan foydalinishni nazorat qilish inspeksiyasi yoki Xorazm viloyat neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi boshlig'i ushbu masaladagi yustitsiyaviy ma'muriy protsessni boshlab mazkur ommaviy-huquqiy nizoni ko'rib chiqishi mumkin.</p>
<p><b>Joylardagi viloyat, tuman va shahar hokimliklari asossiz ravishda</b></p>	<p>Viloyat hokimliklari:</p> <p>1) nodavlat ta'lim muassasalarining chet tillarni o'rganish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish sohasidagi faoliyatini litsenziyalashdan bosh tortsa;</p>	<p>Joylardagi tegishli viloyat, hokimliklari ushbu masaladagi yustitsiyaviy ma'muriy protsessni boshlab mazkur ommaviy-</p>

		huquqiy nizoni ko'rib chiqishi mumkin.
2) dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish faoliyatini litsenziyalashni kechiktirsa; 3) rieltorlik faoliyatini litsenziyalashda ortiqcha byurokratik to'siqlarni yaratса;		Joylardagi tegishli viloyat, hokimliklari yoki tuman va shahar hokimlari ushbu masaladagi yustisiyaviy ma'muriy protsessni boshlab mazkur ommaviy-huquqiy nizoni ko'rib chiqishi mumkin.
4) ommaviy tadbirlarni o'tkazishga ruxsatnomalar berishda belgilanganidan ortiq to'lovlarni talab qilsa; 5) yer maydonini qaytarib olish tug'risida noqonuniy qaror chiqarish; Tuman va shahar hokimliklari: 1) ulgurji savdo faoliyatini litsenziyalashni kechiktirsa; 2) turar joy hududini noturarjoyga aylantirishga ruxsatnomalar berishdan bosh torsa; 3) ommaviy tadbirlarni o'tkazishga ruxsatnomalar berishda byurokratik to'siqlarni yuzaga keltirsa; 4) o'rmon fondiga kirma-ydigan yog'och va buta ekinlarini kesish uchun ruxsatnomalar berishda ortiqcha to'lovlarni talab qilsa; 5) sayyor savdoni amalga oshirishga ruxsatnomalar berishni kechiktirsa.		

Iqtisodiy sohada faoliyat yurituvchi ommaviy boshqaruv organlarining navbatdagi ishlari, ma'muriy huquqbuzarliklarni ko'rib chiqish, ma'muriy huquqbuzarlik bayonnomalarini tayyorlash va tegishli ta'sir chorasini ko'rish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayon ilmiy tilda **yurisdiktsiyaviy ma'muriy protsess** deb ataladi. Avvalgi paragrafimizda ta'kidlaganimizdek, ushbu jarayon fuqarolarni va yuridik shaxslarni, shuningdek, boshqa tuzilmalarni huquqbuzarliklardan himoya qilish va jamiyatda tartib-intizomni ta'minlashdan, qonuniylikni mustahkamlashdan iborat. Ushbu jarayonning asosiy normativ-huquqiy hujjati – O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi Kodeksi hisoblanadi. Shunday qilib, ommaviy boshqaruv organlaridagi davlat xizmatchilari o'zlarining funksional mansab yo'riqnomalari asosida yurisdiktsiyaviy ma'muriy protsessga oid ishlarni yuritishga vakolatli bo'ladi. Misol uchun:

<b>Iqtisodiy sohadagi ommaviy boshqaruv organining nomi</b>	<b>Iqtisodiy sohadagi ommaviy boshqaruv organining yurisdiktsiyaviy ma'muriy protsessdagi vakolatlari</b>
<b>O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi</b>	MJTKning 165-moddasiga muvofiq «Faoliyat bilan litsenziyasiz va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug'ullanish» bilan bog'liq bo'lgan ishlar bo'yicha yurisdiktsiyaviy ma'muriy protsessni amalga oshiradi.
<b>O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish Agentligi</b>	MJTKning 215'-moddasiga muvofiq «Korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi materiallarni taqdim etish tartibini buzish» bilan bog'liq bo'lgan ishlar bo'yicha yurisdiktsiyaviy ma'muriy protsessni amalga oshiradi.
<b>O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi qoshidagi neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi</b>	MJTKning 165-moddasiga muvofiq «Faoliyat bilan litsenziyasiz va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug'ullanish» bilan bog'liq bo'lgan ishlar bo'yicha yurisdiktsiyaviy ma'muriy protsessni amalga oshiradi.


## **Joylardagi viloyat, tuman va shahar hokimliklari**

MJTKning 47-moddasi «Bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lif berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik» 61-moddasi «Oz miqdorda talon-taroj qilish», 116<sup>1</sup>-moddasi «Havo kemasidan foydalanish vaqtida lazer nurini yo'naltirish orgali xalaqit berish», 125-moddasi «Transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish», 126-moddasi «Ko'zgusimon va (yoki) tusi o'zgartirilgan (qoraytirilgan) oynali, shuningdek, tevarak-atrofni ko'rishni cheklaydigan qoplamlari transport vositalaridan foydalanish», 127-moddasi «Transport vositalarining tovush chiqaruvchi, yorituvchi va boshqa qurilmalaridan foydalanish, ularni o'rnatish qoidalarini buzish», 128-moddasi «Haydovchilarning transport vositalarini piyodalar yo'lkalardan yurgizishi, yo'l belgilari va yo'l harakatining boshqa qoidalari talablariga rioya etmasligi», 128<sup>2</sup>-moddasi «Transport vositalari haydovchilarining belgilangan harakat tezligini oshirib yuborishi», 183-moddasi «Mayda bezorilik» bilan bog'liq bo'lgan ishlar bo'yicha yurisdiktsiyavii ma'muriy protsessni amalga oshiradi.

### **Yodda tuting!**

**Iqtisodiy sohadagi ommaviy boshqaruva organlari faoliyatidagi ma'muriy protsess** – bu tegishli organlarning boshqaruva, davlat xizmatlarini ko'rsatish, ommaviy-huquqiy nizo va qoida tariqasida huquqbazarliklarga oid ishlarni hal qilishga qaratilgan kundalik amalga oshiradigan qonuniy faoliyati tushuniladi.

## Tashkilotning boshqaruvga oid ichki masalalari



### Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol:

A. ismli shaxs Moliya institutini tamomlagach, 5 yil xususiy korxonada buxgalter lavozimida faoliyat yuritdi. So'ngra o'z mustaqil faoliyatini boshlash maqsadida auditorlik bilan shug'ullanishni va auditorlik firmasini ochishni rejalashtirdi. U O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi organlariga auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziya olishni so'rab murojaat qildi.

Qonunlarda belgilangan barcha tartib-taomillarni amalga oshirib, auditor litsenziyasiga ega bo'ldi. Uch yil davomida «KORZINKA» do'konlar tarmog'iga, «RAVNAQ BANK» va «O'zelektrotarmoqlari» UKga tashqi audit xizmatini ko'rsatish bilan shug'ullandi, shuningdek, bir qator iqtisodiy sud protsesslarida ekspert sifatida ishtirok etdi.

*Mazkur vaziyatni nazariy belgilariga ko'ra tasniflang. Misol uchun, subyektni, ma'muriy huquq predmetini, ma'muriy-huquqiy munosabatlarni, yuridik faktlarni aniqlang.*

*Auditorlik litsenziyasini olish tartib-taomillarini batafsil izohlashga harakat qiling.*

*Kazusda ma'muriy protsess turlarini aniqlashga harakat qiling.*

### **7.3. Ijtimoiy sohani ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi boshqaruv organlari faoliyatida ma'muriy protsess**

Ijtimoiy soha fuqarolarning ma'naviy va madaniy dunyosi, ilmi va tafakkuri bilan bog'liq bo'lgan soha bo'lib, ularning ruhiy olamidagi ehtiyojlarni qondirish uchun «davlat» deb nomlangan katta mexanizmning tarkibida tegishli ommaviy boshqaruv organlari, ularning safida esa minglab davlat xizmatchilari faoliyat yuritishadi. Shuni e'tirof etish joizki, insonga nafaqat moddiy ne'matlar zarur, balki ma'naviy ne'matlar ham juda muhim hisoblanadi. Bugungi kunda davlat siyosatining asosiy qismini ijtimoiy sohaga qaratib, yuksak natijalarga erishgan davlatlarda inson qadr-qimmati va sha'ni yuqori darajaga ko'tirilganini kuzatish mumkin. Bunday ijtimoiy davlatlar qatoriga Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlarni misol keltirish mumkin. Ushbu mamlakatlar o'z tarixi, madaniyati, urf-odati, tili, dini, sportdagi natijalari, tarixiy obidalarga va atrof-muhitga bo'lgan e'tibori, ilmi va ta'limi bilan ham katta investitsiyalarni jalb qilmoqda. Demak, davlat va uning boshqaruv organlari ijtimoiy sohani qo'llab-quvvatlash natijasida ham iqtisodiy farovonlikka erishishi mumkin. Ming yillar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan davlat mexanizmi bugungi kunda insonning ma'naviy olamini ham tartibga solishga, tizimlashtirishga, bir so'z bilan ta'kidlaganda, ularning ijtimoiy subyektiv ommaviy huquqlarini ta'minlashga qaratilgan tegishli davlat organlariga ega. Ushbu organlar ayrimlarining ro'yxati 5.1-paragrafda keltirib o'tilgan.

Ijtimoiy sohadagi ommaviy boshqaruv organlarida ham ma'muriy protsess boshqa sohalardagi kabi to'rtta yo'nalishda davom etadi. Demak, **boshqaruv bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsessga** quyidagi ayrim ommaviy boshqaruv organlari timsolida misollar keltiramiz:

<b>Ijtimoiy sohadagi ommaviy boshqaruv organining nomi</b>	<b>Ijtimoiy sohadagi ommaviy boshqaruv organida boshqaruvga oid bo'lgan ma'muriy protsess</b>
<b>O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>aholi salomatligini yaxshilash, sog'lom avlodni voyaga yetkazish uchun zaruriy sharoitlar yaratish, sog'liqni saqlash bo'yicha profilaktika tadbirlarini tashkillashtirish, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilishni ta'minlovchi davlat siyosatini amalga oshirish;</li> <li>fugarolarni malakali tibbiy xizmat olish bo'yicha konstitutsion huquqlarini nazorat qilish, aholiga tibbiy-sanitar yordam ko'rsatish bo'yicha davlat aralashuvini kuchaytirish, barcha ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat turlarida aholining teng huquqliligini ta'minlash;</li> <li>sog'liqni saqlash tizimidagi Konsepsiya ni isloh qilish, sog'liqni saqlash bo'yicha nodavlat tashkilotlarni, xususiy shifokorlik amaliyotini rivojlantirish va tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha bozorni tashkillashtirish;</li> <li>tarmoqni isloh qilishdagi me'yoriy huquqiy bazani tashkil qilish, sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish uchun zaruriy sharoitlarni yaratish;</li> <li>sog'liqni saqlash boshqaruv xizmatining barcha turlarida aholiga shoshilinch yordam ko'rsatish tizimini tashkillashtirish va mustahkamlash;</li> </ol>

- 6) tibbiyot bo'yicha bugungi kungacha amalga oshirilgan eng samarali mahalliy va xalqaro tajribalar asosida tarmoqning strategiyasi va istiqbolli rivojlantirish rejalarni ishlab chiqish, ilmiy tibbiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, sog'lijni saqlash amaliyatida ilg'or hisoblangan texnika va tajribalarni tadqiq etish;
- 7) aholi salomatligini saqlashga ajratilgan pul mablag'laridan samarali foydalanish, sog'lijni saqlash bo'yicha moddiy-texnik bazani mustahkamlash va maqsadli loyihalarni moliyalashtirish uchun tashqi budget mablag'larini, chel el sarmoya-larini va xalqaro tashkilotlar ko'magini jalg qilish, tibbiy yordam ko'rsatuvchi profilaktik muassasalarining o'z-o'zini ta'minlashga bosqichma-bosqich o'tishi uchun imkoniyatlar yaratish, tibbiy sug'urtani amaliyatga tatbiq etish chora tadbirlarini ko'rish;
- 8) sog'lijni saqlash sohasi, jumladan, tibbiy yordam ko'rsatish, dori vositalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish, tibbiy jarayonlarda qo'llaniladigan mah-sulotlar va ularni muntazam nazorat qilish jarayonlari me'yor va mezonlari tizimini tashkil qilish;
- 9) respublikaga yuqumli kasalliklarning kirib kelishi va tarqalishining oldini olish bilan shug'ullanuvchi idoralar hamkorligida aholining sanitari-epidemiologik xavfsizligini ta'minlash;
- 10) o'rta va oliy tibbiy ma'lumot olish tizimini, sog'lijni saqlash bo'yicha xalqaro tajribadan samarali foydalanish va xalqaro aloqani kengaytirish tadbirlarini ko'paytirish.

## **«O'zbekkino» Milliy agentligi**

- 1) kino san'atining milliy madaniyatni rivojlantirish, jamiyat ma'naviy hayotini yuksaltirishdagi o'rni va ahamiyatini hisobga olgan holda bu sohani umum-bashariy va milliy qadriyatlar uyg'unligi asosida taraqqiy ettirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish;
- 2) kino san'atida, kino-videofaoliyat sohasida davlat siyosatini amalga oshirish;
- 3) kinematografiya sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tashkilotlar, kinostudiylar va ijodiy jamoalarni qo'llab-quvvatlash, ularning manfaatlarini himoya qilish, tadbirdorlik va raqobat muhitini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish; milliy kino san'atining eng yaxshi an'analarini izchil davom ettirish va boyitish maqsadida iqtidorli yosh kinematografchilarni tarbiyalash, ularning ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish;
- 4) «Respublika kinofondi» davlat unitar korxonasi faoliyatini bugungi kun talablari negizida tashkil etish;
- 5) kinofilmlar yaratish va ularni namoyish etish tizimini tanlovlardan tashkil qilish orqali takomillashtirish va qayta texnik jihozlash, aholiga kino-videoxizmat ko'rsatish darajasini oshirish;
- 6) mualliflik huquqlari himoyalangan kino va video mahsulotlarini noqonuniy ravishda respublika hududiga olib kirishga, ulardan foydalanish, ijara berish va tarqatishga qarshi zarur choralar ko'rish;
- 7) import va eksport qilinadigan kino va video mahsulotlariga ekspert bahosi berilishini amalga oshirish, respublika hududida kino va videofilmlar ko'rsatish va ulardan texnik jihatdan foydalanish qoidalari belgilash;

	8) kinomatografiya sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, milliy kino mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqish, xorijiy kino ishlab chiqaruvchi tashkilot va kino ijodkorlar bilan aloqalarni kengaytirish, milliy kino san'atini xalkaro kinofestivallarda namoyish etish.
<b>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi</b>	<p>1) mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq diniy masalalarni hal qilishda yagona siyosatni amalga oshirish;</p> <p>2) davlat organlarining respublika hududida joylashgan diniy tashkilotlar bilan o'zaro aloqasi va hamkorligini ta'minlash;</p> <p>3) davlat siyosatida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan diniy tashkilotlar manfaatlarini aks ettirish.</p>

Yuqoridagi ommaviy boshqaruva organlari ijtimoiy sohada faoliyat yuritib, asosiy maqsadi aholining sog'lig'ini saqlash, yuqumli va boshqa hayot uchun xavfli bo'lgan kasallikkarni bartaraf etish, fuqarolarning madaniyatini, o'zligini anglashga zamin yaratuvchi yuksak ijodiy va mazmunli kinofilmlarni tayyorlashni tashkillashtirish, fuqarolarning e'tiqod erkinligini ro'yobga chiqarishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish hamda sof, egzilikka yo'naltirilgan diniy ta'limotlar olishini tashkillashtirish hisoblanadi. Ushbu masalalarning barchasi mazkur ommaviy boshqaruva organlari faoliyatidagi boshqaruvga oid bo'lgan ma'muriy protsess hisoblanadi.

Ushbu organlar faoliyatida ham boshqaruvga oid bo'lgan ma'muriy jarayonni internal, vertikal va gorizontal kichik guruhlarga ajratib o'rghanish mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining internal munosabatlari doirasiga quyidagilar taalluqlidir:

- vazir, vazirlik tizimi va idoraviy mansub tashkilotlar faoliyatiga rahbarlik qiladi va vazirlikka yuklangan vazifalar hamda funksiyalar bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;
- vazirlik markaziy apparati shtat jadvalini belgilangan xodimlar soni doirasida, shuningdek, vazirlik markaziy apparati xarajatlar smetasini tasdiqlaydi;
- vazirlikka ajratilgan moliyaviy va moddiy vositalarni belgilangan tartibda tasarruf etadi;
- Markaziy apparatning bo'linmalari to'g'risidagi nizomni belgilangan tartibda tasdiqlaydi;
- vazirlik markaziy apparati xodimlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod etadi;
- vazirlik vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qiladi, vazirning o'rnbosarları, vakolatlari, majburiyatları va javobgarligi darajasini belgilaydi;
- zarurat bo'lganda markaziy apparat tuzilmasiga xodimlarning belgilangan shtatdagi umumiy soni doirasida o'zgartirishlar kiritadi;
- vazirlik xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

- vazirlik tizimi xodimlarini rag'batlantirish va ularning intizomiy javobgarligi to'g'risidagi masalalarni hal etadi, tizimda alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlari nomzodini faxriy unvonlar va O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlar bilan taqdirlash, shuningdek, rag'batlantirishning boshqa turlariga tavsiya etadi.

**Internal** munosabatlarning asosiy xususiyati shundaki, bunda rahbar o'zi bevosita rahbarlik qiladigan butun tizimga oid emas, balki faqat o'zi kundalik faoliyat yuritadigan tashkilotga bog'liq bo'lgan boshqaruvga oid ma'muriy protsessni amalga oshirishi nazarda tutiladi. Aynan ushbu misolni yuqoridagi sog'liqni saqlash vaziri misolida ko'rib chiqdik.

**Vertikal** munosabatlarga oid ma'muriy protsessda esa vazirlikning yuqori va quyi turuvchi organlar bilan bo'ladigan boshqaruvga oid ma'muriy protsessini tushunishimiz kerak. Misol uchun,

– vazir bir yilda ikki marta O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga o‘z faoliyati to‘g‘risida axborot beradi<sup>1</sup>;

– vazirlikni davlat organlarida va boshqa tashkilotlarda ifodalaydi yoxud vazirlik nomidan ishonchnomalar va (yoki) vakolatlar beradi;

– hududiy boshqarmalari to‘g‘risidagi nizomni, shuningdek, vazirlik tizimiga kiradigan tashkilotlarning ustavlari va tuzilmasini belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

– vazirlik tarkibiga kiruvchi tashkilotlarning rahbarlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod etadi;

– vazirlik vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qiladi, hududiy boshqaruva organlari va vazirlik tizimiga kiradigan tashkilotlarning boshqa mansabdar shaxslarining vakolatlari, majburiyatlari va javobgarligi darajasini belgilaydi;

– zarurat bo‘lganda vazirlik tizimiga kiradigan hududiy boshqaruva organlari va tashkilotlarning tuzilmasiga xodimlarning belgilangan shtatdagi umumiy soni doirasida o‘zgartirishlar kiritadi;

– hududiy boshqaruva organlari va vazirlik tizimiga kiradigan tashkilot xodimlari bajarishi majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi va ko‘rsatmalar beradi.

Yuqorida keltirilgan masalalar vertikal boshqaruvga oid bo‘lgan ma’muriy protsess hisoblanib, unda vazirlikning vazir boshchiligidagi yuqori turuvchi idoralar bilan bo‘ladigan munosabatlari o‘z ifodasini topgan (dastlabki ikkita vakolat). Oxirgi beshta masalada esa vazirlikning o‘z tizimiga mansub quyi turuvchi idoralar bilan bo‘lgan vertikal munosabatlarni ko‘rishimiz mumkin.

**Gorizontal** munosabatlardan deganda vazirlikning o‘zi bilan teng bo‘lgan boshqa vazirliklar, davlat qo‘mitalari, agentliklar yoki mahalliy hokimliklar bilan bo‘ladigan munosabatlarni

<sup>1</sup> Ma’lumot uchun: Vazirning bir yilda ikki marta O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga o‘z faoliyati to‘g‘risida axborot berishi to‘g‘risidagi masala garchand vazirlikning yuqori turuvchi idoralar bilan munosabatini ifodalasa ham uni aslida ma’muriy protsessga kiritish biroz bahsli hisoblanadi. Chunki vazirlikning parlamentdagи chiqishlariga oid ijtimoiy munosabatlari Konstitutsiyaviy huquqning predmeti hisoblanadi va tegishlicha ushbu masala parlament nazorati jarayoni sifatida qaralgani ilmiy nuqtayi nazardan to‘g‘ri hisoblanadi. Ammo parlament a‘zolari oldida chiqish qilish uchun vazirlikning o‘zidagi tayyorgarlik ko‘rish jarayonini internal boshqaruvga oid ma’muriy protsess deb baholash mumkin.

tushunish lozim. Ya'ni Sog'liqni saqlash vazirligi ularga tobe ham emas, ular faoliyatini yo'naltirib turish vakolatiga ham ega emas. vazirlik faqat ular bilan u yoki bu hujjatlarni kelishish, birgalikda biror bir tadbirlarni o'tkazish kabi maqsadlarda hamkorlik qilishi mumkin. Shuning uchun ham, bunday boshqaruvga oid munosabatlar ommaviy boshqaruv organlarining «gorizontal munosabatlari» deb yuritaldi. Misol uchun, Ichki ishlar vazirligi avtotransport vositalarining salonida dori qutisini joriy etishi uchun unda saqlanishi lozim bo'lgan tibbiy anjomlarning miqdori, turlari, saqlash muddati va boshqa talablarini kelishishi mumkin. Yoki ma'lum bir hududda dispanserizatsiya o'tkazish uchun hudud aholisi soni, joylashishi, aholisining o'rtacha yoshi, ularning sog'lig'iga ta'sir qiluvchi hududdagi omillarni aniqlash uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan gorizontal munosabatlarga kirishishi mumkin.

Ijtimoiy sohadagi ommaviy boshqaruv organlari faoliyatidagi keyingi munosabatlar **tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lib**, bunda ular aholiga ma'lum davlat xizmatlarini ko'rsatishida namoyon bo'ladi. Avvalgi paragrafimizda ta'kidlab o'tganimizdek, aynan ma'muriy protsessning ushbu turi katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki bunda yuqoridagi jadvalda keltirilganidek, Sog'liqni saqlash vazirligi yoki «O'zbekkino» Milliy agentligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita fuqarolar bilan, ya'ni xususiy huquq subyektlari bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Fuqarolar ushbu organlar bilan munosabatga kirishar ekan, ijro hokimiyati organlari ular (fuqarolar) bilan «ko'ngli tusaganicha» emas, balki qonuniy muoamalaga kirishishi kafolatlanishini istaydi<sup>1</sup>. Shuning uchun ham, ma'muriy protsessning ushbu turi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi jadval asosida misolimizni tizimli davom etadigan bo'lsak, quyidagini keltirishimiz mumkin.

---

<sup>1</sup> Ежегодник публичного права 2018: Принципы административных процедур и административного судопроизводства. – М.: инфотропик Медиа. 2018. – С. 13. Ларс Брокер. Доктор права, Президент Высшего административного суда Рейнальд-Пфальц и Президент Конституционного суда Рейнальд-Пфальц (Германия).

<p><b>Ijtimoiy sohadagi ommaviy boshqaruv organining nomi</b></p>	<p><b>Ijtimoiy sohadagi ommaviy boshqaruv organida tartib- taomillarga oid bo‘lgan ma’muriy protsess</b></p>
<p><b>O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>1) tibbiy faoliyat bilan shug‘ullanishni litsenziyalash;</li> <li>2) farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash;</li> <li>3) narkotik moddalar, psixotrop moddalar va prekursorlarning aylanishi bilan bog‘liq faoliyat huquqini litsenziyalash;</li> <li>4) maxsus kiritilgan biologik faol moddalar, yangi kimyoiy moddalar, oziq-ovqat qo‘sishimchalari, biologik vositalar va materiallar, polimer va plastmassa, parfyumeriya va kosmetika mahsulotlarini olib kirish va ishlab chiqarish uchun ruxsatnomalar berish;</li> <li>5) dori vositalari, tibbiyot buyumlari va tibbiyot texnikalarini ro‘yxatga olish guvohnomasi;</li> <li>6) O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni tranzit qilishga ruxsatnomalar;</li> <li>7) O‘zbekiston Respublikasidan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni olib kirish, olib chiqish uchun sertifikat.</li> </ul>
<p><b>«O‘zbekkino» Milliy agentligi</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>1) audiovizual asarlarni tayyorlash, dublyaj qilish va ekranda namoyish etish faoliyati turlarini litsenziyalash;</li> <li>2) kinovideomahsulotlar ijarasini faoliyatini litsenziyalash.</li> </ul>

**O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi  
huzuridagi Din ishlari  
bo'yicha qo'mita**

- 1) Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tgan diniy ta'lim muassasalariga maxsus ruxsatnoma (litsenziya) berish uchun hujjatlarni rasmiylashtirish;
- 2) madrasa mudirlari va mudarrislarining malaka oshirish kurslarini hamda attestatsiyadan o'tkazishni tashkil etish.

Ushbu organlar jadvalda sanab o'tilgan xizmatlar bo'yicha aholi bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishadi va ushbu ijtimoiy munosabatlar ma'muriy-huquqiy munosabatlar hisoblanadi. Chunki bir tarafda ommaviy boshqaruv organi, ikkinchi tomonda xususiy huquq subyekti o'rin olgan. Avval ta'kidlanganidek, ushbu munosabatlarning huquqiy asosini 2018-yil yanvar oyida qabul qilinib, 2019-yil yanvar oyida kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonuni tashkil etadi. Ushbu qonunning «Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari to'g'risida»gi Qonundan farqi va asosiy mohiyati shundaki, u litsenziyalash, ruxsatnomalar berish, ro'yxatga olish, sertifikatlashtirish hamda boshqa turdag'i davlat xizmatlari bilan bog'liq bo'lgan murojaatlarga taalluqlidir. Shuningdek, ushbu qonunda asosiy ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri bu – prinsiplardir. Qonun mazmuniga ko'ra, agar ma'muriy organning xatti-xarakatlari qonunda belgilangan 13 ta prinsipga to'g'ri kelmasa unda ommaviy boshqaruv organi qabul qilgan ma'muriy akt «haqiqiy emas» deb topilishiga asos bo'lishi mumkinligi belgilangan. Ushbu holat tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsessda xususiy huquq subyektlarining subyektiv ommaviy huquqlari himoyalanishini yangi bosqichga olib chiqilishi kutilmoqda.

Ijtimoiy sohadagi ommaviy boshqaruv organlari faoliyatining keyingi jarayoni **yustitsiyaviy ma'muriy protsess** deb nomlanib, bunda tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsessda ommaviy boshqaruv organi bilan xususiy huquq subyekti o'rtasida nizo yuzaga kelganida, xususiy huquq subyektining shikoyati asosida tegishli ommaviy boshqaruv organining rahbariyati yoki yuqori turuvchi organ tomonidan ushbu protsess ishga tushadi. Mazkur protsessning ham huquqiy asosini yuqorida ta'kidlangan

qonun – «Ma'muriy tartib-taomillar to‘g‘risida»gi Qonuni tashkil etadi. Chunki mantiqan olib qaralganda nizo aynan tartib-taomillarni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladi. Juhon amaliyotida davlatning yoki uning ommaviy boshqaruv organlarining xususiy huquq subyekti oldidagi javobgarligi odatiy holga aylangan. Jumladan, sobiq Ittifoq tarkibidagi davlatlardan biri bo‘lgan Latviyada davlatning o‘z fuqarolari oldidagi moddiy javobgarligi belgilangan. Latviyalik ma’muriy huquq mutaxassislaridan biri Kristina Kore-Perkonening ta’kidlashicha, Latviyada davlatning yoki uning alohida organining noqonuniy xatti-harakatlari natijasida fuqarolarga yetkazilgan zarar uchun davlatning yuridik javobgarligi belgilangan va bu ommaviy-huquqiy munosabatlardagi javobgarlikning (shu jumladan, moddiy javobgarlik ham nazarda tutilgan) yangi turi hisoblanadi<sup>1</sup>. Demak yustitsiyaviy ma’muriy protsessni amaliy misollarda tahlil qilamiz:

Ijtimoiy sohadagi ommaviy boshqaruv organining nomi	Ijtimoiy sohadagi ommaviy boshqaruv organida boshqaruvga oid bo‘lgan ma’muriy protsess	Ijtimoiy sohadagi yuqori turuvchi ommaviy boshqaruv organi
<b>Sirdaryo viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi asossiz ravishda</b>	1) tibbiy faoliyat bilan shug‘ullanishni litsenziyalashni rad etdi; 2) farmatsevtika faoliyatini litsenziyalashda ortiqcha byurokratik to‘siqlarni yuzaga keltirdi;	O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi yoki

<sup>1</sup> Ежегодник публичного права 2018: Принципы административных процедур и административного судопроизводства. – М.: инфотропик Медиа. 2018. – С. 224. Кристина Коре-Перконе, Советник региональной программы GIZ «Содействие укреплению верховенства права в Центральной Азии» в Узбекистане, к.ю.н., Латвийский университет.

- 3) narkotik moddalar, psixotrop moddalar va prekursorlarning aylanishi bilan bog'liq faoliyat huquqini litsenziyalashda ortiqcha to'lovlarni talab qildi;
- 4) maxsus kiritilgan biologik faol moddalar, yangi kimyoviy moddalar, oziq-ovqat qo'shimchalari, biologik vositalar va materiallar, polimer va plastmassa, parfyumeriya va kosmetika mahsulotlarini olib kirish va ishlab chiqarish uchun ruxsatnoma berish asossiz ravishda kechiktirdi;
- 5) dori vositalari, tibbiyot buyumlari va tibbiyot texnikalarini ro'yxatga olish guvohnomasini berishni rad etdi;
- 6) O'zbekiston Respublikasi hududi orqali giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni tranzit qilishga ruxsatnoma berishdan bosh tortdi;
- 7) O'zbekiston Respublikasidan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni olib kirish, olib chiqish uchun sertifikatni noto'g'ri rasmiylashtirdi.

Sirdaryo viloyat sog'lijni saqlash boshqarmasi rahbariyati ushbu masaladagi yustitsiyaviy ma'muriy protsessni boshlab mazkur ommaviy-huquqiy nizoni ko'rib chiqishi mumkin.

<p><b>«Qoraqalpoqkino» agentligi asossiz ravishda</b></p>	<p>1) audiovizual asarlarni tayyorlash, dublyaj qilish va ekranda namoyish etish faoliyati turlarini litsenziyalashni rad etdi;      2) kinovideomahsulotlar ijarasi faoliyatini litsenziyalashda ortiqcha byurokratik to'siqlarni yaratdi.</p>	<p>«O'zbekkino» Milliy agentligi yoki «Qoraqalpoqkino» agentligi rahbariyati ushbu masaladagi yustitsiyaviy ma'muriy protsessni boshlab, mazkur ommaviy-huquqiy nizoni ko'rib chiqishi mumkin.</p>
<p><b>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita asossiz ravishda</b></p>	<p>1) Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tgan diniy ta'lif muassasalariga maxsus ruxsatnomalar (litsenziya) berish uchun hujjatlarni rasmiylashtirishdan bosh tortdi;      2) madrasa mudirlari va mudarrislarning malaka oshirish kurslarini hamda attestatsiyadan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomani berishda ortiqcha byurokratik to'siqlarni yaratdi</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita rahbariyati ushbu masaladagi yustitsiyaviy ma'muriy protsessni boshlab, mazkur ommaviy-huquqiy nizoni ko'rib chiqishi mumkin.</p>

Yustitsiyaviy ma'muriy protsessni nazarda tutuvchi qonunlarning qabul qilinganligi, shuningdek, ommaviy-huquqiy nizorlarning sudgacha hal qilish mexanizmlarini yaratishga bo'lgan islohotlar pirovardida fuqarolarning hamda yuridik shaxslarning subyektiv ommaviy huquqlarining ta'minlanishiga, ommaviy boshqaruva organlari faoliyatida qonuniylik va shaffoflik prinsiplariga rioya qilinishiga zamin yaratadi.

Ijtimoiy sohadagi ma'muriy organlarning keyingi amalga oshiradigan ishlari bevosita o'z sohasida uchrab turadigan

huquqbuzarliklarning oldini olish va fuqarolar hamda yuridik shaxslarni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlarni yuritish bilan bog'liq bo'lib bu ilmiy tilda **yurisdiktsiyaviy ma'muriy protsess** deb nomlanadi. Ijtimoiy sohadagi ommaviy boshqaruv organlarining bevosita yurisdiktsiyaviy ma'muriy protsess bilan shug'ullanish vakolatlari kam bo'lishi yoki umuman bo'lmasligi ham mumkin. Ammo bu ularning o'z sohasida uchrab turadigan huquqbuzarliklarning oldini olish va fuqarolar hamda yuridik shaxslarni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlar bilan shug'ullanmasligini anglatmaydi. Shunday qilib, yuqoridagi uchta ommaviy boshqaruv organi misolida ko'rib chiqishni davom ettiramiz.

Ijtimoiy sohadagi ommaviy boshqaruv organining nomi	Ijtimoiy sohadagi ommaviy boshqaruv organida yurisdiktsiyaviy ma'muriy protsess
O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi	Xususan, davlat sanitariya nazorati organlari MJTKning 53-moddasi «Sanitariya qonun hujjatlarini buzish», 54-moddasi «Epidemiyalarga qarshi kurash qoidalarini buzish», 55-moddasi «Radiatsion xavfsizlikka doir qoidalar, normalar, yo'riqnomalar va boshqa talablarni buzish», 85-moddasi «Ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlarni atmosfera havosiga chiqarib tashlash, unga zararli fizikaviy ta'sir ko'rsatish yoki atmosfera havosidan belgilangan talablarni buzgan holda foydalanish», 86-moddasi «Atmosferaga chiqariladigan zararli moddalarni tozalash inshootidan foydalanish qoidalarini buzish, shuningdek, undan foydalanmaslik»,

	<p>88-moddasi «Atmosfera havosini muhofaza qilish talablariga rioya qilmaslik», 89-moddasi «O'simliklarni himoya qilish vositalari va boshqa dorilarni tashish, saqlash va qo'llanish qoidalalarini buzish», 95-moddasi «Tabiiy muhitni tiklash, tabiiy zaxiralarни qayta hosil qilish va tabiiy muhitga zararli ta'sir ko'rsatish oqibatlarini bartaraf etish choralarini ko'rмаганлик», 87-moddasi «Chiqindilarda iflosantiruvchi moddalar normativdan ortiq bo'lgan transport va boshqa harakatlanuvchi vositalar va qurilmalarni tayyorlash hamda foydalanishga chiqarish», 96-moddasi «Loyihalarni davlat ekologik (sanitariya-ekologik) ekspertizasining ijobiy xulosasisiz ro'yogha chiqarish».</p>
«O'zbekkino» Milliy agentligi	MJTKning 165-moddasiga muvofiq «Faoliyat bilan litsenziyasiz va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug'ullanish» bilan bog'liq bo'lgan ishlar bo'yicha yurisdiktsiyaviy ma'muriy protsessni amalgga oshiradi.
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita	MJTKning 165-moddasiga muvofiq «Faoliyat bilan litsenziyasiz va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug'ullanish» bilan bog'liq bo'lgan ishlar yuzasidan yurisdiktsiyaviy ma'muriy protsessni amalgga oshiradi.

Demak, ijtimoiy sohadagi organlar ham ma'lum darajada xususiy huquq subyektlarining huquqqa xilof bo'lgan harakatlari uchun ularni belgilangan tartibdagi javobgarligi masalasiga old ishlarni yuritish bilan shug'ullanadi.

### **Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol:**

A. ismli fuqaro ish topishda yordam ko'rsatishni so'rab tuman Bandlik va mehnat munosabatlari bo'limiga murojaat qildi. Ammo mazkur ommaviy boshqaruv organi uni bordaniga ishsiz sifatida ro'yxatga olishdan bosh tortdi. Mutasaddilarning ta'kidlashicha, ushbu jarayonning o'z qonun-qoidasi, tartib-taomili bor ekan. Oradan 3 hafta o'tdi, ammo ish topishga ko'maklashish masalasida tuman Bandlik va mehnat munosabatlari bo'limidan xabar yo'q. So'ngra fuqaro A. mazkur ommaviy boshqaruvi organi ustidan tuman prokuraturasiga murojaat qildi. Prokuratura mazkur bo'limga taqdimnomaga jo'natdi va aniqlangan qonun buzilishi masalasi yuzasidan ish boshladi. Lekin oradan ikki kun o'tgach, fuqaro A. nizolashayotgan organ va prokuratura xodimi bilan birga bo'ladigan yuzma-yuz uchrashuvga kelishdan bosh tortdi. Uning ta'kidlashicha, u ikki kun avval ish topgan va endi ushbu masala uni qiziqtirmasligini bildirdi. Shu tariqa u o'z-o'zidan mazkur nizodan bosh tortishini bildirdi.

*Vaziyatga huquqiy baho bering.*

*Fuqaroni ishsiz deb topish tartib-taomilini tushuntiring.*

*Fuqaro A.ning oxirgi xatti-harakatiga huquqiy baho bering.*

### **7.4. Ma'muriy-siyosiy sohani ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi boshqaruv organlari faoliyatida ma'muriy protsess**

Ma'muriy-siyosiy sohadagi ommaviy boshqaruv organlari faoliyati fuqarolarning tinchligi va osoyishtaligi, xavfsizligi va huquqiy barkamolligi, yuridik shaxslarning o'z sohalarida barqaror faoliyat yuritishi, jamoat tartibi va o'zaro manfaatli tashqi siyosat olib borishi, mamlakat mudofaasi yo'nalishlariga ixtisoslashgan ijro hokimiyatining tuzilmalari hisoblanadi. Ushbu sohadagi ommaviy boshqaruv organlarining ham kundalik faoliyatida to'rtta tasnidagi ma'muriy protsess har kuni davom etadi. Boshqa sohalardagi kabi ushbu yo'nalishda ham asosiy ish boshqaruvga oid bo'lgan ma'muriy protsessda kechadi. Xususan:

<b>Ma'muriy-siyosiy sohadagi ommaviv boshqaruv organining nomi</b>	<b>Ma'muriy-siyosiy sohadagi ommaviv boshqaruv organining boshqaruvga oid bo'lgan ma'muriy protsessida amalga oshiradigan vazifalari</b>
<b>O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi</b>	<p>1) O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi, suvereniteti, xavfsizligi, hududiy yaxlitligi va chegaralari daxlsizligini, shuningdek, boshqa milliy manfaatlarini himoya qilishni siyosiy-diplomatik va xalqaro-huquqiy vositalar orqali ta'minlash;</p> <p>2) O'zbekiston Respublikasining yagona tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy siyosati amalga oshirilishini ta'minlash, xalqaro hamkorlikning milliy manfaatlarga daxldor masalalari bo'yicha tegishli vazirlik va idoralarning, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyatini, shu jumladan, o'zining hududiy bo'linmalari orqali muvofiqlashtirish;</p> <p>3) O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va ilgari surish, savdo-iqtisodiy aloqalarни rivojlantirish, chet el investitsiyalari va ilg'or texnologiyalarni jalb qilish, milliy tovarlar va xizmatlarni jahon bozorlarida targ'ib etish hamda mamlakat bo'ylab sayyoohlar oqimining ko'payishi uchun qulay tashqi siyosiy sharoitlar yaratish;</p> <p>4) tegishli vazirlilik va idoralar bilan birlgilikda xorijiy sheriklarning savdo-iqtisodiy, moliyaviy-investitsiyaviy va ilmiy-texnikaviy salohiyati, ular bilan o'zaro hamkorlikning darajasi va ko'lami, ularning xalqaro munosabatlar tizimidagi roli va o'rnidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini inobatga olgan holda tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish;</p>

5) O'zbekistonning siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya-viy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalar-dagi xalqaro tashabbuslarini, shuningdek, mintaqaviy va global taraqqiyotning muhim masalalari bo'yicha mamlakatning nuqtayi nazari va yondashuvlarini ilgari surish;

6) xalqaro munosabatlarning rivojlanish tendensiyalarini tizimli tahlil qilish, yuzaga kelayotgan jahon siyosiy-iqtisodiy jarayonlar dinamikasidan va xavfsizlik sohasidagi vaziyatdan kelib chiqadigan O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy manfaatlariga potensial xavflarni prognoz qilish va aniqlash, shuningdek, ularni o'z vaqtida bartaraf etishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

7) O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatning ishonchli va mas'uliyatli sherik sifatidagi ijobiy imijini shakllantirish va saqlash;

8) O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari to'g'risida xolis axborotni har tomonlama yetkazish bo'yicha xorijiy mamlakatlarda faol axborot-targ'ibot ishlarini olib borish;

9) xorijda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslarining huquq va qonuniy manfaatlarini diplomatik va xalqaro huquqiy vositalar orqali himoya qilish;

10) xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan samarali aloqalar va muloqotlarni yo'lga qo'yish hamda qo'llab-quvvatlash, shuningdek, chet davlatlardagi o'zbek diasporasi vakillari bilan o'zaro hamkorlik qilish;

11) diplomatik kadrlarni kasbiy tayyorlashni, shuningdek, vazirlik tizimi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil qilish.

**O'zbekiston  
Respublikasi Adliya  
vazirligi**

- 1) yagona davlat huquqiy siyosatini yuritish, huquq ijodkorligi faoliyatini muvo-fiqlashtirish va samaradorligini oshirish;
- 2) davlat boshqaruvi tizimi samaradorligini, ushbu sohada tegishli islohotlarni amalga oshirish bo'yicha asoslangan takliflarni ishlab chiqqan holda kompleks va tanqidiy tahvil qilish;
- 3) qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosi bo'yicha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini muvo-fiqlashtirish va uslubiy rahbarlikni amalga oshirish;
- 4) davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida huquqni qo'llash amaliyotini izchil va bir xilda ta'minlash bo'yicha choralarни amalga oshirish;
- 5) nodavlat notijorat tashkilotlarning faoliyatini rivojlantirish sohasida davlat siyosatini yuritish, ularning davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat tashkilotlari (keyingi o'rirlarda davlat organlari va tashkilotlari deb yuritiladi) bilan o'zaro hamkorligini tashkil qilishga ko'maklashish;
- 6) ma'muriy tartib-taomillar va davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- 7) davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari faoliyatini muvo-fiqlashtirish, nazorat qilish va uslubiy ta'minlash;
- 8) huquqiy targ'ibotni amalga oshirish, aholiga qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mohiyati va ahamiyatini yetkazish, aholining huquqiy savodsizligini yo'q qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining huquqiy targ'ibot sohasidagi ishlarni muvo-fiqlashtirish;

9) huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash;

notariat, advokatura hamda jismoniy va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa tuzilmalar tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;

10) fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini huquqiy himoya qilish bo'yicha choralarini amalga oshirish;

xalqaro-huquqiy hamkorlikni yo'lga qo'yish va mustahkamlash, xalqaro shartnomalarni huquqiy ekspertizadan o'tkazish;

11) xalqaro va xorijiy tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi manfaatlarining huquqiy himoyasini ta'minlash, xalqaro hamjamiyat, xorijiy investorlarni milliy huquq tizimi va o'tkazilayotgan huquqiy islohotlar haqida o'z vaqtida xabardor qilish;

12) yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish, yurisprudensiya sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishni ta'minlash;

13) sud ekspertlik faoliyatini rivojlan-tirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish, sud ekspertlarini tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini muvofiqlash-tirish;

14) adliya organlari va muassasalari faoliyatida, birinchi navbatda aholiga huquqiy xizmat ko'rsatish va davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ishlashning innovatsion uslublarini joriy qilish;

15) intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish.

**O'zbekiston  
Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi  
huzuridagi Narkotik  
moddalarni nazorat  
qilish milliy axborot  
tahlil markazi**

- 1) O'zbekiston Respublikasining narkotik moddalarni nazorat qilish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi va asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishni tashkil etish;
- 2) narkotik moddalarni nazorat qilish masalalari bo'yicha hamkorlik qilish to'g'risida davlat dasturi va davlatlararo hujjatlar loyihalari yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;
- 3) giyohvandlikning ahvoli, ham milliy, ham xalqaro darajalarda narkotik moddalar, psixotrop moddalar va prekursorlarning noqonuniy ishlatilishiga qarshi kurashishni takomillashtirish masalalari bo'yicha hukumatga, Narkotik moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat komissiyasiga tegishli tahliliy materiallar va takliflarni tayyorlash;
- 4) ma'lumotlar bankini yig'ish va ularni shakllantirish, umumlashtirish va har tomonlama tahlil qilish, shuningdek, giyohvandlikning oldini olish hamda respublikada va uning tashqarisida narkotik moddalar ustidan nazorat qilish masalalari bo'yicha manfaatdor vazirliklar, idoralar, tashkilotlarga, shu jumladan, xalqaro tashkilotlarga tegishli axborotni belgilangan tartibda berish;
- 5) boshqa mamlakatlarning narkotik moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha markaziy organlari, tegishli xizmatlari va tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikni o'z vakolati doirasida o'rnatadi va amalga oshiradi, axborot ayrboshlashni belgilangan tartibda tashkil etadi;
- 6) narkotik moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha xalqaro faoliyatni tartibga soluvchi konvensiyalar va qoidalarining O'zbekiston Respublikasi tomonidan bajarilishi yuzasidan BMTga yillik ma'ruzalar tayyorlaydi;

7) giyohvandlikning oldini olish va narkotik moddalarning noqonuniy ishlatalishiga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro va respublika tajribasini o'rganadi, umumlashtiradi va tarqatadi, milliy va xalqaro seminarlar, konferensiylar va simpoziumlarni tayyorlash va o'tkazishda respublika davlat boshqaruv organlariga o'z vakolati doirasida yordam ko'rsatadi;

8) vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga giyohvandlik yoyilishining oldini olish va narkotik moddalarning noqonuniy ishlatalishiga qarshi kurashish bilan bevosita shug'ullanuvchi ularga qarashli bo'linmalar faoliyatini tashkil etishda o'z vakolati doirasida tegishli uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi;

9) Narkotik moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat komissiyasiga budjetdan ajratildigan, shuningdek, korxonalar, muassasalar, xususiy shaxslar, xalqaro fondlar va tashkilotlardan kelib tushadigan O'zbekiston Respublikasi hududida giyohvandlikni bartaraf etish hamda narkotik moddalarning noqonuniy ishlatalishiga qarshi kurashishga yo'naltirilgan moliyaviy mablag'lardan foydalanish bo'yicha takliflar kiritadi.

Ushbu vakolatlar bevosita boshqaruvga oid bo'lib, mazkur jarayonlarda asosan davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari orasida ijtimoiy munosabatlar kechadi. Aniqrog'i, davlat mexanizmining o'zida o'z-o'zini tartibga solish jarayonlari amalga oshiriladi va ushbu jarayonlarda fuqarolar va xususiy yuridik shaxslar ishtirok etmaydi. Shu bilan birga, ushbu jarayonlarning asosiy maqsadi xususiy huquq subyektlariga davlat xizmatlari ko'rsatilishini sifatli yo'lga qo'yishga, ish samaradorligini oshirishga qaratiladi. Boshqaruvga oid bo'lgan ma'muriy protsessning katta ko'lamga

ega ekanligini e'tiborga olib, uni internal, vertikal va gorizontal kichik guruhlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq.

**Internal boshqaruvga oid bo'lgan ma'muriy protsess-**ning o'ziga xos xususiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– ma'lum bir tashkilot ichida kechadigan boshqaruvga oid munosabatlar, bunda butun bir soha yoki tizim nazarda tutilmaydi, balki mazkur tizimning bir idorasi, boshqarmasi, vazirlik apparati idorasi nazarda tutiladi;

– mazkur idorada takrorlanib turish xususiyatiga ega bo'lgan, doimiy amalga oshiriladigan boshqaruvga oid ijtimoiy munosabatlarni tashkil etadi.

**Ma'muriy-siyosiy** sohadagi ommaviy boshqaruv organlarida internal boshqaruvga oid bo'lgan ma'muriy protsessga misol sifatida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimini keltiramiz. Misol uchun, Samarqand viloyati adliya boshqarmasi boshlig'i:

– vazirlikning viloyat boshqarmasi faoliyatiga umumiylah barlik qilish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoni va qarori, Vazirlar Mahkamasining qarori va boshqa qonun hujjatlari, shuningdek, vazirlik hujjatlari bilan ushbu tuzilmaga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishini tashkil etish;

– viloyat boshqarmasi faoliyati bilan bog'liq prognoz ko'rsatkichlarga erishishni so'zsiz ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qabul qilish;

– viloyat boshqarmasi xodimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va topshiriqlari ijrosini ta'minlash, ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari samarali va natijali ijro etilishi, shuningdek, ijro intizomi mustahkamlanishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasi va uning komplekslari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, jumladan, barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to'g'risida»gi 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-sonli qarori va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq topshiriqlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun viloyat boshqarmasi xodimlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlarini ko'rish;

- tegishli tuzilmaning mansabdor shaxslarining vakolatlarini belgilash, hududiy tuzilma faoliyatining alohida tarmoqlariga rahbarlik qilish uchun ularning shaxsiy javobgarligi darajasini belgilash;
- viloyat boshqarmasi faoliyatini rejalashtirishni tashkil etish, hududiy tuzilmaning har choraklik ish rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlash;
- viloyat boshqarmasi kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, ularning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, hududiy tuzilma kadrlar zaxirasini shakllantirish kabi vazifalarini bajaradi.

Ushbu masalalarning barchasi bir idora ichida bo'lib o'tadigan jarayonni bildirib, ushbu jarayonlarda yuqori yoki quyi turuvchi yoki boshqa bir ommaviy boshqaruv organi hal qilishi mumkin bo'lgan munosabatlarni anglatishi bilan internal, ya'ni «ichki» degan ma'noni anglatib, ma'lum bir tizimning alohida bir elementida kechadigan jarayonlarni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida amalga oshiriladigan **vertikal** munosabatlar protsessiga vazirlikning Vazirlar Mahkamasi bilan yoki o'zining tizimiga kiruvchi quyi turuvchi hududiy tuzilmalar bilan bo'ladigan boshqaruvga oid ma'muriy protsessi nazarda tutiladi. Bunga misol sifatida:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi va boshqa davlat organlari ko'rib chiqishi uchun qonun hujjatlarini va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish masalalari bo'yicha takliflar kiritish;
- davlatga tegishli vazirlikning va unga idoraviy mansub tuzilmalarning mol-mulkini o'zining tashkiliy tuzilmasi doirasida bepul foydalanish huquqi bilan bir tarkibiy tuzilmadan boshqa tuzilmaga belgilangan tartibda o'tkazish;
- vazirlik va unga idoraviy mansub tashkilotlar xodimlari tomonidan o'z sohasida ular faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha parametrlar bajarilishini hisobga olgan holda ularni moddiy rag'batlantirish tartibi, miqdori va shartlarini belgilash;
- vazirlik vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha idoralalararo tusdag'i xalqaro shartnomalarni belgilangan tartibda tuzish;

– vazirlik vakolatiga tegishli bo‘lgan masalalar bo‘yicha xalqaro darajada O‘zbekiston Respublikasi manfaatlарини belgilangan tartibda ifodalash<sup>1</sup>;

– xorijiy davlatlarning sudlari va xalqaro arbitrajlarda O‘zbekiston Respublikasining huquqlari va qonuniy manfaatlariiga daxldor huquqiy nizolar bo‘yicha da’vogar va javobgarning vakili sifatida ishtirok etish<sup>2</sup>;

– adliya organlari va muassasalari faoliyatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tegishli tuzilmalar tashkil etish, ularni qayta tashkil etish va tugatish, shuningdek, ularning ustavlari (nizomlari)ni tasdiqlash.

Ushbu munosabatlar vertikal munosabatlar bo‘lib, guvohi bo‘lganingizdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi yoki o‘zining quiy turuvchi organlari bilan bo‘ladigan vertikal munosabatlar ifodalangan.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida boshqaruvga oid bo‘lgan ma’muriy protsessdagi **horizontal** munosabatlarga o‘zlariga bo‘ysunmaydigan, boshqa sohaga tegishli bo‘lgan ommaviy boshqaruv organlari bilan bo‘ladigan munosabatlar nazarda tutiladi. Misol uchun, vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlarga bajarilishi majburiy bo‘lgan:

1. Davlat ro‘yxatidan o‘tmagan normativ-huquqiy tusga ega bo‘lgan hujjatlarni bekor qilish va ijrodan chiqarib olish to‘g‘risida;

2. Qonun hujjatlariga muvofiq bo‘lmagan normativ-huquqiy hujjatlarni bekor qilish, to‘xtatib turish (to‘liq yoki qisman) yoxud ularni qonun hujjatlariga muvofiqlashtirish to‘g‘risida;

3. Ishlab chiqish muddatini ko‘rsatgan holda normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, ular tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga rasmiy sharh berish zarurligi to‘g‘risida;

4. Huquqni qo’llash amaliyoti, fuqarolarning huquqlariga rioya qilish bo‘yicha qonun hujjatlarini bajarish holatini tekshirish

<sup>1</sup> Ushbu yo‘sindagi munosabatlar nazariy jihatdan Xalqaro ommaviy huquq sohasining predmetiga taalluqlidir. Ma’muriy huquq esa mamlakat ichkarisidagi ommaviy boshqaruv organlari bilan bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni o‘rganadi va uni ma’muriy-huquqiy munosabatlar turkumiga taalluqli hisoblaydi.

<sup>2</sup> Bu ham xalqaro ommaviy huquq tarmog‘ining predmetiga taalluqli bo‘lgan munosabat hisoblanadi.

davomida aniqlangan huquqbarliklarga yo'l qo'ymaslik, ularning sodir etilishiga ko'maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida;

5. Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati faoliyati, ma'muriy tartib-taomillar va davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida aniqlangan huquqbarliklarga yo'l qo'ymaslik, ularning sodir etilishiga ko'maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida taqdimnomalarni kiritish huquqiga ega.

– qonun hujjatlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik haqida mansabdar shaxslarini yozma ravishda ogohlantirish;

– normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida zarur statistik ma'lumotlarni, tahliliy materiallarni, hujjatlarni, boshqa axborotlarni, qarorlar va boshqa hujjatlarni, ma'lumotlarni davlat organlari va tashkilotlaridan bepul tarzda so'rash va olish;

– tekshirish va tahlil davomida aniqlangan holatlarga aniqlik kiritish maqsadida davlat organlari va boshqa tashkilotlarning mansabdar shaxslari hamda xodimlarini chaqirish, qonun hujjatlarining buzilishi holatlari yuzasidan og'zaki va yozma tushuntirishlar talab qilish;

– vazirlik vakolatiga kiruvchi masalalarni ko'rib chiqishda davlat organlari va tashkilotlarining hay'at majlislarida ishtirok etish va boshqalar.

Shu tariqa har qanday boshqa ommaviy boshqaruv organlari faoliyatida internal, vertikal va gorizontal munosabatlarga ega bo'lgan boshqaruvga oid ma'muriy protsess doimiy davom etadi. Bularning barchasi ma'muriy-huquqiy ijtimoiy munosabatlar hisoblanib, ma'muriy huquq predmetiga bevosita taalluqlidir.

Ma'muriy-siyosiy sohadagi ommaviy boshqaruv organlari faoliyatidagi keyingi munosabatlar tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsess hisoblanib, bunda davlat xizmatchilar fuqarolar bilan va xususiy yuridik shaxslar bilan ijtimoiy munosabatga kirishadi. Avvalgi paragraflarda ta'kidlanganidek, ushbu jarayon davlat imijini ifodalovchi jarayon bo'lib, uning sifatli va qonuniy o'tishi xususiy huquq subyektlarida davlatga va davlat siyosatiga bo'lgan hurmat va ishonchning ortishiga xizmat qiladi.

Ushbu sohadagi tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsessga quyidagi misolarni keltiramiz:

<b>Ma'muriy-siyosiy sohadagi ommaviy boshqaruv organining nomi</b>	<b>Ma'muriy-siyosiy sohadagi ommaviy boshqaruv organining tartib- taomillarga oid bo'lgan ma'muriy protsessida amalga oshiradigan vazifalar</b>
<b>O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi</b>	<p>Konsullik boshqarmasi va xorijdagi konsullik muassasalari tomonidan jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsess:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>1) O'zbekistonga kirish uchun chet el fuqarolariga vizalarni rasmiylashtirish va berish;</li> <li>2) O'zbekiston Respublikasiga qaytish sertifikatini rasmiylashtirish;</li> <li>3) vaqtinchalik konsullik ro'yxatiga olish;</li> <li>4) doimiy konsullik ro'yxatiga olish;</li> <li>5) O'zbekiston Respublikasining vakolati organlari orqali turli hujjatlarni talab qilish (FHDYo, ta'lif, mehnat faoliyati, pensiya, arxiv ma'lumotnomalari, yo'qotish varaqasi);</li> <li>6) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansub emasligini aniqlash;</li> <li>7) chet elda doimiy yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga pasportlarni rasmiylashtirish va berish/almashtirish;</li> <li>8) chet elda yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining bola tug'ilishi, nikoh tuzish, nikohdan ajratish va o'limini qayd etish;</li> <li>9) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish bo'yicha materiallarni ishlab chiqish;</li> <li>10) fuqarolarni chet elda doimiy yashash uchun qoldirish masalalari bo'yicha materiallarni ishlab chiqish;</li> </ul>

	<p>11) chet elga vaqtinchalik chiqish uchun ruxsatnoma yozuvi stikerini rasmiylashtirish, MDH mamlakatlarida yashovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining sobiq yashash joyidan ko'chirma.</p> <p>Konsullik boshqarmasi va xorijdagi konsullik muassasalari tomonidan jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsess:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1) qayta ishlash va O'zbekistonga kirish uchun xorijiy fuqarolarga viza berish;</li> <li>2) O'zbekiston fuqarosi pasportini qayta tiklash;</li> <li>3) amalga oshirish konsullik sertifikatlash va apostillashtirish.</li> </ol>
<b>O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1) advokatlik faoliyatini litsenziyalash;</li> <li>2) «O'zbekoziqovqatzaxira» uyushmasi tarkibiga kiradigan meva-sabzavot mahsulotlarini tayyorlash va g'amlash korxonalari tomonidan amalga oshiriladigan iste'mol tovarlari ulgurji savdosi;</li> <li>3) vazirlik huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi tomonidan 120 dan ortiq xizmat ko'rsatiladi.</li> </ol>
<b>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Narkotik moddalar ustidan nazorat qilish milliy axborot tahlil markazi</b>	<p>Ushbu ommaviy boshqaruvin organi tartib-taomillarga oid ma'muriy protsess bilan bog'liq ishlarni yuritmaydi</p>

Ma'muriy-siyosiy sohadagi ommaviy boshqaruvin organlарining keyingi ishlari yustitsiyaviy ma'muriy protsess bilan bog'liq bo'lib, tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lган protsessda yuzaga kelgan nizolarni ko'rib chiqishga ixtisoslashganligini ko'rishimiz mumkin. Bunda yuzaga kelgan nizoni tegishli ommaviy boshqaruvin organining rahbariyati yoki yuqori turuvchi organ ko'rib chiqishi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ommaviy boshqaruv organining tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsessida xususiy shaxslar bilan nizolarning tez-tez yuzaga kelishi mazkur organning davlat xizmatchilarining professionalligi va kompetentligiga shubha uyg'otishi, shuningdek, boshqaruv bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsessda kadrlarni joy-joyiga qo'yishda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilayotganligidan dalolat. Shuning uchun yustitsiyaviy ma'muriy protsessning ommaviy boshqaruv organi uchun ham ijobjiy, ham salbiy jihatlari mavjudligini ko'rsatadi. Ijobiy jihatni ular o'z xatolarini aniq ilg'ashi va tuzatish uchun asosli sabab topilishida bo'lsa, salbiy tomoni esa ish ommaviy boshqaruv organining samaradorligi pastligi natijasida xususiy huquq subyektlarida ularga bo'lgan ishonch susayishi va yuqori turuvchi organlar tomonidan ma'lum choralar ko'rlishi mumkinligidadir.

Demak, yustitsiyaviy ma'muriy protsessga odatdagidek quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

<b>Ma'muriy-siyosiy sohadagi ommaviy boshqaruv organining nomi</b>	<b>Ma'muriy-siyosiy sohadagi ommaviy boshqaruv organining yustitsiyaviy ma'muriy protsessida amalga oshiradigan vazifalari</b>	<b>Ma'muriy-siyosiy sohadagi yuqori turuvchi ommaviy boshqaruv organining nomi</b>
<b>Rossiya Federatsiya-sidagi O'zbekiston Respublikasining Konsullik muassasasi yoki elchixonasi asosziz ravishda</b>	Konsullik boshqarmasi va xorijdagi konsullik muassasalari tomonidan jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsess: 1) O'zbekistonga kirish uchun chet el fuqarolariga vizalarni rasmiylashtirish va berishdan bosh tortsa;	O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi yoki Rossiya Federatsiya-sidagi O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasasi yoki elchixonasi rahbariyati ushbu masaladagi yustitsiyaviy ma'muriy

	<p>2) O'zbekiston Respublikasi ga qaytish sertifikatini rasmiylashtirishda ortiqcha byurokratik to'siqlarni yuzaga keltirsa;</p> <p>3) vaqtinchalik konsullik ro'yxatiga olishni qonunlardagi muddatlardan ko'proq muddatga kechiktirsa;</p> <p>4) doimiy konsullik ro'yxatiga olishdan bosh tortsa;</p> <p>5) O'zbekiston Respublikasining vakolatli organlari orqali turli hujjatlarni talab qilishni (FHDYo, ta'lim, mehnat faoliyati, pensiya, arxiv ma'lumotnomalarini, yo'qotish varaqasi) amalgalashmasa;</p> <p>6) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansub emasligini aniqlashni kechiktirsa;</p> <p>7) Chet elda doimiy yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga pasportlarni rasmiylashtirish va berish/almashtirishni amalgalashmasa;</p> <p>8) chet elda yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining bola tug'ilishi, nikoh tuzish, nikohdan ajratish va o'limini qayd etishda ortiqcha byurokratik to'siqlarga yo'l qo'ysa;</p> <p>9) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish bo'yicha materiallarni ishlab chiqishni noma'lum muddatlarga kechiktirsa;</p>	<p>protsessni boshlab mazkur ommaviy-huquqiy nizoni ko'rib chiqishi mumkin.</p>
--	---	---

	<p>10) fuqarolarni chet elda doimiy yashash uchun qoldirish masalalari bo'yicha materiallarni ishlab chiqishni amalga oshirmsa;</p> <p>11) chet elga vaqtinchalik chiqish uchun ruxsatnomalar yozuvini stikerini rasmiylash-tirish, MDH mamlakatlarida yashovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining sobiq yashash joyidan ko'chirma bermasa.</p> <p>Konsullik boshqarmasi va xorijdagi konsullik muassasalari tomonidan jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy protsess:</p> <p>1) qayta ishlash va O'zbekistoniga kirish uchun xorijiy fuqarolarga viza berishni rad etsa;</p> <p>2) O'zbekiston fuqarosi passportini qayta tiklashda ortiqcha byurokratiyaga yo'l quysa;</p> <p>3) amalga oshirish, konsullik sertifikatlashtirish va apositillashtirishni rad etsa.</p>	
<p><b>Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasi asossiz ravishda</b></p>	<p>1) advokatlik faoliyatini litsenziyalashda noqonuniy harakat qilsa;</p> <p>2) «O'zbekoziqovqatzaxira» meva-sabzavot mahsulotlari-ni tayyorlash va g'amlash korxonalari uyushmasi tarkibiga kiradigan meva-sabzavot mahsulotlarini tayyorlash va g'amlash korxonalari tomonidan amalga oshirila-</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yoki Surxondaryo viloyati adliya boshqarmasi rahbariyati ushbu masaladagi yustitsiyaviy ma'muriy protsessni boshlab</p>

	digan iste'mol tovarlari ulgurji savdosini litsenziyalashdan bosh torsa; 3) vazirlik huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi tomonidan 106 ta xizmat ko'rsatilishida qonun buzilishiga yo'l qo'ysa.	mazkur ommaviy-huquqiy nizoni ko'rib chiqishi mumkin.
<b>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Narkotik mod-dalar ustidan nazorat qilish milliy axborot tahlil markazi</b>	Ushbu ommaviy boshqaruv organi tartib-taomillarga oid ma'muriy protsess bilan bog'liq ishlarni yuritmaydi	

Ushbu sohadagi ommaviy boshqaruv organlarining yurisdiktsiyaviy ma'muriy protsessga oid bo'lgan vakolatlari yetarlicha hisoblanadi. Bu ularning sohasi mazmun-mohiyatidan kelib chiqadi. Chunki tashqi siyosatni samarali amalga oshirish, huquqiy targ'ibotni muvaffaqiyatlari amalga oshirish va qonuniylikni ta'minlash masalalari yoki jamoat va davlat xavfsizligini ta'minlash masalalari o'z-o'zidan amalga oshiriladigan jarayon emas. Shunday ekan, ushbu organlarning yurisdiktsiyaviy ma'muriy protsessga oid vakolatlari tabiiy ravishda ko'proqni tashkil etishi mumkin.

Demak, ushbu ma'muriy protsessni yuqoridagi organlar misolida tahlil qilishda davom etamiz.

<b>Ma'muriy-siyosiy sohadagi ommaviy boshqaruv organining nomi</b>	<b>Ma'muriy-siyosiy sohadagi ommaviy boshqaruv organining yurisdiktsiyaviy ma'muriy protsessida amalga oshiradigan vazifalari</b>
<b>O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi</b>	Ushbu ommaviy boshqaruv organi bevosita yurisdiktsiyaviy ma'muriy protsess bilan bog'liq ishlarni yuritmaydi

<b>O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi</b>	MJTKning 2155-moddasi. «Davlat xizmatlari ko'rsatish sohasidagi qonun hujjatlarini buzish», 2452-modda. «Adliya organlari» O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan normativ-huquqiy hujjatlar vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning mansabдор shaxslari tomonidan amalga kiritilganligi fakti aniqlanganda, adliya organlarining mansabдор shaxslari ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnomma tuzadi.
<b>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Narkotik moddalar ustidan nazorat qilish milliy axborot tahlil markazi</b>	Ushbu ommaviy boshqaruvi organi bevosita yurisdiktsiyaviy ma'muriy protsess bilan bog'liq ishlarni yuritmaydi

Ushbu misollardagi ommaviy boshqaruvi organlari o'z faoliyati davomida yurisdiktsiyaviy ma'muriy protsessga taalluqli vakolatlari kam bo'lishiga qaramasdan, ma'muriy-siyosiy sohadagi aksariyat ommaviy boshqaruvi organlarining ushbu yo'nalishdagi vakolatlari yetarli hisoblanadi. Jumladan, Ichki ishlar vazirligini va unga bo'ysunuvchi tashkilotlar, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, prokuratura organlarining, Davlat xavfsizligi hamda Milliy gvardiya organlarining ushbu protsessdagi vakolatlari O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida o'z aksini topgan.

### Yodda tuting!

**Ma'muriy-siyosiy sohadagi ommaviy boshqaruvi organlari faoliyatidagi ma'muriy protsess** – bu tegishli organlarning boshqaruvi, davlat xizmatlarini ko'rsatish, ommaviy-huquqiy nizo va qoida tariqasida huquqbuzarliklarga oid ishlarni hal qilishga qaratilgan kundalik amalga oshiradigan qonuniy faoliyati tushuniladi.

### **Paragraf mazmunini o'zlashtirish uchun kichik kazusli misol:**

2018-yil fevral oyida Rossiya Federatsiyasi Moskva shahridagi O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasasiga O'zbekiston Respublikasining Moskva shahrida rasmiy muhojirlikda ishlab yurgan A. ismli fuqaro yordam so'rab murojaat qildi. Uning ta'kidlashicha, u bilan birga ishlayotgan yaqin qarindoshi avtotransport hodisasi natijasida vafot etgan va uning jasadini O'zbekiston Respublikasining Xorazm viloyatiga samolyotda «Yuk 200» maqomida jo'natishda yordam berishini so'rab murojaat qilgan. Shu bilan birga, A. ismli fuqaro o'zi faoliyat yuritadigan «Jemchujina» nomli restoran rahbari, ya'ni o'zining rahbaridan jasadni jo'natish maqsadida og'zaki kelishuv asosida 150 ming rubl olgan, shuningdek, avtohalokat sababchisi bo'lgan B. ismli shaxsdan ham 100 rubl pul olgan. Ushbu faktlar oydinlashgach, konsullik muassasasi vakillari unga yordam berishdan bosh tortgan. Ommaviy boshqaruv organining vajji sifatida A. ismli fuqaroning jasadni mustaqil ravishda jo'natishga mablag'i yetarliliqi sabab qilib ko'rsatilgan.

*Vaziyatga huquqiy baho bering.*

*Xorijiy mamlakatlardagi O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalarining «Yuk 200» maqomidagi yuklarni jo'natishda yordamlashish majburiyati mavjudmi?*

*Ushbu jarayon ma'muriy-huquqiy munosabatlarga taalluqlimi?*

## **VII bobni o'zlashtirish bo'yicha KROSSVORD**

### **Bo'yiga:**

1. Ma'muriy protsess – bu boshqaruv, davlat xizmatini ko'rsatish, ommaviy-huquqiy nizo va qoida tariqasida huquqbuzarliklarga oid ishlarni hal qilishga qaratilgan ommaviy boshqaruv organlarining kundalik amalgaga oshiradigan ... faoliyatiga aytildi.

2. Ommaviy boshqaruv organi ma'lum bo'g'inining ichida amalgaga oshiriladigan ma'muriy protsess.


3. Ma'muriy tartib-taomillar natijasida beriladigan hujjat.

4. Yo'l xo'jaligi sohasidagi xalqaro va hududiy hamkorlikni rivojlantirish hisobidan jahon transport xizmatlari bozorida O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarini ta'minlash vazifasi yuklatilgan vazirlilik.

### **Eniga:**

5. Tartib-taomillarni amalga oshirish natijasida yuzaga kelgan nizo sababli boshlanadigan ma'muriy protsess.

6. Konsullik muassasalari tomonidan amalga oshiriladigan ma'muriy harakat natijasida qo'yiladigan shtamp.



## VIII bob. MA'MURIY TARTIB-TAOMILLAR

### 8.1. Ma'muriy tartib-taomillar tushunchasi va uning ahamiyati

Ma'muriy tartib-taomillar<sup>1</sup> tushunchasi O'zbekiston huquq tizimida yangi huquqiy termin hisoblanib, ushbu tushuncha 2018-yil 8-yanvarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonunida belgilab o'tilgan. Ushbu qonunning asosiy vazifalari ma'muriy organlar bilan munosabatlarda qonun ustuvorligini, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashdan iborat.

Ma'muriy tartib-taomillar ma'muriy organlar hamda manfaatdor shaxslar o'rtasidagi ma'muriy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan jarayon bo'lib, taraflarni ko'rib chiqiladigan ish yuzasidan xabardor qilishdan boshlanib, qaror chiqarishgacha bo'lган turli bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ma'muriy tartib-taomillar instituti davlat boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini oshirish orqali korrupsiyaga qarshi kurashishga xizmat qilishi bilan ham e'tiborga molikdir. Ma'muriy tartib-taomillarsiz davlat boshqaruvida shaffolikni ta'minlab bo'lmaydi, bu esa lavozim suiiste'molchiligi va poraxo'rlikka, ma'muriy ish yuritish jarayonida jismoniy va yuridik shaxslar huquqlarining buzilishiga yo'l ochadi.

O'zbekiston Respublikasi «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasiga ko'ra ma'muriy tartib-taomil ma'muriy organlarning ma'muriy-huquqiy faoliyatini tartibga soluvchi protsessual qoidalardir.

#### Yodda tuting!

**Ma'muriy tartib-taomil** – ma'muriy organlarning ma'muriy-huquqiy faoliyatini tartibga soluvchi protsessual qoidalardir.

Mazkur tushunchani anglab olish uchun «ma'muriy organ» tushunchasini bilib olish lozim.

<sup>1</sup> Ayrim manbalarda «ma'muriy protseduralar» deb ham nomlanadi.

Ma'muriy organlar bu ma'muriy-huquqiy faoliyat sohasida ma'muriy boshqaruv vakolati berilgan organlar, shu jumladan, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek, ushbu faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa tashkilotlar va maxsus tuzilgan komissiyalardir.



Ma'muriy tartib-taomillar haqida tasavvur hosil qilish uchun quyidagi muammoli vaziyatni tahlil qilamiz:

#### **Muammoli vaziyat**

Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish maqsadida fuqaro A. o'zi joylashgan hududdagi adliya boshqarmasiga murojaat qildi. Adliya boshqarmasi fuqaro A.ning hujjatlari bilan tanishish davomida uning advokatlik tuzilmasida stajirovka o'tamaganligini asos qilib ko'rsatib, litsenziya berishni rad etdi. Bunga javoban fuqaro A. o'zining yuridik sohada 3 yillik stajga ega ekanligini va qiyinchiliklarsiz malaka imtihonini topshira olishini, stajirovka o'tamagan bo'lishiga qaramasdan

ham advokatlik faoliyati bilan bog'liq qonunchilikdan yaxshi xabardorligini e'tirof etdi hamda litsenziya berishni iltimos qildi. Agar litsenziya berishni rad etsa, asossiz ravishda litsenziya berishni rad etganligi uchun adliya boshqarmasi ustidan ma'muriy sudga shikoyat qilishini ma'lum qildi.

Mazkur kazusda adliya boshqarmasi ma'muriy organ hisoblanadi.

Sababi adliya boshqarmasiga ma'muriy-huquqiy faoliyat sohasida ma'muriy boshqaruva vakolati berilgan (litsenziya berish). O'z navbatida, litsenziya berish ma'muriy tartib-taomillar asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonunining 3-moddasiga ko'ra ushbu qonun litsenziyalash sohasiga tatbiq etiladi.

### **Ma'muriy tartib-taomillarning ikkita ko'rinishi mavjud:**

1. Doiraviy ma'muriy tartib-taomillar;
2. Maxsus ma'muriy tartib-taomillar.

Doiraviy ma'muriy tartib-taomillar deganda, ma'muriy ishlarning barcha toifalari uchun majburiy bo'lgan tartibotlarning eng kam miqdori tushuniladi. Doiraviy tartib-taomillar ma'muriy-huquqiy faoliyatning har qanday sohasi yoki tarmog'ida, xususan, bojxona munosabatlarida yoki litsenziya berishda, istalgan ma'muriy ishni ko'rib chiqishda amal qilishi shart. Jumladan, Bojxona kodeksida o'z maxsus tartib-taomili, litsenziyalashga oid qonunchilikda o'zining tartib-taomili ko'zda tutilishi mumkin. Ushbu barcha tartib-taomillar doiraviy tartib-taomillarga mos kelishi kerak.

Doiraviy ma'muriy tartib-taomillar barcha ma'muriy organlar uchun majburiy bo'lgan, ya'ni barcha ma'muriy organlar va ularning mansabдор shaxslari tomonidan ma'muriy ishlarni qo'zg'atish va ko'rib chiqish, ma'muriy qarorlarni qabul qilish jarayonida amal qilinishi shart bo'lgan asosiy talab (qoida) lardir.

Ma'muriy organlar faoliyati sohalari, ular oldiga qo'yilgan vazifalar kabi xilma-xilligi bilan farqlanadi. Alovida sohalarda ma'muriy-huquqiy faoliyatning o'ziga xosligi maxsus tartib-taomillarda aks ettirilishi lozim. Maxsus tartib-taomillarning mohiyati shundaki, ular chegarasidan tashqariga chiqmay, doiraviy ma'muriy tartib-taomillarda ko'zda tutilgan ayrim qoidalarni

aniqlashtiradi. Masalan, ular ma'muriy ishni ko'rib chiqishning qisqaroq muddatini, rad etishning batafsil tartibini ko'zda tutishi mumkin.

## **8.2. O'zbekiston Respublikasining «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonunining ahamiyati va uning qo'llanish sohasi**

O'zbekiston Respublikasining «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonuni jami 7 bob 88 moddadan tashkil topgan bo'lib, Qonunning asosiy vazifalari ma'muriy organlar bilan munosabatlarda qonun ustuvorligini, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashdan iborat.

Qonun umumiy xarakterga ega bo'lib, ma'muriy tartib-taomillarni amalga oshirishga doir u yoki bu munosabatlar maxsus ma'muriy tartib-taomillarni belgilovchi qonun hujjatlari bilan tartibga solinmagan hollarda ushbu qonun normalari qo'llanilishi belgilangan.

### **O'zbekiston Respublikasining «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonuni**

#### **Qo'llanadi**

Ma'muriy organlarning manfaatdor shaxslarga nisbatan ma'muriy-huquqiy faoliyatiga, shu jumladan, litsenziya, ruxsat berish, ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillariga, davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq boshqa tartib-taomillarga, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa ma'muriy-huquqiy faoliyatga nisbatan tatbiq etiladi.

#### **Qo'llanmayadi**

Qonun normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini undirish, davlat xizmatini o'tash, referendumlar, saylovlar o'tkazish, mudofaa, jamoat xavfsizligi va huquq-tartibot sohasida, shuningdek, tezkor-qidiruv faoliyati, surishtiruv, dastlabki tergov, jinoi majburlov choralarini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan boshqa faoliyat, sud ishini yuritish, ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish sohasida yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Ushbu Qonun ma'muriy organlarning manfaatdor shaxslarga nisbatan ma'muriy-huquqiy faoliyatiga, shu jumladan, litsenziya, ruxsat berish, ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillariga, davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq boshqa tartib-taomillarga, shuningdek, qonun hujjatlari muvofiq boshqa ma'muriy-huquqiy faoliyatga nisbatan tatbiq etiladi. Qonun normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish, davlat xizmatini o'tash, referendumlar, saylovlar o'tkazish, mudofaa, jamoat xavfsizligi va huquq-tartibot sohasida, shuningdek, tezkor-qidiruv faoliyati, surishtiruv, dastlabki tergov, jinoi majburlov choralarini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan boshqa faoliyat, sud ishini yuritish, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish sohasida yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu qonunning qo'llanilish sohasiga kiruvchi munosabatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi (Qonunning 3-moddasi). Bunda ariza va shikoyatlar bilan ma'muriy organlarga murojaat qilish kabi masalalarda ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qoidalarning tatbiq etilishini ta'kidlash joiz bo'ladi.

«Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonunning qo'llanish sohasini quyidagi muammoli vaziyatlar orqali tahlil qilish mumkin.

### Muammoli vaziyat

2014-yil 20-mart kuni fuqaro K. Rashidov pensiya yoshiga yetgani munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Andijon viloyati Shahrixon tuman bo'limiga murojaat qildi. Bo'lim xodimi fuqaro K. Rashidovga olib kelishi lozim bo'lgan hujjatlar ro'yxatini taqdim qildi. Lekin hujjatlar ro'yxati ichida fuqaro K. Rashidov 1990–1995-yillarda ishlagan tashkilot hozirda o'z faoliyatini tugatganligi uchun ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnomani topishning iloji bo'lmasligini ijtimoiy ta'minot bo'limi xodimiga aytib o'tdi. Bo'lim xodimi u holda fuqaro K. Rashidovni arxivga borishini ta'kidlab o'tdi. Arxivga borganda arxiv idorasini yangi binoga ko'chib o'tganligi uchun, ko'chish jarayonida fuqaro K. Rashidov 1990–1995-yillarda ishlagan tashkilotga tegishli hujjatlar yo'qolganligini aytib, bu masalada O'zbekiston Respublikasi «O'zarxiv» agentligiga murojaat qilish lozimligini aytib o'tdi.

Mazkur muammoli vaziyatdagi huquqiy munosabatlar (fuqaro K. Rashidov va pensiya jamg'armasi o'rtasida) ma'muriy tartib-taomillar asosida bo'ladi. Ushbu munosabatlarga «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonun tatbiq etiladi.

### **Muammoli vaziyat**

Fuqaro L. 2007-yil mart oyidan to 2015-yil aprel oyiga qadar ichki ishlar tizimlarida turli lavozimlarda, oxirgi vaqtida Andijon viloyati Asaka tumani ichki ishlar bo'limi Jinoyat qidiruv va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'linmasi terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurashish guruhi tezkor vakili lavozimida xizmat qilgan.

Fuqaro L. Andijon viloyati IIB 2015-yil 20-apreldagi 18-sh/t-sonli buyrug'i bilan ishdan bo'shatilgan.

Shundan keyin u O'zbekiston Respublikasi IIV rahbariyatiga ichki ishlar idoralariga qayta qabul qilishda amaliy yordam berishni so'rab ariza bilan murojaat qilgan. Uning murojaatiga asosan O'zbekiston Respublikasi IIV Shaxsiy tarkib bilan ishslash xizmati boshlig'i birinchi o'rinbosari tomonidan 2017-yil 17-noyabrdagi 3-sh/58-sonli javob xati bilan uni ichki ishlar idoralari xizmatiga qayta qabul qilish maqsadga muvofiq emas, deb topilgan.

Mazkur muammoli vaziyatdagi munosabatga «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonun qo'llanilmaydi. Sababi, ushu munosabat davlat xizmatiga taaluqlidir.

«Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonunning yana bir muhim jihatlaridan biri unda ma'muriy tartib-taomillarning qonuniylik, mutanosiblik, ishonchlilik, tinglanish imkoniyatining mavjudligi, manfaatdor shaxslar huquqlarining ustunligi, byurokratik rasmiyatchilikka yo'l qo'yilmasligi, mazmunan qamrab olish, ma'muriy ish yuritishning «bir darcha» orqali amalga oshirilishi, teng huquqlilik, ishonchning himoya qilinishi, ma'muriy ixtiyoriylikning (diskretsiyaviy vakolatning) qonuniyligi, tekshirish, ma'muriy tartib-taomillarning ochiqligi, shaffofligi va tushunarlligi kabi bir qator asosiy prinsiplari keltirib o'tilgan.

Qonunda, shuningdek, manfaatdor shaxslar ma'muriy ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirmalar olish, nusxa ko'chirish, rad qilish to'g'risida arz qilish, dalillar taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, ma'muriy ish yuritishda ishtirok

etuvchi boshqa shaxslarga savollar berish, ma'muriy ish yuritish bo'yicha arz qilish, iltimosnomalar berish, ma'muriy organga og'zaki va yozma tushuntirishlar berish, ma'muriy ish yuritish davomida kelib chiqadigan barcha masalalar bo'yicha o'z vajlarini bayon etish, boshqa manfaatdor shaxslarning arizalari, iltimosnomalari va vajlariga qarshi e'tiroz bildirish, ma'muriy va protsessual hujjatlar, shuningdek, ma'muriy harakatlar ustidan shikoyat qilish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan (Qonunning 24-moddasi).

Qonunning yana bir muhim jihatlaridan biri shundaki, unda ma'muriy tartib-taomillarda xolislikni ta'minlash borasida «rad etish» jarayoni tartibga solingan. Jumladan, Qonunning 31-moddasiga ko'ra ma'muriy organning mansabdar shaxsi ma'muriy organ nomidan ma'muriy ish yuritishda ishtirok etishga quyidagi hollarda haqli emas, agar u:

- mazkur ma'muriy ish yuritishda manfaatdor shaxs bo'lsa;
- ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi manfaatdor shaxslardan biri bilan qarindoshlik yoki qayin-bo'yinchilik va qudandachilik munosabatida bo'lsa (bo'lgan bo'lsa);
- ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi manfaatdor shaxslardan birining vakili bo'lsa yoki ilgari uning vakili sifatida ayni shu ma'muriy ish yuritishda ishtirok etgan bo'lsa;
- mazkur ma'muriy ishni yuritishda ma'muriy ishni hal etishga ko'maklashuvchi shaxs sifatida ishtirok etayotgan bo'lsa yoki ilgari ishtirok etgan bo'lsa;
- boshqacha tarzda shaxsan, bevosita yoki bilvosita ma'muriy ishni hal etish natijasidan manfaatdor bo'lsa yoki uning xolisligiga shubha tug'diruvchi boshqa holatlar mavjud bo'lsa.

Ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi manfaatdor shaxslar Qonunning 31-moddasida nazarda tutilgan asoslardan biri mavjud bo'lgan taqdirda, ma'muriy organning mansabdar shaxsi va ma'muriy ishni hal etishga ko'maklashayotgan shaxslarni rad qilish to'g'risida yozma shaklda ariza berishga haqli ekanligi o'rnatib qo'yilgan.

Qonunda shuningdek, ma'muriy tartib-taomillarda tegishli tarzda xabardor qilish (33-modda), dalillar (34-modda) va ularga baho berish (35-modda), ma'muriy ish yuritish muddatlari (36-modda), ish yuritishni to'xtatib turish (37-modda), tiklash (38-modda), tugatish (39-modda)ga oid bir qancha qoidalalar ham o'rnatilgan.

Qonunning 3-bobi ma'muriy ish yuritishga bag'ishlangan bo'lib, unda arizalar yuzasidan ish yurituvga oid bir qancha protseduraviy qoidalar o'rnatilgan.

Ma'muriy akt to'g'risidagi qoidalar Qonunning 4-bobidan o'rin olgan. Jumladan, ma'muriy aktning shakli (52-modda), mazmuniga qo'yilgan talablar (53-modda), ma'muriy aktni asoslantirish (54-modda), ma'muriy aktning kuchga kirishi (55-modda), amal qilishining tugatilishi, ma'muriy aktni bekor qilish, o'zgartirish yoki haqiqiy emas deb topish (59-modda) va ma'muriy aktni bekor qilish tartibiga (60-modda) oid bir qancha muhim qoidalar o'rnatib qo'yilgan.

Ma'muriy tartib-taomillar ma'muriy organlar uchun majburiy bo'lgan ish yurituvning hamma ma'muriy organlar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan yagona va umumiylar qoidalarini o'rnatish barobarida ma'muriy organlar tomonidan assosiz ravishda protseduraviy qoidalarni buzish orqali manfaatdor shaxslarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlariiga daxl qilinishining oldini oladi. Shu ma'noda, ma'muriy organlarning xohlagan paytda, asossiz tarzda o'zlar qabul qilgan qarorlarini o'zgartiraverish imkoniyati qonun bilan cheklandi. Bundan keyin har bir ma'muriy organ o'z ish yuritushi va ma'muriy aktni chiqarish jarayonida albatta «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi qonun talablariga rioya etishiga to'g'ri keladi.

Qonunning 5-bobida ma'muriy shikoyat bo'yicha ish yuritishga oid bir qancha protseduraviy qoidalar o'rnatilgan. Ta'kidlash joizki, mazkur qoidalar u yoki bu tarzda hozirgacha ham turli qonunlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari to'g'risida»gi qonunida ham o'rnatib qo'yilgan edi. Ma'muriy ish yurituvga oid barcha qoidalarning yagona qonunda aks ettirilishi uni amaliyatda qo'llashda turli qiyinchilik, har xil tushunishlarning oldini olish barobarida ijro organlari ishini qulayshtiradi. Shu ma'noda «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi qonunda ma'muriy tartibda shikoyat qilishga oid qoidalar ham o'z ifodasini topganini ko'rish mumkin. Jumladan, ma'muriy shikoyat predmeti (62-modda), shikoyat qilish tartibi (63-modda), shikoyat berish muddati (64-modda), ma'muriy shikoyat shakli va mazmuni (65-modda), ma'muriy shikoyatni ko'rib chiqish (66-modda), ma'muriy shikoyatni ko'rib chiqish muddati (67-modda), ma'muriy

shikoyatni chaqirib olish (68-modda), ma'muriy shikoyat bo'yicha qaror qabul qilish (69-modda) hamda ma'muriy shikoyat qilinganda ma'muriy aktning amal qilishi va ijro etilishining to'xtatib turilishi (70-modda) ga oid muhim protseduraviy qoidalar aks etgan.

Qonunning 7-bobida ma'muriy reglamentlar (84-modda), Qonunning ijrosi, ijrochilarga yetkazilishi, Qonunning mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta'minlash (86-modda), Qonun hujjatlarini ushbu qonunga muvofiqlashtirish (87-modda) hamda qonunning kuchga kirishi (88-modda)ga oid yakuniy qoidalar o'z ifodasini topgan.

Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qonunning eng muhim o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u ma'muriy huquqning umumiy asoslariga oid muhim talab va qoidalarni ham o'zida aks ettiradi. Shu ma'noda mamlakatimizda MTT Qonunining qabul qilinishi ma'muriy huquqning umumiy asoslarini bundan keyin rivojlantirishda muhim huquqiy asos va turtki bo'ldi, deyishga to'la asosimiz mavjud. Quyida ma'muriy tartib-taomillarga oid umumnazariy masalalarga qisqacha to'xtalib o'tishga harakat qilinadi.

### **8.3. Ma'muriy tartib-taomillarning asosiy prinsiplari**

Bugungi kunda ma'muriy-huquqiy faoliyat sohasidagi eng katta muammolardan biri ma'muriy tartib-taomillar prinsiplarini ma'muriy organ tomonidan amalda qo'llanishidir. Germaniyalik olim Ya. Tsikoning ta'kidlashicha, ma'muriy tartib-taomillar prinsiplari sodda, maqsadga muvofiq va tezkor qo'llanishi lozim<sup>1</sup>.

Sodda va maqsadga muvofiq deganda quyidagilarni tushunishimiz mumkin:

Birinchidan, ma'muriy hujjat qabul qilishda aniq faktga asoslanishi lozim;

Ikkinchidan, ishga aloqador bo'limgan dalillarni isbotlash shart emas;

Uchinchidan, yozma ravishda asoslab berilgan dalillar fuqaroni bevosita ishtirokida hal etilishi shart emas.

Ma'muriy tartib-taomillar prinsiplarini tezkor qo'llanishi bu vaqtini behuda sarflamasdan uni amalga oshirish lozimligi anglatadi.

<sup>1</sup> Я. Цико. Основы законодательства об административных процедурах в Германия. Ежегодник публичного права. – 2014. – М. С. 365.

Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi «Notariat to'g'risida»gi Qonunning 31-moddasiga ko'ra, notarial harakatlarni amalga oshirish, basharti qonunga binoan manfaatdor shaxslardan ushu harakatlarni amalga oshirishga e'tiroz bor-yo'qligini so'rash zarur bo'lganda, kechiktirilishi mumkin. Notarial harakatni amalga oshirishni kechiktirish muddati bir oydan oshmasligi lozim. Notarial harakatni amalga oshirishni so'rab murojaat qilgan shaxsning talabiga ko'ra unga notarial harakatni amalga oshirishni kechiktirish haqidagi qaror beriladi. Mazkur normada belgilangan muddat bir oydan oshmasligi belgilab berilgan. Bunday vaziyatda notarial idora ishning mazmunidan kelib chiqqan holda, iloji boricha ishni tezkor hal etishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### **K. Davidov ma'muriy tartib-taomillar prinsiplarining quyidagi xususiyatlarini ta'kidlab o'tadi:**

1. Ma'muriy tartib-taomillar prinsiplari to'g'ridan-to'g'ri qo'llanadi;
2. Ma'muriy tartib-taomillar prinsiplari universaldir;
3. Ma'muriy tartib-taomillar prinsiplari ochiqdir;
4. Ma'muriy tartib-taomillar prinsiplari ierarxik hususiyatga egadir<sup>1</sup>.

Lars Brokerning fikricha, ma'muriy tartib-taomillar prinsiplarini ikki vazifasi mavjud:

- manfaatdor shaxsning huquqlari himoya qilish;
- ma'muriy organ tomonidan qabul qilingan qaror demokratiyani qonuniylashganligini aks ettirishi kerak<sup>2</sup>.

Muhim prinsiplardan biri odillik prinsipi bo'lib, mazkur prinsipni kelib chiqish tarixi anglo-sakson huquq tizimiga borib taqaladi. Ma'lumki, roman-german huquq tizimi yozilgan qonunchilikka amal qilinadi. Bu esa mazkur prinsipning ahamiyatini pasaytirib yuborishi mumkin. Ya'ni aniq qonun hujjatlarida belgilangan qoidalar tegishli tartibotni belgilab beradi. Lekin ushu prinsipni qonun analogiyasi yuzaga kelganda qo'llash mumkin bo'ladi<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Давыдов К.В.Принципы административных процедур: сравнительно-правовое исследование // Актуальные вопросы публичного права. – 2015. № 4 (34). С. 18.

<sup>2</sup> Ларс Брокер. Инквизиционный принцип в административной процедуре. Ежегодник публичного права-2018. Принципы административных процедур и административного судопроизводства. – М. С. 16.

<sup>3</sup> Богданди А. фон, Хубер П.М. Государство, государственное управление и административное право в Германии // Дайджест Публичного Права. 2014. № 1 (3). С. 46.

## Yodda tuting!

**Ma'muriy tartib-taomillarning asosiy prinsiplari quyida-gildan iborat:**

- qonuniylik;
- mutanosiblik;
- ishonchilik;
- tinglanish imkoniyatining mavjudligi;
- ma'muriy tartib-taomillarning ochiqligi, shaffofligi va tushunararliligi;
- manfaatdor shaxslar huquqlarining ustunligi;
- byurokratik rasmiyatçilikka yo'l qo'yilmasligi;
- mazmunan qamrab olish;
- ma'muriy ish yuritishning «bir darcha» orqali amalga oshirilishi;
- teng huquqlilik;
- ishonchning himoya qilinishi;
- ma'muriy ixtiyoriylikning (diskretsiyaviy vakolatning) qonuniyligi;
- tekshirish.

**Qonuniylik prinsipi.** Prinsiplardan dastlabkisi qonuniylik prinsipidir. «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonunning 6-moddasiga ko'ra ma'muriy tartib-taomillar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, ushbu Qonun va boshqa qonun hujjalariiga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

**Mutanosiblik prinsipi.** Ma'muriy ish yuritish jarayonida jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatiladigan ta'sir choralari ma'muriy organ tomonidan ko'zlangan qonuniy maqsadga erishish uchun mos va yetarli bo'lishi hamda manfaatdor shaxslarga imkon qadar qiyinchilik tug'dirmasligi kerak.



Mutanosiblik prinsipi ma'muriy tartib-taomillar prinsiplari ichida alohida o'rin tutadi. Moshe Koen-Eliyaning ta'kidlashicha, mazkur prinsipning 2 ta o'ziga xos jihatni mavjud:

Birinchidan, ma'muriy organ tomonidan amalga oshiriladigan harakat erishiladigan maqsadga muvofiq bo'lishi lozim;

Ikkinchidan, ma'muriy tartibot natijasida shaxsga yetkazilgan zarar davlat ko'rgan foydaga mutanosib bo'lishi lozim<sup>1</sup>.

**Ishonchlilik prinsipi.** Ma'muriy ish yuritish davomida manfaatdor shaxslar tomonidan taqdim etilgan haqiqiy holatlar to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlar aksi isbotlanmaguniga qadar ishonchli hisoblanadi. Manfaatdor shaxslar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlarning haqiqiyligiga shubha paydo bo'lgan taqdirda ma'muriy organ ularning ishonchliligin mustaqil ravishda va o'z hisobidan tekshirish uchun choralar ko'radi. Ma'muriy ish yuritish davomida manfaatdor shaxslardan ular taqdim etgan hujjatlarning yoki ma'lumotlarning ishonchliligin tasdiqlovchi qo'shimcha materiallar talab qilish, agar qonunda bunday talab belgilanmagan bo'lsa, taqiqlanadi.



### Tinglanish imkoniyatining mavjudligi prinsipi.

Ma'muriy organ manfaatdor shaxsga ma'muriy hujjatni qabul qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan barcha holatlar yuzasidan o'z fikrini bildirish imkoniyatini berishi shart.

<sup>1</sup> Моше Коэн-Элия, Илдо Порат. Американский метод взвешивания интересов и немецкий тест на пропорциональность: исторические корни // Сравнительное конституционное обозрение. 2011. № 3 (82). С. 61.



O'z fikrini  
bildirish



Ma'muriy organ

**Ma'muriy tartib-taomillarning ochiqligi, shaffofligi va tushunarligi.** Ma'muriy tartib-taomillar ochiq, shaffof va manfaatdor shaxslar uchun tushunarli bo'lishi lozim. Ma'muriy organlar ma'muriy tartib-taomillar haqidagi axborotdan davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan usullar orqali erkin foydalanimishini ta'minlashi shart. Ma'muriy organlar faoliyatining ochiqligi O'zbekiston Respublikasining «Davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi Qonuni asosida tartibga solinadi.




Ochiq va shaffof



Ma'muriy organ

**Manfaatdor shaxslar huquqlarining ustunligi prinsipi.** «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonuning 11-moddasida manfaatdor shaxslar huquqlarining ustunligi prinsipi belgilab o'tilgan bo'lib, Ma'muriy ish yuritish davomida yuzaga keladigan, qonun hujjatlarining bartaraf etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshiliklari va noaniqliklari manfaatdor shaxslar o'rtasida kelishmovchiliklar

mavjud bo'Imagan taqdirda, ushbu manfaatdor shaxslar foydasiga talqin qilinadi. Qonun hujjatlari bir-biriga muvofiq bo'lishi muhim ahamiyatga egadir. Lekin bunday holatlarga amalda ko'p duch kelamiz. Mazkur holatda manfaatdor shaxslar huquqlarining ustunligi prinsipiga amal qilish lozim bo'ladi.



Qonun hujjatlaridagi  
qarama-qarshiliklar

**Byurokratik rasmiyatçılıkka yo'l qo'yilmasligi prinsipi.** Manfaatdor shaxslarga majburiyatlar orqali qiyinchilik tug'dirish, faqat rasmiy qoidalar va talablarga rioya etilishi maqsadidagina ularga huquqlar berishni rad etish yoki ularning huquqlarini boshqacha tarzda cheklash ma'muriy organlarga taqiqlanadi. Agar manfaatdor shaxs vijdonan harakat qilgan, o'z majburiyatlarini mazmunan bajargan bo'lsa hamda rasmiy qoidalar va talablarning yo'l qo'yilgan buzilishlari ma'muriy ishni mazmunan to'g'ri hal qilishga to'sqinlik qilmasa, manfaatdor shaxs tomonidan rasmiy qoidalar va talablarga rioya etilmaganligi nomuvofiq ma'muriy hujjatni qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qila olmaydi.

**Mazmunan qamrab olish prinsipi.** Ma'muriy organlar manfaatdor shaxslarga ilgari ushbu shaxslar tomonidan boshqa harakatlar doirasida bajarilgan talablarni qo'yishga haqli emas. Agar ma'muriy organga taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlar ma'nosiga ko'ra boshqa zarur hujjatlar mazmunini o'z ichiga olsa, ushbu hujjatlar qo'shimcha yoki alohida tarzda talab qilinishi mumkin emas. Agar amalga oshirilgan ma'muriy tartib-taomil ma'nosiga ko'ra boshqa ma'muriy tartib-taomillarni o'z ichiga olsa, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ular ham amalga oshirilgan deb hisoblanadi.

**Ma'muriy ish yuritishning «bir darcha» orqali amalga oshirilish prinsipi.** Ma'muriy organga ma'muriy tartib-taomilni amalga oshirish uchun boshqa ma'muriy organlardan hamda o'zga organlardan hujjatlar va ma'lumotlar olish talab etilgan hollarda, ma'muriy ish yuritish «bir darcha» prinsipi bo'yicha amalga oshirilib, bunda ma'muriy organ zarur hujjatlar va ma'lumotlarni mustaqil ravishda, manfaatdor shaxslarning ishtirokisiz, idoralararo o'zaro hamkorlik vositasida oladi, bundan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar mustasno.

**Teng huquqlilik prinsipi.** Ma'muriy organlarga bir xildagi haqiqiy holatlarga ega ma'muriy ishlarni hal etishda teng bo'limgan yondashuvni namoyon etish taqiqlanadi. Haqiqiy holatlari bo'yicha jiddiy farqlanadigan ma'muriy ishlarni bir xil tarzda hal etishga yo'l qo'yilmaydi. Ma'muriy organ ma'muriy ixtiyoriylikni (diskretsiyaviy vakolatni) bir xil usulda amalga oshirishi shart. Ushbu qoida ma'muriy ixtiyoriylikni (diskretsiyaviy vakolatni) amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan, shakllangan ma'muriy amaliyot o'zgartirilishini istisno etmaydi.

**Ishonchning himoya qilinish prinsipi.** Vijdonan harakat qiluvchi manfaatdor shaxslarning ma'muriy hujjatga bo'lgan ishonchi qonun bilan qo'riqlanadi. Ma'muriy organlar manfaatdor shaxslarning yuzaga kelgan ma'muriy amaliyot bilan bog'liq qonuniy kutilgan natijalarini hurmat qilishi shart. Yuzaga kelgan ma'muriy amaliyotning o'zgartirilishi jamoat manfaatlari bilan oqlangan, umumiy xususiyatga ega va barqaror bo'lishi kerak.

**Ma'muriy ixtiyoriylikning (diskretsiyaviy vakolatning) qonuniylik prinsipi.** Ma'muriy organ ma'muriy ixtiyoriylikni (diskretsiyaviy vakolatni) qonun hujjatlarida belgilangan doirada amalga oshirishi shart. Ma'muriy ixtiyoriylik (diskretsiyaviy vakolat) asosida qabul qilingan ma'muriy hujjatlar va amalga oshirilgan ma'muriy harakatlar ushbu vakolatning maqsadiga mos kelishi kerak.

Ma'muriy tartib-taomillarning muhim prinsiplaridan biri ma'muriy ixtiyoriylikning (diskretsiyaviy vakolatning) qonuniylik prinsipidir. Qonunning 17-moddasiga ko'ra ma'muriy organ ma'muriy ixtiyoriylikni (diskretsiyaviy vakolatni) qonun hujjatlarida belgilangan doirada amalga oshirishi shart. Ma'muriy ixtiyoriylik (diskretsiyaviy vakolat) asosida qabul qilingan ma'muriy hujjatlar va amalga oshirilgan ma'muriy harakatlar ushbu vakolatning maqsadiga

mos kelishi kerak. Misol uchun, notarial idoralar tomonidan qo'llaniladigan qonun hujjatlarida diskretsiyaviy normalarni ko'p uchratish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2019-yil 4-yanvardagi 2-mh-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomasining 39-bandida quyidagicha belgilab o'tilgan:

«*Ko'chmas mulk yoki uning bir qismi boshqa shaxsga o'tkazilayotganda, mulk huquqini tasdiqlovchi hujjat bo'lib quyidagilardan biri bo'lishi mumkin:*

- notarial tasdiqlangan shartnomalar (kelishuvlar);*
- merosga bo'lган huquq to'g'risidagi guvohnoma;*
- er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushiga mulk huquqi to'g'risida berilgan guvohnoma;*
- sud qarori (hal qiluv qarori, ajrim va boshqalar) yoki davlat ijrochisining qarori yoxud davlat ijrochisi tomonidan tasdiqlangan undiruvchi va qarzdar o'rtasida tuzilgan bino va inshootni berish dalolatnomasi;*
- ko'chmas mulk yoki uning bir qismi auktsionda sotib olinganligini tasdiqlovchi auktsion natijalari to'g'risidagi bayonnaoma;*
- mahalliy davlat hokimiyati organining qurilishi tugallangan binoni, inshootni, uyni foydalanishga qabul qilish to'g'risidagi komissiya dalolatnomasini tasdiqlash haqidagi qarori (2018-yil 18-mayga qadar);*
- qurilishi (rekonstruksiyasi) tugallangan binolar va inshootlarni foydalanishga qabul qilish dalolatnomasi (2018-yil 18-maydan boshlab);*
- ko'chmas mulk yoki uning bir qismini ochiq savdoda sotib olinganligi haqida guvohnoma;*
- xususiylashitirlgan davlat binosi, inshooti, turar joyiga bo'lган mulk huquqini beruvchi davlat orderi;*
- qonun hujjatlariga zid bo'lмаган boshqa hujjatlar».*

Yuqoridagi normada berilgan «qonun hujjatlariga zid bo'lмаган boshqa hujjatlar» qismini amalda qo'llashda ma'muriy ixtiyoriylikdan foydalanishi lozim hisoblanadi. Ya'ni boshqa hujjatlarni notarial organ qonun hujjatlaridan kelib chiqib belgilashi lozim.

Ma'muriy qonunchilikda notarial idoralarning diskretsiyaviy vakolatlarini qo'llashni nazarda tutuvchi normalar o'z aksini

topgan. Shu nuqtayi nazardan bunga o'xshash huquqiy normalarni ishlab chiqish yuridik texnikani baholovchi konstruksiyalar va diskretsiyaviy vakolatlarni bir xil tenglikda mustahkamlaydigan vosita va usullarni chuqur o'ylagan holda qo'llashni talab etadi.

Amerika Qo'shma Shtatlari Oliy sudi sudyasi Uilyam Orvil Duglas: «Diskretsiya mutlaq darajaga yetganda inson hamisha aziyat chekadi... Mutlaq diskretsiya... insonning boshqa kashfiyotlaridan farqli o'laroq, uning ozodligiga nisbatan kuchli talofot yetkazuvchidir... Mutlaq diskretsiya... ozodlik yakun topishining boshlanishini ilgari suradi»<sup>1</sup> deganda nihoyatda odilona fikrlagan edi.

Garchi ba'zi bir mualliflar, huquqiy hodisalarni o'rganish jarayonida ushbu masalaga murojaat qilishgan bo'lsa-da, O'zbekiston ma'muriy qonunchiligi fanida notarial idoralarning diskretsiyaviy vakolatlari, ularni amalga oshirish mexanizmlari bilan bog'liq savolni o'rganish borasida hech qanday maxsus izlanishlar olib borilmagan.

Milliy huquqshunoslik fanida ma'muriy ixtiyoriylik (diskretsiyaviy vakolatlar) va ularning shakllarini talqin qilishda hozirgi kunga qadar bir to'xtamga kelingani yo'q. Huquqshunos olimlar «ozodlik», «bir necha alternativ qonunlardan birini tanlash», shuningdek, «qonuniy huquqqa (vakolatga) egalik» kabi ma'muriy ixtiyoriylik mohiyatini turlicha izohlashadi.

Shu bilan birga, ma'muriy huquqni mazkur normalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, vaholanki, ular bundan avval ham qo'llanilgan va bundan keyin ham qo'llaniladi, zero, ularni qo'llashdan voz kechish maqsadga muvofiq emas, ba'zi hollarda esa qo'llamaslik mumkin ham emas.

Bizning nazarimizda, ma'muriy ixtiyoriylikni «qonunchilikda ruxsat etilgan muayyan bir huquqiy vaziyatni baholash normasini hal etishda mos keladigan va aynan maqsadga muvofiq keladigan modelini notarial idora tomonidan qo'llashga yo'naltirilgan imkoniyatning mavjudligi» sifatida talqin qilish nisbatan to'g'riroq bo'ladi.

Ma'muriy huquq doktrinasida ma'muriy ixtiyoriylik mohiyatini, turlarini, huquqiy chegaralarini belgilash usullari bilan bog'liq muammoning tadqiq etilmaganligi ma'muriy tartibotni qo'llash

<sup>1</sup> Galligan D.J. Discretionary Powers. Oxford: Clarendon Press. Published to Oxford Scholarship Online: March 2012.

amaliyotida mansabdar shaxs tomonidan qonun variantlarini qo'llash imkoniyatlari biror bir me'yor bilan chegaralanmaganlik holatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi va qonunosti hujjalarda ma'muriy ixtiyorilik ko'pincha «mumkin», «ehtimol», «huquqiga ega», «qoida bo'yicha», «va hokazo» degan jumlalar bilan qayd etiladi.

Qayd etish joizki, qonunni qo'llash va qonunni tatbiq etishdagi «bo'shliq»ning tartib va imkoniyatlarining ochiqligi, baholash normasini har qanday belgilarini qo'llanilishiga sezilarli ravishda sharoit yaratadi.

Qonunni qo'llash amaliyotida, notarial idoraning favqulodda vakolatlarga ega bo'lishlik, ya'ni idora (mansabdar shaxs)ning istisno tarzda, favqulodda vaziyatda qaror qabul qilishi bilan bog'liq vaziyatlari tez-tez uchrab turadi. Hozirgi vaqtida barcha demokratik davlatlarda diskretsianing katta qismini notarial idora ixtiyorida qoldirish amaliyoti joriy etilgan. Shunday qilib, diskretsiyaviy vakolatni nazorat qilish bilan bog'liq savol, hozirgi zamon ma'muriy qonunchiligining yechimini kutib yotgan eng dolzarb muammosi, desak to'g'ri bo'ladi.

Diskretsiyaviy vakolatlarni amalga oshirish ustidan nazoratni o'rnatishda muhim rolni sudlar tomonidan bajarilishi lozimligi barcha tomonidan tan olingan. Sud diskretsiyaviy vakolatlarni amalga oshirilishini ikki bosqichda, jumladan, diskretsiyaviy vakolatlarning vakilligi darajasida va diskretsiyaviy vakolatlarni haqiqatdan ham amalga oshirilish darajasida nazorat qiladi<sup>1</sup>.

Qayd etib o'tish joizki, Yevropa ma'muriy-huquqiy fani va qonunchiligi bo'yicha ma'muriy ixtiyorilik asosida qabul qilingan qarolarning quyidagi holatlari sud tomonidan noqonuniy deb topilishi to'liq tan olingan:

- agar u mazkur organ vakolat doirasidan yaqqol chiqqan bo'lsa;
- agar hokimiyat organi o'z vakolatlarini qonunda belgilab qo'yilgan maqsadlarga zid ravishda qo'llagan bo'lsa;
- agar ma'muriyatning harakatlari ishning haqiqiy yoki huquqiy holati noto'g'ri baholanishiga asoslangan bo'lsa.

<sup>1</sup> Breyer S.G., Stewart R.B., Sunstein C.R., Spitzer M.L. Administrative Law and Regulatory Policy. New York: Aspen Law and Business, 1998.

Chet davlatlarning ushbu sohadagi ilg'or amaliyotini o'rganish qonunchilikni takomillashtirish va qonunni amaliyotda qo'llash yuzasidan takliflarni ishlab chiqishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Diskretsiyaviy vakolatlarni aniqlash borasida, ma'muriy tartib-taomillar asoslarini aniq belgilab olish muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Ko'pgina chet mamlakatlarda ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qonunchilikni ishlab chiqishda muhim tamoyillarni aniqlab olishga alohida e'tibor qaratiladi. Masalan, AQShda barcha aholi uchun ma'muriy tartibotning sodda, aniq va ravshan bo'lishi (bunda ma'lumot berish, ochiq majlislarni o'tkazish, norma ijodkorligi va boshqalar nazarda tutilgan) muhim tamoyil etib belgilangan.

Diskretsiyaviy vakolatlar doirasida qabul qilingan ma'muriy hujjatlarning mazmuni bo'yicha qo'yilgan mazkur talablar hech bo'limganda ikkita sabablar bilan shartlanadi:

Birinchidan, ma'muriy hujjat adresati majburiyatiga rioya qilinishining asoslanishi, davlat organi tomonidan qabul qilingan qarorni anglab yetish, ya'ni ushbu qaror nimaga asoslanib, aynan qaysi holatlarni inobatga olgan holda qabul qilinganligini tushunish imkoniyatini beradi, boshqa hech narsani nazarda tutmaydi. O'z navbatida, ushbu ma'muriy hujjatning asosliligini his etish va uni ixtiyoriy ravishda ijro etish darajasi oshadi, mojaroli huquqiy munosabatlar esa o'z-o'zidan maksimal darajada kamayadi.

Ikkinchidan, shikoyat arizasini yozishga asos va uni taqdim etish tartibining mavjudligi, shaxslarning qonuniy huquqlarini himoya qilish tamoyillarini ta'minlashga yo'naltirilgan. Ma'muriy hujjatni qabul qilishning sabablari va mantiqiy jihatlarini bilish fuqaroga chiqarilgan qarorning bekor qilinishini asosli tarzda talab qilish, sudga esa ma'muriy ixtiyoriylik asosida tuzilgan ma'muriy hujjatning qonuniyligini to'laqonli tekshirish imkoniyatini beradi.

**Tekshirish prinsipi.** Ma'muriy organ ma'muriy ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan barcha holatlarni har tomonlama, to'liq va xolisona tekshirishi shart. Zarurat bo'lganda, ma'muriy organ manfaatdor shaxslar tomonidan taqdim etilgan dalillar bilan cheklanmasdan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'z tashabbusi bilan qo'shimcha dalillar yig'ishga haqli.

Ma'muriy hujjatlar va ma'muriy harakatlar ma'muriy tartib-taomillarning prinsiplariga muvofiq bo'lishi kerak. Ma'muriy tartib-taomillar prinsiplariga nomuvofiqlik ma'muriy hujjatlarning

va ma'muriy harakatlarning bekor qilinishiga yoki qayta ko'rib chiqilishiga olib keladi.

**Mazkur masala bo'yicha quyidagi kazusga e'tibor qaratish zarur:**

2014-yil 20-mart kuni fuqaro K. Rashidov pensiya yoshiba yetgani munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Andijon viloyati Shahrixon tuman bo'limiga murojaat qildi. Bo'lim xodimi fuqaro K. Rashidovga olib kelishi lozim bo'lgan hujjatlar ro'yxatini taqdim qildi. Lekin hujjatlar ro'yxati ichida fuqaro K. Rashidov 1990–1995-yillarda ishlagan tashkilot hozirda o'z faoliyatini tugatganligi uchun ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnomani topishning iloji bo'lmasligini ijtimoiy ta'minot bo'limi xodimiga aytib o'tdi. Bo'lim xodimi u holda fuqaro K. Rashidovni arxivga borishini ta'kidlab o'tdi. Arxivga borganda arxiv idorasi yangi binoga ko'chib o'tganligi uchun ko'chish jarayonida fuqaro K. Rashidov 1990–1995-yillarda ishlagan tashkilotga tegishli hujjatlar yo'qolganligini aytib, bu masalada O'zbekiston Respublikasi «O'zarxiv» agentligiga murojaat qilish lozimligini aytib o'tdi.

2014-yilning 25-mart kuni fuqaro K. Rashidov O'zbekiston Respublikasi «O'zarxiv» agentligiga elektron murojaat qildi. 2014-yilning 30-mart kuni Agentlik fuqaro K. Rashidovga javob yo'llab, ushbu masala «O'zarxiv» agentligi vakolatiga kirmasligini, «boshqa organ»ga murojaat qilish lozimligini ko'rsatib o'tdi. Bundan norozi bo'lgan fuqaro sudga shikoyat qildi. Fuqaro o'z shikoyatida bir qancha asoslarni ko'rsatib o'tdi.

Birinchidan, agentlik O'zbekiston Respublikasi «O'zarxiv» agentligi to'g'risidagi nizomga ko'ra respublika davlat arxivlarida saqlanayotgan hujjatlarning saqlanishini ta'minlash uchun javobgar ekanligini ko'rsatib o'tadi.

Ikkinchidan, agentlik arxiv hujjatlarini jamlash, davlat hisobiga olish, saqlash va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom talablarini bajarmayotganligini ta'kidlab o'tadi.

*Yuqoridaqiz kazusdan kelib chiqib quyidagi jadvalni to'ldiring. Ma'muriy tartib-taomillar prinsiplarini mazkur kazusga bog'lab tahlil qiling.*

<b>Prinsipning nomi</b>	<b>Kazusga aloqador jihatlari</b>
Qonuniylik prinsipi	
Mutanosiblik prinsipi	
Ishonchlilik prinsipi	
Tinglanish imkoniyatining mayjudligi prinsipi	
Ma'muriy tartib-taomillarning ochiqligi, shaffofligi va tushunarligi prinsipi	
Manfaatdor shaxslar huquqlarining ustunligi prinsipi	
Byurokratik rasmiyatichilikka yo'l qo'yilmasligi prinsipi	
Mazmunan qamrab olish prinsipi	
Ma'muriy ish yuritishning «bir darcha» orqali amalga oshirilishi prinsipi	
Teng huquqlilik prinsipi	
Ishonchning himoya qilinishi prinsipi	
Ma'muriy ixtiyoriylik (diskretsiyaviy vakolat)-ning qonuniyligi prinsipi	
Tekshirish prinsipi	

### **VIII bob mazmunini tushunish uchun nazariy savollar:**

1. Ma'muriy protsedura tushunchasi va mohiyatini yoritib bering.
2. Ma'muriy protseduraning predmeti doirasini yoritib bering.
3. Ma'muriy protseduraning harakat doirasini yoritib bering.
4. Ma'muriy protsedura tizimi deganda nimani tushunasiz? Doirali ma'muriy protseduralar va maxsus ma'muriy protseduralarni yoritib bering.
5. Ma'muriy protsedura tamoyillari deganda nimani tushunasiz? Ma'muriy protsedura tamoyillarini sanagan holda qisqacha izoh bering.

## VIII bobni o'zlashtirish bo'yicha KROSSVORD

### Bo'yiga:


1. Ma'muriy-huquqiy faoliyatning har qanday sohasi yoki tarmog'ida, xususan, bojxona munosabatlarda yoki litsenziya berishda, istalgan ma'muriy ishni ko'rib chiqishda amal qilishi shart bo'lgan tartib-taomillar.

### Eniga:

2. «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonun qo'llanil-maydigan sohalardan biri.

3. Mohiyatan chegarasidan tashqariga chiqmay doiraviy ma'muriy tartib-taomillarda ko'zda tutilgan ayrim qoidalarni aniqlashtiradigan tartib-taomillar.

4. Ma'muriy tartib-taomillar prinsiplaridan biri.



## IX bob. MA'MURIY ISH YURITISH

### 9.1. Ma'muriy ish yuritishning umumiy tavsifi

Manfaatdor shaxs va ma'muriy organ o'rtasidagi litsenziya, ruxsat berish, ro'yxatdan o'tkazish va davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq boshqa munosabatlar ma'muriy ish yuritish asosida amalga oshiriladi.

#### Yodda tuting!


**Ma'muriy ish yuritish** – ma'muriy tartib-taomil orqali tartibga solingen ma'muriy ishni ko'rib chiqish, ma'muriy hujjatni qabul qilish, uni ma'muriy shikoyat bo'yicha qayta ko'rish, shuningdek, ma'muriy hujjatni ijro etish jarayonidir.

**Yuqoridagi ta'rifdan kelib chiqib, shuni ta'kidlash lozimki, ma'muriy ish yuritishga quyidagilar kiradi:**

- ma'muriy ishni ko'rib chiqish;
- ma'muriy hujjatni qabul qilish;
- ma'muriy shikoyat bo'yicha qayta ko'rish;
- ma'muriy hujjatni ijro etish.

**Ma'muriy ishni ko'rib chiqish ma'muriy ishni qo'zg'atish bilan boshlanadi. Ma'muriy ishni boshlash uchun ikkita asos mavjud:**

1. Manfaatdor shaxsning arizasi (shikoyati).
2. Ma'muriy organning tashabbusi.



Mazkur asoslarni quyidagi muammoli vaziyat asosida tushuntiramiz.

### **Muammoli vaziyat**

2014-yil 20-mart kuni fuqaro K. Rashidov nafaqa yoshiga yetgani munosabati bilan tuman ijtimoiy ta'minot bo'limiga murojaat qildi. Ijtimoiy ta'minot mas'ul xodimi fuqaro K. Rashidovga olib kelishi lozim bo'lgan hujjatlar ro'yxatini taqdim qildi. 2014-yil 10-may kuni fuqaro K. Rashidov talab etilgan hujjatlarni yig'ib kelib ijtimoiy ta'minot bo'limi hodimiga taqdim qildi. Xodim kerakli hujjatlarni qabul qilib olgach, fuqaro K. Rashidovga bir oydan keyin kelishini aytdi.

Yuqoridagi muammoli vaziyatda ma'muriy ish boshlanishiga manfaatdor shaxs (fuqaro K. Rashidov)ning arizasi asos vazifasini bajarmoqda.

#### **Ma'muriy organga beriladigan arizada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:**

- 1) ariza berilayotgan ma'muriy organning nomi;
- 2) da'vogar – jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, uning yashash joyi; agar arizachi yuridik shaxs bo'lsa, uning nomi va joylashgan yeri (pochta manzili), shuningdek, agar ariza vakil tomonidan berilayotgan bo'lsa, vakilning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi) va manzili;
- 3) arizachining talabi;
- 4) arizaga ilova qilinadigan hujjatlarning ro'yxati (agar bunday hujjatlar mavjud bo'lsa);
- 5) ariza berilgan sana.

Ariza arizachi yoki uning vakili tomonidan imzolanadi. Agar ariza vakil tomonidan berilgan bo'lsa, unga ishonchnomaning yoki vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi boshqa hujjatning ko'chirma nusxasi ilova qilinishi kerak.

Boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini ko'zlab berilgan arizada yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlardan tashqari o'z manfaati himoya qilinayotgan shaxsning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi), uning manzili (pochta manzili) va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa axborot ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Ariza va unga ilova qilinadigan hujjatlarga nisbatan qonun hujjatlarida boshqa talablar ham nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

Ma'muriy organ arizachidan qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan axborotni yoki hujjatlarni taqdim etishni talab qilishga, shuningdek, arizaga va unga ilova qilingan hujjatlarga nisbatan talablar qo'yishga haqli emas.

Elektron shaklda beriladigan arizalarda arizachining elektron manzili hamda yagona identifikatori, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa elektron raqamli imzo va boshqa rekvizitlar ko'rsatilishi kerak. Arizada elektron manzilning ko'rsatilganligi arizachining xabarlarni axborot tizimi orqali qabul qilishga bo'lgan roziligidir.

Jismoniy va yuridik shaxslar arizalarni og'zaki shaklda berishga ham haqli, bundan qonun hujjatlarida to'g'ridan-to'g'ri taqiqlangan hollar mustasno.

Ma'muriy organga kelib tushgan ariza o'sha kunning o'zida ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. Ma'muriy organ arizachiga ariza ro'yxatdan o'tkazilganligini tasdiqlovchi tegishli hujjat (belgi) berishi, ariza elektron shaklda berilgan taqdirda esa ariza ro'yxatdan o'tkazilganligini ma'muriy organning rasmiy veb-saytidagi elektron xabar bilan, tegishli yozuvga havola bilan yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usul bilan tasdiqlashi shart. Ma'muriy organda arizani ro'yxatdan o'tkazishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Ma'muriy organga ariza berish uchun zarur bo'lgan axborot ma'muriy organning mansabdon shaxsi yoki axborotni taqdim etish o'z vakolatiga kiritilgan boshqa xodimi tomonidan taqdim etiladi.

### **Ma'lumotnomalar tarzidagi axborot qoida tariqasida:**

- arizaning shakliga;
- arizaning mazmuniga;
- ariza berish uchun zarur hujjatlar ro'yxatiga;
- arizaning shakli va mazmuniga doir talablarni buzish oqibatlariga;
- hujjatlarni qabul qilish va berish vaqtiga;
- arizani ko'rib chiqish muddatlari va tartibiga;
- ma'muriy va protsessual hujjatlar hamda harakatlar ustidan shikoyat qilish tartibiga oid masalalar yuzasidan taqdim etiladi.

Ma'muriy organ arizalar namunalaridan va ma'muriy ish yuritish bilan bog'liq bo'lgan xizmat varaqalaridan (blankalardan), shuningdek, ularni to'ldirish, shu jumladan, ma'muriy organning rasmiy veb-saytiga joylashtirish orqali to'ldirish bo'yicha yo'riq-nomalardan foydalanishni ta'minlashi shart.

Ma'muriy organ arizachiga qonun hujjatlariga muvofiq zarur yordam ko'rsatishi shart. Agar arizada to'g'rilash mumkin bo'lgan xatolar mavjud bo'lsa, ma'muriy organ ularni to'g'rilash uchun arizachiga imkoniyat va muddat beradi. Agar arizaga doir ilovada qonun hujjatlariga binoan talab qilinadigan yoki arizachi havola qilayotgan hujjatlar mavjud bo'lmasa, ularsiz ma'muriy hujjatni qabul qilish imkon bo'lмаган taqdirda, ma'muriy organ arizachiga yetishmayotgan hujjatlarni muddat belgilagan holda taqdim etish imkoniyatini berishi kerak. Xatolarni bartaraf etish va yetishmayotgan hujjatlarni taqdim etish uchun ma'muriy organ tomonidan belgilanadigan muddat, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, besh ish kunidan kam bo'lmasligi lozim. Ma'muriy organ arizachining iltimosnomasiga binoan ushbu muddatni besh ish kunidan kam bo'lмаган muddatga uzaytirishi kerak. Ma'muriy ish yuritish muddatining o'tishi xatolarni bartaraf etish va yetishmayotgan hujjatlarni taqdim etish vaqtida to'xtatib turiladi. Talab qilinayotgan ma'muriy hujjatni qabul qilish o'z vakolatiga kirmaydigan ma'muriy organga kelib tushgan ariza qonun hujjatlariga muvofiq ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan ma'muriy organga ko'pi bilan besh kunlik muddatda yuboriladi va bu haqida arizachiga xabar beriladi.

Quyidagi muammoli vaziyatda ma'muriy ishning boshlanishiga ma'muriy organ (hokimiyat)ning tashabbusi sabab bo'lganini ko'rish mumkin:

### Muammoli vaziyat

Toshkent shahri Olmazor tumanida yashovchi fuqaro K. Komilov o'ziga qarashli yer uchastkasida 6 xonadan iborat turar-joy binosini qurdi. Oradan 10 yil o'tgach, fuqaro K. Komilovning hovlisi joylashgan hududdan avtomobil magistral yo'li qurish loyihasi davlat dasturiga kiritildi. Natijada yerni davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish to'g'risida tegishli qaror qabul qilindi.

Ma'muriy ish yuritish ariza ma'muriy organda ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran boshlangan. Agar ma'muriy ishni boshlash uchun ma'muriy organning tashabbusi asos bo'lsa, ma'muriy ish yuritish adresat tegishli tarzda xabardor qilingan paytdan e'tiboran boshlangan hisoblanadi.

Ma'muriy organlar ma'muriy ish yuritishni qonun hujjatlarida o'z vakolatiga kiritilgan masalalar yuzasidan amalga oshiradi. Ya'ni ma'muriy ishning taalluqliligi tegishli qonun hujjatlarida belgilab o'tiladi. Misol uchun, konsert-tomosha faoliyatini litsenziyalashga oid ma'muriy ish O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi «O'zbekkonsert» davlat muassasasi vakolatiga kirishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 9-dekabr-dagi 354-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Konsert-tomosha faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida»gi nizomda belgilab o'tilgan. Bu degani ma'muriy ishning taalluqliligini aniqlash uchun ko'plab qonun va qonunosti hujjatlariga murojaat qilish lozim bo'ladi.

### **Yodda tuting!**


Ma'muriy ishlarning taalluqliligi to'g'risidagi nizolar ma'muriy organlar uchun yuqori turuvchi hisoblangan organ yoki maxsus vakolatli organ tomonidan hal etiladi.

Ma'muriy ishlar va mazkur sohaga oid qonun hujjatlarining soni ko'pligi uchun mazkur masalada nizolarni yuzaga kelish holatlari uchrab turadi. Ma'muriy ishlarning taalluqliligi to'g'risidagi nizolar ma'muriy organlar uchun yuqori turuvchi hisoblangan organ yoki maxsus vakolatli organ tomonidan hal etiladi. Misol uchun, Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'muriy ishlarning taalluqliligi o'rtasida nizo kelib chiqadigan bo'lsa, ushbu organlar uchun yuqori turuvchi organ – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan nizo hal etiladi.

## **9.2. Ma'muriy ish yuritish ishtirokchilari**

Ma'muriy ish yuritish ishtirokchilari quyidagilardan iborat:

- ma'muriy organ;
- qabul qilinayotgan ma'muriy hujjat yoki amalga oshirilayotgan ma'muriy harakat o'ziga qaratilgan shaxs (adresat);
- huquqlari va qonuniy manfaatlariga ma'muriy hujjat yoki ma'muriy harakat daxldor bo'lgan yoxud daxldor bo'lishi mumkin bo'lgan shaxs (uchinch shaxs).



Ma'muriy ish yuritishning muhim ishtirokchisi bu ma'muriy organdir. O'zbekiston Respublikasi «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasiga ko'ra, ma'muriy organlar – ma'muriy-huquqiy faoliyat sohasida ma'muriy boshqaruvinakolati berilgan organlar, shu jumladan, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek, ushbu faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa tashkilotlar va maxsus tuzilgan komissiyalardir.

Ma'muriy organ uchinchi shaxslarni ma'muriy ish yuritishda ishtirok etishga o'z tashabbusi yoki manfaatdor shaxsnинг iltimosnomasiga ko'ra jalb qilishi mumkin. Qonun hujjatlarda belgilangan hollarda uchinchi shaxslar ma'muriy ish yuritishda ishtirok etishga majburiy tartibda jalb etiladi.

Adresat va uchinchi shaxslar birgalikda manfaatdor shaxs hisoblanadi. Ular qonunda belgilangan tartibda huquq va majburiyatlarga egadir. Bular quyidagilardan iborat:

- ma'muriy ish materiallari bilan tanishish;

- ma'muriy ish materiallaridan ko'chirmalar olish, nusxa ko'chirish;
- rad qilish to'g'risida arz qilish;
- dalillar taqdim etish;
- dalillarni tekshirishda ishtirok etish;
- ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga savollar berish;
- ma'muriy ish yuritish bo'yicha arz qilish;
- iltimosnomalar berish;
- ma'muriy organga og'zaki va yozma tushuntirishlar berish;
- ma'muriy ish yuritish davomida kelib chiqadigan barcha masalalar bo'yicha o'z vajlarini bayon etish;
- boshqa manfaatdor shaxslarning arizalari, iltimosnomalari va vajlariga qarshi e'tiroz bildirish;

– ma'muriy va protsessual hujjatlar, shuningdek, ma'muriy harakatlar ustidan shikoyat qilish huquqiga ega.

Ma'muriy ish yuritishda vakillikka yo'l qo'yiladi. Yuridik shaxslar ma'muriy ish yuritishda qonun hujjatlarida, ta'sis hujjatlarida yoki qonunga muvofiq berilgan va rasmiylashtirilgan ishonchnomada belgilangan vakolatlari doirasida harakat qiluvchi o'z vakillari orqali ishtirok etadi.

Jismoniy shaxslar ma'muriy ish yuritishda bevosita yoki o'z vakillari orqali ishtirok etishi mumkin, bundan qonun hujjatlarida ularning shaxsan ishtirok etishi zarurligi nazarda tutilgan hollar mustasno. Vakilning ishtirok etishi jismoniy shaxsni ma'muriy ish yuritishda shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum qilmaydi. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda vakilning vakolatlari qonunga muvofiq berilgan va rasmiylashtirilgan ishonchnomada bayon etilishi kerak.

Manfaatdor shaxsning vakili ma'muriy ish yuritishga taalluqli barcha harakatlarni o'zi vakillik qilayotgan shaxs nomidan bajarishga vakolatlidir, shuningdek, agar qonunda yoki uning vakolatini tasdiqlovchi hujjatda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ma'muriy ish yuritishning o'zi vakillik qilayotgan ishtirokchisi ega bo'lgan barcha huquqlardan foydalanadi.

Ma'muriy ishni hal qilishga ko'maklashuvchi shaxslar (guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va boshqalar) ma'muriy ish yuritishga ixtiyoriylik yoki shartnoma asosida ma'muriy

organ tomonidan o'z tashabbusiga yoki manfaatdor shaxslarning iltimosnomasiga ko'ra, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda jalg qilinadi.

### Ko'maklashuvchi shaxslar

Guvoхlar

Ekspertlar

Mutaxassislar

Tarjimonlar

va boshqalar

Ma'muriy organ guvoh, ekspert va tarjimonni bila turib yolg'on ko'rsatuвlar, noto'g'ri ekspert xulosalari berganlik hamda noto'g'ri tarjima qilganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantirishi shart.

Ma'muriy hujjatni qabul qilishda ahamiyatga ega bo'lган ma'lumotlarni bayon etish yoki ma'muriy organning mansabдор shaxsi tomonidan muayyan harakatlarning amalga oshirilishi faktini guvohlantirish uchun guvoh ma'muriy ish yuritishga, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ixtiyoriy tartibda jalg qilinishi mumkin. Guvoh o'z xohishiga ko'ra og'zaki yoki yozma ko'rsatuвlar beradi. Guvohning og'zaki ko'rsatuвlari ma'muriy organ tomonidan tegishli bayonnomada bayon etiladi.

Ma'muriy organ fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlar talab etiladigan masalalar yuzasidan xulosa berish uchun ekspertiza tayinlashi mumkin. Ekspertlar tayinlash va ekspertlar tomonidan tushuntirilishi kerak bo'lган masalalar doirasini aniqlash chog'ida ma'muriy ish yuritishning barcha ishtirokchilari fikri inobatga olinadi. Ekspert ekspertiza predmetiga taalluqli ma'muriy ish materiallari bilan tanishish, ulardan zarur ma'lumotlarni yozib olish yoki ko'chirma nusxalar olish, ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi shaxslarga va guvohlarga savollar berish, joyida ko'zdan kechirishda, attestatsiya-imtihon tadbirlarida hamda ekspert baholashidan o'tkazishga qaratilgan boshqa harakatlarda ishtirok etish huquqiga ega. Ekspert, agar unga taqdim etilgan materiallar ekspertiza o'tkazish uchun yetarli bo'lmasa yoki ekspert o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatni bajarish uchun zarur bilimlarga ega bo'lmasa, xulosa berishni rad etishi mumkin. Ekspert o'z tekshirishlarining natijalari bo'yicha ekspert xulosasini taqdim

etadi. Ma'muriy organning yoki ma'muriy ish yuritishdagi boshqa ishtirokchilarining talabiga ko'ra ekspert o'z xulosasi yuzasidan qo'shimcha tushuntirishlar berishi kerak.

Mutaxassis dalillarni aniqlash va mustahkamlashda ma'muriy organga ko'maklashish yoki fikr shaklida tushuntirishlar berish uchun ma'muriy ish yuritishga jalg qilinadi. Mutaxassis, agar u zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmasa, ma'muriy ish yuritishda ishtirok etishdan bosh tortishga haqli. Tarjima qilish uchun zarur bo'lgan tillarni, shu jumladan, kar-soqovlarning imo-ishoralarini biladigan shaxs tarjimondir.

*Ma'muriy ish yuritish ishtirokchilarining ishda ishtirok etish imkoniyatini istisno qiluvchi qanday holatlар mavjud?* Ma'muriy organning mansabdor shaxsi ma'muriy organ nomidan ma'muriy ish yuritishda ishtirok etishga quyidagi holatlarda haqli emas, agar u:

- mazkur ma'muriy ish yuritishda manfaatdor shaxs bo'lsa;
- ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi manfaatdor shaxslardan biri bilan qarindoshlik yoki qayinbo'yinchilik va quada-andachilik munosabatida bo'lsa (bo'lgan bo'lsa);
- ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi manfaatdor shaxslardan birining vakili bo'lsa yoki ilgari uning vakili sifatida ayni shu ma'muriy ish yuritishda ishtirok etgan bo'lsa;
- mazkur ma'muriy ishni yuritishda ma'muriy ishni hal etishga ko'maklashuvchi shaxs sifatida ishtirok etayotgan bo'lsa yoki ilgari ishtirok etgan bo'lsa;
- boshqacha tarzda shaxsan, bevosita yoki bilvosita ma'muriy ishni hal etish natijasidan manfaatdor bo'lsa yoki uning xolisligiga shubha tug'diruvchi boshqa holatlар mavjud bo'lsa.

Ma'muriy ishni hal etishga ko'maklashuvchi shaxslarni rad qilish to'g'risida quyidagi holatlarda arz qilinishi mumkin:

- ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi manfaatdor shaxslardan biri bilan qarindoshlik yoki qayinbo'yinchilik va quada-andachilik munosabatida bo'lsa (bo'lgan bo'lsa);
- ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi manfaatdor shaxslardan birining vakili bo'lsa yoki ilgari uning vakili sifatida ayni shu ma'muriy ish yuritishda ishtirok etgan bo'lsa;
- mazkur ma'muriy ishni yuritishda ma'muriy ishni hal etishga ko'maklashuvchi shaxs sifatida ilgari ishtirok etgan bo'lsa;

– boshqacha tarzda shaxsan, bevosita yoki bilvosita ma'muriy ishni hal etish natijasidan manfaatdor bo'lsa yoki uning xolisligiga shubha tug'diruvchi boshqa holatlar mavjud bo'lsa;

– ushbu shaxslarning mazkur ma'muriy ish holatlari bo'yicha ilgari xulosa bergenligi;

– ularning ma'muriy ishni ko'rib chiqayotgan ma'muriy organning mansabдор shaxsiga, ma'muriy ish yuritishning boshqa ishtirokchilariga yoki ularning vakillariga xizmat yuzasidan yoxud boshqacha tarzda tobe bo'lganligi asosida arz qilinishi mumkin.

Ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi manfaatdor shaxslar ma'muriy ishda ishtirok etish imkoniyatini istisno qiluvchi asoslardan birini bilgan taqdirda ma'muriy organning mansabдор shaxsi va ma'muriy ishni hal etishga ko'maklashayotgan shaxslarni rad qilish to'g'risida yozma shaklda ariza berishga haqli.

Rad qilish assoslantirilgan bo'lishi va bu haqida ma'muriy hujjat qabul qilinguniga qadar ma'muriy ish yuritishning istalgan bosqichida ariza berilishi mumkin.

Ma'muriy organning mansabдор shaxsini rad qilish to'g'risidagi ariza rad qilish bildirilayotgan mansabдор shaxsga yoxud ma'muriy ish yuritish kollegial organ tomonidan amalga oshirilayotgan bo'lsa, kollegial organning raisiga beriladi. Rad qilish to'g'risidagi arizani qabul qilgan ma'muriy organning mansabдор shaxsi bir ish kuni ichida ma'muriy ishni ko'rib chiqishni to'xtatishi va rad qilish to'g'risidagi arizani rad qilish haqida qaror qabul qilishga vakolatli bo'lgan shaxsga ko'rib chiqish uchun berishi kerak.

Rad qilish to'g'risidagi ariza bo'yicha qarorni o'ziga nisbatan rad qilinishi haqida arz qilingan mansabдор shaxsning bevosita rahbari, agar rad qilish ma'muriy organning mansabдор shaxsiga nisbatan arz qilingan bo'lsa, yuqori turuvchi organ yoki boshqa vakolatli organ qabul qiladi.

Ma'muriy ish yuritish kollegial organ tomonidan amalga oshirilayotgan bo'lsa, rad qilish to'g'risidagi ariza bo'yicha qaror ushbu organ a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Rad qilish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish yuzasidan ovoz berishda kollegial organning o'ziga nisbatan rad qilish to'g'risida ariza berilgan a'zosi ishtirok etmaydi. Agar rad qilish kollegial organning butun tarkibiga nisbatan arz qilingan bo'lsa, rad qilish

to'g'risidagi qaror xuddi shu organ tomonidan to'liq tarkibda oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Ma'muriy ishni hal etishga ko'maklashayotgan shaxslarni rad qilish to'g'risidagi ariza ma'muriy ish yuritishni amalga oshirayotgan hamda ushbu ariza bo'yicha tegishli qaror qabul qiladigan ma'muriy organning mansabdor shaxsiga beriladi.

Rad qilish to'g'risidagi qaror rad qilish haqida ariza berilgan paytdan e'tiboran bir ish kunidan kechiktirmasdan qabul qilinishi kerak.

Ma'muriy ishni ko'rib chiqayotgan ma'muriy organning mansabdor shaxsini, kollegial organ a'zosini yoki kollegial organning butun tarkibini rad qilish to'g'risidagi ariza qanoatlantirilgan taqdirda, bir vaqtning o'zida ushbu ma'muriy ishni ko'rib chiqishga vakolatli bo'lган shaxs (kollegial organ) tayinlanadi.

Ma'muriy ishda ishtirok etish imkoniyatini istisno qiluvchi asoslardan biri mavjud bo'lsa, ma'muriy organning mansabdor shaxsi, shuningdek, ma'muriy ishni hal etishga ko'maklashayotgan shaxslar o'zini o'zi rad qilish to'g'risida darhol arz qilishi shart.


### 9.3. Ma'muriy ish yuritishda dalillar

Har qanday ish yuritish uchun dalillar alohida o'rinn tutadi. Ma'muriy ish yuritishni amalga oshirish sohasi kengligi uchun dalillarning ahamiyati kattadir.

#### Yodda tuting!

Ma'muriy ish yuritishda dalillar ma'muriy ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lган haqiqiy holatlar to'g'risidagi har qanday ma'lumotlardan iboratdir.

Dalilni dastlabki va hosila turlariga bo'lish mumkin.



Dastlabki dalil bevosita birinchi manbadan olingan dalil bo'ladi. Misol uchun, hujjatning asl nusxasi (masalan, nikoh tuzilganligi haqidagi guvohnoma) – dastlabki dalil; undan olingan nusxa – hosila.

Olingan manbasi bo'yicha dalillar ikki turga, ya'ni shaxsiy va ashyoviy dalillarga bo'linadi. Shaxsiy dalillarga taraflar va uchinchi shaxslarning tilxati, guvohlarning ko'rsatmasi, ekspertlarning xulosasi; ashyoviy dalillarga turli shakldagi buyumlar kiradi. Yozma dalilga kelsak, ayrim mualliflar ularni shaxsiy dalilga kiritadi, chunki ular inson tomonidan tuziladi. Boshqalar esa hujjatlar keng ma'noda buyumlar, moddiy dunyoning obyekti hisoblanar ekan, demak, ularni ashyoviy dalillarga kiritish mumkin deya hisoblaydilar.

Ma'muriy organning ma'muriy ishni ko'rib chiqayotgan mansabdar shaxsi mazkur ishni xolisona, har tomonlama va to'g'ri ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan dalillarni yig'ishni amalga oshiradi.

Ma'muriy organ ma'muriy ish yuritishning ishtirokchilari tomonidan dalil sifatida taqdim etiladigan hujjatlarning shakliga nisbatan talablar qo'yishga haqli emas, bundan hujjatlarning shakli qonun hujjatlarida belgilangan hollardan mustasno.

Ma'muriy organ faqat ma'muriy ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan dalillarni ko'rib chiqishga qabul qiladi.

Ma'muriy organ har bir dalilni ishonchlilik, daxldorlik va maqbullik nuqtayi nazaridan hamda dalillarning hammasini yetarli darajada to'planganligi bo'yicha baholaydi. Qonun bo'yicha muayyan isbotlash vositalari bilan tasdiqlanishi kerak bo'lgan holatlarni boshqa hech qanday vositalar bilan tasdiqlash mumkin emas.

#### **9.4. Ma'muriy ish yuritish muddatları**

Ma'muriy ish yuritishni amalga oshirishda muddatlar alohida o'rinn tutadi. Manfaatdar shaxsning ma'muriy ish yuritishdan asosiy e'tirozi ko'pincha muddatlar bilan bog'liq bo'ladi.


Ma'muriy organlarning tashabbusi bilan ma'muriy hujjatlarni qabul qilishning eng ko'p muddatlari qonun hujjatlarida belgilanadi. Ma'muriy ish yuritish muddati qonunda nazarda tutilgan holatlarda ma'muriy organ tomonidan uzaytirilishi mumkin.

## **Yodda tuting!**

Agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ma'muriy organ mumkin qadar qisqa muddatlarda, ammo ariza ma'muriy organda ro'yxatga olingan kundan e'tiboran, ma'muriy hujjat ma'muriy organ tashabbusi bilan qabul qilinadigan taqdirda esa, adresat ma'muriy ish yuritish boshlanganligi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilingan kundan e'tiboran o'ttiz ish kunidan kechiktirmay ma'muriy ishni ko'rib chiqadi va ma'muriy hujjatni qabul qiladi.

Ma'muriy ish yuritish muddatining o'tishi ariza ma'muriy organda ro'yxatga olingan kundan e'tiboran boshlanadi, ma'muriy hujjatni ma'muriy organning tashabbusiga ko'ra qabul qilish uchun esa ushbu muddatning o'tishi adresat ma'muriy ish yuritish boshlanganligi haqida tegishli tarzda xabardor qilingan kundan e'tiboran boshlanadi.

Xabarnomani topshirilganligi ma'lum qilinadigan buyurtma xat orqali yuborish yoki tilxat olib topshirish yoxud xabardor qilinganligi fakti qayd etilishini ta'minlaydigan axborot tizimlaridan foydalangan holda xabardor qilish ma'muriy ish yuritishda tegishli tarzda xabardor qilish hisoblanadi. Tegishli xabarnoma manfaatdor shaxs tomonidan olingan payt xabardor qilish vaqtidir.



Manfaatdor shaxslar o‘z manzili o‘zgarganligi to‘g‘risida ma‘muriy organga ma‘muriy ishni yuritish vaqtida ma‘lum qilishi shart. Bunday ma‘lumot mavjud bo‘lмаган тақдирда, xabarlar ma‘muriy organga ma‘lum bo‘lgan oxirgi manzilga yuboriladi hamda yetkazib berilgan deb hisoblanadi. Agar manfaatdor shaxslar o‘z telefon va faks raqamlarini, elektron manzilini ma‘muriy organga ma‘lum qilgan bo‘lsa, ular bu ma‘lumotlar o‘zgarganligi to‘g‘risida ma‘muriy organni ma‘muriy ish yuritish vaqtida yozma shaklda yoki axborot tizimi orqali elektron shaklda xabardor qilishi kerak.

Xabarnomani manfaatdor shaxsga tilxat olib shaxsan topshirishning imkonini bo‘lмаган тақдирда, xabarnoma u bilan birga yashaydigan voyaga yetgan oila a‘zolaridan biriga yoki bunday shaxslar bo‘lmasa, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organiga yoki manfaatdor shaxsning ish beruvchisi (ta‘lim muassasasi ma‘muriyatiga)ga tilxat olib topshirilishi mumkin. Xabarnomani qabul qilgan shaxs imkoniyat bo‘lishi bilan uni kechiktirmasdan manfaatdor shaxsga topshirishi shart. Xabarnomani qabul qilishni rad etgan manfaatdor shaxs tegishli tarzda xabardor qilingan deb hisoblanadi. Rad etish xabarnomaga belgi qo‘yish orqali rasmiylashtiriladi va xabarnoma ma‘muriy organga qaytariladi. Manfaatdor shaxsning xabarnomani qabul qilishni rad etganligi to‘g‘risidagi belgi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi yoki manfaatdor shaxsning ish beruvchisi (ta‘lim muassasasi ma‘muriyatining mansabdori shaxsi) tomonidan yoxud ikkitadan kam bo‘lмаган fuqaroning imzosi bilan tasdiqlanadi. Tegishli tarzda xabardor qilish faktini isbotlash majburiyati ma‘muriy organning zimmasida bo‘ladi.

Agar ariza taalluqliligi bo‘yicha vakolatli ma‘muriy organga qayta yuborilgan bo‘lsa, ma‘muriy ish yuritish muddatining o‘tishi ma‘muriy ish tegishli vakolatli organga kelib tushib, ro‘yxatga olingan kundan e’tiboran boshsanadi.

Ma‘muriy ish yuritish muddatlari kunlar, oylar va yillar bilan hisoblanadi. Agar ma‘muriy ish yuritish muddati dam olish (bayram) kunida tugasa, shu kundan keyingi ish kuni muddatning tugash kuni hisoblanadi.

## **9.5. Ma'muriy ish yuritishni to'xtatib turish, tiklash va tugatish asoslari**

**O'zbekiston Respublikasi «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonunning 37-moddasiga ko'rta, ma'muriy organ ma'muriy ish yuritishni quyidagi hollarda to'xtatib turishga haqli:**

- fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy yoki jinoyat sud ishlarini yuritish tartibida ko'rilib yotgan ish yuzasidan sudning hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar ma'muriy ishni ko'rish mumkin bo'limganda;
- ma'muriy ish yuritishda ishtirok etayotgan jismoniy shaxs vafot etganda, agar huquqiy vorislikka yo'l qo'yilgan taqdirda yoki ma'muriy ish yuritishda ishtirok etayotgan yuridik shaxs qayta tashkil etilganda;
- xatolarni to'g'rilash va yetishmayotgan hujjatlarni taqdim etish imkoniyati berilganda;
- manfaatdor shaxslarning uzrli sabablarga ko'ra kelmaganligi, agar ularning ishtiroki ma'muriy ish yuritishni tamomlash uchun zarur bo'lganda;
- manfaatdor shaxsnинг talabiga ko'ra ma'muriy organ tomonidan ekspertiza tayinlanganda.

Ma'muriy ish yuritishni to'xtatib turish to'g'risidagi xabar manfaatdor shaxslarga bir ish kuni ichida yuboriladi. Ma'muriy ish yuritishni to'xtatib turish haqidagi xabar protsessual hujjat hisoblanadi. Ma'muriy ish yuritishni to'xtatib turish ma'muriy ish yuritish muddatlari o'tishining to'xtashiga olib keladi.

Ma'muriy ish yuritishni to'xtatib turishga asos bo'lgan holatlar bartaraf etilgach, ma'muriy ishni yuritish tiklanadi. Ma'muriy ish yuritishni tiklash to'g'risidagi xabarnoma manfaatdor shaxslarga bir ish kuni ichida yuboriladi. Ma'muriy ish yuritish tiklangan kundan e'tiboran ma'muriy ish yuritish muddatlarining o'tishi davom etadi.

**Ma'muriy organ quyidagi holatlarda ma'muriy ish yuritishni tugatishi shart:**

- ma'muriy ish ma'muriy organda ko'rish uchun tegishli bo'lmasa;
- ma'muriy ish yuritishning ayni bir ishtirokchilarini ishtirokidagi, ayni bir predmet va ayni bir asoslar bo'yicha ma'muriy ish yuqori turuvchi ma'muriy organning yoki sudning ish yurituvida bo'lsa;
- ma'muriy ish vakolatli ma'muriy organga qayta yuborilgan

bo'lsa yoki ma'muriy ish yuritishning ayni bir ishtirokchilari ishtirokidagi, ayni bir predmet va ayni bir asoslar bo'yicha ma'muriy ish mazkur ishni hal qilishga vakolatli bo'lgan boshqa ma'muriy organning ish yurituvida bo'lsa;

– ushbu ma'muriy organda ma'muriy ish yuzasidan ma'muriy ish yuritishning ayni bir ishtirokchilari bilan ayni bir predmet va ayni bir asoslar bo'yicha ma'muriy hujjat qabul qilingan bo'lsa;


– ariza yoki ma'muriy shikoyat uni taqdim etgan shaxs tomonidan chaqirib olinsa;

– ma'muriy ish yuritish ishtirokchisining huquqiy maqomi (huquqiy holati) o'zgarishi natijasida ma'muriy ish bo'yicha ma'muriy hujjatni qabul qilish mumkin bo'lmay qolsa;

– ma'muriy ish yuritishni tamomlash uchun ishtiroki zarur bo'lgan manfaatdor shaxslar uzsiz sabablarga ko'ra kelmasa;

– manfaatdor shaxs mayjud bo'lmasa va mazkur holatda ishda ishtirok etuvchi jismoniy shaxs vafot etganligi yoki yuridik shaxs tugatilganligi natijasida huquqiy vorislikka yo'l qo'yilmasa.

Yuqoridagi asoslardan ko'rish mumkinki, ma'muriy ish yuritishni tugatish va to'xtatib turish bir-biridan farq qiladi. Ular o'rtasidagi asosiy farq ishni qayta tiklash yoki tiklash mumkin emasligidadir. Jumladan, ma'muriy ish yuritish tugatilgandan so'ng uni tiklab bo'lmaydi.



Ma'muriy ish yuritishni tugatish protsessual hujjat bilan rasmiylashtiriladi.

Ma'muriy ish yuritishni tugatish haqidagi xabar manfaatdor shaxslarga bir ish kuni ichida yuboriladi.

## **9.6. Ma'muriy ishni ma'muriy organ majlisida ko'rib chiqish**

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ma'muriy ish ma'muriy organ majlisida ko'rib chiqilishi lozim. Ma'muriy ish ma'muriy organning tashabbusi bilan yoki manfaatdor shaxsning iltimosnomasi bo'yicha ham majlisda ko'rib chiqilishi mumkin.

### **Yodda tuting!**

Ma'muriy ishni majlisda ko'rib chiqish chog'ida majburiy tartibda bayonnomma yuritiladi.

**Majlis bayonnomasi ma'muriy ishni ko'rib chiqishning barcha muhim holatlarini aks ettirishi kerak. Majlis bayonnomasida, xususan, quyidagilar ko'rsatiladi:**

- 1) majlisning sanasi va joyi;
- 2) majlis boshlangan va tugagan vaqt, majlisdagi tanaffuslar haqidagi ma'lumotlar;
- 3) ma'muriy organning nomi, ma'muriy organ mansabдор shaxsining familiyasi, ismi, otasining ismi yoki ma'muriy ishni ko'rib chiqayotgan kollegial organning tarkibi va majlis kotibi;
- 4) adresat – jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, uning yashash joyi, agar adresat yuridik shaxs bo'lsa – uning nomi va joylashgan yeri (pochta manzili), agar ish yuritishda vakil ishtirok etayotgan bo'lsa, vakilning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi) va uning manzili, shuningdek, ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi uchinchi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- 5) ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi shaxslarning kelganligi haqidagi ma'lumotlar;
- 6) ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilish va ularning majlisga kelmaganligi sabablari to'g'risidagi ma'lumotlar;
- 7) ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi manfaatdor shaxslarga ularning huquqlari va majburiyatları tushuntirib berilganligi haqidagi ma'lumotlar;

8) ma'muriy organ mansabдор shaxsining yoki ma'muriy ishni ko'rib chiqayotgan kollegial organ raislik qiluvchisining ushbu ishni ko'rib chiqish jarayonida qabul qilinadigan protsessual hujjatlari;

9) ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi manfaatdor shaxslarning arizalari va iltimosnomalari hamda ularni ko'rib chiqish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar;

10) taqdim etilgan dalillar, ekspertlarning yozma xulosalari, mutaxassislarning maslahatlari va hokazo haqidagi ma'lumotlar;

11) ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi manfaatdor shaxslarning tushuntirishlari, guvohlarning ko'rsatuvlari, ekspertlarning o'z xulosalari yuzasidan og'zaki tushuntirishlari, mutaxassislarning fikrlari, yozma va ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirish ma'lumotlari.

Ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi manfaatdor shaxslar o'zları muhim deb hisoblaydigan holatlarni majlis bayonnomasiga kiritish xususida iltimos qilishga haqli.

Ma'muriy ish yakka tartibda ko'rib chiqilganda majlis bayonnomasi ma'muriy organning ishni ko'rib chiqayotgan mansabдор shaxsi va majlis kotibi tomonidan imzolanadi. Ma'muriy ish kollegial organ tomonidan ko'rib chiqilgan taqdirda bayonnomaga raislik qiluvchi va majlis kotibi tomonidan imzolanadi.



### **Quyidagilar ma'muriy ishni ko'rib chiqishni keyinga qoldirish asoslari hisoblanadi:**

– tegishli tarzda xabardor qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lmagan manfaatdor shaxslardan birining majlisiga kelmaganligi;

- ma'muriy organning ma'muriy ishni ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan mansabdar shaxsini rad qilish haqidagi arizaning qanoatlantirilganligi yoki uning yo'qligi;
- ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi, ma'muriy ishni o'zlarisiz ko'rib chiqish mumkin bo'limgan manfaatdor shaxslarning majlisda hozir bo'limganligi;
- majlisning vaqt va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilingan manfaatdor shaxslarning ma'muriy organ tomonidan uzrli deb topilgan sabablarga ko'ra kelmaganligi.

Agar ma'muriy organ majlisga kelmaganlik sabablarini uzsiz deb topsa yoki ma'muriy ishni ko'rib chiqishni manfaatdor shaxs qasddan cho'zayapti deb hisoblashga asoslar mavjud bo'lsa, ma'muriy organ ma'muriy ishni tegishli tarzda xabardor qilingan manfaatdor shaxsning yo'qligida ko'rib chiqishga haqli.


Manfaatdor shaxslar ma'muriy ishni ular yo'qligida ko'rib chiqish xususida iltimos qilishga haqli. Ma'muriy organ ma'muriy ishni ko'rib chiqishni keyinga qoldirib, keyingi majlisning vaqt va joyini tayinlaydi, bu haqida hozir bo'lgan shaxslarga tilxat olib e'lon qiladi. Majlisga kelmagan hamda ma'muriy ishni ko'rib chiqishda ishtirok etish uchun yangidan jalb qilinadigan shaxslar keyingi majlisning vaqt va joyi to'g'risida xabardor qilinadi.

Ma'muriy ishni ko'rib chiqish ma'muriy organning mansabdar shaxsi tomonidan, ma'muriy ish kollegial organda ko'rileyotganda esa raislik qiluvchi tomonidan ochiladi. Shundan so'ng ma'muriy ish yuritish ishtirokchilarining og'zaki tushuntirishlari eshitiladi.

Ma'muriy ish yuritish ishtirokchilarini bir-biriga savollar berishi mumkin. Shundan keyin ma'muriy organ ma'muriy ishni hal qilishga ko'maklashuvchi shaxslarning tushuntirishlarini eshitishga va boshqa dalillarni tekshirishga o'tadi.

Ma'muriy ish yuritish ishtirokchilarining, shuningdek, ma'muriy ishni hal qilishga ko'maklashuvchi shaxslarning yozma tushuntirishlari majlisda o'qib eshittirilishi kerak. Ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi manfaatdor shaxslarning iltimosnomalari ma'muriy ish yuritishning boshqa ishtirokchilarini eshitilganidan so'ng ko'rib chiqiladi.

## **Ma'muriy ishni majlisda ko'rib chiqish tartibi**



Ma'muriy organning mansabdar shaxsi yoki kollegial organ ma'muriy ishni majlisda ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ma'muriy hujjat qabul qiladi. Ma'muriy hujjatni qabul qilish boshqa organlar va mansabdar shaxslarning ko'rib chiqish natijalari asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa, bunday ko'rib chiqish qonun talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

### **IX bob bo'yicha mustaqil tayyorlanish uchun muammoli vaziyat (kazus)**

Eskirgan uuda yashovchi fuqaro S. Ahmedov yangi uy-joyga ega bo'lismi maqsadida ko'p xonardonli uylardagi kvartiralarni yashash sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan jismoniy shaxslarga biriktirish masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha Toshkent shahar Olmazor tumani hududiy komissiyasiga tegishli hujjatlarni topshirmoqchi bo'ldi. S. Ahmedov 2017-yil 15-fevral kuni uy-joyning texnik holati to'g'risidagi kadastr ma'lumotnomasini olish maqsadida Olmazor tumani Yer resurslari va davlat kadastro bo'limiga murojaat qildi. S. Ahmedovga hozirda bo'limda ishlar juda ko'pligi, undan oldin ko'plab fuqarolar ayni shu masalada murojaat etganliklari aytildi. Shu sababli unga keyinroq idoraga kelib uchrashish lozimligi ma'lum qilindi.

Ammo keyinchalik S. Ahmedov belgilangan sanada Olmazor tumani Yer resurslari va davlat kadastro bo'limidan murojaatiga javoban hech qanday ma'lumotnoma ololmadi. S. Ahmedov noiloj

tegishli hujjatlarni eskirgan uyining texnik ma'lumotnomasisiz hududiy komissiyaga topshirdi.

O'rganish natijalari bo'yicha hududiy komissiya tomonidan S. Ahmedovga ko'p xonadon uydagi kvartirani biriktirishni rad etish to'g'risidagi protokol qarori qabul qilindi. Qarordan norozi bo'lgan S. Ahmedov ma'muriy sudga ariza bilan murojaat qildi.

Ma'muriy sud arizada ko'rsatilgan javobgar ko'p kvartirali uylardagi kvartiralarni yashash sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan jismoniy shaxslarga biriktirish masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha Toshkent shahar Olmazor tuman hududiy komissiyani Olmazor tumani Yer resurslari va davlat kadastri bo'limiga almashtirishmoqchi bo'ldi. Bu haqida S. Ahmedovga ma'lum qilindi. Biroq S. Ahmedov bunga rozilik bermadi.

*Vaziyatga huquqiy baho bering.*

## **IX bob bo'yicha nazariy savollar**

1. Ma'muriy ish yuritish tushunchasini tahlil qiling.
2. Ma'muriy ish yuritishni boshlashning qanday asoslari mavjud?
3. Ma'muriy ish yuritishning ishtirokchilarini tahlil qiling.
4. Ma'muriy ish yuritishda ko'maklashuvchi shaxslar doirasini tahlil qiling.
5. Ma'muriy ish yuritish muddatlarini tahlil qiling.
6. Ma'muriy ish yuritish amaliyotini tahlil qilib, mavjud muammolarni aniqlang.

## IX bobni o'zlashtirish bo'yicha KROSSVORD

### Bo'yiga:

1. Ma'muriy ishni hal qilishga ko'maklashuvchi shaxslardan biri.

### Eniga:

2. Ma'muriy ishni hal qilishga ko'maklashuvchi shaxslardan biri.
3. Ma'muriy ish yuritish ishtirokchilaridan biri.
4. Dalilning turlaridan biri.
5. Manfaatdor shaxsni xabardor qilish tartiblaridan biri.

		1							
		2							
		3							
		4							
		5							

### 10.1. Ma'muriy hujjat tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari

Hayotimizda juda ko'plab ma'muriy hujjatlarga duch kelamiz. Misol uchun, yerdan doimiy foydalanish to'g'risidagi hokim qarori, litsenziya berish to'g'risidagi qaror va boshqalar. Huquqshunos ma'muriy hujjatlarni bilmasdan turib, mukammal kasb egasi bo'la olmaydi. Siz sudya bo'lsangiz, ma'muriy hujjatni haqiqiy emasligini aniqlash uchun, prokuror bo'lsangiz, ma'muriy hujjatni qonun asosida qabul qilinganligi bilish uchun va advokat bo'lsangiz, mijozingiz huquqlarini himoya qilish uchun ma'muriy hujjatga qo'yilgan talablarni bilish muhim ahamiyatga egadir.

«Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonunning eng asosiy qismi ma'muriy hujjatlarni qabul qilish, bekor qilish, o'zgartirish, haqiqiy emas, deb topish bilan bog'liq normalar tashkil etadi. Mazkur qonunning 4-moddasida «ma'muriy hujjat» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan.

#### Yodda tuting!

**Ma'muriy hujjat** – ma'muriy organning ommaviy huquqiy munosabatlarni yuzaga keltirishga, o'zgartirishga yoki tugatishga qaratilgan hamda ayrim jismoniy yoki yuridik shaxslar uchun yoxud muayyan xususiy belgilariга ko'ra ajratiladigan shaxslar guruhi uchun muayyan huquqiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi ta'sir chorasıdir.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ma'muriy hujjatlarni ma'muriy harakatlar va protsessual hujjatlardan farqlash kerak. Ma'muriy harakatlar deganda ma'muriy organning jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan ma'muriy-huquqiy faoliyat sohasida amalga oshirilgan, yuridik ahamiyatga ega harakatlari (harakatsizligi) tushuniladi.

Protsessual hujjat esa ma'muriy organ tomonidan ma'muriy ish yuritish davomida qabul qilinadigan, ma'muriy ishni mazmunan hal etmaydigan hujjatdir. Buning ma'nosi shuki, protsessual hujjatlar ma'muriy hujjat qabul qilinmasdan avval ma'muriy ishni ko'rib

chiqish jarayonida qabul qilinadi. Protsessual hujjat ishni tugal shaklda hal qilib bermaydi. Masalan, litsenziya talab etiladigan faoliyat bilan shug'ullanish uchun tegishli ma'muriy organning qarori talab etiladi. Qaror ma'muriy hujjat bo'lsa, qaror qabul qilingungacha bo'lgan bosqichda ishni ko'rib chiqish bilan bog'liq masalalar bilan bog'liq qabul qilinadigan hujjat protsessual hujjat hisoblanadi.

Ma'muriy hujjat tushunchasini tahlil qilishda quyidagi muammoli vaziyatni ko'rib chiqsak.

### Muammoli vaziyat

Yer tuzish va ko'chmas mulk davlat kadastr korxonasi shahar bo'limining ma'lumotnomasiga ko'ra Huvaydo ko'chasi, 166-uy manzilida joylashgan do'kon va sex binosiga mulkiy huquqni tasdiqlovchi davlat orderi va oldi-sotdi shartnomasiga asosan fuqaro Q. Qo'ldoshev nomiga kadastr xizmatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda shahar hokimining qaroriga asosan mazkur binolarning amalda egallab turgan 450 m<sup>2</sup> maydoni doimiy foydalanish uchun biriktirilib, yerdan doimiy foydalanish huquqini beruvchi davlat akti berilgan.

2017-yil 3-oktabrda Buxoro shahar hokimining qarori asosida fuqaro Q. Qo'ldoshevga tegishli bo'lgan bino-inshootlarni buzish lozimligi ko'rsatilgan. Fuqaro binoni buzdirish to'g'risida shahar hokimining qarori qabul qilinganidan 2017-yil noyabr oyida habar topgan. Fuqaro Q. Qo'ldoshev xokim qarori qonunda belgilanmagan muddatda unga xabar qilinmaganligi uchun ma'muriy sudga shikoyat qilgan.

### Yuqoridagi muammoli vaziyatda quyidagilar ma'muriy hujjat hisoblanadi:

- 1) mulkiy huquqni tasdiqlovchi davlat orderi;
- 2) yerdan doimiy foydalanish to'g'risidagi shahar hokimining qarori;
- 3) yerdan doimiy foydalanish huquqini davlat ro'yxatiga olish to'g'risidagi guvohnoma;
- 4) yerdan doimiy foydalanish huquqini beruvchi davlat akti;
- 5) bino-inshootlarni buzish to'g'risidagi shahar hokimining qarori.

*Xo'sh, nima uchun yuqoridagilar ma'muriy hujjat hisoblanadi?* Buni ma'muriy hujjatning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash orqali bilib olish mumkin. Ma'muriy hujjatning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) ma'muriy hujjat ma'muriy organ tomonidan qabul qilinadi;
- 2) ma'muriy hujjat ommaviy huquqiy munosabatlardan bilan chambarchas bog'liq;
- 3) ma'muriy hujjat ommaviy huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradi, o'zgartiradi yoki tugatadi;
- 4) ma'muriy hujjat muayyan jismoniy yoki yuridik shaxslar uchun yoxud bir qancha shaxslardan iborat jamoaga qaratiladi;
- 5) ma'muriy hujjat muayyan huquqiy oqibatlar keltirib chiqaradi.

Ma'muriy hujjat va ma'muriy organlar o'zaro bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan tushunchalardir. Organlar, tashkilotlar hamda maxsus tuzilgan komissiyalarni ma'muriy organ sifatida baholash uchun ularda aynan ma'muriy hujjatni qabul qilish vakolati mavjud bo'lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, davlat organlari va muassasalarni ma'muriy organ sifatida e'tirof etish uchun ular jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq munosabatlarga kirishishi va buning natijasi sifatida ma'muriy hujjatni qabul qilishi kerak.

Ma'muriy organlar tushunchasi 2018-yilga qadar ma'muriy huquqqa doir qonunchilikda mavjud bo'lmagan. Ushbu atama «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonunda alohida ajratib ko'rsatildi. Bunga qadar esa ma'muriy huquqiy munosabatlarda bir tarafda, albatta, davlat boshqaruvi organining ishtirok etishi aytib o'tilar edi. Davlat boshqaruvi organlari esa ijro hokimiyatiga mansub, faoliyati qonunosti xarakteriga ega hamda ijro va farmoyish berish faoliyati, ya'ni davlat boshqaruvini amalga oshirishga qaratilgan davlat organlarining tizimidir. Bular O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari, qo'mitalar, agentliklar, inspeksiyalar va markazlar, shuningdek, mahalliy ijro hokimiyati organlarini qamrab oladi.

Ma'muriy hujjat ommaviy huquqiy munosabatlardan bilan chambarchas bog'liq. Bu degani ma'muriy organlar va xususiy shaxslar o'rtasida turli mazmundagi shartnomalar ham tuzilishi mumkin. Masalan, bironta ma'muriy organ bilan bironta yuridik

shaxs o'rtasida xo'jalik mahsulotlarini yetkazib berish bo'yicha shartnoma tuzilsa, bu munosabatni ommaviy huquqiy munosabat deb bo'lmaydi. Bu holatda ma'muriy organ yuridik shaxs bilan teng subyekt sifatida fuqaroviy-huquqiy munosabatga kirishadi.

Ma'muriy hujjatlarni qabul qilish bilan bog'liq munosabatlar ma'muriy-huquqiy munosabat hisoblanadi. Unda taraflar o'zaro teng emas. Buning sababi – ma'muriy organ va xususiy shaxs ma'muriy hujjatni qabul qilishda shartnoma tuzishdagi singari bir-biriga shartlar qo'ya olmaydi. Ammo ma'muriy organ va uning mansabdor shaxslari ishni mazmunan qonun talablari doirasida hal etishlari kerak.

Ma'muriy hujjat, yuqorida ta'kidlangani singari, ommaviy huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradi. Masalan, litsenziya berish haqidagi ma'muriy hujjatning qabul qilinishi ma'muriy organlarning xususiy shaxslar faoliyatida litsenziya talablariga rioya etilishini nazorat qilish bilan bog'liq munosabatni vujudga keltiradi.

Ayrim ma'muriy hujjatlar ommaviy huquqiy munosabatlarni o'zgartiradi. Bunga misol qilib ma'muriy organning fuqaroni uning arizasiga ko'ra nogironlik nafaqasidan yoshga doir pensiyaga o'tkazish to'g'risidagi qarorini keltirish mumkin.

Ayrim ma'muriy hujjatlar esa ommaviy huquqiy munosabatlarni bekor qiladi. Masalan, ma'muriy organ xususiy shaxsning litsenziyasini bekor qilishga qaratilgan ma'muriy hujjati litsenziya talab etiladigan faoliyat bilan shug'ullanishni to'xtatishga olib keladi.



Shu o'rinda qayd etish lozimki, ma'muriy hujjat va normativ-huquqiy hujjatni bir-biridan farqlash lozim. O'zbekiston Respublikasi «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasiga ko'ra, normativ-huquqiy hujjat ushbu qonunga muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalarini sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018-y., 03/18/456/0512-son, 10.01.2018-y.

## **Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari quyida-gilardir:**

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasining qonunlari;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- vazirlilik, davlat qo'mitasi va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;
- mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.


Ularning asosiy farqi shundaki, normativ-huquqiy hujjat yakka shaxsga qaratilmaydi. U umummajburiy xususiyatga egadir. Bu ma'muriy hujjat qaratilgan bir qancha jismoniy yoki yuridik shaxslardan iborat guruh bilan ayni bir narsa degani emas.

Ma'muriy hujjatda jismoniy yoki yuridik shaxs ko'rsatib o'tiladi. Ya'ni unda jismoniy shaxsning ismi va sharifi, yashash manzili va boshqa shu kabi qo'shimcha ma'lumotlar keltiriladi. Yuridik shaxs bo'lsa, uning firma nomi, uning joylashgan manzili va shu kabi qo'shimcha ma'lumotlar qayd etib o'tiladi. Bir qancha jismoniy yoki yuridik shaxslardan iborat guruh qaratilgan ma'muriy hujjatda ular haqida batafsil ma'lumot bo'lmashigi mumkin. Ammo ma'muriy hujjatning mazmunidan u qaysi guruhdagi shaxslarga tegishli ekani yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, mahalliy hokimiyat organi tomonidan davlat dasturiga binoan muayyan hududda qurilish ishlari olib borilishi munosabati bilan eski uy-joylarni buzish to'g'risidagi qarori ma'muriy hujjatdir. Unda qaysi hududdagi uy-joylar buzilishi aniq ko'rsatib o'tiladi. Garchand unda uy-joy tegishli bo'lgan fuqarolar sanab o'tilmasa-da, qarorning mazmunidan hududda joylashgan eski uy-joy egalari nazarda tutiladi. Ma'muriy hujjat aynan to'g'ridan-to'g'ri ularning huquqlariga daxldordir.

Normativ-huquqiy hujjatda esa bunday emas. Ma'muriy hujjat huquqni qo'llash hujjati bo'lsa, normativ-huquqiy hujjat qonun hujjatidir. Ma'muriy hujjat normativ-huquqiy hujjatlarga zid bo'lishi mumkin emas.

## **10.2. Ma'muriy hujjatning shakli va mazmuni**

O'zbekiston Respublikasining «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonunning 52-moddasiga binoan u yozma shaklda qabul qilinadi. Ushbu moddaning ayni shu qismida ta'kidlanishicha, qonun hujjatlarida ma'muriy hujjat boshqa shaklda, shu jumladan, boshqa tegishli hujjatni berish yoki muayyan harakatlarni amalga oshirish yo'li bilan qabul qilinishi mumkinligi holatlari nazarda tutilishi mumkin.



Ma'muriy hujjatning yozma tarzda qabul qilinishi fuqarolar uchun bir qator afzalliklar tug'diradi. Buni quyidagilar bilan asoslash mumkin.

1. Ma'muriy hujjatlarning yozma tarzda qabul qilingani fuqarolarga yengillik tug'diradi. Bunda fuqaro har qanday holatda unga ma'muriy hujjatda ko'rsatilgan ta'sir chorasining mazmun-mohiyati bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladi. Ya'ni ma'muriy hujjatning yozma tarzda qabul qilingani tufayli fuqaro xohlagan vaqtida unga murojaat etishi mumkin bo'ladi.

2. Ma'muriy hujjatning yozma tarzda qabul qilinishi orqali, eng avvalo, ma'muriy organning qarori aniq ifodalanadi. Qaror shunchaki yozib qo'yilmaydi. Balki asoslantirib beriladi.

3. Ma'muriy hujjatni yozma tarzda qabul qilish jarayonida ma'muriy organ mansabдор shaxsi uning mazmuniga jiddiy e'tibor qaratishiga to'g'ri keladi. Buning boisi shundaki, ma'muriy hujjatning mazmuni fuqaroga tushunarli bo'lishi lozim.

4. Ma'muriy hujjatning yozma tarzda qabul qilinishi ma'muriy organning mansabдор shaxsi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Yozma qabul qilingan ma'muriy hujjatdan norozi bo'lgan fuqaro uning ustidan yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat bilan murojaat etgan taqdirda, noqonuniy tarzda qabul qilingan ma'muriy hujjat ishni ko'rib chiqish jarayonida dalil bo'lib xizmat qiladi. Yozma tarzda qabul qilingan ma'muriy hujjatda ma'muriy organning qarori mustahkamlab qo'yiladi. Uni har xil talqin etishning imkonini esa kamayadi.

5. Ma'muriy hujjatlarning qonuniyligini isbotlab berish majburiyati fuqarolar zimmasida emas, balki ma'muriy organ mansabдор shaxsi zimmasidadir. Agar barcha ma'muriy hujjatlar yozma emas, og'zaki tarzda qabul qilinganda edi, bunday ma'muriy hujjatlar noqonuniy tarzda qabul qilingan bo'lsa ham ma'muriy organ mansabдор shaxsi tomonidan uning qonuniyligini isbotlab berish oson kechar edi. Bu esa ma'muriy organ va uning mansabдор shaxsiga qaraganda kuchsiz taraf hisoblanmish fuqaro uchun katta zarar keltirishi mumkin edi.

Ta'kidlash joizki, ma'muriy hujjatlarning yozma tarzda qabul qilinishi ma'muriy organlar uchun qo'shimcha ish yoki ular ishining ko'payishiga sabab bo'ladigan holat bo'lib tuyulishi mumkin. Ammo qonun talabi shunday. Bu bejiz emas. Qonun ma'muriy hujjatning yozma tarzda qabul qilinishi fuqaroga yuqorida keltirilgan ijobiy jihatlarini hisobga olayotgan bo'lsa ajab emas.

Demak, yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, ma'muriy hujjatlar nafaqat mazmun, balki shaklga ham egadir. Ma'muriy hujjatlarning yozma shakli orqali uning mazmuni ro'yobga chiqadi. Umumiy qoidaga binoan ma'muriy hujjatlar alohida yozma shaklda qabul qilinadi. Buning esa fuqarolar uchun bir qator afzalliklari bo'lib, ma'muriy organlar va ularning mansabдор shaxslari zimmasiga bir qator mas'uliyat yuklaydi.

Boshqa tegishli hujjatni berish orqali ma'muriy hujjatni qabul qilish deyish bilan nima nazarda tutilmoxda? Bunga kundalik hayotimizda quyidagi holatni misol qilib keltirish mumkin. Barcha

fuqarolar 16 yoshga to'lganda pasport olish majburiyatiga ega bo'ladir. Tegishli hujjatni berish orqali ma'muriy hujjatni qabul qilishdir. Transport vositasini boshqarish uchun haydovchilik guvohnomasini berish ham bunga misol bo'la oladi.

Muayyan harakatlarni amalgga oshirish orqali ma'muriy hujjatni berish yuqorida ta'kidlangani singari qonun hujjatida nazarda tutilgan bo'lishi kerak. Bunda bironta yozma shakldagi ma'muriy hujjat qabul qilinmaydi. Aksincha, muayyan harakatni bajarish yozma ma'muriy hujjat vazifasini bajaradi.

«Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 52-moddasi ikkinchi qismiga binoan yozma ma'muriy hujjat ma'muriy organning vakolatli mansabdar shaxsi yoki kollegial organ a'zolari tomonidan imzolanadi va ma'muriy organning muhri bilan tasdiqlanadi. Demak, yozma ma'muriy hujjatning shaklidagi muhim belgi bu – ma'muriy organning vakolatli mansabdar shaxsi yoki kollegial organ a'zolari tomonidan imzolanishi va ma'muriy organning muhri bilan tasdiqlanishidir. Bu ma'muriy hujjatning qonuniyligini kuchaytiradi. Unga nisbatan ishonchni vujudga keltiradi.

Bunday talab faqat yozma tarzda berilgan ma'muriy hujjatga nisbatan tatbiq etiladi. Boshqa tegishli hujjatni berish yoki muayyan harakatlarni amalgga oshirish ko'rinishidagi ma'muriy hujjatlar uchun ma'muriy organning vakolatli mansabdar shaxsi yoki kollegial organ a'zolarining imzosi va ma'muriy organning muhri talab etilmaydi.


*Ma'muriy hujjatlarning mazmuni qanday talablarga javob berishi kerak? Ma'muriy hujjatlarning shakliga qo'yilgan talablar bilan bir qatorda ularning mazmuniga ham talablar belgilangan. Ya'ni ma'muriy hujjatlarning mazmuni quyidagicha bo'lishi kerak:*

- 1) qonuniy;
- 2) asoslangan;
- 3)adolatli;
- 4) aniq;
- 5) tushunarli.

Ma'muriy hujjatlar har qanday holatda ham qonuniy bo'lishi kerak. Ma'muriy hujjatlar arizachining manfaatlarini qanoatlantirishni rad etishga qaratilgan bo'lsa (nomuvofiq ma'muriy hujjat) ham qonuniy

bo'lishi kerak. Qonuniy bo'lishi kerakligi ma'muriy hujjatlar qonun talablari doirasida bo'lishi, ya'ni qonun normalariga zid bo'lmasligi kerak. Ma'muriy hujjatlar individual holat yuzasidan qabul qilinganligi bilan uning huquqiy asosi bu qonun hujjatidir.

Ma'muriy hujjat asoslangan bo'lishi kerak. Ma'muriy hujjatning qaror qismi uning asosiy qismida asoslantirilgan bo'lishi kerak. Bu, ayniqsa, arizachining manfaatlarni qanoatlantirishni rad etishga qaratilgan ma'muriy hujjatlar uchun juda muhimdir. Manfaatlari qanoatlantirilishi rad etilgan ma'muriy hujjatda asoslantirish o'ta muhimdir. Bunda fuqaroga nima uchun manfaati qanoatlantirilishi rad etilayotgani ko'rsatib o'tilishi kerak. Arizachi ma'muriy hujjatning asoslantiruvchi qismini o'qiganda ma'muriy hujjatda unga nisbatan nima uchun bunday turdag'i ta'sir chorasi qo'llanilayotgani haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak. Zero, ma'muriy hujjat arizachining huquq va manfaatlariga daxl qiladi.



Ma'muriy hujjat adolatli bo'lishi kerak. Aslida «adolat» so'zi falsafiy tushunchadir. Ma'muriy hujjatning adolatli bo'lishi uchun unda arizachining holati har tomonlarma hisobga olinishi va shunga munosib tarzda maqbul qaror qabul qilinishi kerak bo'ladi. Har

qanday qonuniy hisoblangan narsa adolatli bo'lmasligi mumkin. Adolatni ta'minlash, o'rni kelganda, qonuniylikni ta'minlashdan ham qiyinroq bo'lishi mumkin.

Ma'muriy hujjat aniq bo'lishi kerak. Ma'muriy hujjatda bayon etilayotgan holatlar ikki xil ma'no keltirib chiqarmaydigan tarzda bayon etilishi kerak. Bundan tashqari, ma'muriy hujjat tushunarli bo'lishi kerak. Bu esa ma'muriy hujjatdagi holatlarning ifodasidan ma'no kelib chiqishi kerak. Ma'muriy hujjatni o'qigan fuqaro uning ma'nosini anglab olishi kerak.

Ma'muriy hujjatning mazmuniga qo'yilayotgan talablar bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Masalan, qonuniylik, adolatlilik va asoslanganlik bir-biriga bog'liq bo'lsa, aniqlik va tushunarlilik ham o'zaro chambarchas bog'lanadi.

*Ma'muriy hujjatda nimalar ko'rsatilishi kerak?* Ma'muriy hujjat muayyan ikchi tuzilishga ega. «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonunning 53-moddasida ma'muriy hujjatning bir qancha qismlardan tashkil topishi kerak ekani ta'kidlab o'tiladi. Bular quyidagilardir:

1) ma'muriy hujjatning nomi va u qabul qilingan sana. Uning nomi orqali ma'muriy hujjatdagi mazmun anglashiladi. Ya'ni ma'muriy hujjatning nomini o'qigan har qanday o'quvchi u qanday holatga nisbatan qabul qilinganini anglab olishi kerak. Ma'muriy hujjatning sanasi orqali ma'muriy hujjatning qabul qilingan payti aniq ko'rsatib o'tiladi.

2) ma'muriy hujjatni qabul qilgan ma'muriy organning nomi va joylashgan yeri (pochta manzili). Ma'muriy hujjatda uni qabul qilgan ma'muriy organning nomi, shuningdek, ma'muriy organ joylashgan hududning pochta manzili aniq ko'rsatilishi kerak. Bu ma'muriy hujjatning qaysi ma'muriy organ tomonidan qabul qilinganini bildirib turadi;

3) ma'muriy ish yuritish ishtirokchilari to'g'risidagi axborot. Bunday axborot orqali ishni ko'rib chiqishda kimlar ishtirok etgani aniq bayon etilishi kerak;

4) ma'muriy hujjat orqali hal qilinadigan masalaning tavsifi (tavsif qismi). Ushbu qism ma'muriy hujjatning muhim qismi hisoblanadi. Unda ma'muriy hujjat bilan hal etiladigan masalaning mazmun-mohiyati bayon etiladi;

5) ma'muriy hujjatning asosi (asoslantiruvchi qismi). Asoslantiruvchi qism ma'muriy hujjatning tavsif qism va xulosa qismi o'rtasida bog'liqlikni ta'minlaydi, ya'ni ko'priq vazifasini bajaradi. Usiz xulosa bo'lishi mumkin emas. Demak, ushbu qismda tavsif qismdan kelib chiqqan holda ma'muriy ish yuzasidan qaror qabul qilinmasdan avval qarorga asos bo'luvchi holatlar tushuntirib o'tiladi;

6) qabul qilingan qaror bayoni (xulosa qismi). Ushbu qism ma'muriy hujjatning eng muhim qismlaridan biridir. Unda arizachining iltimosi (talabi)ni qanoatlantirish yoki rad etish masalasi aniq qilib ko'rsatiladi. Xulosa orqali ma'muriy ish qanday hal etilgani aniq ko'rinishi turishi kerak. Xulosaga qarab ma'muriy hujjatni «muvofiq», ya'ni arizachining talabini qanoatlantirishga qaratilgan yoki «nomuvofiq», ya'ni arizachining talabini qanoatlantirishni rad etishga qaratilgan ma'muriy hujjatga ajratish mumkin;

7) ma'muriy hujjat ustidan shikoyat qilish muddati va tartibi. Ma'muriy hujjatdan norozi taraf yoki manfaatdor taraf tegishli tartibda shikoyat qilishi mumkin. Ma'muriy hujjatda aynan shikoyat qilishning muddati va tartibi aniq ko'rsatib o'tilishi kerak. Bu fuqarolar uchun ma'muriy hujjatga nisbatan keyingi huquqlarini qanday qilib amalga oshirishlari mumkinligini tushunib yetishlariga imkoniyat yaratib beradi. Zero, ma'muriy hujjat fuqaroning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatdir.

8) ma'muriy organning ma'muriy hujjatni qabul qilgan mansabdor shaxsning (kollegial organ a'zolarining) lavozimi, ismi va familiyasi, ma'muriy hujjatda uni qabul qilgan mansabdor shaxsning lavozimi, ismi va familiyasi ko'rsatib o'tilishi shart. Agar ma'muriy hujjat kollegial organ tomonidan qabul qilingan bo'lsa, unda kollegial organ a'zolarining lavozimi, ismi va familiyasi keltirib o'tilish kerak.

Yuqoridaagi 8 ta bandda keltirilgan talablar ma'muriy hujjatda keltirilishi majburiy bo'lgan qismlardir. Bundan tashqari agar ma'muriy hujjat ma'muriy ixtiyoriylik (diskretsiyaviy vakolat) asosida qabul qilingan bo'lsa, qo'shimcha ma'lumotlar ham kiritilishi mumkin.

## **Yodda tuting!**

Ma'muriy ixtiyoriylik (diskretsiyaviy vakolat) asosida qabul qilingan ma'muriy hujjatda quyidagilar ko'rsatib o'tilishi mumkin: muayyan huquqning yoki majburiyatning kuchga kirish, o'z kuchini yo'qotish payti yoki amal qilish muddati;

muayyan hodisaga yoki kelajakda huquqning yoxud majburiyatning kuchga kirishi yoki o'z kuchini yo'qotishi bilan bog'liq bo'lgan shartga doir ko'rsatma;

ma'muriy hujjatni bekor qilish huquqi yoki kelgusida qo'shimcha farmoyishlar berish huquqi ma'muriy organda saqlanib qolishi to'g'risidagi izoh;

adresatga muayyan harakatlarni amalga oshirish, amalga oshirishga yo'l qo'yish yoki amalga oshirishdan tiyilish xususida ko'rsatma beruvchi qo'shimcha farmoyishlar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, ma'muriy hujjatlar ularning shakl va mazmun talablariga javob berishi kerak. Ma'muriy hujjatlarda shakl va mazmunning uyg'unligini ta'minlash orqali ularni talab etilgan darajada rasmiylashtirishga erishish mumkin.

### **10.3. Ma'muriy hujjatning asosliligi**

Ma'muriy hujjatni qabul qilishda ma'muriy organ har jihatdan e'tiborli bo'lishi kerak. Bunda asosiy e'tibor ma'muriy hujjatni asoslantirishga qaratilishi kerak. Sababi:

1) qabul qilinayotgan qarorning, eng avvalo, mazmunan kelib chiqish asoslari ko'rsatib o'tilishi kerak;

2) fuqaro o'ziga nisbatan qabul qilinayotgan qaror nimaga asoslanilayotganini bilish imkoniga ega bo'lishi kerak;

3) yuqori turuvchi organ va sudlar ma'muriy hujjat ustidan keltirib o'tilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish paytida qarorning asosli ekanini tekshirish maqsadida aynan asoslantiruvchi qismga e'tibor qaratadilar;

4) asoslantirish orqali qaror qabul qilishga asos bo'lувчи sabablar ko'rsatib o'tiladi. Ushbu sabablar aniq bayon etilishi lozim. Agar qarorda fuqaroning talabi qanoatlantirilishi rad etilsa, rad etilish sabablari aniq bayon etilishi hamda mazkur sabablar qonun hujjati normalari bilan bog'langan bo'lishi lozim.

## **Yodda tuting!**

Ma'muriy hujjatning asoslantiruvchi qismida qabul qilingan ma'muriy hujjatga tegishli barcha haqiqiy va yuridik asoslari keltirilishi kerak.

Haqiqiy asoslar deganda ishdagi faktli asoslar tushuniladi. Har bir ma'muriy ishda faktlar har xil bo'ladi. Arizachi ma'muriy organga murojaat etganda uning ishi bilan tanishgan ma'muriy organ mansabdor shaxsi yoki kollegial organ a'zolari faktlarni har tomonlama muhokama qilishlari lozim bo'ladi.

Shuningdek, asoslantirishda faktlardan tashqari ular bilan bog'liq huquqiy asoslar, ya'ni tegishli qonun hujjatlari normalari ham keltirib o'tilishi lozim.

Ma'muriy hujjat muayyan ma'muriy ishni ko'rib hal etishning oxirgi bosqichida qabul qilinadi. Ungacha bo'lgan bosqichda esa arizachining murojaatida keltirilgan talablar bilan tanishib chiqishi hamda ishdagi ishtirokchilar fikrlarini eshitishi lozim. Undan kelib chiqadigan faktlarni tahlil etib, ularni aniqlashtirish maqsadida dalillarni tekshirishi hamda ularni ishga qo'shib qo'yishi va ular bilan ish yuritish ishtirokchilari tanishib chiqishlari uchun imkon yaratib berishi kerak.

Demak, agar faktlar yuzasidan dalillar tekshirilmagan yoki tekshirilgan bo'lsa-da, ular ma'muriy ish yuritish jarayonida ma'muriy ishga qo'shib qo'yilmagan yoxud ular ma'muriy ish yuritish ishtirokchilariga tanishish imkoniyati berilmagan bo'lsa, ma'muriy hujjatni asoslantirish jarayonida bunday dalillarga tayanish mumkin emas.

### **10.4. Ma'muriy hujjatning kuchga kirishi**

Ma'muriy hujjatning kuchga kirish muddati muhim ahamiyatga egadir. Buning boisi shundaki, ma'muriy hujjat kuchga kirkach, yuridik oqibat vujudga keladi. Shunday ekan, ma'muriy hujjatlarning kuchga kirish vaqtini aniq bilish lozim.

Qayd etish kerakki, ma'muriy hujjat ma'muriy organ mansabdor shaxsi yoki kollegial organ a'zolari tomonidan imzolanib muhr qo'yilgach kuchga kirib qolmaydi. Uning kuchga kirishi uchun muayyan talabalar belgilangan.

## **Yodda tuting!**


Ma'muriy hujjat adresat tegishli tarzda xabardor qilingan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

«Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonunning 55-moddasida 1-qismiga ko'ra, ma'muriy hujjat adresatga xabardor qilingan paytdan boshlab kuchga kirishi belgilab qo'yilgan. Demak, toki ma'muriy hujjat adresatga ma'lum qilinmas ekan, uning kuchga kirishi mumkin emas. Buning asosiy sababi shundaki, adresat ma'muriy hujjatdan eng ko'p manfaatdor bo'lgan shaxsdir. Ma'muriy hujjatdagi qaror tufayli adresat muayyan huquqini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Yoki qabul qilib bo'lingan ma'muriy hujjat ustidan shikoyat berilgan holda fuqaro zimmasiga muayyan majburiyatni bajarish ham yuklatilishi mumkin. Shu sababli adresat ma'muriy hujjatdan xabardor bo'lishga to'la huquqli bo'lgan birinchi o'rindagi shaxsdir.

«Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonunning 22-moddasida ma'muriy ish yuritish ishtirokchilari keltirib o'tilgan bo'lib, ulardan adresat deganda qabul qilinayotgan ma'muriy hujjat yoki amalga oshirilayotgan ma'muriy harakat o'ziga qaratilgan shaxs tushuniladi.

«Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonunning 2-moddasida manfaatdor shaxs tushunchasi ham keltirib o'tilgan bo'lib, uning ta'rifiga ko'ra qabul qilinayotgan ma'muriy hujjat yoki ma'muriy harakat qaratilgan shaxs, shuningdek, huquqlari va qonuniy manfaatlari ma'muriy hujjatga yoki ma'muriy harakatga daxldor bo'lgan yoxud daxldor bo'lishi mumkin bo'lgan shaxs tushuniladi.

Demak, manfaatdor shaxs adresatga ko'ra keng qamrovli bo'lib, u nafaqat adresatni, balki uchinchi shaxslarni ham qamrab oladi. «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonunning 22-moddasiga binoan uchinchi shaxslar deganda huquqlari va qonuniy manfaatlariiga ma'muriy hujjat yoki ma'muriy harakat daxldor bo'lgan yoxud daxldor bo'lishi mumkin bo'lgan shaxsga aytildi.



Demak, ma'muriy hujjat manfaatdor shaxslardan uchinchi shaxslarga emas, balki adresatga xabar berilgach kuchga kiradi.



Buni quyidagi kazus orqali tushuntirish mumkin.

<b>Muammoli vaziyat</b>
<p>2017-yil 26-oktabr kuni Toshkent shahar Chilonzor tuman Yer resurslari va davlat kadastri bo'limi tomonidan fuqaro F. Latipovaga doir ma'muriy ish yuzasidan ma'muriy hujjat qabul qilingan.</p> <p>F. Latipova ko'p kvartirali uyda joylashgan turar joyini rekonstruksiya qilingan turar joyga nisbatan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun murojaat qilgan.</p> <p>Biroq Chilonzor tuman Yer resurslari va davlat kadastri bo'limi F. Latipovaning ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etgan.</p>

F. Latipovaning qo'shnisi fuqaro V. Muxtorova ma'muriy ishni ko'rib chiqishda ishtirok etishini so'rab murojjat qildi. Ishni ko'rib chiqish jarayonida uning xonadoni F. Latipovaning uy-joyidan tepe qavatda joylashgani, rekonstruksiya qilingan uy-joy texnik xavfsizlik qoidalariga mutlaqo javob bermasligi tufayli uning va oilasining hayoti xavf ostida qolayotganini ma'lum qildi hamda Toshkent shahar Chilonzor tuman Yer resurslari va davlat kadastri bo'limidan rekonstruksiya qilingan turar joyga nisbatan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etishni so'radi.

Ma'muriy organ buni inobatga olib F. Latipovaning rekonstruksiya qilingan turar joyga nisbatan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish haqida ma'muriy hujjat qabul qildi.

Xo'sh, bu vaziyatda adresat kim? Bu vaziyatda adresat ma'muriy hujjat o'ziga qaratilgan shaxs, ya'ni fuqaro F. Latipovadir. Fuqaro V. Muxtorova esa uchinchi shaxsdir. F. Latipova va V. Muxtorova birgalikda manfaatdor shaxslar hisoblanadilar.

Ammo ma'muriy hujjat adresat hisoblanmish fuqaro F. Latipovaga xabar berilgandan boshlab kuchga kiradi. Sababi aynan u yuqorida ta'kidlangani singari, ma'muriy hujjat o'ziga qaratilgan shaxsdir.

Adresatni ma'muriy hujjat haqida xabardor qilish «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonunning 33-moddasi bilan tartibga solinadi. Ya'ni adresatni ma'muriy hujjat haqida xabardor qilishning ko'rinishlari ko'rsatib berilgan. Bular quyidagilardir:

1) xabarnomani topshirilganligi ma'lum qilinadigan buyurtma xat orqali yuborish;

2) tilxat olib topshirish;

3) xabardor qilinganligi fakti qayd etilishini ta'minlaydigan axborot tizimlaridan foydalangan holda xabardor qilish.

Demak, ma'muriy hujjat buyurtma xatga ilova qilingan holda yuboriladi. Bunda buyurtma xatda ma'muriy hujjat yuborilayotgani aytib o'tiladi. Yoki ma'muriy hujjat fuqaroga tilxatga qo'l qo'ydirilgan holda topshiriladi. Tilxatda fuqaro ma'muriy hujjatni olganini tasdiqlab imzo chekadi.

Bundan tashqari, ma'muriy hujjat fuqaroga axborot tizimlaridan foydalangan holda ham yetkazilishi mumkin. Qonun hozirda axborot tizimlari rivojlanganini hisobga olgan holda ma'muriy hujjat haqida xabardor etishning zamонавиј usullarini qo'llashni ham hisobga olmoqda. Bunday usullar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- 1) elektron pochta orqali;
- 2) faksogramma orqali.

Ta'kidlash joizki, ma'muriy hujjat haqida xabardor qilish adresatning o'zi haqida to'g'ri ma'lumot taqdim etganiga ham bog'liq. Shu sabab adresat o'z manzili o'zgarganligi to'g'risida ma'muriy organga ma'muriy ishni yuritish vaqtida ma'lum qilishi shart. Bunday ma'lumot mavjud bo'lмаган taqdirda, xabarlar ma'muriy organga ma'lum bo'lgan oxirgi manzilga yuboriladi hamda yetkazib berilgan deb hisoblanadi.

Fuqaro telefon va fakslari raqamlari, elektron manzili o'zgargan holda ham ular bu ma'lumotlar o'zgarganligi to'g'risida ma'muriy organni ma'muriy ish yuritish vaqtida yozma shaklda yoki axborot tizimi orqali elektron shaklda xabardor qilishi kerak.

Shu o'rinda mantiqiy savol kelib chiqadi. Xo'sh, «Xabarnomani manfaatdor shaxsga tilxat olib shaxsan topshirishning imkonini bo'lмаган taqdirda u qanday qilib yetkaziladi?» Bunday holda xabarnoma u bilan birga yashaydigan voyaga yetgan oila a'zolaridan biriga yoki bunday shaxslar bo'lmasa, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga yoki manfaatdor shaxsning ish beruvchisiga (ta'lim muassasasi ma'muriyatiga) tilxat olib topshirilishi mumkin. Xabarnomani qabul qilgan shaxs imkoniyat bo'lishi bilan uni kechiktirmasdan manfaatdor shaxsga topshirishi shart.

Hayotda shunday adresatlar ham uchraydiki, xabarnomani olishdan bosh tortadilar. Bunday holda xabarnomani qabul qilishni rad etgan adresat tegishli tarzda xabardor qilingan deb hisoblanadi. Rad etish xabarnomaga belgi qo'yish orqali rasmiylashtiriladi va xabarnoma ma'muriy organga qaytariladi. Adresatning xabarnomani qabul qilishni rad etganligi to'g'risidagi belgi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi yoki manfaatdor shaxsning ish beruvchisi (ta'lim muassasasi ma'muriyatining mansabdor shaxsi) tomonidan yoxud ikkitadan kam bo'lмаган fuqaroning imzosi bilan tasdiqlanadi.


Ma'muriy hujjat haqida xabardor qilish vazifasi bevosita uni qabul qilgan ma'muriy organ zimmasiga yuklatilgan. Bunday talabning o'rnatilishi ma'muriy organga mas'uliyat yuklaydi. Ma'muriy organ ma'muriy hujjatni qabul qilgach, uni yetkazishni ham zimmasiga oladi. O'z paytida va belgilangan tartibda xabardor qilish fuqaroga ma'muriy hujjatda unga nisbatan qabul qilingan qarorning mazmuni bilan yaqindan tanishib chiqish imkonini beradi.

Demak, ma'muriy hujjatning adresat tegishli tarzda xabardor qilingan paytdan e'tiboran kuchga kirishi bejiz emas. Bunda toki ma'muriy hujjat ma'muriy organ tomonidan xabardor qilinmas ekan, u kuchga kirmaydi. Hayotda ma'muriy organ ma'muriy hujjat haqidagi xabarni yetkaza ololmaganini har xil bahonalar tufayli oqlashga urinishi mumkin. Shu tufayli qonunda ma'muriy hujjat haqidagi xabarning adresatga, ya'ni tegishli fuqaro yoki yuridik shaxsga yetkazilgan vaqtdan boshlab yuridik kuchga kirishi alohida mustahkamlab qo'yilgan.

Shu bilan bir qatorda, adresat ham turli vaziyat tufayli xabar jo'natilgan bo'lsa-da, undan bexabar qolishi mumkin. Bu vaziyatda fuqaro ma'muriy organdan ma'muriy hujjat haqida tegishli tarzda xabardor qilinganlik faktini isbotlab berishni talab qilishga haqli.

«Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonunning 55-moddasida xabarni 33-moddada nazarda tutilmagan tarzda yetkazishning alohida shakllari ko'rsatib o'tilgan. Bunda ikkita alohida shakllar mavjud.

Ulardan biri shuki, ma'muriy hujjat to'g'risidagi xabar yetkazishning qonun hujjatlariga muvofiq adresatga faqat tegishli hujjat berilishi kerak bo'lgan hollarda hujjatning adresatga berilishi ma'muriy hujjat to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilishga tenglashtiriladi. Bu ma'muriy hujjatning shakli bilan bevosita bog'liqdir. Ma'lumki, qonunning 52-moddasiga binoan qonun hujjatlarida ma'muriy hujjat boshqa shaklda, shu jumladan, boshqa tegishli hujjatni berish yoki muayyan harakatlarni amalga oshirish yo'li bilan qabul qilinishi mumkinligi hollari nazarda tutilishi mumkin.



Shu sababli qonunning 55-moddasida adresatga faqat tegishli hujjat berilishi kerak bo'lgan hollarda hujjatning adresatga berilishi ma'muriy hujjat to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilish hisoblanadi.

Pasport yoki haydovchilik guvohnomasining berilishi bunga misol bo'la oladi. Ya'ni pasport yoki haydovchilik guvohnomasining berilishi ma'muriy hujjat haqida xabar berish bilan tengdir.

Ikkinci alovida shakl shuki, qonun hujjatida ma'muriy hujjat haqida rasmiy e'lon qilinishi lozim bo'lsa, u rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, ma'muriy hujjatning kuchga kirishi bevosita ma'muriy hujjatning xabar qilinishi bilan bog'liqdir. Aynan shu orqali adresat, ya'ni jismoniy va yuridik shaxslar o'zlarining huquq va qonuniy manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy hujjat bilan to'liq tanishish imkoniga ega bo'ladir.

### **10.5. Ma'muriy hujjatning amal qilishini tugatish, uni bekor qilish, o'zgartirish yoki haqiqiy emas deb topish**

Ma'muriy hujjat muayyan davr oralig'ida yuridik kuchga ega bo'ladi. «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonunning 58-moddasida ma'muriy hujjatning amal qilishini tugatish asoslari belgilab berilgan. Unga ko'ra ma'muriy hujjatning amal qilishi quyidagi hollarda tugatiladi:

- 1) agar ma'muriy hujjat muddatli xususiyatga ega bo'lsa, ma'muriy hujjatning amal qilish muddati o'tishi;
- 2) ma'muriy hujjatning amal qilishini tugatish bilan bog'liq shartning yuzaga kelishi;
- 3) ma'muriy hujjatning bekor qilinishi;
- 4) tartibga solish predmetining barham topish munosabati bilan tugatiladi.

Agar ma'muriy hujjat muddatli xususiyatga ega bo'lsa, ma'muriy hujjatning amal qilish muddati o'tishi bilan ma'muriy hujjatning amal qilishi tugatiladi. Masalan, litsenziya 5 yilga beriladi. Ushbu muddat ma'muriy hujjatda ko'rsatib qo'yiladi.

Ma'muriy hujjat unda belgilab qo'yilgan shartning vujudga kelishi natijasida amal qilishi tugaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan yoxud O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda lavozimlarga saylangan, tayinlangan, tasdiqlangan fuqarolar, shuningdek, ularning oila a'zolari (eri, xotini, shuningdek, ularning o'z oilasi bo'limgan farzandlari) – mazkur fuqarolar lavozimda turadigan davrga, shuningdek, davlat hokimiyyati organlariga, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga, respublika ahamiyatiga molik boshqa davlat tashkilotlariga ishga taklif etilayotgan yuqori malakali mutaxassislar, tor ixtisoslikdagi mutaxassislar tegishli organ yoki tashkilot rahbarining iltimosnomasiga ko'ra, shuningdek, ularning oila a'zolari (eri, xotini, shuningdek, ularning o'z oilasi bo'limgan farzandlari) – mazkur fuqarolar lavozimda turadigan davrga Toshkent shahriga doimiy ro'yxatga qo'yiladi. Doimiy ro'yxatda bo'lish sharti – bu yuqoridagi organlar va tashkilotlarda mehnat faoliyatini olib borishdir.


Ma'muriy hujjatning bekor qilinishi uchun alohida talablar mavjud.

Tartibga solish predmetining barham topishi munosabati bilan tugatilishi ma'muriy hujjat qaratilgan ijtimoiy munosabatning tugashi bilan bog'liqidir. Masalan, agar avtomobil yonib ketsa, uning texnik pasportining amal qilishi ham tugaydi. Chunki texnik pasport aynan yonib ketgan avtomobilga tegishlidir.

Ma'muriy hujjatning amal qilishini tugatish uning asosida berilgan hujjatlar amal qilishining tugatilishiga olib keladi. Masalan, litsenziya berish to'g'risidagi ma'muriy hujjatning amal qilishining

tugashi uning asosida berilgan litsenziya guvohnomasining ham amal qilishini tugashiga sabab bo'ladi.

*Ma'muriy hujjatni bekor qilish, o'zgartirish yoki haqiqiy emas deb topish tartibi qanday amalga oshiraladi?* Ma'muriy hujjatni bekor qilish, o'zgartirish yoki haqiqiy emas deb topish asoslari «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonunning 59-moddasida berib o'tilgan. Unga ko'ra ma'muriy hujjat manfaatdor shaxsning arizasi yoki ma'muriy shikoyatiga ko'ra ma'muriy hujjatni qabul qilgan ma'muriy organ, yuqori turuvchi ma'muriy organ tomonidan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa organlar tomonidan ham bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin.



Demak, ma'muriy hujjat manfaatdor shaxslarning arizasiga ko'ra yoki shikoyatiga ko'ra bekor qilinadi. Bundan boshqa shaxslar uni bekor qilishini so'rab murojaat etolmaydi.

Shuningdek, ma'muriy hujjatni qabul qilgan ma'muriy organ o'z tashabbusiga ko'ra uni bekor qilish yoki o'zgartirishi mumkin. Buning uchun quyidagilar asos bo'lishi mumkin:

- 1) qonun hujjatlaridagi o'zgartishlar;
- 2) jamoat manfaatlari bo'lgan tahdidning oldini olish;
- 3) ma'muriy hujjatning qonun hujjatlariga nomuvofisligi;
- 4) qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlarda.

Bundan tashqari, qonun hujjatlarida ma'muriy hujjatning faqat sud tartibida bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkinligi hollari nazarda tutilishi mumkin.

Ma'muriy hujjat qonun hujjatlariga muvofiq emas, deb topilgan taqdirda, u ma'muriy organ tomonidan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi kerak.

Shuni alohida qayd etish kerakki, manfaatdor shaxsning ishonchi himoya qilinishi lozim bo'lgan hollarda, ma'muriy hujjatni bekor qilish yoki o'zgartirish masalasi sud tartibida ko'rib chiqiladi.

### **Yodda tuting!**

Vijdonan harakat qiluvchi manfaatdor shaxslarning ma'muriy hujjatga bo'lgan ishonchi qonun bilan qo'riqlanadi.

Fuqaro ma'muriy hujjatning qabul qilinishida uning qonuniy ekaniga ishonch bildirgan va ishonchi doirasida vijdonan harakat qilgan holatlarda ma'muriy hujjatni bekor qilish va o'zgartirishda uning ishonchi himoya qilinadi. Ya'ni, agar manfaatdor shaxs ma'muriy hujjatning qonuniy kuchiga ishonib, ma'muriy hujjat asosida olingan mol-mulkdan foydalangan, o'z mulkini tasarruf etish uchun bitim tuzgan yoki ma'muriy hujjatda belgilangan naf va imtiyozlardan boshqacha tarzda foydalangan bo'lsa, uning ishonchi himoya qilinishi lozim. Bunda fuqaro olingan mol-mulkdan foydalangan, o'z mulkini tasarruf etish uchun bitim tuzgan yoki ma'muriy hujjatda belgilangan naf va imtiyozlardan boshqacha tarzda foydalangan bo'lsa, ular fuqaroden qaytarib olinmasligi kerak.

Bunda bir narsaga e'tibor qaratish kerak. Ayrim qonunda nazarda tutilgan vaziyatlarda manfaatdor shaxslarning ishonchi himoya qilinmaydi. Bunday vaziyatlarga quyidagilar kiradi:

- 1) manfaatdor shaxs ma'muriy hujjat bilan bog'liq bo'lga qo'shimcha majburiyatlarini bajarmagan bo'lsa;
- 2) manfaatdor shaxs o'ziga ma'muriy hujjat asosida taqdim etilgan pul mablag'laridan, buyumdan yoki huquqdan maqsadli foydalanmagan bo'lsa;
- 3) manfaatdor shaxs ma'muriy hujjatning g'ayrihuquqiyligini bilgan yoki o'z aybiga ko'ra bu haqida bilmagan bo'lsa;
- 4) ma'muriy hujjat aldash, tahdidlar yoki ma'muriy organga boshqacha tarzda g'ayrihuquqiy ta'sir ko'rsatish oqibatida qabul qilingan bo'lsa;
- 5) qonun manfaatdor shaxslar ishonchining himoyasini hisobga olmagan holda ma'muriy hujjatni bekor qilishni talab etsa.

Demak, yuqoridagilardan tashqari barcha holatlarda manfaatdor shaxslarning ma'muriy hujjatga bo'lga ishonchi himoya qilinadi. Ishonchni himoya qilish holatlarida manfaatdor shaxsga ma'muriy hujjatning qonuniy kuchiga ishonish sababli kelib chiqqan yoki muqarrar bo'lga mulkiy zararning o'rni qoplanadi. Bu manfaatdor shaxsning huquqlarini har tomonlama himoya qilishga olib keladi.

Bunda qayd etish lozimki, mulkiy zararning o'rnini qoplash ma'muriy hujjatning mazmuniga ko'ra manfaatdor shaxs olishi kerak bo'lga naf miqdordan oshmasligi kerak. Mulkiy zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi talab manfaatdor shaxs ma'muriy hujjat bekor qilinganligi haqida xabardor qilingan paytdan e'tiboran bir yil ichida taqdim etilishi mumkin.

Yuqoridagilardan tashqari yana bir narsani ta'kidlash joiz. Manfaatdor shaxsning ishonchidan qat'i nazar, qonun hujjatlariga muvofiq emas, deb topilgan ma'muriy hujjat, agar uning saqlab qolinishi jamoat manfaatlariga tahdid solayotgan bo'lsa, ma'muriy organ tomonidan bekor qilinishi mumkin. Ya'ni bunday holda ma'muriy hujjatni bekor qilish va o'zgartirish sud tartibida ko'rib chiqilishi shart emas. Ma'muriy hujjatni qabul qilgan ma'muriy organning o'zi uni o'zgartirish yoki bekor qilishga haqli. Biroq ma'muriy organning qaroridan norozi manfaatdor shaxs sudga shikoyat qilishi mumkin.

Qonun hujjatlariga muvofiq qabul qilingan ma'muriy hujjat quyidagi hollarda ma'muriy organ tomonidan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin:

1) qonun talablariga muvofiq yoki bunday imkoniyat bevosita ma'muriy hujjatning o'zida nazarda tutilgan bo'lsa;

2) agar keyinchalik o'zgargan haqiqiy holatlar tufayli yoki qonun hujjatlaridagi o'zgartishlar asosida jamoat manfaatlariiga zarar yetishining oldini olish maqsadida ma'muriy hujjatni bekor qilish zarur bo'lsa;

3) agar ma'muriy hujjat bilan qo'shimcha majburiyatlar bog'liq bo'lsa va manfaatdor shaxs ularni bajarmagan bo'lsa;

4) agar manfaatdor shaxs ma'muriy hujjat asosida o'ziga berilgan pul mablag'laridan, buyumdan yoki huquqdan maqsadli foydalanmayotgan bo'lsa;

5) agar ma'muriy hujjatni bekor qilish yoki o'zgartirish ushbu hujjat yuborilgan manfaatdor shaxs foydasiga amalga oshirilsa va bunda boshqa manfaatdor shaxslarga qiyinchilik tug'ilmasa.

Xuddi shunday mazmundagi ma'muriy hujjatni takroran qabul qilish uchun boshqa asoslar mavjud bo'lgan hollarda, ma'muriy hujjatni tegishli asoslarda bekor qilishga yoki o'zgartirishga yo'l qu'yilmaydi.


Ilgari qabul qilingan ma'muriy hujjatni bekor qilish yoki o'zgartirish to'g'risidagi ma'muriy hujjatni qabul qilayotganda ma'muriy organ bekor qilinayotgan yoki o'zgartirilayotgan ma'muriy hujjatning qaysi qismi va qaysi vaqtidan e'tiboran o'z kuchini yo'qotishini belgilashi kerak.

Ma'muriy hujjat qonunda belgilangan tartibda sud tomonidan «haqiqiy emas» deb topilishi mumkin. «Haqiqiy emas» deb topilgan holda, ma'muriy hujjat u qabul qilingan paytdan e'tiboran haqiqiy hisoblanmaydi. Faqatgina sud ma'muriy hujjatni «haqiqiy emas» deb topishi mumkin.

*Ma'muriy hujjatni bekor qilish qanday tartibda amalga oshiraladi?* Ma'muriy hujjatni bekor qilish tartib-taomili «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonunning 60-moddasida tartibga solinadi. Unga ko'ra ma'muriy hujjatni manfaatdor shaxs foydasiga bekor qilish majlis o'tkazmasdan amalga oshirilishi mumkin. Bundan shunday mantiqiy xulosa kelib chiqadiki, agar ma'muriy hujjat manfaatdor shaxs foydasiga emas, balki uning zarariga qabul qilinadigan bo'lsa, ma'muriy organ tomonidan majlis o'tkazmagan holda ma'muriy hujjatni bekor qilish mumkin emas.

Shuni ham alohida qayd etish lozimki, ba'zida ma'muriy hujjatlar bir manfaatdor shaxsning foydasiga, boshqa shaxsning manfaatiga esa zid ravishda bekor qilinayotgan bo'lsa, ma'muriy organ tomonidan majlis o'tkazmagan holda ma'muriy hujjatni bekor qilish mumkin emas.

Ma'muriy hujjat bekor qilingan tadqirda uning asosida berilgan hujjatlar, buyumlar va pul mablag'lari ularga egalik qilayotgan shaxslar tomonidan qaytarib berilishi lozim.



Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, qonun faqatgina ma'muriy hujjatni qabul qilishni emas, balki ma'muriy hujjatning amal qilishini tugatish, uni bekor qilish, o'zgartirish yoki haqiqiy emas deb topish tartibini ham belgilab beradi. Ma'muriy hujjat ma'muriy hujjatni qabul qilgan ma'muriy organ, yuqori turuvchi ma'muriy organ tomonidan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa organlar tomonidan ham bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin. Bunga manfaatdor shaxsning arizasi yoki ma'muriy shikoyati asos bo'ladi.

## **X bob bo'yicha mustaqil tayyorlanish uchun vazifalar Muammolli vaziyat (kazus)**

2017-yil Samarqand viloyati Bulung'ur tumanida yashovchi fuqaro S. Samadovga xizmat davridagi harbiy intizomi, jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik davomida erishgan natijalari hamda jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik dasturlarining o'zlashtirilishiga oid yakuniy baholarni aniqlash maqsadida o'tkazilgan test sinovlarining natijalari inobatga olinib, harbiy qism komandiri tomonidan ushbu harbiy xizmatchining bevosita komandirlari taqdim etgan taqdimnomha va muddatli harbiy xizmatchilarning umumiy yig'ilishida qabul qilingan qarorga asosan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif muassasalariga o'qishga kirish uchun imtiyozli tavsiyanoma berishga qaror qabul qilindi. Tavsiyanoma olgan fuqaro S. Samadov Toshkent moliya institutiga topshirishga qaror qildi.

Lekin 2018-yil may oyida e'tiborsizligi tufayli ushbu tavsiyanomani yo'qotib qo'ydi. Fuqaro S. Samadov tavsiyanomani tiklash bo'yicha Samarqand viloyati Bulung'ur tumani mudofaa bo'limiga murojaat qildi. Samarqand viloyati Bulung'ur tumani Mudofaa bo'limi xodimi N. Fayziev tavsiyanomani tiklash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga murojaat qilishi lozimligini ta'kidlab o'tdi. Bundan norozi bo'lgan S. Samadov sudga shikoyat bilan murojaat qildi.

*Vaziyatga huquqiy baho bering.*

## **X bob bo'yicha nazariy savollar**

1. Ma'muriy hujjatlar deganda qanday hujjatlarni tushunish kerak?
2. Ma'muriy hujjatlarning o'ziga xos qanday xususiyatlari mavjud?
3. Ma'muriy hujjatlarni kimlar qabul qilishi mumkin?
4. Ma'muriy hujjatlar fuqarolarning huquqlariga daxl qilishi mumkinmi? Misollar keltiring.
5. Ma'muriy hujjatlarning yozma tarzda qabul qilinishining qanday ijobiy jihatlari mavjud?
6. Ma'muriy hujjatning shakli va mazmuni o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
7. Ma'muriy hujjatning mazmuniga qanday talablar qo'yilgan?

8. Ma'muriy ixtiyoriylikka asoslangan holda qabul qilinadigan ma'muriy hujjat mazmunan boshqa ma'muriy hujjatlardan qanday farqlanadi?

9. Ma'muriy hujjat amal qilishining tugatilish tartibi qanday?

### X bobni o'zlashtirish bo'yicha KROSSVORD

#### Bo'yiga:

2. Ma'muriy hujjatning mazmuniga qo'yilgan talab.


#### Eniga:

1. Ma'muriy hujjat shakli.

3. Ma'muriy hujjat haqida xabardor etishning zamonaviy usullaridan biri.

4. Ma'muriy hujjatning mazmuniga qo'yilgan talab.

5. Manfaatdor shaxsni xabardor qilish tartiblaridan biri.



## XI bob. MA'MURIY YUSTITSIYA

### 11.1. Ma'muriy yustitsiya tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari

Jismoniy va yuridik shaxslarning davlat boshqaruvida buzilgan huquqlarini tiklashda ma'muriy yustitsiya alohida o'rin tutadi. Yuridik atamalar lug'atiga ko'ra «yustitsiya» (lot. «*justitia*» – odillik, qonuniylik) – o'z faoliyatida odil sudlovni amalga oshiruvchi sud muassasalarini bildiruvchi atama sifatida talqin etilgan<sup>1</sup>.

#### Yodda tuting!

Ma'muriy yustitsiya – davlat organlari va mansabdar shaxslar bilan jismoniy hamda yuridik shaxslar o'rtasida davlat boshqaruvi munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy-huquqiy nizolarni ko'rib chiqish va hal etish tizimidir.

Shu o'rinda ma'muriy nizo tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

**Ma'muriy-huquqiy nizo<sup>2</sup>lar** – bu ma'muriy-huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlar doirasidan kelib chiqadigan ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar hisoblanadi. Ushbu nizolar bir tomonidan davlat organlari, ularning mansabdar shaxslari, ikkinchi tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida yuzaga keladi. Ushbu jihat bilan ma'muriy-huquqiy nizolar boshqa turdag'i yuridik nizolardan farq qiladi.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning ma'muriy-huquqiy xususiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

mazkur turdag'i nizolar davlat organlarining davlat boshqaruvi funksiyalarini amalga oshirishlari bilan bog'liq holda yuzaga keladi;

ma'muriy nizolar ma'muriy-huquqiy munosabatlar doirasida yuridik-hokimiy qarorlarni qabul qilish va ularga nisbatan ikkinchi tarafning noroziligi natijasida yuzaga keladi.

<sup>1</sup> Yuridik atamalar qomusiy lug'ati. – Toshkent: «Sharq», 2003. – B. 394.

<sup>2</sup> Ma'muriy-huquqiy nizoni amaldagi qonun hujjalarda «ommaviy-huquqiy nizolar deb ham nomlanadi.

Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda **ma'muriy-huquqiy nizolarga quyidagicha umumiy tavsif berish mumkin:**

– ma'muriy-huquqiy nizo – bu ma'muriy huquq subyektlarining huquq va majburiyatlarga oid nizolaridir;

– ma'muriy-huquqiy nizo noqonuniy boshqaruv aktini qabul qilish fakti yuzasidan ma'muriy-huquqiy munosabat subyektlaridan birining noroziligi ifodasidir;

– ma'muriy-huquqiy nizolar ijro hokimiyati organi tomonidan boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishi bilan bog'liq holda vujudga keladi. Demak, ma'muriy nizo subyektlaridan biri, albatta, davlat organi yoki mansabdar shaxsi hisoblanadi. Ma'muriy-huquqiy nizolar bir tomondan fuqarolar, ikkinchi tomondan esa davlat boshqaruv organlari o'rtasida yuzaga keladi<sup>1</sup>.

Ma'muriy-huquqiy nizoni quyidagi kazus orqali tushunish mumkin.

#### **Muammoli vaziyat**

Fuqaro U. Toshkent shahar, Sirg'ali tumani, Qo'yliq 5-mavzesi, 2-uy 7-xonadonda tug'ilib, shu kunga qadar shu xonadonda yashab kelgan. Ushbu xonadon egasi (ota) X. bolalar uyi tarbiyalanuvchisi bo'lganligi va mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonida olgan tan jarohatini inobatga olib, Sirg'ali tuman hokimligi tomonidan 1999-yil 6-aprelda ajratilgan. Xonadon egasi ish joyida olgan tan jarohati oqibatida yotib qolgan va keyinchalik vafot etgan. Xonadon egasi (ota) X. vafotidan keyin fuqaro U. Sirg'ali tuman hokimligiga murojaat qilib, u yashayotgan Toshkent shahar Sirg'ali tumani Qo'yliq 5-mavzesi 2-uy 7-xonadonni kommunal uy-joy fondidan turar-joy fondiga o'tkazishni va ushbu xonadonni uning nomiga xususiylashtirib berishni so'rab ariza bilan murojaat qilgan. Lekin Sirg'ali tuman hokimligi arizachi talablarini qanoatlantirishni rad etdi. Arizachi Sirg'ali tuman hokimligining ushbu javob xatidan norozi bo'lib, Sirg'ali tuman hokimligining xatini «g'ayriqonuniy» deb topishni so'rab sudga shikoyat qilgan.

<sup>1</sup> G'. Xakimov. O'zbekistonda ma'muriy yustitsiyani rivojlantirishning muammo-lari. Monografiya. / Mas'ul muharrir: yu.f.d. prof. D.Q. Ahmedov. – T.: TDYul nashriyoti, 2009.

Mazkur kazusda Sirg'ali tuman hokimiyati va fuqaro U. o'rtaida ma'muriy-huquqiy nizo kelib chiqmoqda.

Ma'muriy yustitsianing ikki shakli mavjud: ma'muriy tartib va sud tartibi.

### Ma'muriy yustitsiya

Ma'muriy tartib

Sud tartibi

Keyingi paragraflarda ma'muriy yustitsianing har bir shaklini alohida tahlil qilib chiqamiz.


#### **11.2. Ma'muriy-huquqiy nizolarni hal etishning ma'muriy tartiboti**

Ma'muriy yustitsianing ma'muriy tartibida ma'muriy nizolarni hal etish deganda, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ma'muriy organ yoki ularning mansabdon shaxslari tomonidan qilingan noqonuniy harakat (harakatsizlik) yoki ular tomonidan chiqarilgan g'ayriqonuniy qarorlar ustidan yuqori turuvchi organ yoki maxsus tashkil etilgan organga shikoyat qilish va ko'rib chiqish tushuniladi.

#### **Yodda tuting!**

Ma'muriy-huquqiy nizolarni ma'muriy tartibda hal etishning huquqiy asoslari «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi, «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonunlar va boshqa qonun hujjatlari hisoblanadi.

«Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonunning 5-bobi ma'muriy shikoyat bo'yicha ish yuritishga bag'ishlangan bo'lib, qonunning 62-moddasiga ko'ra ma'muriy shikoyat ma'muriy hujjatlар ustidan, protsessual hujjatlар ustidan, agar ularning ustidan shikoyat qilish ushbu qonunda nazarda tutilgan bo'lsa va ma'muriy harakatlar ustidan, shu jumladan ma'muriy hujjatni qabul qilishni rad etish yoki uni tegishli muddatda qabul qilmaganlik ustidan shikoyat qilinishi mumkin.



Manfaatdor shaxs ma'muriy shikoyatni qonun hujjatlariga muvofiq ma'muriy shikoyatlarni ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan yuqori turuvchi ma'muriy organga yoki boshqa vakolatli ma'muriy organga ustidan shikoyat qilinayotgan ma'muriy hujjatni, protsessual hujjatni qabul qilgan yoxud ma'muriy harakatni amalga oshirgan ma'muriy organ orqali berishi mumkin. Ma'muriy shikoyatni olgan ma'muriy organ u kelib tushgan paytdan e'tiboran uch ish kuni ichida ma'muriy shikoyatni yuqori turuvchi organga yoki ushbu ma'muriy shikoyatni ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan boshqa ma'muriy organga ma'muriy ish bilan birga yuboradi. Manfaatdor shaxs ma'muriy hujjat ustidan berilgan ma'muriy shikoyatni ma'muriy tartibda ko'rib chiqish natijalaridan norozi bo'lgan yoki yuqori turuvchi ma'muriy organ mavjud bo'lmanagan taqdirda, ma'muriy hujjat ustidan sudga shikoyat qilishga haqli.

Agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ma'muriy shikoyat ma'muriy hujjat, protsessual hujjat to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilingan paytdan yoki manfaatdor shaxsga ma'muriy harakat haqida ma'lum bo'lgan paytdan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay berilishi mumkin. Ma'muriy shikoyat berish muddati, agar u uzrli sababga ko'ra o'tkazib yuborilgan bo'lsa, shikoyatni ko'rib chiquvchi ma'muriy organ tomonidan tiklanishi mumkin.

## **Ma'muriy shikoyat yozma, og'zaki yoki elektron shaklda beriladi va unda quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:**

- 1) ma'muriy hujjatni qabul qilgan ma'muriy organning nomi;
- 2) shikoyat bergen arizachining (uning vakilining) familiyasi, ismi, otasining ismi va yashash joyi, yuridik shaxs uchun esa – uning nomi va joylashgan yeri (pochta manzili);
- 3) arizachining talablari;
- 4) ilova qilinayotgan hujjatlarning ro'yxati (mavjud bo'lgan taqdirda);
- 5) ariza berilgan sana.

Ma'muriy shikoyat manfaatdor shaxs yoki uning vakili tomonidan imzolanadi. Agar shikoyat vakil tomonidan berilgan bo'lsa, unga ishonchnomaning yoki vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi boshqa hujjatning ko'chirma nusxasi ilova qilinishi kerak. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida berilgan ma'muriy shikoyatda «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonunda sanab o'tilgan ma'lumotlardan tashqari manfaatlarini ko'zlab shikoyat berilayotgan shaxsning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi) va uning manzili hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa axborot ko'rsatilishi kerak. Qonun hujjatlarida ma'muriy shikoyatga va unga ilova qilinadigan hujjatlarga doir boshqa talablar ham nazarda tutilishi mumkin. Ma'muriy organ ma'muriy shikoyatga va unga ilova qilinadigan hujjatlarga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan talablar qo'yishga haqli emas. Jismoniy shaxs og'zaki shikoyat qilayotganda o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni, yuridik shaxsning vakili esa o'z vakolatlarini tasdiqlaydigan va o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi kerak.

Elektron shaklda beriladigan shikoyatlarda arizachining elektron manzili va yagona identifikatori, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa elektron raqamli imzo va boshqa rekvizitlar ko'rsatilishi kerak. Shikoyatda elektron manzilning ko'rsatilganligi arizachining xabarnomalarini axborot tizimi orqali elektron shaklda qabul qilishga bo'lgan roziligidir.

## **Yodda tuting!**

**Yuqori turuvchi ma'muriy organ yoki boshqa vakolatli organ ma'muriy shikoyat bo'yicha quyidagi qarorlardan birini qabul qilishga haqli:**

- shikoyat qilingan ma'muriy yoki protsessual hujjatni o'zgarishsiz goldirish;
- shikoyat qilingan ma'muriy yoki protsessual hujjatga o'zgarishlar kiritish;
- ma'muriy yoki protsessual hujjatni bekor qilish va zarurat bo'lganda yangi hujjat qabul qilish.

Agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, yuqori turuvchi ma'muriy organ yoki boshqa vakolatli organ ma'muriy shikoyat bo'yicha o'ttiz ish kuni ichida qaror qabul qilishi shart. Ma'muriy shikoyat bo'yicha belgilangan muddatda qaror qabul qilinmagan taqdirda manfaatdor shaxs ma'muriy hujjat, protsessual hujjat yoki ma'muriy harakat ustidan sud tartibida shikoyat qilishga haqli.

### **11.3. Ma'muriy-huquqiy nizolarni hal etishning sud tartibi**

Ma'muriy yustitsiyaning sud tartibida ma'muriy nizolarni hal etish deganda, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ma'muriy organ yoki ularning mansabdor shaxslari tomonidan qilingan noqonuniy harakat (harakatsizlik) yoki ular tomonidan chiqarilgan g'ayriqonuniy qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish va uni ko'rib chiqish tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi «Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish choratadbirlari to'g'risida»gi PF-4850-sonli<sup>1</sup>, 2017-yilning 7-fevralda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli<sup>2</sup> va 2017-yil 21-fevralda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi sud tizimi

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-yil, 43-son, 497-modda.

<sup>2</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018-y., 06/18/5483/1594-son.

tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4966-sonli Farmon'larda ham aynan sndlarni yanada ixtisoslashtirish va ma'muriy sndlarni tashkil etish bilan bog‘liq vazifalar belgilandi. Bu borada huquqshunos Mirafzal Miroqilov quyidagilarni ta'kidlab o‘tgan: «Har qanday huquqni belgilash, agarki ularni amalga oshirishning real kafolatlari ta'minlanmasa, kutilgan natijani bermaydi. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishning turli kafolatlari mavjud. Huquqiy kafolatlarning eng muhimi – bu shaxsning sud orqali himoya qilinish huquqini ta'minlashdir. Bu borada muhim qadam fuqarolik, jinoyat ishlari bo'yicha sndlар va xo'jalik sndlaring vakolatlarini qayta ko'rib chiqish yo'li bilan ma'muriy sndlarni tashkil etish hisoblanadi».

Milliy va xorijiy tajribadan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ma'muriy yustitsiya maxsus sudlov shakli asosida davlat organlari va mansabdar shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari (harakatsizligi) ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiquvchi va noqonuniy aktni bekor qilishga qaratilgan faoliyatni o‘z ichiga olgan institutdir va davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlashda juda muhimdir.

Aytishimiz mumkinki, zamonaviy ma'muriy huquq fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadida ijro hokimiyati va shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Agar shu nuqtayi nazardan yondashilsa, davlat apparatinining faoliyati qonun bilan qat’iy belgilangan doirada tashkil etilishi lozim. Ular qabul qilayotgan aklari orqali fuqaro bilan munosabatga kirishar ekan, mazkur hujjatlarning qonuniy va adolatli bo‘lishi muhimdir.

Shu narsa ayonki, bugungi kunda fuqarolarning aksariyati davlat organi yoki mansabdar shaxsning soliq, mehnat, tadbirkorlik, uyjoy, ruxsat berish va litsenziyalash borasidagi qarorlaridan shikoyat qilishmoqda. Aynan shu kabi munosabatlarni ommaviy-huquqiy munosabat deb tushunishimiz, shuningdek, ma'muriy sndlар bir tarafda, albatta, davlat organi yoki mansabdar shaxs bo‘lgan va davlat hokimiyati vakolatlaridan kelib chiqadigan nizolar predmet bo‘ladigan ishlarni ko'rib hal qilishini e'tiborga olishimiz kerak.

Ta'kidlash joizki, har qanday nizoni ko'rib chiqib adolatli tarzda hal etishda ikki jihatga e'tibor qaratish lozim. Ularning birinchisi –

<sup>1</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.09.2017-y., 06/17/5195/0033-son.

nizo ma'muriy organning qaysi qonun hujjatiga zid xatti-harakati yoki qarori natijasida vujudga kelganini to'g'ri aniqlash hamda sudda nizoni ko'rib chiqib hal etishning qonuniy talablariga qat'iy rioya qilishdir. Ikkinchi jihatning ahamiyati juda katta. Zero, sudlar ma'muriy ishlarni faqat qonunga bo'ysungan holda ko'rib chiqishlari lozim. Bu, eng avvalo, Konstitutsiyada belgilangan qat'iy prinsipdir.

Shu munosabat bilan, 2018-yil 25-yanvar kuni ma'muriy sudlar tomonidan ma'muriy ishlarni ko'rib chiqib hal etishga doir munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan alohida O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy ishlarni yuritish to'g'risidagi kodeks<sup>1</sup> qabul qilindi. Kodeksning 2018-yil 1-apreldan e'tiboran kuchga kirishi alohida belgilab qo'yildi. Kodeks 288 moddani qamrab olgan 29 bob va IV bo'limdan iborat.

### **Yodda tuting!**

Ma'muriy-huquqiy nizolarni sud tartibida hal etishning huquqiy asosi – O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksidir.

Kodeks qabul qilinishining amaliy ahamiyati shundaki, endilikda ma'muriy ishlarni sudlar tomonidan ko'rib chiqish fuqarolik ishlari singari fuqarolik protsessual qonunchiligiga asoslanib emas, balki ma'muriy ishlarni yuritishga doir alohida qonunchilik bilan tartibga solinadigan bo'ldi. Ya'ni ma'muriy sudlar ma'muriy ishlarni alohida protsessual qonunchilikka tayangan holda ko'rib chiqadi. Bu shuni anglatadiki, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks mazmun-mohiyatiga ko'ra fuqarolik protsessual qonunchiligidan farq qiladi. Xususan, agar fuqarolik protsessida da'vo ishining taraflari protsessning istalgan bosqichida kelishuv bitimi tuzish orqali ishni yakunlashga haqli bo'lsalar, ma'muriy sud ish yurituvida taraflar bunga haqli emaslar. Bu esa davlat organlari va mansabdor shaxslarning fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari daxldor bo'lgan qarolarni har tomonlama puxta o'ylagan holda qabul qilishlariga olib keladi. Pirovard natijada, davlat va jamiyat hayotida qonuniylilikning mustahkamlanishiga erishiladi.

<sup>1</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.01.2018 y., 02/18/MPK/0627-son.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishning xususiyatlari inobatga olingan holda qabul qilingan. Bu ayni kodeksning 2-moddasida mustahkamlab qo'yilgan ma'muriy sud ishlarini yuritish vazifalarida aniq namoyon bo'ladi. Bular ma'muriy organlar bilan munosabatlarda qonun ustuvorligini, fuqarolar, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash; ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlar sohasida fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish; ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlar sohasida qonuniylikni mustahkamlash hamda huquqburzarliliklarning oldini olishga ko'maklashish; qonunga va sudga nisbatan hurmat munosabatini shakllantirishdir.

Kodeksning 8–16-moddalarida ma'muriy sud ishlarini yuritishda muhim bo'lgan odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi, qonun va sud oldida tenglik, sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishi, taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi, ma'muriy sud ishlari yuritiladigan til, sud muhokamasining oshkorali, sud muhokamasining bevositaligi, ma'muriy ishlarni qonun hujjatlari asosida hal qilish, sud hujjatlarining majburiyligi kabi to'qqizta prinsip keltirib o'tilgan.

### **Yodda tuting!**

#### **Ma'muriy sudlar tomonidan hal etiladigan ishlar jumlasiga quyidagilar kiradi:**

1) idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlar;

2) davlat boshqaruvi organlarining, ma'muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa organlarning, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining qonun hujjatlariga mos kelmaydigan hamda fuqarolar yoki yuridik shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi;

3) saylov komissiyalarining xatti-harakat (qaror)lari yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlar;

- 4) notarial harakatni amalga oshirish, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozishni ro'yxatga olish rad etilganligi yoki notariusning yoxud fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi mansabдор shaxsining harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlar;
- 5) davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish yoxud belgilangan muddatda davlat ro'yxatidan o'tkazishdan bo'yin tovlash ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlar
- 6) investitsiya nizolari bo'yicha;
- 7) raqobat to'g'risidagi nizolar bo'yicha ishlar.

Biroq shuni alohida qayd etish lozimki, sud fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan, qonun bilan o'zining vakolatiga kiritilgan boshqa ishlarni ham hal qiladi.

Yuqoridagi ro'yxatdan shu narsa ayon bo'ladiki, ma'muriy sud ish yuritushi orgali nafaqat ma'muriy huquqdan kelib chiqadigan, balki shu bilan bir qatorda fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquqlari buzilishiha daxldor bo'lgan ishlar ham ko'rib chiqiladi. Kodeksda ular bitta atama, ya'ni «ma'muriy ish» deb ataladi.

Ma'muriy ishlarning sudlovga tegishliligi masalasi ham muhimdir. Umumiy qilib aytganda, sudga taalluqli ishlar tuman (shahar) ma'muriy sudlari tomonidan ko'riladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar ma'muriy sudi esa birinchi instansiya sudi sifatida davlat siri bilan bog'liq bo'lgan ishlarni ko'radi. Biroq shunga qaramay, mazkur sudlar alohida holatlarga qarab, har qanday ishni tuman (shahar) sudidan olib qo'yishga va uni birinchi instansiya bo'yicha o'zining ish yurituviga qabul qilishga, ishni bir suddan boshqasiga o'tkazishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudloviga esa idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan nizolashish to'g'risidagi hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi xatti-harakatlari (qarorlari) yuzasidan nizolashish haqidagi ishlarni ko'rib chiqish kiradi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi alohida holatlarga qarab, har qanday ishni istalgan ma'muriy suddan olib qo'yishga va uni birinchi instansiya bo'yicha o'zining ish

yurituviga qabul qilishga, ishni bir suddan boshqasiga o'tkazishga haqli ekanini aytib o'tish lozim. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi harbiy sudlari ham qonun bilan o'z vakolatiga kiritilgan ma'muriy ishlarni ko'rib chiqadi.

Ma'muriy sudlar tomonidan hal etiladigan ishlarga taalluqli ishlarni tushunib olish uchun quyidagi kazusni tahlil qilish mumkin.

### Muammoli vaziyat

Toshkent shahar N. ko'chasidagi 54-uy fuqaro S. Rahmonovga tegishli bo'lib, u 2011-yil 15-aprelda vafot etgan. Uning vafotidan keyin qolgan yuqorida ko'rsatilgan mol-mulkka nisbatan merosxo'rlar topilmaganligi sababli mazkur xonodon qarovsiz qolib ketgan. 2017-yilning avgust oyida shahar hokimligi vakili ishtirokida o'tkazilgan mahalla fuqarolar yig'ini majlisida S. Rahmonovga tegishli bo'lgan uyning ancha vaqtidan buyon qarovsiz holda ekani aytildi. Bundan boxabar bo'lgan shahar hokimi S. Rahmonovga tegishli bo'lgan uyni egasiz mulk deb topish hamda uni davlat hisobiga o'tkazish haqida qaror qabul qildi. Toshkent shahar hokimining qaroridan norozi bo'lgan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi raisi Toshkent shahar ma'muriy sudiga arizasi bilan murojaat qildi. Toshkent shahar ma'muriy sudi arizasini o'rganib chiqdi va unda keltirilgan vajlar bevosita fuqarolik huquqiga tegishli bo'lgani sababli ishni ma'muriy sudning sudloviga taalluqli emas deb hisoblab arizani qabul qilib olishni rad etdi.

Yuqoridagi muammoli vaziyatdagi nizo ma'muriy sud ish yurituviga taaluqlidir. Mazkur holatda asosiy urg'uni Toshkent shahar hokimining qaroriga qaratish lozim, ya'ni hokim qarorining mazmuni fuqarolik huquqiy munosabatga oid bo'lsa-da, arizachi hokim qaroridan norozi bo'lmoqda.

Ma'muriy ishlar birinchi instansiya sudida yuqoridagi sudlar tomonidan qo'zg'atiladi. Bunga manfaatdor shaxslarning yoki prokurorning yoxud davlat organlari va boshqa shaxslarning arizalari asos bo'ladi.

Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning yana bir muhim jihat shundaki, unda isbotlash majburiyati aniq belgilab qo'yilgan. Kodeksning 67-moddasiga ko'ra ishda ishtirok etuvchi har bir shaxs o'z talablari va e'tirozlariga asos qilib keltirayotgan holatlarni isbotlab berishi lozim. O'zbekiston Respublikasining

Konstitutsiyasi 2-moddasida mustahkamlangan muhim prinsip davlat organlari va mansabdar shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldidagi mas'ulligi inobatga olinib ma'muriy organlarning nizolashilayotgan hujjalarning, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari qarorlarining, ular mansabdar shaxslari harakatlari (harakatsizligi)ning qonuniyligini isbotlash majburiyati tegishli organlar va mansabdar shaxslar zimmasiga yuklatiladi. Shuningdek, mazkur organlar va mansabdar shaxslar o'z e'tirozlariga asos qilib keltirayotgan faktlarni ham tasdiqlashi shart. Bunday qoidaning o'rnatilishi sudgacha bo'lgan jarayon ma'muriy tartib-taomillarda davlat organlari va mansabdar shaxslarning jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan qarorlarni qonuniylik prinsipiiga tayangan holda qabul qilishlari, buning aksi bo'lgan taqdirda esa sud oldida javob berishlarini his qilishga chorlaydi.

Buning natijasida Konstitutsiya va qonunning ustunligi ta'minlanishi, davlat organlari va mansabdar shaxslarning jismoniy va yuridik shaxslar bilan davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq ma'muriy-tartib taomillarga doir munosabatlarga kirishish jarayonida ularning huquq va erkinliklarini hurmat qilishlari, pirovard natijada, davlat organlarining xalqimizga samarali xizmat qilishiga erishish mumkin.

Ma'muriy sudlar tomonidan qabul qilingan sud qarorlari apellyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko'rib chiqilishi mumkin. Bunda protsessual muddatlarga alohida e'tibor qaratish lozim. Ma'muriy ish birinchi instansiya sudi tomonidan ishni sud muhokamasiga tayyorlash to'g'risidagi ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran bir oydan oshmagan muddatda tugallanishi kerak. Alohida hollarni inobatga olib sud muhokamasining muddati sud raisi tomonidan bir oydan oshmagan muddatga uzaytirilishi mumkin. Shuningdek, saylov komissiyasining xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat sud tomonidan shikoyat berilgan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay ko'rib chiqilishi, agar saylovga olti kundan kam vaqt qolgan bo'lsa, darhol ko'rib chiqilishi lozimligi alohida belgilab qo'yilgan.

Ma'muriy sud ish yurituvi to'g'risidagi kodeksda sudlarda ishlarni ko'rib chiqishning zamонавиу texnologiyalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bunda sud majlisi videokonferensaloqa rejimida

o'tkazilishi mumkinligi qayd qilingan. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning va odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslarning videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida ishtirok etish huquqi birinchi, Apellyatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyalari sudlarining sud majlisida amalga oshirilishi mumkinligi fuqarolarning ortiqcha sarson bo'lishlari, sudga qatnash bilan bog'liq ortiqcha xarajatlarga duch kelishlarining oldini oladi.

Xulosa o'rnila aytish mumkinki, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks mamlakatimizda fuqarolarning ma'muriy organlar tomonidan putur yetkazilgan huquq va qonuniy manfaatlarini odil sudlov yo'li bilan tiklash orqali inson huquqlarini himoya qilish hamda davlat boshqaruvi va boshqa ma'muriy organlar faoliyati ustidan sud nazoratini amalga oshirish orqali ularning kundalik hayotida qonuniylikka rioya etishiga mustahkam zamin yaratadi.

#### **11.4. Xorijiy mamlakatlarda ma'muriy yustitsiya**

##### **Xorijiy mamlakatlarda ma'muriy yustitsiyaning quyidagi shakllari mavjud:**

1. Ma'muriy yustitsiyaning umumiyligi sudlov shakli. Ushbu tizimning mohiyati shundaki, ijro hokimiyati ustidan sud kontroli umumiyligi yurisdiktsiya sudlari tomonidan fuqarolik protsessual qoidalari asosida amalga oshiriladi.

2. Ma'muriy yustitsiyaning maxsus sudlov shakli. Ushbu tizimda ma'muriy sudlar ijro organlaridan ham, shuningdek, sud organlaridan ham mustaqil hisoblanadi. Shuningdek, ushbu organlar davlatning yagona sud tizimiga kiruvchi to'laqonli sud organlari hisoblanadi. Shuningdek, ular maxsus organ hisoblanib, faqat ma'muriy-huquqiy nizolarnigina hal etadi.

3. Ma'muriy yustitsiyaning kvazi sudlov shakli. Bunday tizimga ko'ra ma'muriy yustitsiya organlari ijro hokimiyati organlari tizimi tarkibida tashkil etiladi va sud organlaridan mustaqil hisoblanadi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> G'. Hakimov. O'zbekistonda ma'muriy yustitsiyani rivojlantirishning muammolari. Monografiya // Mas'ul muharrir: yu.f.d. prof. D.Q. Ahmedov. – T.: TDYul nashriyoti, 2009.

**Ma'muriy  
yustitsiyaning  
umumi y sudlov  
shakli**



**Ma'muriy  
yustitsiyaning  
maxsus sudlov  
shakli**



**Ma'muriy  
yustitsiyaning  
kvazi sudlov  
shakli**



Buyuk Britaniya,  
AQSh, Avstraliya,  
Kanada, Hindiston,  
Belgiya, Daniya,  
Norvegiya va Yaponiya

Germaniya, Avstriya,  
Finlyandiya va  
O'zbekiston

Fransiya,  
Portugaliya  
va Gretsiya

Ma'muriy yustitsiyani tashkil etishning nemis modeli davlat boshqaruvida yuzaga keladigan ma'muriy nizolarni ko'rib chiqish uchun ixtisoslashtirilgan sndlarning tashkil etilganligi bilan ajralib turadi. Bu yerda ma'muriy yustitsiya sndlari mamlakatning yagona sud tizimi tarkibiga kiradi va faqat qonunga bo'ysunadi. Ular odil sudlovni amalgalashirishda ma'muriy organlar va umumi y sndlardan mustaqildirlar.

Rossiya Federatsiyasida ma'muriy yustitsiyaning umumi y sudlov shakli amal qiladi. Ushbu tizimning mohiyati shundaki, ijro hokimiyati ustidan sud nazorati umumi yurisdiktsiya sndlari tomonidan fuqarolik protsessual qoidalari asosida amalgalashiriladi.

Rossiya Federatsiyasida sndlар boshqa davlat organlari, jumladan, qonun chiqaruvchi hamda ijro etuvchi organlardan mustaqil tarzda o'z faoliyatini olib boradi. «Umumi y sndlар davlat organlarini muayyan harakatlarni amalgalashirishga majburlovchi qarorlar qabul qila oladilar, ko'pgina davlatlarning ma'muriy sndlari esa bunday vakolatga ega emaslar». Rossiya sud shakli boshqa mamlakatlar sudlov shakllaridan o'zining umumi y xarakterga ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Shu boisdan ham, bu sudlov shakli nisbatan MDH mamlakatlari sudlov shakllariga yaqin hamda ma'muriy sud ishini yuritish bosqichlari ham bir-biriga juda ham o'xshash hisoblanadi.

Ma'muriy yustitsiya tashkil etilishining fransuzcha shakli ma'muriy tizimning eng «ko'hna»si hisoblanadi. Binobarin, aynan Fransiya ma'muriy-huquqiy nizolarni maxsus organlar tomonidan hal etish amaliyotiga tamal toshi qo'yilgan mamlakat hisoblanadi.

Ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni yuqori turuvchi yoki maxsus vakolatli organ, komissiyalar, kengashlar (keyingi o'rirlarda vakolatli organ) tomonidan sudgacha ko'rib chiqish tartibini joriy etilishi yuzasidan turli xorijiy mamlakatlarda turlicha yondashuv va amaliyotlar mavjud.

Jumladan, Ozarbayjon va Armaniston kabi davlatlarda ma'muriy ishlarni sudda ko'rib chiqilishi uchun vakolatli organlarda dastlabki tarzda ko'rib chiqish talab etilmaydi. Latviya (Latviya Ma'muriy-protsessual Qonuning 78-moddasi) va Germaniya Federativ Respublikasining ayrim subyektlarida (Germaniya Ma'muriy-protsessual kodeksining 68-moddasi) esa aksincha, arizachi sudga murojaat qilishdan oldin tegishli masala vakolatli organda ko'rib chiqilishi shart. Shu bilan birga, ma'muriy ishni ko'rib chiqishni dastlab sudgacha tartibda ko'rib chiqish yoki bevosita sudda amalgalashirishni arizachining ixtiyoriga qoldirilishi esa O'zbekiston va Bolgariya (Bolgariya Ma'muriy-protsessual kodeksining 81-moddasi) kabi davlatlarning qonunchiligidagi o'z aksini topgan.

## **XI bob bo'yicha mustaqil tayyorlanish uchun vazifalar Muammoli vaziyat (kazus)**

### **1-masala**

Eskirgan uyda yashovchi fuqaro S. Ahmedov yangi uy-joyga ega bo'lish maqsadida ko'p kvartirali uylardagi kvartiralarni yashash sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan jismoniy shaxslarga biriktirish masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha Toshkent shahar Olmazor tumani hududiy komissiyasiga tegishli hujjatlarni topshirmoqchi bo'ldi. S. Ahmedov 2017-yil 15-fevral kuni uy-joyning texnik holati to'g'risidagi kadastr ma'lumotnomasini olish maqsadida Olmazor tumani Yer resurslari va davlat kadastro bo'limiga murojaat qildi. S. Ahmedovga hozirda bo'limda ishlar juda ko'pligi, undan oldin ko'plab fuqarolar ayni shu masalada murojaat etganliklari aytildi. Shu sababli unga keyinroq idoraga kelib uchrashish lozimligi ma'lum qilindi. Ammo keyinchalik S. Ahmedov belgilangan sanada Olmazor tumani Yer resurslari va davlat kadastro bo'limidan murojaatiga javoban hech qanday ma'lumotnomasi ololmadidi. S. Ahmedov noiloj tegishli hujjatlarni eskirgan uyining texnik ma'lumotnomasisiz hududiy komissiyaga topshirdi. O'rganish natijalari bo'yicha hududiy

komissiya S. Ahmedovga ko‘p kvartirali uydagi kvartirani biriktirishni rad etish to‘g‘risidagi protokol qarorini qabul qildi. Qarordan norozi bo‘lgan S. Ahmedov Olmazor tuman ma’muriy sudiga ariza bilan murojaat qildi. Olmazor tuman ma’muriy sudi arizasida ko‘rsatilgan javobgar ko‘p kvartirali uylardagi kvartiralarni yashash sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan jismoniy shaxslarga biriktirish masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha Toshkent shahar Olmazor tuman hududiy komissiyani Olmazor tumani Yer resurslari va davlat kadastro bo‘limiga almashtirishmoqchi bo‘ldi. Bu haqida S. Ahmedovga ma’lum qilindi. Biroq S. Ahmedov bunga rozilik bermadi.

*Vaziyatga huquqiy baho bering.*

## **2-masala**

2017-yil 20-may kuni fuqaro B. Rustamov bandlik masalasida Mehnat vazirligining Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani bo‘limiga qilgan murojaatiga javoban mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari duch keldi. B. Rustamov 2017-yil 22-may kuni mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari ustidan Mirzo Ulug‘bek tumani Ma’muriy sudiga ariza bilan murojaat qildi. 2017-yil 24-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish choratadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5052-sonli Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi etib qayta tashkil etildi. Yangi tayinlangan vazirning sohada olib borayotgan siyosati natijasida tizimda kadrlar o‘rtasida o‘tkazilgan rotatsiya tufayli B. Rustamovning huquqlarini buzgan mansabdor shaxslar vazirlikning boshqa bo‘limiga ishga o‘tkazildi. Sud arizasida javobgar sifatida ko‘rsatilgan Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani bo‘limini huquqiy vorislik tartibida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani bo‘limiga almashtirish haqida ajrim chiqardi. Buning natijasida B. Rustamov sud ajrimidan keskin norozi bo‘ldi. Suddan huquqiy voris sifatida uning huquqlarini buzgan mansabdor shaxslarni jalb etishni talab etdi.

*Vaziyatga huquqiy baho bering.*

## **XI bob bo'yicha nazariy savol va topshiriqlar**

1. Ma'muriy yustitsiya tushunchasini tahlil qiling.
2. Ma'muriy-huquqiy nizoning o'ziga xos xususiyatlarini nima?
3. Ma'muriy-huquqiy nizolarni hal etishning ma'muriy tartibotini tushuntirib bering.
4. Ma'muriy-huquqiy nizolarni hal etishning sud tartibotini tahlil qiling.
5. Ma'muriy yustitsiyaning xorijiy mamlakatlarda qanday shakllari mavjud?


## **XI bobni o'zlashtirish bo'yicha KROSSVORD**

### **Bo'yiga:**

1. Nizolarni hal etish tartiblaridan biri.

### **Eniga:**

2. Xorijiy mamlakatlarda ma'muriy yustitsiyaning shakllaridan biri.
3. Ma'muriy nizolarni hal etishning tartiblaridan biri.
4. «Yustitsiya» so'zining ma'nolaridan biri.



## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **O‘quv adabiyotlari:**

1. Административное право (Общая часть) И.А. Хамедов, Л.Б. Хван, И.М. Цай. 2012 г. Т.: Изд-во «Konsoulauditinform-Nashr». – 592 с.
2. Ma’muriy huquq: Darslik: to’ldirilgan 4-nashr. O‘.X. Muxamedov, I.A. Xamedov, N.T. Ismailov va boshq; – T.; O’zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi, 2017. – 524 b.
3. Административное право Республики Узбекистан: Учебник для юридических вузов // Авт. коллектив: Х.Р. Алимов, Л.И. Соловьева и др. – Т.: «Адолат», 1998. – 483 с.
4. Бахрах Д.Н. Административное право России. Учебник для вузов. – М.: «НОРМА», 2000. – 678 с.
5. Габричидзе Б.Н., Елисеев Б.П. Российское административное право. Учебник для вузов. М.: Издательская группа «НОРМА-ИНФРА М», 1998. – 451 с.
6. Алехин А.П., Кармoliцкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право Российской Федерации. Учебник. – М.: Издательство «ЗЕРЦАЛО», 1996. – 621 с.
7. Старилов Ю.Н. Служебное право: Учебник. – М.: БЕК, 1996. – 328 с.
8. Д.Н. Бахрах. Административное право России. Учебник для вузов. – М.: «НОРМА», 2002. – 541 с.
9. А.А. Ли. Государственная служба. Учебное пособие. – Т.: ТГЮИ, 2008. – 173 с.
10. Миренский Б.А. Правоохранительные органы Республики Узбекистан. Учебник для юридических вузов. – Т.: «Адолат», 1998. – 240 с.
11. Сорокин В.Д. Проблемы административного процесса. – М.: Юрид лит. 1968.
12. Л.Б. Хван Административное право Республики Узбекистан. Особенная часть. Курс лекций. Т.: «KONSAUDITINFORM-NASHR». 2010 – 504 с.
13. Теория государства и права. Учебник для юридических вузов и факультетов. Под ред. В.М. Королевского и В.Д. Перевалова – М.: Издательская группа «НОРМА» – ИНФРА – М, 1998. – 652 с.

### **Ilmiy manbalar:**

1. Б.М. Лазарев. Компетенция органов управления. – М.: Юрид. Лит., 1972. – С. 53.
2. Г. Еллинек. Общее учение о государстве. – Спб.: Изд-во «Юридический Центр Пресс», 2004. – С. 592.
3. R.S. Larch. Democratic process and administrative law. Rev. ed. – Detroit: Wayne state univ press, 1980. Р. 23.
4. Л. Брокер. Инквизиционный принцип в административном праве (административная процедура и административный процесс) // Ежегодник публичного права – 2018: Принципы административных процедур и административного судо-производства – М.: «Инфотропик Медиа», 2018. – 378 с.
5. Й. Пуделька Общие принципы административного производства // Ежегодник публичного права 2018: Принципы административных процедур и административного судо-производства. – М.: «Инфотропик Медиа», 2018. – 284 с.
6. Я. Цико. Основы законодательства об административных процедурах в Германия. Ежегодник публичного права – 2014. – М. 480 с.
7. Давыдов К.В. Принципы административных процедур: сравнительно-правовое исследование // Актуальные вопросы публичного права. – 2015. № 4 (34). – 249 с.
8. Богданци А. фон, Хубер П.М. Государство, государственное управление и административное право в Германии // Дайджест Публичного Права. – 2014. № 1 (3). – 464 с.
9. Моше Коэн-Элия, Иддо Порат. Американский метод взвешивания интересов и немецкий тест на пропорциональность: исторические корни // Сравнительное конституционное обозрение. 2011. № 3 (82). – 345 с.
10. Galligan, D. J. Discretionary Powers. Oxford: Clarendon Press. Published to Oxford Scholarship Online: March 2012.
11. Breyer, S. G.; Stewart, R. B.; Sunstein, C. R.; Spitzer, M. L. Administrative Law and Regulatory Policy. New York: «Aspen Law and Business», 1998.

### **Normativ-huquqiy hujjatlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // «Xalq so‘zi» gazetasi, 1992-yil 15-dekabr, 243 (494)-son.

2. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-yil, 52-I-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-yil, 3(I)-son, 31-modda.
4. O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 15-iyundagi «Arxiv ishi to'g'risida»gi O'RQ-252-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-yil, 24-25-son, 192-modda.
5. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi O'RQ-457-sonli Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.01.2018-y., 03/18/457/0525-son.
6. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 5-maydagi «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi O'RQ-369-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-yil, 19-son, 209-modda.
7. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyuldagagi «Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida»gi 701-sonli Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2021-y., 03/21/701/0674-son.
8. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 11-modda // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019-y., 02/19/SK/4256-son.
9. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagagi «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi 670-I-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, 1998-yil, 9-son, 170-modda.
10. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'RQ-419-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 1-son, 2-modda.
11. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 7-dekabrdagi «Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida»gi 312-II-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, 2002-yil, 1-son, 12-modda.
12. O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 3-yanvardagi «Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-yil, 1-2-son, 2-modda.

13. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi O'RQ-407-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-yil, 38сон, 438-modda.

14. O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 26-dekabrdagi «Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida»gi O'RQ-195-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-yil, 52-son, 511-modda.

15. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagи «Prokuratura to'g'risida»gi 257-II-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-yil, 9-10-son, 168-modda.

16. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagи «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi 474-I-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 9-son, 232-modda.

17. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktabrdagi «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi O'RQ-502-sonli Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2018-y., 03/18/502/2068-son.

18. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi 913-XII-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, 9-son, 320-modda.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralndagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 4947-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi PF-5635-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.01.2019-y., 06/19/5635/2502-son.

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevralndagi «O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyatni samaradorligini oshirish chora-

tadbirlari to'g'risida» PF-4966-sonli Farmoni // «Xalq so'zi», 2017-yil, 38 (6732)-son.

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabr-dagi «O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5185-sonli Farmoni // «Xalq so'zi», 2017-yil, 180(6874)-son.

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 9-dekabrdagi «Respublika Davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida» PF-3358-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi axborotnomasi, 2003-yil, 11-12-son, 178-modda.

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-oktabrdagi «Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi PF-4853-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-yil, 43-son, 498-modda.

25. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-oktabrdagi «Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi PQ-2646-sonli qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-yil, 45-son, 522-modda.

26. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 5-martdag'i «Mansabdor shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish choralarini to'g'risida»gi PQ-2142-sonli qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-yil, 10-son, 103-modda.

27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-yanvar-dagi «Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5643-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.01.2019-y., 06/19/5643/2545-son.

28. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-maydag'i «O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-3016-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi to'g'risidagi nizom // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 22-son, 425-modda.

29. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 8-iyundagi «Sog'liqni saqlash tizimida eksperimentni tugallash va

ishohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 264-sonli qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004-yil, 22–23-son, 265-modda.

30. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-maydagi «Qonun hujjatlari buzilganligi uchun ushlangan transport vositalarini to‘xtash joylariga olib kelish, joylashtirish va suqlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 149-sonli qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-yil, 20–21-son, 207-modda.

31. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 1066-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizom // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 31.12.2018-y., 09/18/1066/2428-son.

### **Boshqa adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi // Nashr uchun mas’ul R.A. Muhiddinov va boshq.; mas’ul muharrir N. Toychiev, – T.: «Adolat», 2010. – 130 b.

2. Юридический словарь // Под ред. А.Н. Азрилиана. – М.: Институт новой экономики, 2007, – С. 835.

3. Словарь административного права // Колл. Авт. – М.: Фонд правовой культуры, 1999, – 196 с.

4. Yuridik atamalar qomusiy lug‘ati. – Toshkent: «Sharq», 2003. – 394 b.

5. Большой юридический словарь. – Litres, 2020.

### **Internet materiallari:**

1. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на двадцатом пленарном заседании Сената Олий Мажлиса состоявшегося 20 июня 2019 года.

2. Bir yilda hokimlarning nechta qarori bekor qilingan? <http://www.xabur.uz/huquq/bir-yilda-hokimlarning-nechta>.

3. Samarqandda o‘tgan yil davomida hokimlar chiqargan qarorlarning 60 tasi bekor qilingan <https://kun.uz/37900415>.

MURATAYEV SERIKBEK ALPAMISOVICH  
MUSAYEV BEKZOD TURSUNBOYEVICH  
ARTIKOV DILMUROD AXMATILLAYEVICH

# MA'MURIY HUQUQ VA PROTSESS

## DARSLIK

*Ikkinci nashr*

*O'zbek tilida*

**«Yuridik adabiyotlar publish» MCHJ.**

Nashr. lis. AA № 0042, 27.01.2020.

Toshkent shahri, Chilonzor tumani,  
Muqimiy ko'chasi, 100/25.

Telefonlar: +99899 554-70-70,  
+99893 554-63-70.

Rasmiy veb-sayt: [www.kodeks24.uz](http://www.kodeks24.uz)

Elektron manzil: [info@kodeks24.uz](mailto:info@kodeks24.uz)

Bosishga ruxsat etildi 16.11.2022-y.

Qog'oz bichimi 60x90 1/16.

"Antiqua" garniturası.

Ofset usulida chop etildi.

Bosma tabog'i 24,5.

Nashriyot hisob tabog'i 22,0.

Adadi 300 nusxa. 029-buyurtma.

"MasterBooks" MCHJ bosmaxonasida  
chop etildi. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Xushtepa ko'chasi, 22-a.



<https://t.me/yuridikadabiyotlar>



ISBN 978-9943-8010-0-4

9 789943 801004



Yuridik  
Adabiyotlar  
Publish